O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZMOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

# "RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV MASALALARI"

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



**Toshkent**
**2024-yil 4-oktyabr**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZMOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI**

# "RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV MASALALARI"

**mavzusidagi respublika**
**ilmiy-amaliy anjumani**
**I-qism**



« **Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’limga innovatsion yondashuv masalalari** » mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (4 oktyabr 2024 yil) – T.: TDPU, 2024.

Ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida Respublikamiz olimlari, soha mutaxasislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar, talabalarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

**Taqrizchilar:**

A.A.Xalikov - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.

X.R.Sanakulova - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi.

**Muharrir:**

M.I.Toshpulatova- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD.

To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldirlar.

Ushbu to‘plam Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2024 yil 19- oktyabrdagi 10-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

# SO‘Z BOSHI

So‘nggi yillar davomida barcha sohalarda bo‘lgani kabi uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator strategik islohotlar amalga oshirildi.

Jahonda o‘quvchilar uchun hayotiy zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ularda ijtimoiy kompetentlilikni tarkib toptirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda Xalqaro tashkilotlar tomonidan “Ta’lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” deb e’tirof etish munosabati bilan o‘quvchilar kompetensiyasini baholash xalqaro dasturi (PIAAC), o‘quvchilar bilimini baholash (PISA), texnologiya ta’limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etishni baholashda (STEM)dan foydalanish hamda kasbiy mahoratni shaxs sifatlari bilan uyg‘unlashtirish, turli o‘zgarishlarga tez moslashish, integrativ o‘qitish texnologiyasini ta’lim jarayonlariga izchil joriy etish hamda loyihalashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini yangilash, o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy-madaniy dunyoqarashi bo‘yicha faoliyatli kompetensiyaviy yondashuvlar, muammoli o‘qitish hamda tadqiqotchilik faoliyatiga o‘rgatish, zamonaviy ta’limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan tub islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tendensiyalar va texnik konstruksiyalash va modellashtirishga oid fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni mazmunan takomillashtirish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta’limtarbiya borasidagi ta’limiy trayektoriya muzmunining boyishiga yo‘naltirilgan vazifalarning muhim yo‘nalishi namunali dunyoqarashga ega, faoliyatga doir kompetensiyalarni yuqori darajada egallagan, jamiyat ravnaqi hamda shaxs kamolati uchun xizmat qiladigan, rivojlanish istiqbollarini mas’uliyat bilan belgilovchi kadrlar tayyorlash masalasiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta’lim tizimlarida bilimlarni nazorat qilishning ikki tamoyilidan foydalaniladi: o‘rganuvchining mavzu predmet sohasida bilimlari va talabalarning harakatlarini baholash qoidalari asosida uning harakatlarini baholash va bilim darajasini aniqlash; tanlab olingan maxsus vazifalar to‘plami va talabaning ularga bergan javoblari bo‘yicha standartlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish.

Toshkent davlat pedagogika universitetida 2024 yil 4-oktyabr kuni «Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’limga innovatsion yondashuv masalalari» mavzusida tashkil etilgan xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ushbu belgilangan vazifalarning nazariy asoslari va amaliy jihatlari atroflicha muhokama etildi.

Mazkur to‘plam ushbu konferensiya materiallari asosida shakllantirilgan.

**Tashkiliy qo‘mita**

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Abdullayeva B.S. –Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, p.f.d., professor, TDPU.**

Axborot jamiyatiga o'tish sharoitida ta'limga asoslangan noan'anaviy maktab modeli ijtimoiy buyurtmaga asosan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi. Axborot ta'lim sharoitida axborot barcha turlari hajmining keskin o'sishi bilan har bir yangi avlod umuman o'zgacha bilimlarni talab qiluvchi yangi sharoitlarga duch kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta'lim muassasasi ijtimoiy faol, ijobiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishga, talabalarda axborot oqimidan to'g'ri foydalana olish ko'nikma, malakasini ishlab chiqish, innovasion texnologiyalarni egallash, bilimlarni chuqurlashtirib va kengaytirib mustaqil o'rganish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Bilimli yondashuvdan kompetentli yondashuvga e'tiborni ko'chirish muammosi milliy ta'limni modernizatsiyalashga ko'ra ayniqsa dolzarbdir. Ta'limdagi islohotlar oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasida ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy natijasi bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimining o'zigina emas, balki fuqarolik-huquqiy, tilga oid, kommunikasion, axborot va boshqa sohalardagi asosiy kompetentliklar majmuiga ega bo'lgan bitiruvchi bo'lishi kerakligi aniq belgilangan. Oliy ta'limni modernizatsiyalashning strategik jihatlaridan biri, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan fanni o'qitishda va sinfdan tashqari ishlarda innovasion axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish bilan ta'lim jarayoni yangi modelini tashkil qilishni ko'zda tutuvchi boshlang'ich ta'limni axborotlashtirish hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-mutaxasisislik sifati va ularni tayyorlash darajasiga yangi talablarni qo'yadi.

Ta'limni takomillashtirish mazmunida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash sifati integral ko'rsatkichlariga insonning egallagan bilim va tajribalaridan ma'lum vaziyatlarda foydalanish malakasini xarakterlovchi kasbiy-mutaxassislik kompetentligi sifatida qaralishi lozim. O'qituvchining kasbiy-mutaxassislik kompetentligi o'z ichiga turli tarkibiy, jumladan, axborotli qismlarni ham oladi. Ma'lumki, innovasion ta'lim sharoitlarda o'qituvchining axborot ko'nikmasi uning professional pedagogik kompetentligini aniq belgilaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisining axborot ko'nikmalarini shakllantirish uning axborot qobiliyatining asosiy komponentlari (turli xil axborot faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq kasbiy yo'naltirilgan ko'nikmalar) va maxsus komponentlar bloklari ishlab chiqilishini nazarda tutadi, mazkur tadqiqot ishida ular birgalikda maxsus axborot kompetentligi sifatida belgilangan. Maxsus axborot salohiyatlarini rivojlantirish masalasini hal etish bo'lajak o'qituvchilarning boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanishga qaratilgan o'ziga xos qobiliyatlari bilan bog'liq.

Shubhasiz, agar o'qituvchilar yetarli darajada mazkur axborot texnologiyalari dasturiy mahsulotlarini izlash va tanlash qobiliyatiga ega bo'lmasa va aniq didaktik vazifalarni hal qilish uchun ularni to'g'ri qo'llash imkoniga ega bo'lmasalar, boshlang'ich sinflar o'qituvchilari ushbu texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashda yetarli darajada bilimga ega bo'lmasa, boshlang'ich sinflarda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish befoyda bo'ladi. Shu tariqa, o'qituvchining axborot kompetentligi boshlang'ich sinfda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qila boshlaydi.

Kompetentli yondashuvning ilmiy asosi mustaqil davlatlar xamdo'stligi olimlaridan O.V. Akulova, Ye.S. Zair-Bek, I.A. Zimnyaya, V.A. Kozirev, A.A. Pinskiy, N.F. Radionova, M.V. Rijakov, A.P. Tryapisina, I.D. Frumin, A.V. Xutorskiy, S.Ye. Shishov va boshqalar ishlarida berilgan.

O‘qituvchi axborot kompetentligining shakllanishi yoki rivojlanishi muammosi ko‘plab olimlar: O.B. Zayseva, N.V. Kisel, A.M. Orobinskiy, M.M. Pshukova, O.G. Smolyaninova dissertatsiya tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. G.G. Brusnisina, T.V. Dobudko, S.A. Zayseva, I.V. Ryaxinova, A.A. Uzdenova va boshqalar tadqiqotlari boshlang‘ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars mashg‘ulotlari o‘tishga tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan. Ularda boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasida informatika kursini o‘qitish yoki bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Biroq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot kompetentligini rivojlantirish masalasi aloxida e’tibor qaratildi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida me’yoriy hujjatlar va o‘quv amaliyotini tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlarida informatika sohasida talabalarni tayyorlashda asosiy yo‘nalish – elementar boshlang‘ich kompyuter savodxonligini rivojlantirishdan iborat. Talabalar turli axborot jarayonlari uchun shaxsiy kompyuter dasturlaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shunga qaramay, talabalarga yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikning yo‘qligi sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun boshlang‘ich ta’lim jarayonida foydalanishga qodir emasligiga olib keladi. Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishi malakasini shakllantirish kerakdir degan xulosaga keldik.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz**:**

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy-mutaxassislik tayyorgarligiga zamonaviy talablar va o‘qituvchining professional malakasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida axborot ko‘nikmalarini, shu bilan birga, bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot kompetentligini oshirishning aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayonlarni tashkil etish;
- yangi axborot texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot, ularning didaktik imkoniyatlari kengayib borayotganligi va o‘qituvchilarni boshlang‘ich ta’lim jarayonida ularni to‘g‘ri yo‘naltirish.

Mazkur vazifalarni hal etish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini shakllantirish (rivojlantirishda boshqarish)ga yondashuvlarni ishlab chiqildi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish pedagogik sharoitlarini nazariy asoslarini va amaliy bajarilishini aniqlandi, talabalarni metodik tayyorgarligi takomillashtirildi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi**:**

1.«Axborot kompetentligi» tushunchasi mohiyati va strukturasini aniqlandi, mazkur tushunchaning o‘qituvchiga nisbatan mazmunini aniqlashtirildi.

2. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga mavjud yondashuvlar tahlili keltirildi.

3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy va maxsus axborot kompetentligini rivojlantirish komponentlarini ajratib ko‘rsatildi.

4. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining maxsus axborot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari o‘quv kursi strukturasi va mazmunini ishlab chiqish.

5. Ishlab chiqilgan o‘quv kursini boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘quv jarayoniga joriy etildi va talabalarda ularning nazariy va amaliy bilim olishlarida qadriyatli

munosabatlarni shakllantirish, bo‘lajak kasbiy-mutaxassislik faoliyati uchun ularning ahamiyatini shaxsan anglash sharoitlarini yaratildi.

6. Ishlab chiqilgan kurs vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini eksperimental tayyorlash (nazariy tayyorlash doirasida) va ularni amaliy faoliyatga kiritish jarayonida maxsus axborot kompetentligini rivojlanganlik o‘sish dinamikasini tahlil qilindi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish asosini: insonparvarlashtirish va shaxs rivoji g‘oyalari, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi o‘qitish konsepsiyasi, o‘qitish jarayonini tashkil etishga shaxsiy-faoliyatli yondashuv konsepsiyasi, pedagogik hodisalarni va uning qo‘llanilishini o‘rganishga tizimli yondashuv tashkil etadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

-O‘qituvchining kasbiy kompetentligini tashkil etuvchi «Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi» tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlandi;

-Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining kasbiy kompetentligi tasavvuri strukturasi ikki blok jamlanmasi: «asosiy» komponentlar bloki va «maxsus» komponentlar bloki ko‘rinishida asoslandi;

-Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi asosiy va maxsus tanlab olingan komponentlari aniqlandi va mezonlari ochib berildi;

-Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi maxsus tarkibi va ajratilgan komponentlari bilan muvofiqligi aniqlandi;

-Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchining axborot kompetentligi maxsus strukturasini hisobga olib, ishlab chiqilgan maxsus o‘quv o‘tkazilishi talabalarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchining axborot kompetentligi maxsus komponentlariga qadriyatli munosabatni rivojlantirishga va ularda yangi axborot texnologiyalariga oid bilim va malakalardan ta’lim jarayonida to‘g‘ri foydalanishlariga yordam beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi nazariy va metodikani takomillashtirishdan iborat:

- pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetentligini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari nazariy va eksperimental asoslash;
- pedagogning shaxsiy-kasbiy xususiyati sifatida «boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining axborot kompetentligi» tushunchasini kiritish o‘zida boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonida innovasion axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash sohasida bilim, malaka va qadriyatli munosabatlarni jamlash.
- pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish to‘liq erishish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki olingan natijalar asosida xozirgi karantin davrida o‘qituvchilar va talabalar axborot kompetenlikka ega bo‘lib, masofaviy ta’limda to‘liq imkoniyatdan foydalanishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. //Пед. фан. док. дисс.–Т.: 2007.-305 б.

2. Зайцева О.Б. Формирование информационной компетентности будущих учителей средствами инновационных: Дис. … канд. пед. наук/ О.Б.Зайцева.- Армавир, 2002.- 169 С.

3. Зимняя И.А. Компетентность человека – новое качество результата образования/ И.А.Зимняя// Проблемы качества образования. Книга 2. Компетентность человека – новое качество результата образования: Мат. XIII Всерос. совещания.- М.: Уфа: Исслед. центр проблем кач-ва подг-ки спец-в, 2003.- С. 4-13.

# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INTELLEKTUAL-IJODIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

**Abduvaliyeva D.N. - doktorant (DSc), PhD, dotsent, TDPU.**

Oliy ta'limni modernizatsiya qilishning yana bir muhim, strategik yo'nalishi ta'limni fundamentallashtirishdan iborat. Pedagogika ilm-fanida ta'limni fundamentallashtirish to'g'risida yagona tushuncha mavjud emas. Ba'zi olimlar fundamentallikni juda keng tushunishadi, va har qanday ta'lim fundamental bo'lishi shart deb hisoblashadi. Boshqalar esa — uni juda tor tushunishadi. Bu tushunchani faqat oliy ta'limga mansub deb atashadi va uni o'qitishning kasbiy yo'nalishiga qarshi yuk deb bilishadi. An'anaga ko'ra, ilm-fan, bilimga ilova sifatida "fundmentalik" amaliy qo'llashning asosi, bazisini anglatadi. Tadqiqotchilar oliy tasvirning fundamentalligi - bu ilmiy bilish va o'quv jarayonining kombinatsiyasi bo'lib, biz hammamiz tabiat va jamiyat qonunlari asosida yashayotganimizni, va ularni hech kim e'tibordan chetda qoldira olmasligini anglash imkonini beradi [2]. deb hisoblaydilar.

V.A.Testov ta'kidlashicha, ta'limning fundamentalligini mutaxassisning kompetentligini ta'minlash sifatida an'anaviy tushunish ta'limning o'zgarmas markazi bo'lajak o'qituvchini harakatlanuvchan, OTMda tayyorlashni amalga oshirishda kreativ qilishi kerakligi bilan to'ldiriladi [4]. Ular ta'limning fundamentalligi ta'lim mazmunining insoniyat madaniyatining metodologik jihatdan muhim, uzoq yashaydigan va o'zgarmas elementlariga yo'naltirilganligini anglatadi, bu inson butun hayoti davomida o'zini mustaqil rivojlantirish va mustaqil ta'lim olishga ichki ehtiyojni yaratadi, shaxsning tez rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik sharoitlarda moslashishiga hissa qo'shadi deb hisoblashadi.

Ma'lumki, fundamental ta'limga kompetensiyaviy yondashuv ta'limning amaliy yo'naltirilganligini namoyon etadi.

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiyalarga asoslangan yondashuvning metodologik asoslari aniq ko'rsatilgan va uning asosiy yo'nalishi ta'limning amaliy yo'naltirilganlik bilan boyitishdan iborat. Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim amaliyotini kompetensiyalarga asoslangan yondashuv bo'yicha ilmiy-nazariy refleksiya . Tahlillar olimlar bu muammoning asosan nazariy-metodologik jihatlarini o'rganliklarini ko'rsatdi. Xususan, O.V.Shemet fikricha, "Bugungi kunda, nisbatan kam sonli tadqiqot ishlari ushbu yondashuvni oliy maktabda amalga oshirish texnologiyasi muammolariga bag'ishlangan" [5].

Faoliyatli yondashuvdan farqli o'laroq, kompetensiyalarga asoslangan yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning qadriyatlari va motivatsiyalariga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha [3] kompetentsiyalarga asoslangan yondashuvni epistemologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqishda, ta'limni rivojlantirish muammolarini hal qilishda-kompetentsiyalarga asoslangan yondashuvning bilish tarkibiy qismini aniqlashga harakat qilishda ham xuddi shunday nuqtai pozitsiyaga amal qiladi .

Kompetentsiyalarga asoslangan yondashuv ta'limda o'ziga xos rol o'ynaydigan metodologik yondashuvlar tamoyillarini integratsiya qiladi, deb ta'kidlash mumkin: faoliyatga asoslangan yondashuvni, chunki kompetentlikfaoliyatda bevosita namoyon bo'ladi va ko'plab muammolar va vazifalarni aniqlash, qo'yish va hal qilish bilan bog'liq, shaxsgam uning ehtiyojlari va imkoniyatlariga, uning maqsadlari va qardriyatlariga, shaxsning ma'naviy va axloqiy sifatlariing shakllanishiga yo'naltiradigan shaxsga qaratilgan yondashuvni; akmeologik yondashuvni, chunki kompetentlik tadqiqotda shaxsning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga yo'naltirilganligi, intilishini, tayyorligini va moyilligini belgilaydigan kasb-hunarning ajralmas atributi va cho'qqilaridan biri sifatida tushuniladi; talabalarni kasbiy faoliyat kontekstiga "sho'ng'itish" (immersiya) orqali o'qitishni nazarda tutadigan kontekstga asoslangan yondashuvini, va andragogik

yondashuvni, ya’ni tahsil oluvchini bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga, o‘z ta’lim marshrutiini qurish va tuzatishshda, o‘zgaruvchan yashash sharoitlari va kasbiy faoliyatga moslashuvchan adaptivlikni qurishda faol ishtirok etishga asoslanadigan yondasuvni, va, boshqa yondashuvlarni [1].

Demak, ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bir qator savollarni qo‘yadi. Ulardan birining mohiyati turli xil yondashuvlarning birgalikda yashashi mumkinmi va "bilimlarga asoslangan" va kompetentsiyalarga asoslangan yondashuvlar bir-birigan qanday solishtiriladi? Kompetentsiyalarga asoslangan yondashuv ta’limning amaliyotga yo‘naltirilgan tomonini kuchaytirganligi sababli, uni BMKlarga (bilimlar, malakalar va ko‘nimalarga) qarshi qo‘yib bo‘lmaydi, ammo ular bilan bir xil bo‘lishi mumkin ham emas, chunki u bilimlarning malakalarga, amaliyotga bo‘ysunishini qayd etadi. Binobarin, kompetentsiyalarga asoslangan yondashuv "bilimlarga" asoslangan ta’limini inkor etmaydi, balki u bilan korrelyatsiyada (moslikda) bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Брякова И.Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза. Специальность 13.00.02- теория и методика обучения и воспитания (литература, уровень общего и профессионального образования). Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Санкт - Петербург 2010. 184 с.
2. Садовничий, В.А. Традиции и современность / В.А, Садовничий. // Высшее образование в России. 2003. №1. С.11-18.
3. Субетто, А.И. Онтология и эпистемология компетентностного подхода. Классификация и квалиметрия компетенций / А.И. Стоюнин. СПб.- Кострома: КГУ им. Некрасова. Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. 72с.
4. Тестов, В.А. Фундаментальность образования: современные подходы / В.А.Тестов // Педагогика. 2006. №4.
5. Шемет, О.В. Дидактические основы компетентностного подхода в высшем профессиональном образовании /О.В.Шемет //Педагогика. 2009. №10. С. 16-22.

# INTERAKTIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Abdullayeva N.- Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.**

Bugungi globallashuv davrida o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishini ta’minlash, ularni tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llash muhim hisoblanadi. Bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta‘sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘stiradi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik yaratish, yangilikdir. Demak an‘anaviy ta’limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta‘sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonini innnovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o‘qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko‘proq interaktiv metodlarga e‘tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi.

(Interaktiv so‘zi inglizcha – interaktion, ya‘ni, inter – aro, o‘zaro, act – harakat ma‘nosini anglatadi.) Interaktiv usullar – bu o‘zaro harakat, ya‘ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir. Interaktiv usullarning 4 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o‘yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o‘yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o‘qitish, bevosita faoliyat.

Interaktiv mashg‘ulot jarayonining asosiy bosqichlari

1. Salomlashish (o‘qituvchi va o‘quvchilar).

2. Kirish so‘zi – o‘qituvchi o‘quvchilarni ta’limning interaktiv metodikasi, mashg‘ulot mavzusi, shakli va maqsadlari bilan tanishtiradi. Kirish so‘zi aniq va qisqa bo‘lishi kerak.

3. Qoidalarni ishlab chiqish – guruhning samarali ishlashi uchun qoidalarni belgilash yuzasidan o‘quvchilarning takliflar bildirishi so‘raladi. Shu takliflar asosida ular tomonidan qoidalar ishlab chiqilib, qabul qilinadi. Bu qoidalarga rioya qilinish nazoratini faqat o‘qituvchi emas, o‘quvchilar ham olib borishlari ko‘zda tutiladi.

4. Tanishuv (muzyorar) – o‘quvchilarning darsda o‘zaro erkin va faol muloqotlarini ta‘minlash maqsadida har turli harakatli mashqlarni tashkil qilish orqali o‘tkaziladi. Bu mashqlarni ishtirokchilar orasidagi notanishlik, tortinchoqlik va shu kabi holatlarni bartaraf qilib, o‘zaro iliq munosabatlarni hosil qilishga yo‘naltirilgani uchun muzyorar deb nomlanadi. (bunda o‘quvchilar bir-birining eng yaxshi sifatlariga baho berishlari, yoki yonidagi o‘rtog‘ini jamoaga tanishtirisi kabi ish turlaridan foydalaniladi).

5. Kutiladigan natijalar – har bir o‘quvchi mashg‘ulotlar yakunida nimalarni o‘rgangani, qanday ishlarni bajara oladigan bo‘lishgani haqida ma‘lumot berishi lozim. Bunda o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari asosida og‘zaki yoki yozma ravishda bildirilgan fikrlari ham inobatga olinadi.

6. Kichik guruhlarga ajratish – mashg‘ulot maqsadiga muvofiq ravishda o‘quvchilarni bir nechta kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruhlarga birinchi marta ajratishda o‘quvchilar o‘z xohishlariga ko‘ra guruhlarga ajralishlari mumkin.

Keyingi gallarda tasodifiy kichik guruhlarga ajratish qo‘llaniladi.

7. Kichik guruhlar ishini tashkil qilish – har bir kichik guruhga aniq vazifa,

zarur materiallar, vositalar taqdim qilinadi, vazifani bajarish, natijani ma‘lum qilish tartibi va ajratilgan vaqt belgilanadi.

8. Taqdimotlar – kichik guruhlar o‘zlariga berilgan vazifalarni bajargandan keyin, olingan natijalarni ular belgilagan vakil tomonidan barcha guruhlar a‘zolari oldida taqdimot qilishdan iborat. Bunday taqdimot yakka tartibda berilgan vazifani bajargan biror o‘quvchi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

9. Kichik ma‘ruzalar – interaktiv mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarga nazariy ma‘lumotlarni yetkazish maqsadida o‘qituvchi, ma‘ruzachi yoki o‘quvchi tomonidan o‘tkaziladi.

10. Muhokamalar o‘tkazish – dars mavzusiga doir masalalar yuzasidan hamkorlikda fikr yuritish va xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan interaktiv mashqlardan iborat.

11. Xulosalar va vazifalarni belgilash – mashg‘ulot davomidagi xulosalarni jamlash va umumlashtirish hamda o‘quvchilar uchun navbatdagi vazifalarni belgilab berishdan iborat.

12. Mashg‘ulotni yakunlash – mashg‘ulotdan qoniqqanlik darajasini har bir o‘quvchi tomonidan baholashni har turli interaktiv shakllarda tashkil etiladi. Bu baholash natijalarini keyingi mashg‘ulotlarni tashkil etishda hisobga olib boriladi.

Interaktiv mashg‘ulotning asosiy shakllari: katta doira, charxpalak, akvarium, kichik guruhlarda (juftlikda) ishlash va boshqalar. Interaktiv mashg‘ulotning asosiy usullari: interaktiv seminar, trening, ma‘ruza, aqliy hujum, ishchanlik o‘yini, rolli o‘yin, muhokama, bahs, munozara, tanqidiy fikrlash, skarabey, bumerang, zig-zag yoki arra, press, interv‘yu, zanjir, sinkveyn, pinbord, insert, suratli diktant, chigil yozdi, muzyorarlar, fidbek va boshqalar.

Shu bilan birga ta‘kidlash zarurki, interaktiv mashg‘ulotlarda shakl va usullar birgalikda mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishdagina ajratish mumkin.

Interaktiv mashg‘ulotlar aniq rejalashtirilgan holda dars maqsadini belgilab, dars loyihasi va algoritmini ishlab chiqilgandan keyingina amalga oshiriladi.Interaktiv usullarning barchasida ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o‘rgatishda uni modellashtirish qismida o‘qituvchi o‘quvchilarga modelni namoyish qilish oldidan “Aqliy hujum”metodidan foydalanishi mumkin. Ya‘ni o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko‘nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so‘ralib, ularning fikrlari umumlashtiriladi. Bunda o‘quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi. Amaliy boshqaruv qismida o‘qituvchi  “Hamrohingga o‘rgat” metodidan foydalanishi mumkin. Bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o‘quvchilrning o‘z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o‘rgatadi. Uni qo‘llash quyidagicha:

Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo‘linadi.

Darsni o‘tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor esa birinchisiga modeldagi qismlarni o‘rgatadi.

O‘qituvchi xohlovchilarga ta’lim metodlari vositasida model qismlarini avval tushuntiradi keyin ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi aytgan va ko‘rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar.

O‘qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o‘ziga ixtiyoriy 2 nafar hamkorni tanlaydi. O‘qituvchi o‘z hamkorlariga modelni bosqichma-bosqich bajartirib ko‘radi. Tushunmaganlarini tushunib o‘rganishlariga yordam beradi. O‘qituvchi sinfdagi

hamkorlarga birinchi qismni bir-birlariga o‘rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularni ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichga o‘tiladi. O‘qituvchining hamkorlari esa sinfni nazorat qilishga o‘qituvchiga yordamlashadilar.

Bu o‘yinda ikki yoki uchta o‘quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o‘quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan terminni qaytaradi va o‘zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o‘quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo‘shib aytadi. Yana birinchi o‘quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o‘zi bitta termin qo‘shib aytadi. Qaysi o‘quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlardan qaytarib aytsa o‘yindan chiqadi. Shu tariqa o‘quvchilar guruhi davom etadi. Bu o‘yinni tashkil etishda maqsad aniq bo‘lishi va o‘quvchilarning qaysi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga e‘tibor qaratilishi muhim.

Masalan: ot so‘z turkumiga tegishli so‘zlarni ayting:

1-o‘quvchi: bulbul

2- o‘quvchi: bulbul – qarg‘a

3- o‘quvchi: bulbul – qarg‘a – mushuk

1- o‘quvchi: bulbul – qarg‘a – mushuk – ota

2- o‘quvchi: bulbul – qarg‘a – mushuk – ota – opa

3- o‘quvchi: bulbul – qarg‘a – mushuk – ota – opa – uka va hokazo.

O‘quvchi so‘zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo‘l qo‘ysa o‘yindan chiqadi.

Xuddi shu taxlitda “So‘z turkumlari”, “Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi”, “Ot yasovchi qo‘shimchalar” va boshqa mavzularini o‘rganishda ham bu o‘yindan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o‘yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo‘l keladi.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, o‘quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta‘sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol boshlang‘ich ta’limda motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir.O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir.O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar– o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul. O‘yin vositasida o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil fanlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2012.

2. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -T.: Iste’dod, 2008.

3. Jumaniyozova M.T. O‘qituvchilarni ta’limdagi innovatsiya jarayonlariga tayyorlash muammolari. // «Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish». Maqolalar to‘plami. – T.: Ekstremum press, 2010.

# ЭТАПЫ ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Абдисодикова М.Н.- докторант КарДУ.**

**Аннотация:** Необходимо правильно организовать научно-исследовательскую работу и выделить последовательные этапы исследования, на этапе исследования систематическое изучение литературы, статистических данных, архивных материалов, теоретическое и эмпирическое исследование, включающее сбор данных и практических материалов, обработку, обобщение, представлены анализ, объяснение новых научных фактов, формулировка правил.

**Ключевые слова:** Исследование, этап исследования, последовательность этапов исследования, правильная организация исследовательской работы.

Чтобы научные исследования были успешными, необходимо правильно их организовать, спланировать, систематизировать и проводить в определенной последовательности. Последовательность этих планов и действий зависит от вида, объекта и целей научного исследования. Если оно проводится по технической тематике, то в первую очередь разрабатывается основной плановый документ на основе технико-экономической основы, затем проводятся теоретические и экспериментальные исследования, оформляется научно-технический отчёт, а также подводятся итоги. работы внедряются в производство. Психолого - педагогические занятия проводятся в иной последовательности.

Например, исследование разделено на пять этапов:

1) подготовка программы;
2) формирующий эксперимент;
3) обработка и обобщение полученных данных;
4) научный анализ и объяснение данных;
5) будет состоять из представления результатов.

В студенческой работе можно выделить следующие последовательные этапы исследования:

1) подготовка;
2) проведение теоретических и эмпирических исследований;
3) работа над рукописью и ее оформлением;
4) внедрение результатов научных исследований.

Сначала представляется необходимым дать общую характеристику каждому этапу научно-исследовательской работы, а затем подробно рассмотреть те из них, которые важны для осуществления студентами научных исследований.

Подготовительный этап включает в себя:

1) выбор темы;
2) обоснование необходимости проведения исследований по данному поводу;
3) определение гипотез, целей и задач исследования;
4) разработка плана или программы научных исследований;
5) подготовка исследовательских средств (инструментов).

Сначала формируется тема научного исследования и обосновываются причины ее разработки. Ознакомившись с литературой и материалами предыдущих исследований, становится понятно, в какой степени изучены вопросы темы и какие результаты достигнуты. Особое внимание следует уделить вопросам, на которые нет или недостаточно ответов. Нормативные документы, будет составлен список отечественной и зарубежной литературы. Будет разработана методология исследования. Инструменты исследования готовятся в виде анкет, тестов, форм интервью, программ наблюдения и т. д. Для проверки их достоверности могут быть

проведены последующие исследования. Этап исследования состоит из систематического изучения литературы, статистических данных и архивных материалов по теме, теоретических и эмпирических исследований, включающих сбор необходимых данных и практических материалов, обработку полученных данных, обобщение, анализ, объяснение новых научных данных. факты, формирование правил, выводы, практические рекомендации, предложения.

Второй этап включает в себя следующее: определение содержания (построения, внутренней структуры) работы, уточнение заголовков глав и параграфов, подготовку черновика рукописи, ее редактирование, оформление текста, включая список литературы и приложений.

Третий этап – внедрение результатов исследования и авторское сопровождение реализованных разработок. Научные исследования не всегда заканчиваются на этом этапе, но иногда научные работы студентов (например, дипломные работы) рекомендуются для внедрения в практическую деятельность некоторых государственных и негосударственных органов, организаций или в учебный процесс.

Подводя итог, можно сказать, что при подготовке студентов к исследовательской деятельности целесообразно писать их исследования поэтапно. Потому что представленные исследования будут описаны систематически, упорядоченно, последовательно и последовательно.

Список использованной литературы:

1. А.В. Попков, И.М. Вельм, О.П. Дружакина, С.В. Широбоков «Студент-Основы научной деятельности». Ижевск – 2009.

2. Арцев М. Н. Учебно-исследовательская работа студентов (инструкция для студентов и преподавателей) // Завуч, 2005. - № 6. - Б. 4-29.

# RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ILTIMOIY-GUMANITAR FANLAR VA ULARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV MASALALARI

**Abdumalikova G.T.- Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi, JDPU.**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda barcha sohalarda globallashuv jarayonlari va axborotlarning shiddat bilan kirib kelayotganligi sababli davlatlarning nafaqat iqtisodiyotida ,balki ta’limida ham sezilarli darajada o‘sish kutilyapti. Bu yangliklarni yurtimizga olib kirish va yoshlarimizga tadbiq qilish bizning asosiy vazifamiz. Hozirgi kunda ta’limga innavatsion yondashish qanchalik foydali? Darsliklarimizga kiritilgan yangiliklar kutilgan natijani berayaptimi? Maqolada mana shu savollarga javob topishga harakat qildik.

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy o‘quv dasturi yaratilganligi va 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o‘quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalar joriy qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2024-yil 1-sentabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilishini, shu jumladan 2022-yil yakuniga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinflar uchun, 2023-2024-yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlasin;[1]

Innovatsiya (inglizcha. innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi. [2]

Dunyoda keskin siyosiy vaziyat yuzga kelayotgan bir paytda,yoshlarimizni mustaqil fikrlashga o‘rgatishimiz,bizning eng katta yutug‘imizdir.Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqorolarning intelektual salohiyatiga ,madaniyatiga,bunyodkorligiga va ta’limga bo‘lgan e’tiboriga tayanadi.Zero,eski ta’lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo‘lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi ,shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek,” Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini yubdan yangilashga qaratilgan innavatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddati bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya ga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innavatsiya-bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar ,innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.[3] Birinchi o‘rinda dars xonalarini innavatsion texnologiyalar bilan ta’minlashimiz maqsadga muvofiq. Bularga:multimedialar,elektron doskalar,wife tizimi va boshqa jihozlar kiradi.Bu jihozlar o‘zimiz foydalanishimiz uchun ham qulay va o‘quvchilarning yangi texnologiyalar bilan tanishishiga ham zamin yaratib beradi. Shu asosida yangi innavatsion metod vujudga keladi. ladi.

1. Aktiv metod. Bu metod dars jarayonida faollashishimizga va biror voqea-hodisaga nisbatan erkin fikr bildirishimizga zamin yaratadi.O‘quvchi biror voqea -hodisaga

nisbatan qanchalik mustaqil va erkin fikr bildirsa,ijtimoiy hayotga ham shunchalik tez moslashib keta oladi va atrofidagi hodisalarga befarq bo‘lmaydi.

2. Passiv metod.Bu metodda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bir tomonlama harakat holati uchraydi.Bunda o‘qituvchi mavzuni tushuntiradi,o‘quvchilar esa uni qabul qilishi kerak.

3. Interaktiv metod.Bu metodda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida teng hamkorlik yuzaga keladi.Ikkalasi birgalikda ishlaydi...

Boshlang‘ich ta’limda innavatsion yondashuv asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish. Ijtmioy -gumanitar fan deganda tarbiya,ona tili,tabiiy fan kabi fanlarni hisobga oladigan bo‘lsak,ularni innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish yuqori o‘rinda turadi.Tarbiya fani odobnoma,milliy istiqlol tuyg‘usi ,din tarixi kabi fanlarning qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan.Boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslarining muqovasida buyuk jadid bobomiz A.Avloniyning :”Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasidir”[4] shunday gaplari berilgan.Bu kitobni qo‘liga olgan o‘quvchi muqovasini o‘qib ,qanday insonlarning farzandi ekanligimizni anglayapti,ularga munosib farzand bo‘lishimiz kerakligini his qilmoqda.Tarbiya darslarini yangi texnologiyalar orqali ,innavatsion yondashuv bilan birga o‘tish o‘quvchilar ongiga tez ta’sir qilishga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish.[5]

Bu qarorni to‘liq amalga oshirish uchun hozirdan harakat qilishimiz.Har bir fanni innovatsion texnologiyalar asosida o‘quvchilarga yetkazishimiz kerak.Ijtimoiy-gumanitar fanlarni innavatsion yondashuv asosida o‘qitishimiz o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayishiga asos bo‘ladi.

Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bòyicha milliy dasturni tasdiqlash tòĝrisidagi qarori. https://lex.uz/docs/-6008663?ONDATE=11.05.2022%2000

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya

3. https://yuz.uz/uz/news/innovatsiya--biz-yoshlarni-kelajakni-yaratishga-ruhlantirmoqda

4.’’Turkiy guliston yoxud axloq” Abdulla Avloniy "Òqituvchi"nashryoti. 1967.

5.Òzbekiston Respublikasi xslw ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tòĝrisidagi Prezident farmoni.https://www.qalampir.uz/uz/news/kontseptsiya-k-abul-k-ilindi-uzbekiston-30-ta-ilgor-mamlakati-k-atoriga-kirmok-chi-2929

6. https://hikmatlar.uz/quote/1656

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILAR YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINING RIVOJLANGANLIK NATIJALARI

**Abduraxmonova D.Y.- mustaqil tadqiqotchi.**

Tajriba sinov ishining asosiy maqsadi – pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini oshirish uchun mos metodikalar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunda emperik ma’lumotlarni yig‘ishning turli-tuman metodlari majmuidan foydalanildi: oliy ta’lim mussasalarida pedagogik jarayonni kuzatish, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, talabalari bilan individual suhbatlar, talabalar va o‘qituvchilar anketalari; pedagogik hujjatlar tahlilidan foydalaniladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2021-2023 yillarda Jizzax davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabalalarida olib borildi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari “yuqori”, “o‘rta”, “past” darajalar bo‘yicha baholandi. Ta’lim muassasalari hududlar kesimida tanlab olinib, talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Ushbu taqsimot quyidagi jadvalda keltirildi (3.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

**Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarning hududlar bo‘yicha taqsimoti**

| OTMlarida qatnashuvchilar soni | | soni | Jami |
|---|---|---|---|
| Qo‘qon davlat pedagogika instituti (QDPI) | Tajriba guruhi (TG) | 62 | 123 |
| | Nazorat guruhi (NG) | 61 | |
| Jizzax davlat pedagogika universiteti (JDPU) | Tajriba guruhi (TG) | 62 | 125 |
| | Nazorat guruhi (NG) | 63 | |
| Toshkent davlat pedagogika universiteti (TDPU) | Tajriba guruhi (TG) | 65 | 131 |
| | Nazorat guruhi (NG) | 66 | |
| Talaba-respondentlar soni (Jami) | Tajriba guruhi (TG) | 189 | 379 |
| | Nazorat guruhi (NG) | 190 | |

Taqdiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari 2021-2023 yillarda 3 bosqichda ishlab chiqilgan metodik tizim, turli metod, shakl va vositalar asosida tashkil qilindi va o‘tkazildi.

Qayd etish lozimki, tajriba ishlarini olib borish jarayonida o‘quvchilarda ijodiy ishga barqaror qiziqishni, u bilan birga o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishini shakllantirishga, o‘quvchining ma’naviy olamini boyitishga erishildi. Ijodiy kichik ijodiy hikoya yozish davomida badiiy so‘z bilan ishlash ko‘nikmasini egallash, nazariy-adabiy va axloqiy tushunchalar izohlagan ma’nolarni bilib olishishning kompozitsion qurilishining, hissiy ifodaliligining yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatdi, o‘quvchilarning so‘z boyligi ortdi.

Shu tariqa, nazorat ishlarining borishida quyidagi farazlarimiz o‘z tasdig‘ini topdi:

1. 1– 4-sinflarda nutq o‘stirish tizimiga kiritilgan adabiy mavzu asosidagi ijodiy kichik ijodiy hikoyalar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, tasavvuri va xayolotining rivojlanishiga, shu bilan birga nutqining o‘sishiga ham to‘la mos keladi.

2. Badiiy so‘z asosidagi, nazariy-adabiy atamalar va axloqiy tushunchalarga tayanilgan ijodiy kichik ijodiy hikoyalar o‘quvchilar tasavvur faoliyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi, bu jarayonni nazorat qilinadigan voqelikka aylantiradi, o‘quvchilar tomonidan badiiy asar matnini to‘laligicha idrok etishni ta’minlaydi hamda ruhiy-hissiy doirada1-4 sinf o‘quvchilariga mos keladigan ona tili va o‘qish savodxonligi nazariyasi

bo'yicha olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatadi.

3. Ish uchun tanlab olingan spetsifik mashqlar o'quvchilarning adabiy mavzudagi ijodiy kichik ijodiy hikoyani mustaqil yozishga undaydi.

4. Ijodiy kichik ijodiy hikoyalar ustida ishlash bo'yicha tavsiya qilingan dars modellaridan ona tili va o'qish savodxonligi va ona tili va o'qish savodxonligi o'qituvchilari amalda foydalanishlariga erishiladi.

5. Ijodiy kichik ijodiy hikoyalar ustida ishlashda asarning janr xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatlari, shuningdek, ijodiy kichik ijodiy hikoyalardan o'quvchilarning shaxsiy ijodiga o'tishni qanday amalga oshirish haqidagi muammolarni hal qilish istiqbolli masalalardan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchida aql egiluvchanligi, dialektik fikrlash qobiliyatiga egalik, qabul qilgan qarori uchun javobgarlikdan qo'rqmaslik va yangiliklar o'ylab topa bilish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradigan ijodiy tafakkur va erkin tasavvurni rivojlantirish ona tili va o'qish savodxonligi o'qituvchilarining asosiy yumushi hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini, xayol qilish istagini uyg'ota bilish o'z fikri va dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlod tarbiyasining samaradorligini ta'minlaydigan yo'ldir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligining rivojlantirish bo'yicha yaratilgan o'quv qo'llanma va metodlar o'quv jarayoniga tatbiq etilishi natijasi sifatida dastlabki baholash natijalari va yakuniy baholash natijalari olindi. Baholash ishlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari sifatida kognitiv, jarayonli ва natijaviylik komponentlari, baholash darajalari sifatida yuqori, o'rta va past darajalar olindi va ularga mos baholash qiymati 5,4,3 baholar orqali aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqot ishlaridan quyidagi natijalarga erishildi.

1.2-jadval. Dastlabki baholash bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligининг shakllanganlik darajasi

| **OTMlar** | **Tajriba guruhlari** | | | | **Nazarat guruhlari** | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Talabalar soni** | **Yuqori** | **O'rta** | **quyi** | **Talabalar soni** | **yuqori** | **o'rta** | **quyi** |
| | | **5** | **4** | **3** | | **5** | **4** | **3** |
| QDPI | 2 | 5 | 10 | 47 | 61 | 4 | 2 | 5 |
| | 2 | 4 | 11 | 47 | 61 | 5 | 9 | 7 |
| | 2 | 4 | 10 | 48 | 61 | 5 | 8 | 8 |
| JDPU | 2 | 5 | 11 | 6 | 63 | 4 | 3 | 6 |
| | 2 | 5 | 10 | 7 | 63 | 4 | 2 | 7 |
| | 2 | 4 | 11 | 7 | 63 | 5 | 9 | 9 |
| TDPU | 5 | 5 | 12 | 8 | 66 | 4 | 4 | 8 |
| | 5 | 5 | 11 | 9 | 66 | 5 | 1 | 0 |
| | 5 | 4 | 12 | 9 | 66 | 5 | 0 | 1 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Jami | 89 | 15 | 33 | 41 | 90 | 12 | 9 | 39 |
| | 89 | 14 | 32 | 43 | 90 | 14 | 2 | 44 |
| | 89 | 12 | 33 | 44 | 90 | 15 | 7 | 48 |

1.3-jadval. bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligining rivojlanganlik natijalari.

| **OTMlar** | **Mezonlar** | **Tajriba guruhlari** | | | | **Nazarat guruhlari** | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Talab a soni** | **yuqo ri** | **o‘rta** | **quyi** | **Talab a soni** | **yuqo ri** | **o‘rta** | **quyi** |
| | | | | | | | **5** | **4** | **3** |
| QDPI | kognitiv | 62 | 3 | 0 | 9 | 61 | 5 | 4 | 42 |
| | jarayonli | 62 | 2 | 9 | 1 | 61 | 6 | 1 | 44 |
| | natijaviy | 62 | 1 | 8 | 3 | 61 | 6 | 0 | 45 |
| JDPU | kognitiv | 62 | 2 | 0 | 0 | 63 | 5 | 5 | 43 |
| | jarayonli | 62 | 3 | 1 | 8 | 63 | 5 | 6 | 42 |
| | natijaviy | 62 | 1 | 0 | 1 | 63 | 6 | 2 | 45 |
| TDPU | kognitiv | 65 | 2 | 3 | 0 | 66 | 5 | 5 | 46 |
| | jarayonli | 65 | 3 | 1 | 1 | 66 | 6 | 5 | 45 |
| | natijaviy | 65 | 4 | 0 | 1 | 66 | 6 | 5 | 45 |
| Jami | kognitiv | 189 | 7 | 3 | 9 | 190 | 5 | 4 | 131 |
| | jarayonli | 189 | 8 | 1 | 0 | 190 | 7 | 2 | 131 |
| | natijaviy | 189 | 6 | 8 | 5 | 190 | 8 | 7 | 135 |

Ushbu olingan natijalarga ko‘ra bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarлининг rivojlanganlik darajasining qiyosiy tahlili keltirildi. (3.2-расм)

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini tajriba sinov ishlaridagi dastlabki baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba ishlarida tajriba va nazorat guruhlarida:

kognitiv mezoni bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida o‘zlashtirishning yuqori darajasi 19,6% va 7,9% ni, o‘rta darajasi 49,2% va 23,2% ni, past darajasi esa 31,2% va 68,9% ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki tajriba guruhlarida nazoart guruhlariga nisbatan yuqori darajasi 11,7%ga, o‘rta darajasi 26,0%ga o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, past darajasida esa 37,7ga kamayganligi kuzatildi;

jarayonli mezoni bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida o‘zlashtirishning yuqori darajasi 20,1% va 8,9% ni, o‘rta darajasi 48,1% va 22,1% ni, past darajasi esa 31,7% va

68,9% ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki tajriba guruhlarida nazoart guruhlariga nisbatan yuqori darajasi 11,2%ga, o‘rta darajasi 26,0%ga o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, past darajasida esa 37,2ga kamayganligi kuzatildi;




3.2-rasm. bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligining rivojlanganlik darajasi (foiz hisobida)

natijaviylik mezoni bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida o‘zlashtirishning yuqori darajasi 19,0% va 9,5% ni, o‘rta darajasi  46,6% va 19,5% ni, past darajasi esa 34,4% va 71,1% ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqori darajasi 9,5%ga, o‘rta darajasi 27,1%ga o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, past darajasida esa 36,7ga kamayganligi kuzatildi;

Bundan ko‘rinadiki dastlabki baholashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligining rivojlanganlik darajalari tanlab olingan tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbtan yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligi tajriba sinov ishlarini dastur asosida olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Demak tajriba yakunidagi olingan natijalar tajriba guruhida yuqori hisoblanib, nazorat guruhlariga nisbatan yuqori va o‘rta darajadagi ko‘rsatgichlar oshganligini va past daraja ko‘rsatgichlari kamayganligini ko‘rish mumkin. Bu esa tajriba guruhlarida samaradorlik mavjudligidan dalolat beradi.

# INSON RESURSLARINI BOSHQARISH STRATEGIYASINING PEDAGOGIK JIHATLARI

**Abdusalyamov A.A. – To'lov shartnomlarini rasmiylashtirish va hisobga olish bo'limi boshlig'i, TDPU.**

**Annotatsiya:** Tashkilot boshqaruv tizimida inson resurslaridan oqilona foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish hamda ta'lim tizimida samarali boshqaruv shakllarini joriy etish imkoniyatlariga oid nazariy ma'lumotlar berilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, personalni boshqarish, inson resurslari, universal yondashuv, tegishli yoki kutilmagan yondashuv, resurslarga asoslangan yondashuv, strategik integratsiya, bog'liqlik (commitment), moslashuvchanlik, sifat, HRM strategiyasi.

**Kirish.** Tashkilot muvaffaqiyatining eng asosiy omillaridan biri inson resurslari hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish menejmentning muhim masalalaridan biri bo'lib, insonlarga beriladigan qiymat orqali tashkilot samaradorligini oshiradi. Bu esa tashkilotning o'z maqsadlariga erishishi, raqobatchilarga nisbatan ustunlikka erishishi va o'zgaruvchan muhitda faoliyatini davom ettirishida katta ahamiyatga ega. Inson resurslarini boshqarish (HRM - Human Resources Management) inson omiliga katta e'tibor beruvchi yondashuvlardan biri bo'lib, u tashkilotning samaradorligini oshirish, maqsadlarga tezroq erishish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va beqaror sharoitlarda barqarorlikni saqlash uchun zarurdir.

HRM yondashuvi xodimlarning baxtli va samarali ishlashlarini qo'llab-quvvatlashi bilan ajralib turadi va inson omiliga yo'naltirilganligi sababli boshqa yondashuvlardan farq qiladi. Bu yondashuv tashkilotning strategik maqsadlariga erishishda va xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda inson resurslaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratadi. Uning asosiy maqsadi - inson resurslarini tashkilot maqsadlariga mos ravishda eng samarali tarzda safarbar qilish, xodimlarning ehtiyojlarini qondirish va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdir. Inson resurslarini boshqarish menejmentdagi asosiy vazifalardan bo'lib, xodimlarning ehtiyojlarini qondirish va jamiyatga xizmat qiluvchi xodimlarni rag'batlantirish hamda boshqarishga katta ahamiyat beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida inson resurslarini boshqarishning ilmiy asoslangan universal yondashuvi (Universalist approach) ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv inson resurslarini boshqarishda "eng yaxshi amaliyot" kontseptsiyasiga asoslanadi. Bu yondashuvni qo'llash orqali tashkilotlar, xususan Gest (1989), Pfeffer (1994), Bekker va Gerxart (1996) tomonidan taklif qilinganidek, raqobatda barqaror qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar.[1]

**FSMU (Pedagogik Texnologiya)[2]**

- **FIKR:** "Personalni boshqarish"dan "Inson resurslarini boshqarish" sari o'zgarishlar boshqaruv tizimidagi tarkibiy qayta ko'rishlar bilan izohlanadi. Boshqaruvning barcha bosqichlarida inson rolining ortishi kutiladi va bu o'zgarishlar tizimga o'z ta'sirini o'tkazadi, deb tasavvur qilish mumkin.
- **SABAB:** Bir tomondan, personalni boshqarish vazifasi o'z ahamiyatini oshirib boradi va menejment yanada murakkablashadi. Boshqa tomondan esa, raqobat kuchayib, xarajatlarni qisqartirishga bo'lgan talab oshadi, tashkilot tuzilmalari o'zgarib boradi va biznes faoliyati mahsulot va iste'molchilar atrofida shakllanadi.
- **MISOL:** Bunga misol sifatida kadrlar sohasidagi mutaxassislarning ko'proq dolzarb muammolar bilan shug'ullanishini keltirish mumkin. Shuningdek, rahbarlar personalni boshqarish sohasidagi mutaxassislar bilan hamkorlik qilish imkoniyatidan uzoqlashmoqda. Shu bilan birga, xodimlarning bilim va malaka darajasi o'sib, mutaxassislar uchun raqobat yanada keskinlashmoqda.

- **UMUMLASHTIRISH:** Bu jarayonlar iqtisodiyotda yangi vazifa – inson resurslarini boshqarishning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Natijada, jahon tajribasidan ko‘rinib turibdiki, bu holat kelajakda personalni boshqarishning eski konsepsiya va amaliyotlarini asta-sekin siqib chiqaradi.

**Universalist yondashuv asosiy jihatlari:[3]**

- **Strategik integratsiya** – inson resurslarini strategik rejalashtirishga to‘liq integratsiya qilishni ta’minlaydi, bu esa HRM siyosatining izchilligini ta’minlaydi va menejerlar uchun HRM amaliyotlarini kundalik faoliyat qismiga aylantiradi.
- **Bog‘liqlik** (Commitment) – xodimlarda tashkilotga bog‘liqlik hissini shakllantirib, ularning xatti-harakatlari orqali yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.
- **Moslashuvchanlik** – tashkilot tuzilmasining moslashuvchanligini ta’minlaydi va ko‘p qirrali malakaga asoslangan funktsional moslashuvchanlikni rivojlantiradi.
- **Sifat** – xodimlar orqali mahsulot va xizmatlarning yuqori sifatini kafolatlaydi.

**Moslik yoki tasodifiy yondashuv (Fit or Contingency Approach)**: Bu yondashuv tashqi muvofiqlik (ba’zan vertikal integratsiya deb ataladi) va ichki muvofiqlikni o‘z ichiga oladi, bunda inson resurslari strategiyasi biznes strategiyasiga moslashadi.

**Resursga asoslangan yondashuv (Resource-based Approach)**: Bu yondashuv ichki resurslar, xususan inson resurslari bilan strategiya va tashkilot o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Ushbu yondashuv inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror raqobat ustunligini yaratishga e’tibor beradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, inson resurslari almashtirib bo‘lmaydigan, noyob kapital bo‘lib, uning kompetensiyalari tashkilotga o‘ziga xos qiymat qo‘shadi.

**Resursga asoslangan yondashuv asosiy mezonlari:[4]**

1. **Qiymat** – xodimlarning kompetensiyalari tashkilot va ish talablariga moslashtirilgan bo‘lib, ular tashkilotga bevosita hissa qo‘shadi va o‘rnini osongina almashtirib bo‘lmaydi.
2. **Noyoblik** – xodimlar kam uchraydigan kognitiv qobiliyatlarga ega bo‘lib, bu ularning bozor talablariga tez moslashuvini ta’minlaydi.
3. **Takrorlanmaslik** – xodimlar o‘zlarining tajriba va ko‘nikmalari bilan tashkilot tarixiga bog‘langan bo‘lib, bu ularning boshqa tashkilotda bir xil natija ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi.
4. **Almashtirib bo‘lmaslik** – qisqa muddatli texnologik almashtirish ehtimoli mavjud bo‘lsa-da, uzoq muddatda inson resurslari texnologiyaga nisbatan kamroq eskirish xususiyatiga ega.

Umuman olganda, resursga asoslangan yondashuv inson resurslarini kapital sifatida ko‘rib

**Xulosa.**Xulosa sifatida aytish mumkinki, inson resurslarini boshqarish dastlab biznes sohasida tashkilotlarning o‘zgaruvchan bozor talablariga moslashishi, raqobatbardoshligini oshirish va kadrlar samaradorligini ta’minlash maqsadida qo‘llanilgan. Ta’lim sohasida HRM strategiyalaridan foydalanish esa inson resurslaridan samarali foydalanishni anglatadi. HRM yondashuvlari boshqaruvda yuqori natijalarga erishishga ko‘maklashadi va bugungi kunda HRM strategiyalari ta’lim muassasalari faoliyatini rejalashtirishda keng qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimov F.K. The concept of methods for measuring and evaluating human capital. American journal of social and humanitarian research, 3(10), 193–199. Retrieved from https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1570

2. Olimov F.X. Inson kapitalini kichik biznesda qo‘llanishini baholash mezonlari. Журнал социальных исследований, 2022; спец. номер 1. ISSN 2181-9556 Doi Journal 10.26739/2181- 9556

# MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH

**Abiyev R.– o‘qituvchi, TDPU.**

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lini tutishi, xalq xo‘jaligining barcha sohalari qatori ilm-fan rivojlanishida ham alohida mazmunga, ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublika jamiyat taraqqiyotida asosiy omil hisoblangan aholi va unga bog‘liq muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan fan demografiya asoslari bo‘lib, uning ilmiy tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti axborotlar oqimining tobora ortib borishi ular asosida bajariladigan jarayonlarning yanada tezroq amalga oshirishni talab qiladi. Shaxsga qo‘yilayotgan yuksak talablar, ya’ni kamolatga erishgan, intellektual, bunyodkor shaxsni tarbiyalash uchun dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabidir.

Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda quyidagi omillarga e’tibor berish lozim:

-jamoaning potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

-shaxsning ichki imkoniyatlarrni yuzaga chiqarish;

-shaxsning ma`naviy energiyasidan foydalanish;

-o‘quvchilarning o‘zaro "hamkorlik" munosabatidan foydalanish;

-muammoli masalalarni munozara usulidan foydalanib yechimini topish yo‘llarini izlashga o‘rgatish;

- o‘quvchi ongiga ilmiy-amaliy o‘yinlar orqali ta’sir qilish.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar dars jarayonida o‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, axborotlarni tanqidiy qabul qilishga jamoa faoliyatida faol ishtirok etishga, o‘z mavqeini mustahkamlashga, fikrlarni himoya qilishga haq-huquqlarini anglab yetishga o‘rgatadi.

O‘sib kelayotgan avlodga ta’lim berish va uni tarbiyalash samaradorligini hamda sifatini ko‘tarish umum ta’lim maktablarining birinchi navbatdagi vazifasidir.

O‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini aktivlashtirishga qaratilgan ta’lim metodlarini takomillashtirish, ularning aqliy qobiliyatini rivojlantirish har bir o‘qituvchining vazifasidir.

Men quyida ba`zi metodlarni namuna tariqasida keltirmoqchiman. Bunday dars o‘tish odatdagi an’anaviy dars o‘tishdan farqli o‘laroq, o‘z samarasini beradi deb hisoblayman.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika ta’limining ahamiyati uning fan - texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Makatabda matematika o‘qitish ta’limning umumiy maqsadlariga xizmat qilishi y’ani o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini,o‘z –o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish va o‘stirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoy hayotlari ta’lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantirish lozim.

Davlat ta’lim standartlari ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnalogiyalardan samarali foydalanishni talab etadi.

O‘quvchilarga integrasiyalashgan ta’lim berishning asosiy usullaridan biri – dars.

Biz dars jarayonida o‘quvchilarga bilim berib gina qoymay tarbiyalab ham boramiz. Shu asosida xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘quvchilarni tejamkorlikka, tadbirkorlikka o‘rgatish maqsadida matematika – iqtisod fanlari orasidagi bog‘lanish asosida yaratilgan bir soatlik dars ishlanmasini keltirib o‘taman.

# BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abrorxonova K.A. - PhD, dotsent.**
**Kamolova N.L.- talaba, TDPU.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarini tatbiq etishning zamonaviy usullari, o'ziga xos xususiyatlari, istiqbolli yo'llari, muammo va yechimlari haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning o'rni, o'quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati kabi masalalar yoritilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, ta'lim, tarbiya, pedogogik texnologiya, tafakkur, boshlang'ich sinf, innovatsion texnologiyalar.

Bugungi kunda jamiyatimizda raqamlashtirish jarayoni shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bu jarayon, albatta, jamiyat a'zolarining oldiga ham bir qator vazifalarni qo'ymoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish maqsadida tizimga o'qitishning zamonaviy usullari kirib kelmoqda. Ta'lim tizimi bevosita jamiyat bilan bog'liq bo'lganligi sababli, jarayonda tarbiyalanayotgan kadrlar ham jamiyatning talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. Aynan shu jamiyatda tug'ilib-o'sayotgan o'quvchilar uchun ham, jamiyatda mavjud holatdan kelib chiqqan holda tashkil etilgan o'quv jarayonlari ham foydali, ham qiziqarli bo'ladi. Shuning uchun bugungi kunda ta'lim tizimiga ham raqamli texnologiyalarini olib kirish ustida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ta'limga oid vazifalari ijrosi jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [1]. Bunda o'qitishning turli shakllari, vositalari va metodlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shu boisdan ham boshlang'ich ta'lim tizimiga raqamli ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish masalasi shu sohadagi ehtiyojlar hosilasidir.

Raqamli ta'lim texnologiyalarini tatbiq etishga oid ehtiyojlar natijasida esa ta'lim tizimida yangi maqsad va vazifalar paydo bo'ldi. Raqamli texnologiyalar jahon tajribasiga ko'ra ta'lim tizimiga XX asr oxirlarida kirib brogan. Aynan shu davrdan boshlab bo sohada yangi metod va usullar ishlab chiqish boshlangan. Raqamli ta'limning asosiy mazmuni esa kompyuter o'quv-texnik vositasiga tayangan o'qitish va o'zlashtirish materiallarini tayyorlash, o'qitishning axborot-kommunikatsion didaktik ta'minotini ishlab chiqish, o'qitish jarayonida mavjud texnik imkoniyatlardan oqilona foydalanish, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'quv-texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirib borish kabi shartlarda o'z aksini topgan. Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi ta'lim tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Bu texnologiyalar orqali tashkil etilgan dars jarayonlari o'zining samaradorligi va qiziqarliligi bilan ajralib turadi.

Dars jarayonlarida e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim omillardan biri bu darslarning o'quvchilar tominidan tez va oson o'zlashtirilishi hisoblanadi. Bu borada shu paytgacha juda ko'p usul va metodlar taqdim etilgan. Raqamli texnologiyalar ham ularning bugungi kundagi faol qismi bo'lib xizmat qilmoqda. Aynan bugungi kunga kelib turli fan sohalaridagi nazariy bilimlardan ko'ra, o'quvchilarning usgbu sohadagi egallagan tushuncha, tasavvur va ma'lumotlar yetakchi o'rinlarni egallaydi. Chunki, bugun insonlar o'zlariga kerak bo'lgan barcha nazariy ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali bemalol topishlari mumkin. Bu borada inson omilining tasiri sezilarli tarzda pasayib bormoda. Bugungi mehnat bozori kadrlarning intelektual salohiyatlariga, kreativligi, turli muammoli vaziyatlarda o'zini tutishiga ko'proq e'tibor qaratmoqda.pedagogika sohasining vazifasi jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, unga kerakli fuqarolarni tarbiyalab berish ekanligini inobatga olgan holda o'quvchilarga ham ularga hayotlari davomida kerakli bilimlarni berish talab etiladi. Raqamli ta'lim texnologiyalarni qo'llash darslarni samarali

qilish bilan birgalikda, o‘quvchilarning jamiyatda yetakchi o‘rinni egallayotgan sohada yetarlicha bilimli bo‘lishini ta’minlaydi.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, ularning ijodiy, kreativ tafakkurini rivojlantirish masalasi globallashib, kundan kunga yanada muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Yurtimizda ham bu masala yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda har kim o‘z ijodiy tafakkuridan, g‘oyalaridan bemalol foydalanishi mumkin. bu to‘g‘risidan yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning ikkinchi bo‘lim, IX bob, 53-moddasida shunday deyilgan: “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi”. Raqamli texnologiyalar har tonlama o‘quv faoliyatining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu texnologiyalar orqali o‘tilgan darslar qiziqarli, o‘rganish oson, o‘zlashtirish qulay kechadi. Albatta, dars jarayonida ulardan foydalanishning puxta va samarali yo‘llarini yaratish orqali natijaga erishish mumkin. 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinflarda “Informatika” fani o‘qitila boshlandi. Bu o‘quv fani o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi, ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasi va texnik vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu sababli mazkur fanni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitish mazmunini yangilaydi, vaositalarini takomillashtiradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarini qo‘llash monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish kerak. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega ekanligi pedogog kadrlardan ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishning zamonaviy, o‘quv faoliyatini yanada takomillashtiradigan usul va texnologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi. Umuman olganda raqamli ta’lim muhiti har tomonlama o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham katta imkoniyat eshiklarini ochadi. Bu texnologiyalar ta’limjarayonlarida bilimlarni tez va qulay o‘zlashtirish imkoniyati bilan birga bu jarayonning shaffof bo‘lishini ham ta’minlaydi. Raqamlashtirilgan ta’lim muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sifatli bilim olishlariga har tomonlama qulayliklar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www. Ziyonet.uz.
3. “Journal of new century innovations” jurnali, 2023-yil, may soni, 19-21b.
4. “Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati”-maqola. Onaxon Mannapovna Jabborova, Dinoraxon Turg‘unboy qizi Saparbayeva.
5. . Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatika o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari. O‘quv qo‘llanma. Guliston, GulDU, 2014 y., 151 b.

# BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TEJAMKORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA TARKIBIY QISMLARI

**Artikbayeva Z.- p.f.n., professor v.b., Nizomiy nomidagi TDPU.**

Ta’lim sohasidagi islohotlardan bosh maqsad – mamlakatimizda moddiy farovonlikni ta’minlash, ta’lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an’analari va urf-odatlari, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta’lim mohiyatini tubdan o‘zgartirish va shu maqsadda iqtisodiy jamoalar tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochish, yaratuvchilarni va mehnat jamoalarini har tomonlama rag‘batlantirish.

O‘quvchilarda tejamkorlikni shakllantirish nazariy va amaliy bilimlar asosida amalga oshiriladi. Shunday ekan, o‘quvchilarda tejamkorlikni shakllantirish muammosi mohiyatini tola anglab yetishga imkon beruvchi asosiy tayanch tushunchalar va ularning ma’no-mazmuni haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Biz yuqorida aytilgan mulhazalarga tayangan holda tejamkorlikni quyidagicha ta’riflaymiz: Tejamkorlikni shakllantirish – shaxsning mustaqil iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishida zarur bo‘ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlarni va davlatning iqtisodiy siyosatini anglashi, o‘z turmush tarzini yaxshilash hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beruvchi iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning qoida va usullari, shakl va metodlarini qo‘llab iqtisodiy bilim berish (olish).

Iqtisodiy tejamkorlik haqida keltirilgan bu fikrlarni tahlil qilish, uning asosiy belgilarini aniqlashga imkon beradi. Bular:

tejamkorlik o‘quvchilarning ijodiy faoliyati bo‘lib, bu bo‘lajak mutaxassisning kasbiy sifat ko‘rsatkichi;

tejamkorlik o‘quvchining moddiy farovonlik yaratish borasidagi tafakkurining shakllanish jarayoni;

tejamkorlik o‘zida nafaqat ilmiy ko‘nikmalarni, balki hayotiy voqelikka amaliy zarurat taqozosi bilan yondashuv malakasini hosil qiladi.

Iqtisodiy tejamkorlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogdan ma’lum tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Bizning nazarimizda tayyorgarlik mazmuni quyidagilardan iborat bo‘ladi:

yangi iqtisodiy tushunchalarni kiritish uchun tushunchalar zaxirasini yaratish;

tahlil natijalari asosida yangi iqtisodiy tushunchalarni kiritish va muammoli vaziyatlar yaratish;

tejamkorlikni shakllantirish maqsadida ma’lum bir tamoyilga amal qiluvchi iqtisodiy masalalarni tanlash;

tejamkorlikni shaklantirish maqsadida aniq iqtisodiy bilimlar mazmunini aniqlash va u asosda maxsus kurs ishlab chikish;

o‘quvchilarda tejamkorlikni shakllantirish jarayonini faollashtirish.

O‘quvchilarning iqtisodiy tejamkorligini shakllantirishning tayyorgarlik davrida bilimlarni o‘zlashtirish sifatini baholash va tatbiq etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun tejamkorlikni shakllantirish mezonlarini bilish zarur. Mazkur muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlar taxlili tejamkorlikni shakllantirish mezonlarini anilqashni taqazo etadi.

Bizningcha, «tejamkorlik» tushunchasining pedagogik mazmuni, ko‘rsatkichi, daraja va mezonlarini to‘g‘ri belgilash va uni iqtisodiy ta’lim-tarbiya mazmuniga kiritish muhim masalalardan biridir. Mazkur muammoga ilmiy pedagogik nuqtai nazardan yondashilmasa, o‘quvchilar tejamkorligini shakllantirish borasida samarali yutuqlarga erishib bo‘lmaydi.

L. S. Vigotskiy ta’limotiga ko‘ra, o‘quvchilarda umumiy tejamkorlikning shakllanganlik darajalari va uni aniqlash mezonlari quyidagicha:

1-daraja (boshlang‘ich). O‘quvchi tushunchalarni o‘qituvchi yordamida o‘zlashtiradi, ammo ularning o‘zaro bog‘lanishlarini anglay olmaydi.

2-daraja (quyi). O‘quvchi tushunchalar bilan bog‘liq predmetlarni, ob’ektlarni, hodisalarni aniqlaydi, lekin ularning xossalarini o‘qituvchi yordamisiz aniqlaq olmaydi.

3-daraja (o‘rta). O‘quvchi tushunchalarning bir-biridan farqini biladi, ularning ayrimlaridan amalda foylana oladi, lekin ularni umumlashtira olmaydi, o‘qituvchi yordamida masalalar yechimini topadi, savollarga bergan javoblarini asoslashga harakat qiladi.

4-daraja (yetarli). O‘quvchi tushunchalarni bir-biridan farqlaydi, ulardan masalalarni xal etishda foydalana oladi, tushunchalar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlay biladi.

5-daraja (yuqori). O‘quvchi tushunchalarni umumlashtira oladi, tushunchalar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlaydi. U erkin ravishda olingan bilimni yangi turdagi masalalarni xal etishga mustaqil ravishda tatbiq eta oladi, javobining to‘g‘riligini asoslay oladi.

Pedagogik tajribalar natijalarini tahlil qilish o‘quvchilarda tejamkorlikni shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarurligini ko‘rsatadi:

-o‘quvchilarini zamonaviy iqtisodiy tushuncha va bilimlar bilan qurollantirish;

-o‘quvchilarni iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy, hayotiy, dunyoviy, ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga va baholashga o‘rgatish;

-o‘quvchilarda o‘z iqtisodiy nuqtai nazarlarni himoya qilish, ko‘nikmalarini shakllantirish.

# RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH MAKTABDA TARBIYA METODIKASINI O'RGATISHNING INNOVATSION YONDASHUVI

**Atabayev Sh. E. - Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchsi, JDPU.**

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, ta'lim, boshlang'ich maktab, axloq, raqamli muhit, interfaol usullar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, virtual haqiqat.

Zamonaviy boshlang'ich maktab o'quv jarayonini jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarga moslashtirish zarurati bilan duch kelmoqda. Boshlang'ich maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishning asosiy jihatlaridan biri odob-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Shu munosabat bilan, an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolgan va bolalarning o'ziga xos yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, odob-axloqni o'rgatish jarayoniga raqamli vositalarni qanday samarali integratsiya qilish kerakligi haqida savol tug'iladi.

Bugungi an'anaviy yondashuv bilan bog'liq muammolar, ya'ni ma'ruzalar, suhbatlar va adabiyotlardan misollar asosida tarbiya mrtodikasini o'rgatishning an'anaviy usullari raqamli asrda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

**-O'quvchi passivligi:** Statik ta'lim formatlari bolalarning faolligini kamaytirishi va o'rganishni qiyinlashtirishi mumkin.

**-Bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyatlarining cheklanganligi:** odob-axloqiy tamoyillar haqidagi nazariy bilimlar har doim ham oson hayotga o'tkazilmaydi.

**-O'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashishdagi qiyinchiliklar:** An'anaviy dasturlar har doim ham bolalarning qiymat yo'nalishlari va rivojlanish sur'atlarining xilma-xilligini hisobga olmaydi.

Shu sababli ham raqamli texnologiyalar boshlang'ich maktab o'quvchilarida odob-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga hissa qo'shadigan interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratish uchun yangi imkoniyatlar ochadi:

**-Interfaol o'quv materiallari:** O'yin elementlari, animatsiya, video va virtual haqiqatdan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradi.

**-Shaxsiylashtirilgan ta'lim traektoriyalari:** Moslashuvchan platformalar har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holda individual ta'lim rejalarini yaratishga imkon beradi.

**-Ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish va modellashtirish:** Virtual muhitlar bolalarga turli xil hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, hamdardlik, mas'uliyat va bag'rikenglikni rivojlantirishga imkon beradi.

**-Axloqiy dilemmalarni muhokama qilish uchun onlayn hamjamiyatlar:** Muloqot va fikr almashish uchun xavfsiz maydon yaratish muloqot ko'nikmalarini, o'z nuqtai nazaringizni muhokama qilish va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**-Sun'iy intellekt:** Mashinani o'rganish algoritmlari talabalarning xatti-harakatlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishi va ularga odob-axloqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berish uchun shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin.

**-Tarixiy va madaniy joylarga virtual ekskursiyalar:** Turli tarixiy davrlar va madaniy kontekstlarga botish turli xalqlarning tarbiyaviy qadriyatlari haqidagi g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi.

**-Hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan onlayn o'yinlar:** his-tuyg'ularni tan olish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish bolalarga boshqalar bilan yanada uyg'un munosabatlar o'rnatishga yordam beradi.

**-Ko'ngilli loyihalar:** Haqiqiy ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish mas'uliyat va hamdardlik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, yuqoridagilar asosida innovatsion yondashuvning afzalliklari ham quyidagilarda namoyon bo‘lib boradi:

**-Motivatsiyani oshirish:** Interfaol ta'lim formatlari o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va qiziqarli qiladi.

**-Asosiy vakolatlarni rivojlantirish:** Raqamli vositalar tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi vakolatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

**-Ta'limni individuallashtirish:** Har bir bola o‘'zining individual xususiyatlariga muvofiq rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**-Raqamli jamiyatga tayyorgarlik:** Raqamli texnologiyadan foydalanish bolalarning tez o‘zgaruvchan dunyoga moslashishiga yordam beradi.

Ammo bu jarayon o ‘zini to ‘liq namoyon etish uchun ayrim qiyinchiliklar va cheklovlar ham yoq emas:

**-Raqamli tafovut:** Barcha bolalar raqamli texnologiyalardan teng foydalanish imkoniyatiga ega emas.

**-Pedagogik tayyorgarlikning etishmasligi:** barcha o‘qituvchilar o‘z ishlarida raqamli vositalardan samarali foydalanishga tayyor emaslar.

**-Raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq xavflar:** kiberbulling, gadjetlarga qaramlik, axborotning haddan tashqari yuklanishi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli ta'lim muhitida boshlang‘ich maktabda axloqni o‘rgatishning innovatsion yondashuvi bolalarda ularning barkamol rivojlanishiga hissa qo‘shadigan qadriyatlar qoidalarini ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Biroq, bunday yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavjud qiyinchiliklar va cheklovlarni hisobga olish, shuningdek, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash kerak.

# BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Axmadaliyeva M.O.- o‘qituvchi**
**Jurayeva Sh.- TDPU, 4-kurs talabasi**
**Xidirova I. - TDPU, 4-kurs talabasi, TDPU.**

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfdagi texnologiya darslarida axborot texnologiyalardan foydalanishning mazmun mohiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** axborot texnologiyasi, didaktik vosita, prezintatsiya , zamonaviy texnologiyalar, axborot- kommunikatsiya texnologiyalar.

Prezidentimiz aytganlaridek, bugungi kundaO‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ijodkor ziyolilardir. Shunday ekan, biz maktabda o‘qitish metodikasini o‘zgartirmasak, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi. Darhaqiqat, hozirgi XXI asr nafaqat texnika-texnologiyalar balki, mana shu texnikadan samarali va g‘ayritabiiy tarzda foydalana oladiganlar davri hamdir.

Bugungi kunda respublikamizning ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni boshlang‘ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, bilish faoliyatini shakllantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir.

Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim.

Ma’lumki, ta’lim bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo‘lib, dars orqali o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘ladi.

Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o‘qitishda axborot komunikatsion texnologiyalaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo‘llashda, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish ob’ekti sifatida emas, balki o‘quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta’limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya darslari axborot texnologiyalari va ularning turlaridan foydalanish eng yaxshi vosita ekanligi qayd etildi. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslaridan axborot texnologiyalari orqali o‘tishda ehtiyoj seziladigan mavzular bazasini shakllantirish lozim; Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish belgilangan mavzu yuzasidan chuqur bilim olish, tasavvur, tushuncha hosil qilish uchun zamin yaratadi. Axborot texnologiyalaridan boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida foydalanish uchun uni didaktik vositalari tizimini ishlab chiqish zarur. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslari jarayonida yaxshi samara bera oladigan axborot texnologiya turlarini ajrata olish va undan foydalanishni tashkillashtirish. O‘qituvchi boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan qo‘llashda didaktik vositalardan foydalanish uchun maxsus ko‘nikma va

malakalarga ega bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallar quyidagi muammolarni hal etishi zarur:

1. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir materiallarni tanlash va ularni o‘qitish samaradorligini oshirishda saralangan materiallardan nazariy (ma'ruza) va amaliy mashg‘ulotlarda qanday an'anaviy, noan'anaviy metodlardan hamda shakllardan foydalanishni aniqlash.
2. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallar o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlashlarini, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni, mantiqiy mulohaza yuritishlarini, amaliy ishlarni bajarishni hisobga olish.
3. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir tanlangan materiallarni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga samarali usulda o‘qitish metodikasini ishlab chiqish.

Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor.

O‘quvchilarni texnologiya fanini to‘liq o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilaniladi. Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanganimizda fan bo‘yicha o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar namoyish qilganimizda o‘quvchilar ko‘rish orqali chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo‘ladilar.

Bizningcha texnologiya darslarida axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanish katta ijobiy natija beradi. Chunki oldin o‘quvchilarga texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida buyumlar tayyorlash jarayonini o‘qituvchi tomonidan birma-bar namoyish qilib berilar edi, bu ortiqcha vaqt sarflanishiga, ayrim paytlarda o‘qituvchining qayta ko‘rsatib berishiga ham to‘g‘ri kelar edi. Bugungi kunda esa axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasvirga olingan mehnat operatsiyalarining videodarslarini o‘quvchilarga havola etib, o‘quvchilar ishini o‘qituvchi tomonidan bemalol nazorat qilish imkonini beradi, o‘quvchilarning bilim darajalarini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning yana bir ahamyatli tomoni shundaki, o‘quvchilarga malakali duradgorlar, chilangarlar, oshpazlar, tikuvchilar va turli sohadagi hunarmandlarimiz tomonidan bajarilgan o‘quv mashg‘ulotlari “Master klass” larni namoyish etish orqali ularda turli xil mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini ham yaxshi yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi.

Biz yuqorida texnologiya darslarida axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ayrimlarini ko‘rsatib o‘tdik.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanilsa texnologiya ta’limi darslari sifati samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Texnologiya fani o‘quv dasturi (1-4-sinf). Toshkent-2017 yil.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016.-279 b.
3. O.A.Qo‘ysinov, V.N.Sattorov, H.S.Yakubova. Mehnat ta'limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). TDPU, 2011, 62 b.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. Mehnat ta’limi metodikasi va kasb tanlashga yo‘llash.Toshkent. Sharq. 2014

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARI BOLALARNING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

**Axmedova S.F. - tadqiqotchi, GulDU, Guliston.**

Boshlang‘ich sinflarda matematika darslari bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni yanada samaraliroq qilish imkonini beradi. Bugungi kunda raqamli vositalar o‘quvchilarning matematik ko‘nikmalarini mustahkamlashda keng qo‘llanmoqda. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar faqatgina nazariy emas balki ko‘rib kuzatib xulosa chiqarishlari mumkin. Shu ustivor jihatlarini hisobga olgan holda har bir dars o‘qituvchi tomonidan qiziqarli, kreativ va albatta samarali tashkillashtirishda muhim omil sifatida ro‘l o‘ynamoqda.

1. Boshlang‘ich sinflarda raqamli texnologiyalar yordamida matematika darslarini tashkil etish. Raqamli texnologiyalar yordamida matematika darslarini o‘tkazish nafaqat an’anaviy metodlarni to‘ldiradi, balki darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, interaktiv doskalar, o‘quv ilovalari va kompyuter o‘yinlari bolalarning matematik topshiriqlarni yechishda qiziqishini oshiradi. Jahon miqyosida zamonaviy ta`lim va tarbiyani tshkil etishda yuqori talablar o‘quvchilar bilish darajasini yanada shakllantirishning takomilashgan metodlariga yondashuvni talab etmoqda. Bunga misol tariqasida Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar darslar davomida faqatgina nazariy ma`lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan olgan bilimlarini har xil darsga aloqador o‘quv qo‘llanmalar yoki kompyuter o‘yinlari yordamida mustahkamlashini aytishimiz mumkin.

2. Raqamli texnologiyalar yordamida individual ta’lim. Boshlang‘ich sinflardagi o‘quvchilarning qobiliyatlari va rivojlanish sur’ati turlicha bo‘lganligi uchun raqamli texnologiyalar yordamida individual yondashuvlar qo‘llash imkoniyati mavjud. Masalan, o‘quv platformalari bolalarga o‘z qobiliyatlariga moslashtirilgan topshiriqlarni taklif qiladi, bu esa ularning bilim darajasiga moslashtirilgan o‘qishni ta’minlaydi. Pedagogika fanidan bizga ma`lumki, har bir o‘quvchiga individual yondashish ta`limda samaradorlikni oshiradi va bolaning o‘z qobiliyatini namoyon etishda, vabu qobiliyatlari ustida ishlab shaxs sifatida rivojlantirishida muhim ko‘makchi vazifasini bajaradi. Individual tartibda har bir o‘quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda vazifalar berish, nazorat qilish va xatolar ustida ishlash imkoniyatini beribgina qolmasdan, o‘quvchilar ota-onalari bilan ham doimiy muloqotda bo‘lishga yordam beradi. Bu esa shaxsiy kamchiliklarni bartaraf etish va fanga qiziqishni ta`minlaydi.

3. Raqamli vositalar yordamida baholash va natijalarni kuzatish Raqamli platformalar orqali dars davomida va undan keyin o‘quvchilarning bilim darajasini kuzatish va baholash mumkin. Bu usul matematik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini kuzatish va zudlik bilan tahlil qilishga imkon beradi. Bugungi kunda yaratilgan innovatsion tekshirish texnologiyalari yordamida o‘quvchilar bilimini baholash vaqtdan samarali foydalaish hamda aniqlik bilan yondashishni taqazo etmoqda. Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida test va topshiriqlarni o‘quvchilarga berish va uni tekshirish jarayonida bu ayniqsa qo‘l kelmoqda. Natijada o‘qituvchi vazifalari kamayib o‘quv jarayonining yanada samarali tashkil etilishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yordamida matematika darslarini tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ko‘plab afzalliklar beradi. Ular nafaqat o‘quvchilarni qiziqtiradi, balki ta’lim jarayonini samaraliroq va interaktivroq qiladi. Kelgusida bu yondashuvlar yanada takomillashib, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda katta rol o‘ynashi mumkin.

# TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Aytbayev D.T. - DSc, v.b. professor, TDPU.**

**Annonatsiya:** Mazkur maqolada o'qitishning interfaol metodlari va uning mahiyati haqida gap yuritiladi. O'qitishga yangicha qarash, talabalarni o'qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligi borasida fikrlar yuritiladi. Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanadigan o'quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan e'tiborga loyiqligi borasida fikr bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik hamkorlik, ta'lim-tarbiya jarayoni , filologik ta'lim, o'qitishning interfaol metodlari, o'qitishga yangicha qarash, ta'lim tizimi, interfaol usullari, tadqiqot usullari.

Hozirgi davrda pedagogik hamkorlik degan tushuncha oldingi vaqtdagilarga nisbatan bir qadar kengroq ma'noda qo'llanilishiga tinglovchilar diqqati tortiladi. Agar oldinlari ta'lim-tarbiya jarayoni uchun o'qituvchi bilan o'quvchi yoki talabalarning hamkorligi yetarli bo'lsa, endilikda bu tushuncha o'quvchi va o'quvchi, talaba va talabalarning bir-biri bilan o'zaro hamkorligini ham o'z ichiga olmoqda. Oliy filologik ta'limda talabalar o'quv kechimining obyektlarigina emas, balki chinakam subyektlari maqomiga yuksalgan paytdagina ta'lim kutilgan samarani beradi.

O'qitishning interfaol metodlarini ta'lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchi uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to'la auditoriyaga katta hajmdagi bilimdarni berishning o'zi yetarli emas. O'tkazilgan ko'pgina eksperiment va tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, o'qitishga yangicha qarash, talabalarni o'qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Oddiy so'z bilan aytganda, talabalar o'quv jarayoniga faol jalb qilgandagina berilayotgan materiallarni oson idrok etadi, tushunadi va esda saqlab qoladi. Shunda kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashni taqoza etadi.

Ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda dunyo miqiyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etdi.

Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanadigan o'quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ta'limning bu usullari o'qitish jarayonining asosiy og'irligi o'quvchilarning zimmasiga ortilishini, o'quvchilar ta'limning obyekti emas, balki subyekti, ya'ni ijrochisi bo'lishini taqozo qiladi. Interfaol metodlarning negizida o'qituvchi bilan o'quvchilarning, hamda o'quvchilar bilan o'quvchilarning o'zaro sheriklikdagi faoliyat ko'rsatishi yotadi. **"Interfaol"** atamasi lotincha **"Inter" va "akt"** so'z birikmasidan olingan bo'lib, **"Inter"** – o'zaro va **"akt"** – faoliyat ma'nolarini anglatadi. Ya'ni interfaol metodlar ta'lim mazmunining to'liq o'zlashtirilishida o'quvchilarning o'zaro bir-birlari va o'qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etishga qaratiladi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishini ko'zda tutadi.

Interfaol metodlar ta'lim kechimida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga tayanadi. Bunda o'qish o'quvchi uchun qiziqarli va zarur faoliyatga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanilganda, o'quvchilar o'qitilmaydi, balki o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni ularning o'zlari egallashadi. Bu hol bolalarda mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. Bunday yo'sinda uyushtirilgan ta'lim kechimining qatnashchilari o'zaro bemalol bahslashadilar, materialni o'zlashtirishni o'zlari xohlaganidek erkin amalga oshirishadi. O'quv topshiriqlarining alohida o'quvchiga emas, balki kichik

guruhlardagi barcha bolalarga berilishi ularda jamoa tuyg‘usini shakllantirib, tashabbuskorligi ortishiga olib keladi.

Interfaol metodlardan foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta’lim kechimi uchun qiziqarlilikning o‘zi maqsad bo‘lolmaydi. U – vosita, xolos. Interfaol usullar, barcha ilg‘or metodlar kabi kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratiladi.

Interfaol metodlarni qo‘llash natijasida domlaning vazifa va maqomi bir qadar o‘zgaradi. Interfaol metodlardan foydalanilganda o‘qituvchi shunchaki dars beruvchi emas, balki tinglovchi uchun maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir. U o‘rganuvchining mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratib, uning tashabbuskorligini har tomonlama qo‘llaydi. O‘rganuvchi ta’lim kechimi va unda erishiladigan natija uchun javobgar bo‘lgan to‘laqonli “sherik”ka aylanadi.

Interfaol metodlarni qo‘llayotgan o‘qituvchi biror dars yuzasidan o‘quvchilarga topshiriq berayotganda bolani faoliyatga undovchi “tasniflang”, “asoslang”, “tadqiq eting”, “umumlashtiring”, “tahlil qiling”, “andaza bering” (modellashtiring), “tashxis qo‘ying”, “baho bering” kabi so‘zlarni qo‘llagani maqsadga muvofiq. Ta’lim kechimiga bu xilda aniq vazifalar qo‘yish o‘quvchilarni izlanishga, faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltiradi.

O‘z tajribasida interfaol usullarni qo‘llayotgan o‘qituvchi qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni bir-biriga to‘qnashtirish orqali o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko‘zda tutishi kerak. Shunda o‘quvchilarda o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi va o‘zgalarning fikriga tezlik bilan qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz joylarni darhol topa olish kabi sifatlar shakllanadi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchidan o‘rinli berilgan aqlli savollarni qadrlashni, bitta aqlli savolni o‘nlab to‘g‘ri, ammo jo‘n javoblardan ustun qo‘yishni talab qiladi. Shunday qilinsa, o‘quvchilarda chuqur va kerakli savollar berishga ichki ehtiyoj, intilish paydo bo‘ladi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yganidan keyin o‘quvchilarga muammo ustida chuqurroq o‘ylash imkonini bera bilishi lozim.

O‘quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko‘rishiga tayanib ta’lim bermoqchi bo‘lgan o‘qituvchi bolalar tabiatidagi o‘ta qiziquvchanlikdan o‘rinli foydalanib, ta’lim kechimida evristik va tadqiqot usullarini ko‘proq qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o‘tilganda “izlanish – faraz – echim – izoh – yangi izlanish” tarzidagi ta’limiy sikl yuzaga kelsa, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari va shaxs sifatida shakllanishlari ta’minlanadi. Bu siklda o‘quvchilar muammo yuzasidan izlanishlari, izlanishning farazni yuzaga chiqargani, faraz va uni asoslashga urinish muayyan echimga olib kelgani, o‘quvchilar tomonidan tavsiya etilgan echim o‘qituvchi tomonidan izohlangani, bu esa keyingi izlanishlarni keltirib chiqargani aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Мухамедов Ў.Х., Усмонбоева М.Ҳ., Рустамов С.С. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. – Тошкент, 2016. – 45.
2. Букатов В.М. Педагогические таинства дидактьических игр. – М., 2003, – 152 б.
3. Толипов У.Қ., Усманова М. Педагогик технология асослари. /Мактаб ва ҳаёт” журналига илова. – Т. , 2003, – 32 б.
4. Толипов У.Қ., Усманова М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Тошкент: Фан, 2005, – 205 б.
5. https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021
6. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/interfaol-metodlar-6
7. https://tsuull.uz/sites/default/files/kullanma_2015.pdf
8. https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-pedagogik-interfaol-metodlar-asosidagi-amaliy-darslar

# DUALIZM: QO‘SHMA GAPNI MURAKKABLASHTIRISHDA UYUSHIQ BO‘LAKLARNING VAZIFASI

**Aytbayev D.T. - DSc, v.b. professor,**
**Kuzenbayeva A.Q. – talaba, TDPU.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplarni murakkablashtirishda uyushiq bo‘laklarning vazifasi hamda bog‘lovchisiz qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriyaning kuzatilishi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** sodda gap, murakkab gap, qo‘shma gap, uyushiq bo‘laklar, uyushgan sifatlovchilar, ikki komponentli qo‘shma gap, uyushgan aniqlovchilar, ikki komponentli qo‘shma gap, propozitsiya, polipredikativ gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap, uyushgan to‘ldiruvchilar, asimmetriya.

So‘zlovchi bitta sodda gap orqali bir necha fikrni tinglovchiga yetkazish mumkin. Bu holatda gap shaklan sodda, mazmunan murakkab gapga aylanadi. Sodda gaplar kabi qo‘shma gaplar ham mazmunan murakkablashadi. Qo‘shma gaplarni murakkablashtirishda ham undalmalar, uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kiritmalar muhim rol o‘ynaydi. Ana shunday qo‘shma gapni mazmunan murakkab gapga aylantiruvchi vositalardan biri – uyushiq bo‘laklar. [2; 89]

Ma’lumki, gapning har qanday bo‘laklari uyushib kelishi mumkin. Gapning biror bo‘lagini uyushgan holda qo‘llash muayyan maqsad bilan amalga oshiriladi. So‘zlovchi yoki yozuvchilar uyushgan bo‘laklarni qo‘shma gaplar tarkibida ishlatib, o‘z fikrlarini tinglovchi yoki o‘quvchiga aniqroq, batafsilroq yetkazishga harakat qiladilar. Shu ma’noda gapning har bir bo‘lagi uyushgan holda kelishi mumkin. Qo‘shma gap tarkibida uyushgan sifatlovchilar nutqning ekspressivligini ifodalash uchun xizmat qiladi: Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichida ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat. (A.Qahhor) [1; 366]

Keltirilgan misolda uyushiq bo‘laklar qo‘shma gapning tarkibida kelgan va gap orqali anglashilgan fikrning tasviriyligini, ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Bu gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lib, qo‘shma gap qismlari ohang yordamida birikkan. Uyushiq bo‘laklar ekspressiv vazifa bajarish bilan birga, qo‘shma gapni murakkablashtirgan. Ma’lumki, ikki komponentli qo‘shma gaplarning har qanday turi ikki sodda gapning mazmun va grammatik jihatdan yaxlitlashuvidan tarkib topadi. Binobarin, qo‘shma gap orqali ikkita fikr anglashiladi. Yuqoridagi bog‘lovchisiz qo‘shma gapning mazmuni esa uyushiq bo‘laklar vositasida murakkablashgan. Gapda aniqlovchilar uyushgan bo‘lib (salqin, tinch; baland, chiroyli), ular ikkinchi sodda gap tarkibida qo‘llangan. Salqin, tinch aniqlovchilari uyushgan holda bog‘lanib, o‘rin holining xususiyatini ifodalagan bo‘lsa (salqin, tinch parkda), baland, chiroyli aniqlovchilari kesimning xususiyatini aks ettirishga xizmat qilgan (baland va chiroyli imorat). Gapning mazmunini tahlil qilsak, bir necha fikrlar uyg‘unligiga guvoh bo‘lamiz. Uyushiq bo‘laklar orqali quyidagi yashirin ma’nolar anglashiladi:

1) park – tinch; 2) park – salqin; 3) imorat baland; 4) imorat chiroyli.

Demak, mazkur gap shaklan ikki komponentli qo‘shma gap bo‘lsa-da, unda mazmunan bir necha propozitsiya ifodalangan:

1) bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shudir;
2) park salqin; 3) park tinch; 4) imorat baland;
5) imorat chiroyli; 6) imorat daraxtlar ichida ko‘milgan).

Natijada qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriya vujudga kelgan. Bunda qo‘shma gapning ikkinchi komponenti (salqin, tinch parkda, daraxtlar ichida ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat) bir vaqtning o‘zida ham zich aloqali, ham yarim zich aloqali polipredikativ gap hisoblanadi.

Uyushiq bo‘laklar orqali ifodalangan propozitsiya asosiy propozitsiya bilan umumiy strukturani tashkil etgani uchun zich aloqali polipredikativ gap hisoblansa, daraxtlar ichida ko‘milgan sifatdosh o‘rami tobe munosabatda bo‘lib, uning predikativ ko‘rsatkichlari to‘liq emas, shuning uchun u ikkinchi darajali predikatsiyani (qo‘shimcha predikatsiyani) ifodalagan va murakkablashgan sodda gapni hosil qilgan.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ham uyushiq bo‘laklar ifodalagan tushunchalar alohida ta’kidlanganda, morfologik ko‘rsatkich va ko‘makchilar uyushiq bo‘laklarning har biriga qo‘shilib keladi. Masalan: 1. Siz avval o‘zlaringni, aka-ukalaringni, ota-bobolaringni berib yuribsizlar, o‘zlaringga o‘zlaring o‘q otasizlar. (A.Qahhor) [1; 366]

Berilgan gap ham tuzilishiga ko‘ra bog‘lovchisiz qo‘shma gap hisoblanadi. Mazkur gapda to‘ldiruvchilar uyushgan, ular fikrni konkretlashtirishga xizmat qilish bilan birga uslubiy vazifa ham bajargan. Ular yordamida ta’kid kuchaytirilgan. Ta’kidning kuchli ifodalanganini kelishik qo‘shimchasining uyushiq bo‘laklarning har biriga qo‘shilib kelganidan anglash mumkin (o‘zlaringni, aka-ukalaringni, ota-bobolaringni). Gap semantik jihatdan o‘rganilganda, nomuvofiqlikni yuzaga chiqarayotgan uyushiq bo‘laklar yordamida bir qator fikrlar anglashilishi oydinlashadi:

1) o‘zlaringni berib yuribsizlar; 2) aka-ukalaringni berib yuribsizlar;

3) ota-bobolaringni berib yuribsizlar.

Ushbu uchta propozitsiya bitta sodda gap tarkibida ifodalangan, keyingi sodda gapda ham bitta propozitsiya ifodalanganini hisobga olsak, mazkur bog‘lovchisiz qo‘shma gapdan to‘rtta propozitsiya anglashiladi.

Natijada bog‘lovchisiz qo‘shma gapning shakli va mazmuni o‘rtasida asimmetriya kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. Ikkinchi jild. Qo‘shchinor chiroqlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 366 b.
2. Ashurov D., Ubayeva F., Boltaboyeva H. Gapning uyushgan va ajratilgan bo‘laklari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1962. – B. 89.
3. Berdialiyev A. O‘zbek tili ergash gapli qo‘shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. – Toshkent: Fan, 1993. – 94 b.

# BADIIY ASAR – QISMLARDAN TASHKIL TOPGAN BUTUNLIK

**Aytbayeva G.Y. – katta o‘qituvchi, GulDU.**

**Annotatsiya:** Maqolada ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat san’atkorning bungacha kechirgan hayoti, ko‘rgan-kechirganlari zaminida yuzaga kelishi va san’atkorning hayot yo‘li, unga oid fakt va hodisalar, shaxsiyati, saviyasi bilan badiiy asar orasidagi aloqa ko‘proq genetik jihatdan, ya’ni paydo bo‘lishi, dunyoga kelishi jihatidan xarakterga egaligi haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy ijod, san’atkor, badiiy asar, ijodiy-ruhiy jarayon, muallif obrazi, lirik qahramon, badiiy voqelik, sistem butunlik.

Biz badiiy ijod jarayoni deganda san’atkor ongida ijodiy niyat etilib, “bo‘shanish” zarurati yuzaga kelgan paytdan asarga so‘nggi nuqta qo‘yilgunga qadar bo‘lgan vaqtni ko‘zda tutamiz. Ayni shu vaqt oralig‘ida san’atkor ongida kechgan ijodiy-ruhiy jarayon badiiy asarda akslanadi. Shu bois ham mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlariga ayricha e’tibor zarur. Avvalo shuki, ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat san’atkorning bungacha kechirgan hayoti, ko‘rgan-kechirganlari zaminida yuzaga keladi. Biroq ijod onlarida u oldingi hayotidan, zamindan uziladi go‘yo: tamomila o‘zga o‘lchovda – ideal olamida yashaydi. Bundan ayon bo‘ladiki, san’atkorning hayot yo‘li, unga oid fakt va hodisalar, shaxsiyati, saviyasi va h. bilan badiiy asar orasidagi aloqa ko‘proq genetik (paydo bo‘lishi, dunyoga kelishi jihatidan) xarakterga egadir. Shunga ko‘ra, hayotda biz bilgan san’atkor bilan ijod onlaridagi san’atkor orasiga tenglik alomati qo‘yib bo‘lmaydi: real san’atkor bilan asarda aks etgan muallif obrazi (yoki lirik qahramon) bitta emas. Ikkinchidan, ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat betakror bo‘lib, bitta daryoga ikki bora sho‘ng‘ib bo‘lmaganidek, san’atkorning xuddi shu ijodiy-ruhiy holatga qayta tushishi mumkin emas. Demak, o‘zida muayyan ijodiy-ruhiy holatni aks ettirgan badiiy asar ham betakror (fenomenal) hodisa sanaladi. Shunga ko‘ra, badiiy asardagi har bir unsur o‘sha ijodiy-ruhiy holat mahsuli, asarda bironta ham ortiqcha unsur mavjud emas. Zero, asardagi barcha unsurlar, hatto, bizning nazdimizda ortiqchadek tuyulganlari ham muallifning ijod onlaridagi ruhiy holatini, demakki, asarning mazmun mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Anglashiladiki, badiiy asar – butunlik, bu butunlikdagi biror bir unsurni asar mazmun-mohiyatga putur etkazmagan holda olib tashlash mumkin emas. Sababi, badiiy asarni tashkil qilayotgan unsurlarning bari bir-biri bilan mustahkam aloqada, ayni shu aloqalar asosida butunlik yuzaga keladi, ya’ni, badiiy asar – qismlardan tashkil topayotgan butunlik, sistem butunlikdir.

Badiiy asar – sistem butunlik, sistema deganda esa qismlardan tarkib topgan butunlik tushuniladi. Bu monolit emas, lekin qismlar orasidagi aloqa shu qadar muhimki, bu aloqalarning yetarlicha anglanmasligi asarni chala, o‘z mohiyatidan o‘zgacha tushunishga olib kelishi mumkin. Butunga kiritilayotgan qism butun talabiga mos holda kiritiladi, demak, qismlar orqali butun tushuniladi, qismning mohiyati butun tarkibidagina namoyon bo‘ladi. Demak, badiiy asarni o‘qiyotgan odam, birinchidan, asardagi har bir qismni boshqa qismlar bilan aloqada, ikkinchidan, asarni butun holicha tasavvur eta bilmog‘i lozim. Deylik, katta hajmli romanning boshlanish qismidagi konkret unsur uning oxiridagi boshqa bir unsur bilan mazmuniy aloqaga kirishishi mumkin, lekin bu aloqa bevosita emas, ya’ni, yozuvchi bu aloqaga hech qanday ishora qilgan emas. Biroq ularning har ikkisi butunning qismi bo‘lgani uchun ham butunning mazmun mohiyatini ochishda bu aloqa muhimdir. Elektr manbaiga ulangan ikkita simning uchi bir-biriga tegizilganda uchqun chiqqanidek, ongimizda o‘sha ikki qismni bir-biriga to‘qnashtirganimizdagina uchqun chiqadi – mazmunning yangi bir qirrasi kashf etiladi. O‘qishning ijodiy jarayon deb atalishi ham aslida shundan, ya’ni, asar qismlarini o‘zaro bog‘lagan holda yaxlit butunlikni hosil qilishning o‘zi ijoddir.

Konkret asarning turli o‘quvchilar tomonidan turlicha tushunilishining boisi ham bir tomoni shunda – qismlar orasidagi ko‘rinmas aloqalarni tiklay olish imkoniyati barcha o‘quvchilarda ham birdek emas. Bu o‘rinda masalaning yana bir muhim jihati mavjud: sistem butunlik, birinchi galda, obyekt (badiiy voqelik) va subyekt (ijodkor) birligini taqozo qiladi. Shunday ekan, badiiy asarga ijodiy yondashuv o‘quvchi o‘qish jarayonida ijodkor subyektining o‘rnini egallab, uning ijod onlaridagi betakror ijodiy-ruhiy holatiga kira olsagina mavjuddir. Bunda o‘quvchiga ijodiy jarayonning modeli bo‘lmish asarning o‘zigina yordam berishi mumkin. Asar (sistem butunlik)ni tushunishning ko‘pchilik e’tirof etgan qoidasi esa oddiygina: butunni qism, qismni butun orqali tushuniladi. Baski, konkret asar strukturasini – butunlikning tashkillanishi, uni tashkil etayotgan unsurlarning o‘zaro aloqalari, ularning qay yo‘sin butunlik hosil qilishini – yorqin tasavvur etmasdan turib uning mazmun-mohiyatini anglash mahol. Hatto, kezi kelganda bittagina unsurning e’tibordan chetda qolishi ham butunning mazmun-mohiyatini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Zero, struktura mazmunning mantiqiy tashkillanishidirki, o‘sha mantiqni o‘zlashtirmasdan turib badiiy asardagi mazmun jilolarini ilg‘ash dushvordir.

Foydalanilgan adabiyuotlar

1. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume: 10, Issue: 11, November. – India, 2020.
2. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International. Journal of Anglisticum. Literature, Linguisitcs and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
3. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American. Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
4. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //The American Journal of 28. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. Scientific journal of the Fergana State University, 1(3), 111-112.
5. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work / / Badiy asar syujetida ritm ko‘rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India,June, 2021, –P. 8355-8357.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Badiiy_asar
7. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/badiiy-asar-haqida

# O‘QITUVCHINING KONFLIKTOLOGIK TAYYORGARLIGI, MAKTAB VA OILA O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH SHARTI SIFATIDA

**Azimova O.A. - TDTU tayanch doktoranti.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘qituvchining konfliktologik tayyorgarligining ta’lim sohasidagi o‘rni, konfliktologik madaniyat va uning tarkibiy tuzilishi masalasi muhokama qilindi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik tayyorgarligi, maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashining mazmun-mohiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** konflikt, nizo, maktab, oila, hamkorlik, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim, tarbiya.

Rivojlangan mamlakatlarda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida, avvalambor, ta’lim-tarbiya tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etildi. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish vazifalari belgilandi. Mamlakatimizda ham ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi prezident farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.[1] Ushbu qonun hujjatlarida ta’limdagi hozirgi muammolarni hal qilishga qaratilgan, yaqin besh yilda natijasini ko‘rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan.

Jamiyatimizdagi yoshlarni axloqiy sifatlarini shakllantirishda tarbiyaning vazifalari keng va ko‘p qirrali ekanligini unutmasligimiz kerak. Bunday mas’uliyatli ishni bajarishda o‘qituvchilarimizdan metindek iroda, kuchli bilim, konfliktologik madaniyat talab etiladi. Shu bilan bir qatorda maktab, mahalla va oilaning o‘zaro hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika ensiklopediyasida maktab tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan. Maktab (arab.-o‘qish joyi; yozuv stoli; bo‘lim; idora) - o‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o‘rgatib, uni ma’lumotli qiluvchi ta’lim-tarbiya muassasasi; kasb, hunar, ixtisos o‘rganiladigan o‘quv yurti; ilm-fan san’at, adabiyot, ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasida biror oqim, yo‘nalish; o‘rganish tajriba orttirish, o‘rnak olish manbai.[2]

Bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik nizoga oid bilimlarning shakllanishi, kasbiy sohasida namoyon bo‘lishi, nizolarni boshqarish usullari konfliktologik g‘oyaviy faoliyatini optimallashtirishga ham imkon beradi. [4].

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi oila bilan hamkorlikning uzluksiz ta`limiy jarayoni hisoblanib, ota-onalar bilan hamkorlikga kirishishda o‘qituvchining konfliktologik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Konfliktologik savodxonlik - bu mojarolarni tahlil qilish va ular bilan ishlash mexanizmi va texnologiyalarini bilishda emas, balki ularni intuitiv tushunishda namoyon bo‘ladigan eng asosiy daraja bo‘lib, u umuman shaxsga nizolarni konstruktiv tarzda hal qilishga imkon beradi.[3]

Hozirgi paytda hamkorlikning zamonaviy yondashuvlar quyidagicha olib borilmoqda:

❖ Birinchidan tadbirlar olib borish jarayonida ota-onalarni bolalar bilan birgalikda qatnashishga jalb qilish orqali ularni farzandlari bilan aloqalarini yanada yaxshilash, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni yanada kuchaytirish va ularning birgalikdagi vaqtlarini yanada orttirish;

❖ Ota-onalar bilan yig'ilishlar o'tkazish orqali ular va farzandlari o'rtasidagi munosabatlarni, bolalari bilan qanday mavzularda suhbatlashishlari kerakligi hamda bolalar kelajakda aniq maqsadiga ega bo'lgan yetuk shaxs bo'lishi uchun ularning qanchalik hissalari katta ekanligini tajribali psixologlar bilan birgalikda ishlash orqali ularga tushuntirish;

❖ Alohida yakka tartibda suhbatlar o'tkazish orqali oilaviy muhitni o'rganish, otaonalar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida bolalarning uydagi muhit, sharoit va ularni otaonalari va boshqa yaqinlari oraida o'zlarini qanday tutishlari va boshqa jihatlarini chuqur o'rgangan holda ularga bo'lgan alohidadan e'tiborni yanada kuchaytirish va shunga qarab ular bilan bo'lgan aloqalar-u ularning kelajagi uchun ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan rejalarni tuzish va ular asosida bolajonlarni tarbiyalash;

❖ Ko'ngilli ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatgan holda bolalarning ota-onalari bilan yaqindan tanishish, o'zaro tajribalar almashish, bir-birlari bilan muloqotni yanada kuchaytirish, bolalari bilan yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda hal qilib otaonalarni bir maqsad va bir tizim ostida birlashtirish;

❖ Onlayn muloqotlarni va onlayn tartibda ham ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, onlayn tizimdagi muloqotni yuqori darajaga chiqarish va bular orqali bolalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari orasidagi munosabatlarni o'rganish va kuzatib boorish, o'quvchilarning ta'lim muassasasigi vaqtlarini qanday o'tayotganini kuzatib borish, undan tashqari yuzma-yuz yig'ilishlarga kelolmayotgan ota-onalar bilan muloqotlarni boy bermasdan ular bilan ham hamkorlikni tizimli ravishda davom ettirish;

Xulosa qilib aytganda Maktab, oila bilan hamkorlikning zamonaviy shakli hozirgi payitda ilg'or yondashuv hisoblanib, bu ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani kuchaytirmoqda. Zamonaviy hamkorlikning o'zgacha yondashuvi otaonalar farzandi nima yoqtirishini, yoqtirmasligini, uning afsalliklarini o'rganib unga asoslangan holda yondashishligini bildiradi. Bu hamkorlik ota-onalar va bolalar o'rtasidagi hissiy aloqalarni o'rnatadi. Farzand tarbiyasi ota-onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas'ulyati hamda qarindosh-urug'lar oldidagi javobgarligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi prezident farmoni.

2. Safarova.R. Mas'ul muharrir Pedagogika ensiklopediya. II jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2015. 234-bet

3. Щербакова О.И. Формирование и развитие понятия «конфликтологическая культура личности» в теории и практике современной конфликтологии // Проблемы современного образования 2010. –N 2.

4. Шварцман К.А. Философия воспитания: критический анализ немарксистских концепций. – М., 1989. – 208 с.

# RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TABIIY FANLAR VA ULARNI O‘QITISHNING INNOVATSION YONDASHUV MASALALARI

**Abrorxonova K.A. - PhD, dotsent.**
**Barotova M.Sh.- stajyor o’qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli ta’lim muhitida boshlang’ich ta’lim tabiiy fanlarni o’qitishning innovatsion yondashuvi va ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida o’rganiladigan jihatlari keng o‘rin olgan.

**Tayanch so‘zlar:** raqamli ta’lim, tabiiy fanlar, boshlang’ich ta’lim, texnologiya, sun’iy intelekt.

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuv masalalari hozirgi kunda juda muhim bo'lib, ular ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qilishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar yordamida o'quvchilarning tabiatshunoslik fanlariga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

**1. Interaktiv texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish:** Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Tabiiy fanlarni o'rganishda virtual laboratoriyalar o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlarni xavfsiz va ko'proq imkoniyatlar bilan o'tkazish imkonini beradi. Misol uchun, biologiya, kimyo va fizika darslarida turli tajribalarni onlayn simulyatsiya qilish orqali mavzuni yaxshiroq tushunish mumkin.

Multimedia vositalari: Videodarslar, animatsiyalar va grafiklar tabiiy fanlar darslarini yanada jonli va tushunarli qilishda yordam beradi.

**2. Gamifikatsiya:** O'quv jarayonini o'yinlar orqali tashkil qilish o'quvchilarni rag'batlantiradi. Masalan, tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarga turli topshiriqlarni o'yinlar shaklida berish ularni bilim olish jarayoniga faol jalb qiladi va raqobat muhiti yaratadi.

**3. Masofaviy ta'lim va individual yondashuv:** Raqamli ta'lim muhitida har bir o'quvchi o'z tezligida va individual qobiliyatlariga qarab o'rganishi mumkin. Bunda platformalar yordamida o'quvchilar o'z bilim darajasiga mos topshiriqlarni olishlari va ta'lim jarayonini o'zlariga qulay vaqtda olib borishlari mumkin.

**4. Kooperativ va kollegial ta'lim usullari:** Raqamli platformalar orqali o'quvchilar birgalikda turli loyihalarda ishtirok etishlari, ilmiy izlanishlar o'tkazishlari va fikr almashishlari mumkin. Masalan, guruh bo'lib muammolarni hal qilish usuli orqali o'quvchilar muloqot ko'nikmalarini hamda ilmiy tushunchalarni yaxshiroq o'zlashtirishadi.

**5. Sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim tizimlari:** Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta'lim platformalari o'quvchilarning o'rganish sur'atini tahlil qilib, individual yondashuvni taklif qilishi mumkin. Bu o'qituvchilarga darslarni rejalashtirishda ko'maklashadi va o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini kuzatishga imkon yaratadi.

**6. Raqamli resurslar orqali ochiq ta'lim imkoniyatlari:** Tabiiy fanlar bo'yicha ochiq onlayn kurslar, qo'shimcha ma'lumot manbalari va elektron kitoblar o'qituvchilarga dars mazmunini boyitish imkonini beradi. Bu o'quvchilarga faqat maktab dasturi bilan cheklanmasdan, keng qamrovli ma'lumotlarga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Bu yondashuvlar tabiiy fanlarni o'qitishda nafaqat ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganish, izlanish va ilmiy qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni yangi texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish va raqamli ta'lim muhitida ishlashga tayyorlash ham muhim masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi Sayti (www.edu.uz)
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www. Ziyonet.uz.
3. O'zbekiston Milliy Universiteti Kutubxonasi. Tabiiy fanlar va raqamli ta'lim usullari bo'yicha mahalliy ilmiy adabiyotlar.

# INGLIZ TILI AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV NUTQ MADANIYATI

**Begmatova L. - TDPU tayanch doktoranti**

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kreativ nutq madaniyatini rivojlantirishga bog‘liq pedagogik jarayonlarni modellashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishning samarali usullari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kreativ nutq, kreativlik, madaniyat, ingliz tili, kommunikativ kompitensiya, metod.

Hozirgi kunda chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi - madaniyatlararo muloqotda ishtirok eta oladigan shaxsni shakllantirishdir. Yurt kelajagi bilimli, yuqori salohiyatli, tanqidiy fikrlaydigan intiluvchan yoshlar qo‘llidadir. Bo‘lajak kadrlarni bunday darajada ta'lim tarbiyaga ega bo‘lib ulg‘ayishlarida nafaqat ota- onaning ro‘li, har bir pedagogning ham ahamiyati katadir.

Respublikamizda so’ngi yillarda xorijiy tillarni o’rganish jarayonida o’quvchilarni kreativ nutq madaniyatini shakillantirishga bog’liq pedagogik jarayonlarni modellashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Xorijiy tillarni o’rgatish bo’yicha kelajak uchun mustaxkam poydevor bo’ladigan yangi tizimni yo’lga qo’yish vaqti keldi”. Natijada maktab o’quvchilarining xorijiy tillardan bilimlarini oshirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi. 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga ko‘ra, xorijiy tillarni o’rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo’nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o’rganishga bo’lgan qiziqishini oshirish nazarda tutilgan[4].

Yozuvchilar yozuvchilik to‘siqlari bilan yuzma-yuz kelishi va komediyachilar sahnada "o‘lishi" kabi, o‘qituvchilar o‘quvchilarning sinfdagi qiziqishning etishmasligi yoki umumiy e'tiborning etishmasligi o‘quv jarayonini yo‘qotish bilan tahdid qiladigan lahzalarga duch kelishlari mumkin. Bunday vaziyatga duch kelgan o‘qituvchilar uchun ingliz tili chet tili sifatida (EFL), foydali deb topilgan kreativ faoliyatdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarning ijodini to‘liq jalb qiladigan mashg‘ulotlarni loyihalash murakkabdir. Shu sababli, o‘qitish sifatini mustahkamlash uchun ko‘proq ijodkorlikni talab qiladigan ijodiy yozish mashqlari va og‘zaki o‘zaro ta'sir kabi bir nechta strategiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunday ijodiy faoliyat chet tilini o‘rganishni rag‘batlantirish va yanada mosroq tajribani rivojlantirish uchun muqobilidir. Bu jarayonlarni boshlang‘ich ta’limdan ya’niy maktabgacha ta’lim dargohlarida va kelgusida boshlang‘ich sinflarda mazmunliy davom ettirilishi kichik yoshdagi horijiy til o‘rganuvchi o‘quvchilarining kelajakdagi til egallash samaradorligiga mustahkam poydevor bo‘ladi.

Kreativlik- (inglizcha so‘zdan creative - yaratish,) - shaxsning an'anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan va mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiritilgan tubdan yangi g‘oyalarni qabul qilish va yaratishga tayyorligi bilan tavsiflangan ijodiy qobiliyat. Shuningdek, statik tizimlar ichida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatidir[1].

Kommunikativ kompetentsiya - bu til, uning fonetikasi, lug‘ati, grammatikasi, stilistikasi, nutq madaniyati, tilning ushbu vositalarini va nutq mexanizmlarini - gapirish, tinglash, o‘qish, yozishni bilishni bildiruvchi shaxsning ijtimoiy, kasbiy, madaniy ehtiyojidir [2]. Kommunikativ kompetentsiya lingvistik shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi.

Yuqorida ta'kidlangan mashg‘ulotlar davomidagi muammoni bartaraf etish uchun, pedagogdan darsga kreativ yondashuvi talab qilinadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotida darslarni tashkil etishda yuqori samara beradigan bir qancha metodlar mavjud bularga:




va boshqalarni misol keltirish munkin.

Chet tillarida o‘qitishning asosiy maqsadi bu maktab o‘quvchilarining kommunikatori madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilida amaliy mahoratni o‘rganish. O‘qituvchining vazifasi har bir o‘quvchi uchun ingliz tili amaliy mashg‘ulotida qiziqishni uyg‘otish, har bir o‘quvchi faoliyatini, ijodini ko‘rsatishga imkon beradigan o‘quv usullarini tanlash kerak. Hamkorlik, loyihaning metodologiyasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet-resurslarni bolalarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning ta'lim darajasi, ularni individuallashtirish bilim darajasini oshirishda yordam beradi. Aloqaviy yondashuv -bu muloqotni uyg‘otadigan strategiya bo‘lib, ular bilan aloqa qilishning moddiy va usullarini ongli ravishda tushunishga qaratilgan. Foydalanuvchi Internetdagi kommunikativ yondashuvni amalga oshirish uchun bu juda qiyin emas. Kommunal vazifa muammoni yoki munozara uchun savol tug‘ilishi kerak va o‘quvhilar shunchaki ma'lumot almashish, balki uni baholash ham mumkin. Ushbu yondashuvning boshqa turdagi faoliyat turlaridan farqlashga imkon beradigan asosiy mezon shundan iboratki, o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirish uchun til birligini tanlaydilar.

O‘quvchi bu izlanuvchi demakdir har bir izlanuvchi o‘z qizishilari asnosida biror fanni yoki sohani o‘rganishga intiladi. Shunday ekan kreativ yondashilgan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilar uchun kreativ yangilik bo‘lib ularda mashg‘ulotlarga nisbatan katta qiziqish, darsga nisbatan muhabbat uyg‘atadi. O‘quvchilar ingliz tilini mukammal o‘zlashtirishlari pedagogning mahorati va uning darsni qanday tashkil etishiga bog‘liqdir. Qiziqarli va samarali tashkil etilga mashg‘ulot intiluvchan, izlanuvchan o‘quvchilarni darslarda muntazam ravishta faolligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1.Архипова Ж.Ю. Интерактивные методы обучения на уроках английского языка как средство развития коммуникативной компетентности учащихся. [Электронный ресурс]. / Режим доступа: ҳттп://рудосс.ехдат.сом/досс/индех-152177.ҳтмл (дата обращения:13.04.2016)

2.Толипов Ў.Қ., Сайидаҳмедов С.Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар. –Т. “Фан ва технология”, 2014.-Б.335.

3.Torrance E.P. / Developing creative thinking through school experience // -N.V., 1962. –c. 215

4.https://president.uz/uz/lists/view/432

# BADIIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY JIHATLARI BORASIDA

**Bobonazarova G. – o‘qituvchi,**
**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti**

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda jahon adabiyoti namunalarini o‘rganish va o‘rgatish har doimgidan ko‘ra kattaroq ahamiyat kasb etib bormoqda. Quyidagi maqolada Jahon adabiyoti darslarida badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari borasida borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** jahon adabiyoti, badiiy asar, tahlil, ta’lim, badiiy kompetensiya, innovatsion texnologiya, multimedia.

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyalarni rivojlantirish bevosita ilmiy-ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ilm-fan yutuqlaridan foydalanish orqali ta’lim oldiga qo‘yilgan vaziflarning optimal yechimlarini tanlay bilish va maqsadli qo‘llashni taqozo etadi. Bu borada multimedia vositalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tegishli natijani kafolatlaydi. Binobarin, tadqiqotchilar ta’riflaganidek, multimedialar asosida tashkil etilgan ta’lim “o‘quv jarayonining kuchli tomoni bo‘lib, o‘qituvchilar uni ana’anaviy o‘qitish usullari o‘rnini bosadi, demay, balki “boyitilgan” ko‘rinishi” ekanligi rost hisoblanadi.

Multimedia matn, tasvir, ovoz, animatsiya kabi axborotning turli ko‘rinishlarini kompyuterda yaxlit birlashtirishga zarur shart-sharoit yaratadi. Multimedia ilovalarining bir qator afzalliklari mavjud.

Masalan, o‘qituvchilar uchun: o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashlariga imkon yaratishi; darslarning noan’anaviy ko‘rinishda tashkil qilinishi; talabalarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi; bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga bo‘shliqlarni to‘ldirishda yordam berish imkonini oshiradi.

Talabalar uchun: talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi; o‘qishda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi; topshiriqlarni bajarishda qulayliklar yaratishi; yangi mavzuni o‘zlashtirish imkonini berishi; mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatadi.

Jahon adabiyoti namunalarini o‘rganishda talabalarning o‘zlashtirishiga e’tiborni kuchaytirish. Talabalarni dunyo xalqlari boy ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, adabiy-badiiy manbalarni, jahon adabiyoti namunalarini o‘rgatish, o‘zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini, tafakkur ko‘lamini va adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, ilmiy mushohada va nazariy tahlil, talqin ko‘nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas’uliyatini shakllantirishda e’tiborini qaratishi muhim.

Talabalarda o‘qiyotgan badiiy asar qahramonlarini ko‘z o‘ngida gavdalantirish, jonlantirish hissiyotlarini uyg‘ota bilishda quyidagi holatlariga e’tiborni qaratis h zarur:

1. Jahon adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlar asosida xulosa va qarorlar qabul qilish;
2. “Jahon adabiyoti” muammolari yuzasidan ijodiy fikrlay olish;
3. “Jahon adabiyoti”ning taraqqiyot bosqichlari yuzasidan ilmiy mushohada yurita olish;
4. Asar qahramonlarining tavsifiga e’tibor qaratish;
5. Adib asarlarida qahramonlar xarakterining yaratilish mahorati: shaxs erki va xalq ozodligi masalasi, inson matonati va iroda kuchining ifodasi, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, sadoqat kabi fazilatlar tasviriga ahamiyat berish.

Jahon adabiyoti durdonalari asosida tayyorlangan audio, video va elektron kitoblar to‘plamlarini o‘rganish. Axborot almashinuvi juda tez suratlarda amalga oshayotganligini hisobga olgan holda audio, video va boshqa elketron to‘plamlar ko‘paytirilmoqda. Ayniqsa, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda o‘quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida talabalarga namoyish etish bir qadar qulayliklarni yaratadi. Chunki multimediali vositalar

talabalarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashga yordam beradi hamda muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga chorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida: “ilm-fanni yanada rivojlantirish va uning zamonaviy infratuzilmasini yaratishda, avvalo, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi hamda butlovchi qismlar bilan ta’minlanishiga hamda faoliyat infratuzilmalari(ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari) doirasida milliy ilmiy laboratoriyalar tarmog‘i yaratilishiga alohida e’tibor berish”ni ta’kidlaganidek, elektron axborot ta’lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta’lim turlaridan biri bo‘lib, insonning individualligini anglash, ularning psixologik xususiyatlarini bilish va hisobga olishga asoslanadi. Shuningdek, elektron axborot ta’lim muhiti innovatsiyalar diffuziyasi samaradorligining asosi sifatida belgilanadi.

Zamon talablariga mos ravishda jahon adabiyoti asarlarining elektron shaklda yuklangan “Elektron audio va video to‘plamlar” talabalar uchun ancha qulayliklarni yaratadi. Shu bois bugungi kunda ushbu elektron kitob to‘plamlardan o‘quv yurtlarida samarali foydalanilmoqda (1.6.- rasm)

Jahon adabiyoti namunalari asosida ssenariylashtirilgan badiiy film, multfilm, sahnalashtirilgan teatrlardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar yordamida kinomatografiya va teatr sohasida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Ushbu sohalarda o‘tmish va zamonamizdagi buyuk adiblarning nodir asarlari kino, hujjatli film, multfilm va teatr sahnalarida mustahkam o‘rin egallab ommaga taqdim etilmoqda. Masalan, Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari, “Medeya” tragediyasi, “Arganavtlar” qissasi, U. Shekspirning “Qirol Lir”, “Otello”, “Xamlet”, “Romeo va Jul’etta” tragediyalari, Dantening “Ilohiy komediya”, Gyotening “Faust”asari, J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romani, L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik”, “Anna Karenina”, Dotoevskiyning “Telba” va boshqa asarlarga ishlangan filmlarni ko‘rish orqali talabalarda badiiylikni tasavvur qilish imkoniyati kengayadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan izohlar orqali talabalarning jahon adabiyoti namunalari haqidagi tasavvurlarini bilishning muhimligi bilan bog‘liq yuzaga keladigan muammolarning yechimini aniqlashimiz mumkin. Talabalarning jahon adabiyoti durdonalarini yaxshi o‘zlashtirishlari va mustaqil izlanishlari, ma’lumotlardan o‘rinli foydalanishlari orqali ularda badiiy kompetensiya rivojlanganligini bilishimiz mumkin.

Ushbu yechimning afzalliklari shundaki, avvalo, jahon adabiyoti namunalarini tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi; mavzularning mohiyatini tushunadi; jahon adabiyoti namunalaridan olgan bilimlarni amalda qo‘llay olish, boshqa fanlar bilan aloqasi yuzasidan umumiy tasavvurga ega bo‘ladi; jahon adabiyoti durdonalarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy xulosalarga ega bo‘ladi; shuningdek, jahon adabiyoti namunalari bo‘yicha tasavvurga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar**:**

1. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

2. Abduvalitov N. B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish metodikasi. metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – 234b.

3. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalar vositasida tashkil etish: ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2004. – 160 b.

4. Alimuxammedov A. Chet el adabiyoti (Antik adabiyot tarixi). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.

5. Lohman X. C. & Finkelstein M. Sozdaniye grupp v problemnom obuchenii dlya razvitiya navikov resheniya problem i samostoyatelnosti. //Uchebnaya nauka (SSHA, Pensilvaniya). 2000. №28. – C. 291–300.

# BOSHLANG‘ICH SINF DARS JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

**Abrorxonova K.A. - PhD, dotsent,**
**Bo‘riyeva Sh.I. - talaba, Nizomiy nomidagi TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishning afzalliklari, foydalanish, imkoniyatlari, ulardan foydalangan holda hal qilishinishi mumkin bo‘lgan muammolari multemediali darslarning yutuqlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** AKT, elektron darslik, media, mediadars, multimediali dars, vebinar

Ta’lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Respublikamizda qabul qilinayotgan qonunlar va qonun osti hujjatlar turli ijtimoiy sohalarda, munosabatlarni tartibga solish bilan birga ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, joriy tizimni takomillashtirish va xorijiy tajribalarni joriy etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshrish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmonida asosida ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llash yuzasidan qator vazifalarni belgilab berildi[2;12-13] Axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasining shu qadar ajralmas qismiga aylanib ulgurdi, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahririda ta’lim tizimidagi islohotlarning yangi bosqichi boshlanganligi, buning samarasi o‘laroq ta’lim tizimining mazmun-mohiyati yanada takomillashtirilishi aytib o‘tilgan[1;2-4]. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minlash, ular faoliyatiga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki egallaydigan bilimlarning poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib,ta’lim tizimiga joriy etilmoqda. Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo‘lgan ta’limga yangicha yondashuv shakllana boshladi. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim- inson hayotida egallaydigan bilimlar olamining poydevori bo‘lib hisoblanadi, kelajakda o‘zlashtirib boradigan fanlarga, umuman o‘qishga qiziqishi aynan bolaning ilk o‘qituvchisi, boshlang‘ich sinflarda egallagan savodxonligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ham boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ilgari boshlang‘ich sinflarda o‘quvchi asosan o‘qish, yozish, dastlabki boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirishi kerak deb qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda o‘quvchini fikrlashga, faollikka, mustaqillikni rivojlantirishga va bilimlarni mantiqiy jihatdan mukammal egallashga undovchi ta’lim jarayonining muhim bosqichi sifatida yondashilmoqda. Shu sababli ham ta’lim jarayonining qiziqarliligi va samarasini yanada oshirish zarurati yuzaga keladi va bunda mazkur jarayonga axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish har qanday yoshdagi o‘quvchi uchun ta’limni yorqin, esda qolarli, qiziqarli qiladi, fanga hissiy ijobiy munosabatni shakllantiradi. Kompyuterning keng qo‘llanilishi o‘rganishni yanada vizual, tushunarli va esda qolarli qiladi[4;201-202] Sinov tizimi yordamida nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchining bilimini tekshirishi mumkin, balki o‘quvchining o‘zi ham materialni

o‘zlashtirish darajasini nazorat qilishi mumkin. Boshlang‘ich maktabda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘p bosqichli vazifalardan foydalangan holda o‘quvchiga individual yondashish imkonini beradi:

Boshlang‘ich maktabda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘p bosqichli vazifalardan foydalangan holda o‘quvchiga individual yondashish imkonini beradi;

- har bir o‘quvchini faol kognitiv jarayonga jalb qilish;
- o‘quvchining oldida turgan muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarni topish, tanlash va undan foydalanishga o‘rgatish;
- birlamchi kompyuter ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarni olingan material asosida o‘z nuqtai nazarini bayon etishga va uni himoya qilishga o‘rgatish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli bo‘ladi, bu qoida tariqasida, bilimlarni yanada samarali o‘zlashtirishga olib keladi, sinfda ravshanlik darajasini oshirish o‘quvchining dunyoqarashlarini kengaytiradi, fikrini to‘liq bayon etadi.[6;118-119]

Hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda o‘qitish usuli ta’lim sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha multimedia vositalaridan foydalanib, tatbiq qilinmoqda. Hatto, har bir oila multimedia vositalarisiz, hordiq chiqarmaydigan bo‘lib qoldi. Kuzatishimiz mumkinki, multimedia vositalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish samarasi an’anaviy usulga qaraganda 2 barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin ekan. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib,olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% gacha oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, vedio va grafika ko‘rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi. Multemediali darslarni qo‘llash. Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo‘llash tajribasi shakllanib bormoqda. Negaki bu ayni vaqtda zamon talabidir. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fan, matematika, ona tili, tarbiya fanlari sifati va samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanish asosiy omil hisoblanmoqda. “Multimediali darslar”dan foydalanish har bir fanning dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Multimedia yoki raqamli o‘quv resurslari o‘quvchilarga axborotni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlovchi turli xil media elementlaridan foydalangan holda aqliy tasavvurlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf fanlarning maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o‘qituvchi, ham o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo‘ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya’ni zamonaviy axborot texnologiyalariga bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun axborot texnologiyalari bilan ishlash maqsadga muvofiqdir. Ishonchimiz komilki, axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitishni o‘quv materialini tushunish va yodlash jarayonlarini optimallashtirish, bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini doimiy ravishda yuqori darajaga ko‘tarish orqali o‘zgartirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni yangi talqini. 2020-yil 23 sentabr
2. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 11. – С. 201-202

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV MASALALARI VA ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONI XUSUSIDA

**Botirova L.X.– talaba,**
**Ilmiy rahbar: Mirsanova M.X.**
**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,**

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim va tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning o‘rni juda muhimdir. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarga yangi va qiziqarli usullar orqali ma’lumot olish imkoniyatini beradi va ularning ma’lumotlarini amalga oshirishga imkon beradi. Misol uchun, interaktiv darsliklar, onlayn ta’lim platformalari, robotlar va boshqa innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning tajribalarini yanada boyitish, ularni motivatsiyalash va yangi bilimlarni o‘rganishga ilhomlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, muammolarini hal qilish va yangi yaratuvchi yondashuvlar topishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu texnologiyalar o‘qituvchilar uchun ham qulayliklar yaratadi, ularning darslarni tayyorlash va o‘quvchilarga ma’lumotlarni yetkazish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalar boshlang‘ich sinflarda ta’lim va tarbiya jarayonida juda muhim ahamiyatga ega.[1]

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi har tomonlama va uyg‘un kamol topgan yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishdir. Tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat. Tarbiyaviy tadbirlar turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir. Ta’lim jarayoni alohida mashg‘ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar tarbiya jarayonining bir bo‘lagidir[2]. Shu o‘rinda bolaga jazo qo‘llash usullaridan **urish** qay darajada o‘zini oqlaydi? **Bolani urib tarbiyalash, urib o‘qitish bugungi kun o‘quvchisiga o‘qituvchilarimiz tomonidan qo‘llanilyaptimi?** Degan savollarga javob qidirib ko‘ramiz. Menga dugonam shunday savol berib qoldi:

-Kelajakda farzanding maktabdagi ustozi urganligini aytib uyingga yomonlab keldi. Sen qanday yo‘l tutgan bo‘larding? Birinchi xayolimga kelgan qisqagina javob shu bo‘ldi:

- Eng avvalo vaziyatga qarayman. O‘qituvchisi bilan gaplashib sababini so‘ragan bo‘lar edim dedim ! Shu payt darhol men o‘qituvchining tarafini olib, o‘zing aybdorsan deb, bolaga tanbeh berishim ham mumkin. Lekin bu ish xato deb o‘ylayman. Bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi yo‘qolib, mustaqil va erkin o‘z fikrini bildirishdan cho‘chiydigan, qo‘rqadigan bo‘lib o‘sadi. Bunga misol sifatida amaliyotga borib yurgan maktabimdagi bitta o‘qituvchini ayta olaman. U ustoz qattiqqo‘llik prinsipida dars o‘tadi. O‘quvchilar darslarni o‘zlashtirmasa, darsga quloq solmasa, gap qaytarsa yoki boshqa biron bir ayb ish qilsa ularni jazolab urish, haqorat qilish bilan ta'lim-tarbiya berardi. O‘quvchilarni juda kam rag‘batlantiradi. Hatto kichik bir detallar bilan ham rag‘batlantirish o‘quvchini katta bir natijaga erishishiga yordam beradi deb o‘ylayman. Yoshi ulug‘, nafaqaga chiqay deb qolgan. Shunga bo‘lsa kerak ustozda eski o‘qitish uslublari ham uchrab turardi.

"Gapiraversang eti, uraversang beti qotadi" deganlaridek bolaga gapirishimiz, gapimizni tushunmasa mimikali harakatlarimiz orqali tarbiyalashimiz kerak. Shunda nafaqat o‘zimizga, balki o‘quvchiga ham yaxshi bo‘ladi. Ustoz ota-onalar bilan ham tez-tez muloqot qilib turishi juda zarur. O‘zi amal qilib bajargan pedagogik usullarini ota-onalarga ham aytib, o‘rgatib borishi kerak. Shunda yaxshi natijaga erishadi. Ota-onaning va ustozining

---

[1] Sayfullayev B.“Ilg’or pedagogik texnologiyalar- Toshkent 2017. 3-bet.
[2] Ishmuxammedov R.J. Abduqodirov A. Pardayev A. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”-T 2010.

bolaga nisbatan munosabati yaqin, o‘xshash bo‘lsa yaxshi muhit yaratilib bir xil tarbiya va bilimga ega bo‘ladi.

Kundan-kunga zamonaviylashib borayotgan bir vaqtda eskirgan bilim, ko‘nikma va malakalarga talab qolmayapti. Demak, pedagogik mahorati yo‘q, yangi bilimlarga ega bo‘lmagan o‘qituvchigina o‘quvchini uradi !

O‘quvchini urmasdan turib uni tinchlantirish, bilimini oshirish va tarbiyalash mumkin. Qanday qilib deysizmi? O‘qitish metodikasidan ya'ni xilma-xil usullardan foydalanib albatta. Bugungi zamonda o‘quvchilarga shunchaki gap bilan ta'lim-tarbiya berib bo‘lmaydi. Ustozi aytgan gapni ular ijtimoiy tarmoqlardan ham eshitib olishadi. Zamonaviy texnalogiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun shart va zarur. Pedagogik jarayondagi qilinayotgan xatolar kelajakda qanday aks etishini sezganimizda edi. Pedagogik jarayonni rivojlantirishimiz uchun doim o‘z ustimizda ishlashimiz, izlanishimiz lozim.

"Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘ilar" shuning uchun ustozlarimizning bizga berayotgan bilimlarini diqqat bilan, qunt bilan eshitib o‘rganishimiz kerak. Mahoratli ustoz bo‘lish oson emas. Har bir o‘qituvchining dars o‘tish usullari har xil bo‘ladi. Kimdir qattiq qo‘l, kimdir do‘stona. Mening o‘zim sevimli, do‘stona o‘qituvchi bo‘lishni, eng yaxshi ustozlarim izidan borishni xohlayman. Eng muhimi o‘quvchilar bilan til topisha olishimiz, adolatli bo‘lishimiz kerak.

Ta’lim tizimimizda, afsuski, hozirgi kunda ham bolaga qo‘l ko‘tarish holatlari uchrab turibdi. Hukumatimiz tomonidan bunga qarshi chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kun o‘quvchisi har tomonlama erkin, o‘z fikriga ega, hech kimdan qo‘rqmaydigan, ishonchi baland qilib tarbiyalanmoqda. Har zamon uchrab turadigan bu kabi holatlar yildan-yilga kamaymoqda. Bugungi kun o‘qituvchilari buni tushungan holda ish olib boradilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ro‘ziyeva D.A Tolipov O‘.Q pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat,Toshkent 2019 34-bet3

2. B.Sayfullayev “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar- Toshkent 2017. 3-bet.

3. Ishmuxammedov R.J. Abduqodirov A. Pardayev A. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”-T 2010.

4.Mirsanova, M. (2021). Erkin Vohidovning adabiy tanqidiy qarashlariga doir. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(10), 954-960.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ZID MA’NOLI SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI

**Boxodirova M.X.– 1-bosqich tayanch doktoranti, TDPU.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga zid ma’noli so‘zlar ustida ishlashda bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Boshlang‘ich sinf, zid ma’noli so‘zlar, so‘z turkumlari, belgi bildiruvchi so‘zlar, yangi so‘z, og‘zaki nutq.

Biz yosh avlodga yaxshi bilim berishimiz uchun boshlang‘ich sinfdayoq kuchli harakatni boshlashimiz kerak. Chunki bolalarning eslab qolish, yod olish xotirasi kuchli bo‘adi. Zero dono xalqimioz aytganidek “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir”. K. D. Ushenskiy ham boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini asosiy o‘ringa qo‘yib, yetakchi predmet deya hisoblagan. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi… Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”[1]

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “...yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[2] – deb alohida takidlab o‘tishlaridagi bosh g‘oya ham yurtimizda yosh avlodga qaratilayotgan yuksak e’tiborning asosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Boshlang‘ich sinflarga zid ma’noli so‘zlarni 4-sinfda o‘tish boshlanadi. Bolalar 1-sinfda ham zid ma’noli so‘zlardan og‘zaki nutqda foydalanadi. Zid ma’noli so‘zlarni ona tili darsligining hamma joyida uchratishimiz mumkin. Zid ma’noli so‘zlar ot, sifat, olmosh, ravish, fe’l mustaqil so‘z turkumlarida mavjud. Karima Qosimova zid ma’noli so‘zlarni belgi bildiradigan so‘zlarda ya’ni sifat va ravishda ko‘p uchrashini ta’kidlaydi[3]

Boshlang‘ich sinf 4-sinf ona tili darsligida[4] zid ma’noli so‘zlarga erta-kech, oz-ko‘p, avval-oxiri so‘zlari orqali ravish so‘z turkumida zid ma’noli so‘zlar mavjudligiga misol keltirilgan. Achitib, kuldirib ravishdoshlarini qo‘llash orqali esa fe’l so‘z turkumida antonimlikka misol keltirilgan. Yaxshi-yomon so‘zlari bilan sifat so‘z turkumidan zid ma’noli so‘zlarni misol keltirgan. Do‘st-dushman, foyda-zarar yer-osmon, g‘am-quvonch so‘zlari esa ot so‘z turkumida zid ma’noli so‘zlar uchrashiga misol bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qituvchilar savod o‘rgatish davridanoq zid ma’noli so‘zlardan foydalanib dars o‘tib boshlaydi( katta harf-kichik harf, qattiq x-yumshoq h, yo‘g‘on j-oriq j) [5] Zid ma’noli so‘zlarni yanada yaxshi o‘rgatish uchun bola maktabga kelgandanoq zid ma’noli so‘zlar haqida tushuncha berish kerak.

Bir biriga qarama-qarshi ma’noda bo‘lgan so‘zlarga zid ma’noli so‘zlar deyiladi. Hamma so‘zlarning ham qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan jufti ,mavjud emas. Hamma so‘zlar ham zid ma’noli so‘zlar deyilmaydi. Bir so‘zning zid ma’noga ega ekanligi yoki ega emasligini bilish uchun “bo‘lmasa” so‘zidan foydalanib topishimiz mumkin:

1. Boy bo‘lmasa kambag‘al;
2. Bugun bo‘lmasa ertaga;
3. Katta bo‘lmasa kichik;
4. Uzun bo‘lmasa qisqa;
5. Ko‘p bo‘lmasa oz;
6. Yaxshi bo‘lmasa yomon.

Zid ma’noli so‘zlarni topishni o‘rgatish uchun gap tarkibida ostiga chizilgan holda kelgan antonimlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchiga topshiriq beriladi.

quyidagi gaplarda ostiga chizilgan so‘zlarning zid ma’noli juftini yozing.

| | |
|---|---|
| Singlimning sochi uzun | qisqa |
| Qish havosi sovuq bo‘ldi | ? |
| Men tongda erta uyg‘ondim | ? |
| Onam shirin ovqat qiladi | ? |

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘z bilan ko‘rgan narsalarini, voqealarni yaxshi eslab qolgani uchun rasmli jadvaldan ham foydalanib, zid ma’noli so‘zlarni osonlikcha o‘rgatish mumkin. Rasmlar orqali o‘rgatilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi qiynalmasdan yodda saqlab qoladi. Rasm orqali zid ma’noli so‘z o‘quvchi xotirasida mixlanadi.

Quyida zid ma’noli so‘zlar rasmli jadvalda aks etgan:

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
|  | Shirin |  | Achchiq |  | Tez |
|  | Katta |  | Kichik |  | Qari |
|  | Ko‘p |  | Kam |  | Sekin |
|  | Issiq |  | Sovuq |  | Yosh |

Zid ma’noli so‘zlar antonimlar deb yuritiladi.

Antonimlar (anti...+yun. onyma-nom) tlsh. Qarama-qarshi, zid ma’noli til (nutq) birliklari. Masalan, oq-qora, qattiq-yumshoq, achchiq-shirin antonim so‘zlar[6].

Zid ma’noli so‘zlarning ba’zilarini juft qo‘llash orqali o‘zbek tilida yangi so‘zlar hosil bo‘ladi. Bunda zid ma’noli so‘zlar o‘zining atash ma’nosini emas yangi ma’no anglatadi:

Uzoq yaqindan kelgan mehmonlar birikmasida uzoq (oraliq masaofasi katta, nisbatan narida joylashgan; olis) ma’nosida emas, yaqin (oraliq masofa uncha katta bo‘lmagan uzoq emas) ma’nosida anglatmayapti. Endi uzoq-yaqin birga qo‘llanganda hamma joydan degan yangi ma’no bildiryapti.

Hayotning achchiq-chuchugi birikmasida achchiq-chuchuk ta’m ma’nosini yo‘qotib, azob-uqubat, har xil kuni ma’nosini bermoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, zid ma’noli so‘zlar nutqimizni jozibador bo‘lishini ta’minlaydi. Zid ma’noli so‘zlarning birini aytganda ikkinchisi beixtiyor inson hayoliga keladi. zid ma’noli so‘zlar yonma-yon qo‘llanganda chiziqcha bilan yoziladi. Ba’zi zid ma’noli so‘zlar yonma-yon qo‘llanganda yangi atash ma’nosi hosil qiladi va o‘zbek tilining ichki boyish asosida boyishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ushenskiy K. D. “Tanlangan pedagogik asarlar”- Toshkent: “O‘zdavnashr”,1959. 49b.
2. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU. 2017. 29-bet.
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” T: “NOSIR” nashriyoti 2009-y. 314-bet.
4. M. E. Toirova umumiy o‘rta ta’lum maktablari uchun 4-sinf ona tili 1-qism darsligi “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023-y, 43-44-45-46-betlar.

# «TABIATSHUNOSLIK» FANINI QANDAY SAMARALI O‘QITISH MUMKIN?

**Burxonov S.A.– f.-m. f. n. , dotsent, TDPU.**

Bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida (1) o‘qitish metodikasini takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, hozirgi kunda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yangi ta’lim modellari joriy etish talab etilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda «Tabiatshunoslik» fanini joriy etish – bu bolalarda atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishni oshirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ajoyib tashabbusdir. Biroq, boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanini muvaffaqiyatli o‘qitish kompleks yondashuvni talab qiladi va o‘qitish jarayonini imkon qadar samarali qilish uchun bir qator muhim jihatlarni hisobga olish lozim.

Eng avvalo **o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi** eng dolzarb masaladir. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi fizika, biologiya, kimyo va geologiya fanlariga oid mavzularni sodda tilda yoritib bera olish vazifasi qo‘yilmoqda. Buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratish muhim:

- **Malaka oshirish:** O‘qituvchilarga tabiiy fanlar bo‘yicha chuqur bilimlar, zamonaviy o‘qitish metodlari va amaliy tajriba olish imkonini beradigan maxsus kurs va seminarlar tashkil etish lozim. Bu nafaqat bilim berish, balki bolalarda kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va mustaqil ravishda bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.
- **Metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan va qiziqarli topshiriqlar hamda tajribalarni o‘z ichiga olgan moslashtirilgan o‘quv dasturlari, darsliklar va ish daftarchalarini variativ variantlarini tayyorlash lozim. Shu bilan birga qo‘shimcha resurslar sifatida tabiatshunoslikni o‘qitish metodik tavsiyalari, bolalar uchun ilmiy-ommabop nashrlar, onlayn resurslar va ta’lim platformalarini yanada kengaytirish masalasi dolzarb masaladir.
- **O‘qituvchilar jamoasini shakllantirtish:** O‘qituvchilar tajriba almashishi uchun muhit yaratish, yuzaga keladigan savollarni muhokama qilish va hamkasblaridan qo‘llab-quvvatlash olishi mumkin bo‘lgan professional jamoani tashkil etish muhimdir.

**O‘quv jarayonini tashkil etish** uchun quyidagilar muhimdir:

- **Interaktiv o‘qitish usullari:** Faol va qiziqarli o‘quv muhitini yaratish uchun o‘yin shakllari, loyiha faoliyati, tajribalar va kuzatishlardan foydalanish.
- **Haqiqiy hayot bilan bog‘liqlik:** O‘rganilayotgan hodisalar bolalarning kundalik hayoti bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatib berish, bu esa ularga ma’lumotni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.
- **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:** O‘quv materialini vizualizatsiya qilish va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun raqamli vositalar, interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlaridan foydalanish.
- **Ekskursiyalar tashkil etish:** Bolalarning ufqini kengaytirish va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun muzeylar, botanika bog‘lari, hayvonot bog‘lari va boshqa qiziqarli joylarga tashrif buyurish.

Keying muammo **o‘quvchilarda rag‘bat uyg‘otishtish** bo‘lib, har bir bola noyob, shuning uchun har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, unga qulay va rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish muhimligini yodda tutishimiz lozim.

Boshlang'ich sinfga Tabiatshunoslikni joriy etish – bu bolaning rivojlanishida muhim qadamdir. O'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni taklif qilamiz:

- **Muammoli savollar berish:** Bolalarning qiziquvchanligini rag'batlantirish uchun ular yangi ma'lumotni o'rganish jarayonida javobini izlaydigan savollar berish.
- **Mustaqil tadqiqotlar uchun sharoit yaratish:** Bolalarni kichik tadqiqotlar, tajribalar va kuzatishlar o'tkazishga undash.
- **Tanlov va olimpiadalar tashkil etish:** Iqtidorli bolalarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash uchun tabiatshunoslik bo'yicha turli xil tanlov va olimpiadalar o'tkazish.

Shu bilan birga o'quvchilarning **qiziqish va motivatsiyani** shakllantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Buning uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

- Tajribalar va kuzatishlar: Suv, havo, o'simliklar bilan oddiy tajribalar o'tkazing. Bu bolalarga fanni amalda ko'rish va ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.
- Haqiqiy hayot bilan bog'liqlik: O'rganilayotgan hodisalar bolaning kundalik hayoti bilan qanday bog'liqligini ko'rsating. Masalan, elektrni o'rganishda oddiy elektr zanjirini demonstratsiya qiling.
- O'yin shakllari: O'yinlar, viktorinalar, rollarni ijro etish o'yinlaridan foydalaning. Bolalar o'yin shaklida ma'lumotni yaxshi o'zlashtiradilar.
- Loyiha faoliyati: Bolalarga o'z loyihalarini yaratishni taklif qiling, masalan, mini-bog' yoki vulqon modeli.

Bu fanni samarali o'qitish uchun **ota-onalar bilan hamkorlikka,** ularning ta'limdagi ishtirokiga ahamiyat berib, "Tabiiy fanlar" fanining maqsad va vazifalari, shuningdek, ota-onalar bolalariga yangi mavzuni o'rganishda qanday yordam berishlari haqida ularni muntazam xabardor qilish lozim. Shu bilan birga ota-onalarni o'quv jarayoniga jalb qilib, ota-onalar bilan birgalikdagi tadbirlar, loyihalar va ekskursiyalarni tashkil qilish kerak.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun Tabbiy fanlar tanlov fan sifatida o'qitish boshlanmoqda. Talabalar uchun "Tabiiy fanlar" nomli qo'llamna tayyorlangan bo'lib, darslik o'quvchilarda qiziquvchanlikni shakllantirib, kuzatish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga hizmat qiladi.

Darslik yettita bobdan iborat bo'lib, har bir bob alohida bilim sohasiga bag'ishlangan:

- **1-bob: Bizning sayyoramiz Yer.** O'quvchilar Yerning shakli, qatlamlari, quruqlik va suv o'rtasidagi farqlar hamda havo qatlami haqida bilib olishadi.
- **2-bob: Bizning hissiy organlarimiz.** Bu bobda insonning ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish va sezgilarni his qilish organlari haqida so'z boradi.
- **3-bob: Atrofimizdagi kuchlar.** Bu bobda kuch tushunchasi, uning atrofdagi hodisalarga ta'siri va har xil harakat turlari haqida ma'lumot beriladi.
- **4-bob: Atrofimizdagi moddalar.** Bu bobda turli xil moddalarning xossalari, ularning holatlari (qattiq, suyuq, gazsimon) haqida ma'lumot beriladi.
- **5-bob: Yorug'lik va tovush.** Bu bobda yorug'lik va tovushning tabiati, ularni qanday qabul qilishimiz va hayotimizdagi ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.
- **6-bob: Tirik organizmlar.** Bu bobda tirik organizmlarning umumiy xususiyatlari, ularning xilma-xilligi va atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligi haqida so'z boradi.
- **7-bob: Elektr energiyasi.** Bu bobda elektr jihozlari, elektr manbalari va elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish qoidalari haqida ma'lumot beriladi.

Darslikda turli xil o'qitish usullari qo'llaniladi:

- **Ko'rgazmalilik.** Ko'p sonli rasmlar, sxemalar va jadvallar o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

- **Amaliy mashqlar.** Darslikda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradigan ko‘plab mustaqil ish uchun topshiriqlar berilgan.
- **Qiziqarli faktlar.** Har bir bobga o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladigan qiziqarli faktlar qo‘shilgan.
- **O‘zini baholash uchun testlar.** Har bir bob oxirida o‘quvchilarning o‘z bilimlarini baholash imkonini beradigan testlar berilgan.

Darslikning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrofdagi olam haqida bir butun tasavvur hosil qilish, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish va tabiiy fanlarni yanada chuqur o‘rganishga tayyorlashdir.

**Talabalarning bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun quyidagilar e’tibor qaratilgan:**

- Ko‘rgazmalilikka: Rasmlar, modellar, videomateriallardan foydalanishga. Vizual ma’lumot yaxshiroq esda qoladi.
- Muammoli savollarga: Bolaning fikrlashini va javob izlashini rag‘batlantiruvchi savollar berishga.
- Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga: Bolalarni savol berishga, farazlar ilgari surishga va ularni tekshirishga undashga.
- Bilimlarni tizimlashtirishga: Bolalarga olingan bilimlarini bir tizimga solishga, sxemalar va jadvallar tayyorlashda yordam berishga.

Tabiiy fanlar bo‘yicha tajribalar **o‘tkazishda xavfsizlik choralariga alohida e’tibor qaratish shartligi uqtiriladi. Buning uchun quyidagi maslahatlar beriladi:**

- Tayyorgarlik: Tajriba uchun barcha zarur jihozlarni avvaldan tayyorlang.
- Yo‘riqnoma: Bolalarga tajribalarni o‘tkazish qoidalarini tushuntiring.
- Nazorat: Tajribalar vaqtida bolalarni nazoratdan chetda qoldirmang.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan kitoblar va qo‘llanmalar bilan tanishib chiqish lozim: Bularda tajriba va eksperimentlar uchun ko‘plab qiziqarli g‘oyalar topiladi.

Shuningdak internet resurslar: Maxsus saytlar va forumlarda tajribalarning batafsil tavsifi, video darslar va muhokamalarni topish mumkin.

Eslatma: Asosiysi – o‘qish jarayonini har bir bola uchun qiziqarli va tushunarli qilishdir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni.

3. Burxonov S.A., Qo‘nishev J. Kimyo. Boshlang‘ich saboqlar. Toshkent. “Zamin nashr”, 2020-yil. 120 bet

4. Burxonov S.A., Sangirova Z., Qo‘nishev J. Fizika. Boshlang‘ich saboqlar. Toshkent. “Zamin nashr”, 2020-yil. 336 bet

5. Sadikova A.V. Application of information and communication technologies in the conditions of the practice-oriented approach of professional training of future teachers of elementary classes. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 9, Issue 10, Oct. (2021) p. 123-127.

6. Vlasova, V.K., Khamatvalieva, R.R., Zakirova, V.G., Zhumabayeva, A.E., Sadikova, A.V. The Development of Integrative Qualities of Primary School Teachers in the Context of Distance Learning // Education and Self Development, 2022, 17(3), страницы 187–201

# ОНЛАЙН ИЛИ ОФФЛАЙН ОБРАЗОВАНИЕ ДЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: КАКОЙ ВЫБРАТЬ?

**Бурханов С.А.– доцент, к.ф-м., ТГПУ.**

Современное школьное образование ставит перед собой амбициозную цель: воспитать всесторонне развитую личность, готовую к жизни в динамично меняющемся мире. Это значит, что школа должна не просто передавать знания, но и формировать у учеников ключевые компетенции: умение учиться, критически мыслить, решать проблемы, работать в команде и эффективно коммуницировать. Онлайн-обучение в Узбекистане переживает период активного развития. После пандемии COVID-19, когда дистанционное обучение стало необходимостью, государство и образовательные учреждения начали уделять больше внимания этой сфере.

Хотя традиционные формы обучения по-прежнему преобладают, наблюдается явный тренд на переход к смешанным форматам, где онлайн-компоненты играют все более важную роль. С 2023-2024 учебного года государственным и частным вузам разрешено готовить кадры в дистанционном режиме. Особую популярность приобретают онлайн-курсы по программированию, маркетингу и игровому дизайну. Однако развитие онлайн-образования неравномерно по регионам и учебным заведениям. Города с лучшей интернет-инфраструктурой и более технически оснащенными вузами имеют больше возможностей для внедрения онлайн-обучения. Многие преподаватели и студенты не имеют достаточного опыта работы в онлайн-среде.

В стратегии развития страны до 2035 года запланирован переход к массовому онлайн-образованию. Рост числа желающих получить высшее образование требует поиска новых форм обучения. Узбекистан стремится интегрироваться в глобальное образовательное пространство, где онлайн-обучение становится стандартом.
Нормативная база, регулирующая онлайн-образование, еще находится в стадии формирования. Существуют опасения относительно качества образования при дистанционном обучении.

**Перспективы:**

- **Расширение доступа к образованию:** Онлайн-обучение позволит большему числу людей получить качественное образование, независимо от их местоположения.
- **Индивидуализация обучения:** Онлайн-платформы позволяют создавать индивидуальные образовательные траектории для каждого студента.
- **Сотрудничество с международными образовательными учреждениями:** Узбекистан сможет интегрироваться в глобальное образовательное пространство и предлагать совместные программы с зарубежными вузами.

**В целом, онлайн-обучение в Узбекистане имеет большой потенциал для развития.** Однако для достижения поставленных целей необходимо решить ряд проблем, связанных с инфраструктурой, подготовкой кадров и совершенствованием нормативно-правовой базы.

Школа должна быть не только местом получения знаний, но и пространством для развития творческих способностей, формирования мировоззрения и нравственных ценностей. Образовательный процесс должен быть ориентирован на индивидуальные особенности каждого ученика, позволяя ему раскрыть свой потенциал в полной мере.

Важным требованием к современному образованию является использование современных технологий. Интерактивные доски, онлайн-платформы, цифровые учебники – все это становится неотъемлемой частью учебного процесса. Однако,

технологии – это лишь инструмент, а не самоцель. Главное – это то, как они используются для повышения эффективности обучения.

Школа должна готовить учеников к жизни в глобальном мире, где ценятся не только знания, но и умение адаптироваться к новым условиям, работать в команде с людьми разных культур. Поэтому важно развивать у учащихся межкультурную компетентность, иностранные языки и навыки межличностного общения.

В целом, современное школьное образование – это сложный процесс, который требует постоянного совершенствования. Школа должна быть открытой для инноваций, идти в ногу со временем и отвечать на вызовы современного мира.

Ключевые идеи, которые можно подчеркнуть:

- Индивидуализация обучения – каждый ребенок уникален и требует особого подхода.
- Развитие ключевых компетенций – не только знания, но и умения.
- Использование современных технологий – для повышения эффективности обучения.
- Подготовка к жизни в глобальном мире – развитие межкультурной компетентности.
- Сотрудничество школы, семьи и общества – создание единого образовательного пространства.

Если родителей больше интересует как современная школа помогает развивать у детей творческие способности или как технологии используются в учебном процессе, то для педагогов более интересен новые педагогические подходы и методики.

Выбор между онлайн и оффлайн образованием для ребенка начальной школы – это серьезное решение, которое требует взвешенного подхода. Оба формата имеют свои преимущества и могут быть подходящими в разных ситуациях. Давайте разберемся подробнее:

### Оффлайн образование (традиционная школа)

Преимущества:

- Социальная среда: Ребенок общается со сверстниками, учится взаимодействовать в коллективе, развивает коммуникативные навыки.
- Структура и дисциплина: Режим дня, расписание занятий, домашние задания помогают ребенку развить чувство ответственности и организованности.
- Прямое взаимодействие с учителем: Возможность задать вопрос, получить индивидуальную помощь и обратную связь.
- Физическая активность: Большинство школ предлагают физкультуру и другие виды активности, способствующие физическому развитию ребенка.

Недостатки:

- Ограниченная гибкость: Расписание занятий не всегда учитывает индивидуальные особенности ребенка.
- Возможность заболевания: Ребенок может часто болеть, пропуская занятия.
- Влияние сверстников: Ребенок может подвергаться негативному влиянию со стороны других детей.

### Онлайн образование

Преимущества:

- Гибкий график: Возможность заниматься в удобное для ребенка время.
- Индивидуальный подход: Ребенок может изучать материал в своем темпе.
- Безопасность: Отсутствие контакта с другими детьми снижает риск заражения заболеваниями.
- Большой выбор программ: Возможность выбрать программу, которая соответствует интересам и способностям ребенка.

Недостатки:

- Отсутствие живого общения: Ребенку может не хватать общения со сверстниками.
- Требует высокой самоорганизованности: Ребенок должен уметь самостоятельно планировать время и выполнять задания.
- Необходимость технической поддержки: Для онлайн-обучения требуется компьютер или планшет, стабильный интернет и помощь родителей.

Что выбрать?

Рекомендуется выбирать формат обучения, который наилучшим образом соответствует потребностям и особенностям конкретного ребенка.

Оффлайн образование может быть предпочтительнее, если:

- Ребенок нуждается в постоянном социальном взаимодействии.
- Родители хотят, чтобы ребенок развивался в структурированной среде.
- Есть опасения, что ребенок не сможет самостоятельно организовать учебный процесс.

Онлайн образование может быть хорошим вариантом, если:

- Ребенок часто болеет или имеет хронические заболевания.
- Ребенок обладает высокой степенью самостоятельности и мотивации.
- Семья часто переезжает или ведет кочевой образ жизни.

Комбинированный подход

Многие школы предлагают комбинированный формат обучения, который сочетает в себе элементы онлайн и оффлайн обучения. Это позволяет получить преимущества обоих форматов. Выбор между онлайн и оффлайн образованием – это индивидуальное решение, зависящее от множества факторов, таких как стиль обучения, доступность ресурсов, жизненные обстоятельства и цели. Давайте сравним преимущества каждого из этих форматов:

Онлайн образование

- Гибкость: Возможность учиться в любое удобное время и в любом месте, где есть интернет.
- Индивидуальный темп: Каждый ученик может проходить материал со своей скоростью, повторяя сложные темы или ускоряясь в легких.
- Доступность: Широкий выбор курсов от ведущих университетов и экспертов со всего мира.
- Экономия: Обычно более доступные цены по сравнению с оффлайн образованием.
- Совмещение с работой и личной жизнью: Возможность учиться, не отрываясь от других сфер жизни.
- Разнообразие форматов: Лекции, видео, интерактивные задания, форумы – каждый найдет подходящий формат для себя.

Оффлайн образование

- Социальная среда: Возможность общаться с преподавателями и однокурсниками лицом к лицу, участвовать в дискуссиях и групповых проектах.
- Структура и дисциплина: Регулярные занятия и дедлайны помогают поддерживать мотивацию и организованность.
- Практические навыки: Многие программы предусматривают лабораторные работы, практикумы и стажировки, которые позволяют приобрести практические навыки.
- Индивидуальная поддержка: Возможность получить индивидуальную консультацию от преподавателя.
- Ощущение принадлежности к сообществу: Чувство сопричастности к учебному заведению и его традициям.

Сравнительная таблица

| Характеристика | Онлайн образование | Оффлайн образование |
|---|---|---|
| Гибкость | Высокая | Низкая |
| Индивидуальный темп | Высокий | Низкий |
| Доступность | Высокая | Низкая |
| Стоимость | Низкая | Высокая |
| Социальная среда | Низкая | Высокая |
| Структура | Низкая | Высокая |
| Практические навыки | Низкая | Высокая |
| Индивидуальная поддержка | Низкая | Высокая |

Выбор формата обучения

Оптимальный выбор зависит от ваших личных предпочтений и целей. Если вы цените гибкость, самостоятельность и доступность, онлайн образование может быть для вас идеальным вариантом. Если же вам важна социальная среда, структура и практические навыки, оффлайн образование будет предпочтительнее. Литература по онлайн-обучению предлагает широкий спектр знаний, от теоретических основ до практических рекомендаций. Чтобы быть в курсе последних тенденций и новостей следите за блогами экспертов в области онлайн-обучения. Многие платформы предлагают бесплатные и платные курсы по созданию онлайн-курсов. Полезно присоединяться к онлайн-сообществам, чтобы общаться с другими специалистами в этой области и делиться опытом.

Многие современные образовательные программы сочетают в себе элементы онлайн и оффлайн обучения, предлагая ученикам гибкость и преимущества обоих форматов.

Литература

1. "Электронное обучение: инструменты и технологии" Уильяма и Кэтрин Хортон: Классический труд, охватывающий широкий спектр инструментов и технологий, используемых в онлайн-обучении. : www.livelib.ru
2. "E-Learning: Как сделать электронное обучение понятным" Майкла Аллена: Эта книга фокусируется на создании понятных и эффективных онлайн-курсов. : www.goodreads.com
   ELearning: Как сделать электронное обучение понятным Майкла Аллена
3. "Живое обучение" Елены Тихомировой: Автор делится практическими советами по внедрению и развитию онлайн-обучения в организации. : www.litres.ru

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING MATEMATIKADAN USLUBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA MATEMATIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

**Davlatova M.A. – tadqiqotchi, ChDPU, Chirchiq.**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darsliklarida didaktik* o‘yinlarning ahamiyati, bundan tashqari didaktik o‘yinlarning ma'nosi, bolalardan ijro etuvchi faoliyatni talab qiladigan o‘yinlar, vazifalariga ko‘ra didaktik o‘yinlar turlari va ularni tashkillashtirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** matematika, didaktik o‘yin, masala, qobiliyat, tanqidiy, fikrlash, o‘yin texnologiyasi, jamoaviy, guruhli, individual.

O‘quvchilarning 6-10 yoshli davri eng muhim fikrlash tuzilmalarining shakllanishida mas’ulyatli palla ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Aynan TIMSS xalqaro baholash dasturi ham 4 - sinf o‘quvchilarining matematikadan savodxonlik darajasinini baxolashga qaratilgani bejizga emas. Prizident maktablariga ham boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish orqali olinayotgani ham fikrimiz dalilidir. Mana shu paytda shakllantirilmagan qobiliyatini keyinchalik tiklash juda qiyin. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining asosiy vazifalaridan biri - o‘qitishning samaradorligini oshirishni ta’minlashda o‘qitishning o‘quvchilar aqliy rivojlanishlariga ta’sirini jadallashtirishdan iborat.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari uchun o‘yinlar muhim va ma’lum darajada ahamiyatga ega. O‘yindan o‘qitish vositasi sifatida foydalanish katta samara beradi. Mavjud didaktik o‘yinlar, mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasliligi sababli ulardan kam foydalaniladi, shu bilan birga o‘rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llaniladi. O‘quvchilarni 6—7 yoshdan o‘qitishda o‘ziga xos muammolar yuzaga keladi. Sanoqni o‘rganish, qo‘shish va ko‘paytirishni birinchi bosqichda o‘rgatish, boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasi bo‘lib kelgan. Ushbu ikki asosiy yo‘l orqali: pedagogik yo‘l, ya’ni o‘quvchilar fikrlashini qo‘llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash va matematika yo‘li, ya’ni o‘quvchilarni eng muhim matematik tushunchalarni, eng avvalo, natural son va geometrik shakl tushunchalarini o‘rganishga tayyorlash. O‘quvchilarni matematikani o‘rganishga tayyorlashda ishni nimadan boshlash yangicha yechim topishni taqozo etadi.

Matematikani “jiddiy” o‘rganish uchun o‘quvchilarni partaga o‘tqazishdan oldin, balki ular bilan “matematik o‘yin” o‘tkazish lozimdir. Maktab tayyorgarligida didaktik o‘yinlardan foydalaniladi, biroq bu o‘yinlar, birinchidan mantiqiy va matematik mazmun bilan boyitilgan bo‘lishi, ikkinchidan ular mashg‘ulotning o‘zida emas, balki undan oldin yoki keyin o‘tkazilishi lozim.

*Didaktik o‘yinlarning ma'nosi:* kichik maktab o‘quvchilarining kognitiv qiziqishi sezilarli darajada oshadi; dars yanada jonli va hissiy jihatdan boy bo‘ladi; o‘rganish uchun ijobiy motivatsiya shakllanadi; ixtiyoriy e'tibor rivojlanadi, ishlash qobiliyati oshadi;jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

*O‘yin texnologiyasining o‘quv jarayonidagi o‘rni va roli* o‘yin va o‘quv elementlarining kombinatsiyasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik o‘yinlarning funktsiyalari va tasnifini tushunishiga bog‘liq.

*Kognitiv faoliyatning tabiatiga ko‘ra didaktik o‘yinlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:*

- ***bolalardan ijro etuvchi faoliyatni talab qiladigan o‘yinlar.*** Ushbu o‘yinlar yordamida bolalar modelga muvofiq harakatlarni bajaradilar (raqamli ifoda o‘ylab toping, belgilar qo‘ying, shunga o‘xshash rasmni chizing)

- takroriy harakatni talab qiladigan o'yinlar. Ular hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ("Matematik baliq ovlash", "Labirint", "Qanday qilib tepaga chiqish kerak", "Qutini to'ldiring", "Kemaning yo'nalishini aniqlang")
- qidiruv va ijodkorlik elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlar ("Diraviy misollar to'plash", "Matematik o'rdak")

*Amaldagi materialning tabiatiga ko'ra* didaktik o'yinlar shartli ravishda ob'ektlar yordamidagi o'yinlarga, stolda chop etilgan o'yinlarga va so'zli o'yinlarga bo'linadi.

*Vazifalariga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagilarga bo'linadi:*

tarbiyaviy, nazorat qilivchi, umumlashtiruvchi.

Agar o'quvchilar unda qatnashsa, yangi bilim, ko'nikmalarga ega bo'lsa yoki ularni o'yinga tayyorgarlik jarayonida egallashga majbur bo'lsa, *o'yin tarbiyaviy* bo'ladi. Bundan tashqari, kognitiv faoliyat motivi nafaqat o'yinda, balki matematik materialning mazmunida qanchalik aniq ifodalangan bo'lsa, bilimlarni o'zlashtirish natijasi shunchalik yaxshi bo'ladi.

*Nazorat o'yinida* didaktik maqsad bo'ladi, uning maqsadi ilgari olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va sinab ko'rishdir. Unda ishtirok etish uchun har bir talaba ma'lum bir matematik bilimga ega bo'lishi kerak.

*Umumlashtirish o'yinlari* bilimlarni birlashtirishni talab qiladi. Ular fanlararo aloqalarni o'rnatishga hissa qo'shadi va turli xil o'quv vaziyatlarida harakat qilish ko'nikmalarini egallashga qaratilgan.

Ishtirokchilar soniga qarab didaktik o'yinlar: jamoaviy, guruhli va individual bo'lishi mumkin.Didaktik o'yinlar darsning muayyan bosqichlarida, o'yin momentlari sifatida ishlatilishi mumkin.

Masalan 3-sinf o'quvchilari bilan ishlayapsiz. 3-sinf matematika kursining asosiy mavzusi jadvalni ko'paytirish va bo'lishdan iborat. Texnika bolalardan nafaqat jadvalni bilishlarini, balki uni tuzish tamoyillarini ham tushunishlarini talab qiladi, bu esa har qanday ishni topishga imkon beradi. Hisoblash ko'nikmalari, ma'lumki, bir xil amallarning takroriy takrorlanishi natijasida erishiladi. Jadvaldagi ko'paytirish va bo'lish holatlarini mashq qilishda bir xillikga yo'l qo'ymaslik uchun siz mashqlarni o'yinlar orqali, qiziqarli tarzda o'tkazing.

Didaktik o'yinning ahamiyatini bolalarning reaktsiyasiga qarab emas, balki har bir o'quvchi uchun o'quv muammosini hal qilishda qanchalik samarali yordam berishi bilan aniqlash lozim.

Dars uchun didaktik o'yinni tanlashda quyidagi savollarni o'ylab ko'ring:

O'yinning maqsadi. O'yin davomida qanday ko'nikmalar rivojlanadi? O'yin davomida qanday tarbiyaviy maqsadlar qo'yiladi? Bu mening sinfimdagi o'quvchilar uchun mumkinmi? O'yinda barcha bolalar teng ishtirok etadimi? O'yinni natijalarini sarhisob qiling.

Darsda didaktik o'yin o'tkazish uchun, agar kerak bo'lsa, har bir guruhga kuchli va zaif o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni kiritish uchun oldindan guruhlar tuzing. Har bir guruhga mas'ul shaxsni tayinlang. Qoidaga ko'ra, bu yaxshi o'quv qobiliyatiga ega yoki guruh ishini tashkil eta oladigan eng uyushgan o'quvchi bo'lsin.

Darslarda og'zaki mashqlarga muhim o'rin ajrating. Bunga barcha o'quvchilarni jalb qilish uchun ishora kartalaridan foydalaning. Ular o'quvchilarni tartib-intizomga solishga yordam beradi va shu bilan birga materialni o'zlashtirganligi haqida ma'lumot oladi. Ularning yordami bilan siz o'yin shaklida ko'plab og'zaki mashqlarni bajarishingiz mumkin. Masalan.*"Ha. Yo'q" o'yini.*Doskada misollar keltiriladi: 4x6, 8x3, 4x5, 7x3, 9x4, 5x6. Raqamli kartalar ko'rsatasiz. 4x6=24 misolini ayting. Agar raqam javob bo'lsa, o'quvchilar bir ovozdan "Ha" deyishadi. Agar raqam javob bo'lmasa, "Yo'q" deyishadi.

*"Tirik matematika"* Barcha o'quvchilar 0 dan 9 gacha raqamlari yozilgan kartaga ega. Men misolni o'qidim (3x2). 6-raqamli kartaga ega bo'lgan o'quvchi o'rnidan turadi yoki qo'lini ko'taradi, chunki javoblar bir xonali sonlarni beradi. Bu o'yin jismoniy faollikni

talab qiladi, shuning uchun uni darsning o‘rtasida jismoniy mashqlar o‘rniga bajarish mumkin.

"O‘zingizni sinab ko‘ring" Kartochkalar tayyorlaysiz, ularda ba'zi raqamlarni ko‘paytirish natijalari yoziladi, masalan, 18. Men kartani ko‘rsataman va o‘quvchilar bu javob bilan ko‘paytirishga misol yozadilar (2x9, 3x6).

"Kim tezroq, kim aniqroq?!" Har bir qator stoliga 0 dan 9 gacha raqamlar to‘plamini taqsimlaymiz, shunda qatordagi bitta talaba 0 raqamini, boshqasi 1 va hokazolarni oladi. Misollarni o‘qiysiz (4x4; 9x2 yoki 40:4 va hokazo) va bolalar tezda qaysi raqamlar ishtirok etishini aniqlashlari kerak va 1 va 6 raqamlariga ega bo‘lganlar doskaga chiqib, 16 raqamini tashkil qiladi. Har bir misolda javob tezroq va to‘g‘ri berilgan qatorga ball beriladi. Eng ko‘p ball to‘plagan qator g‘alaba qozonadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak mantiqiy fikrlash va mantiqiy fikrlashning hayotiy misollarini o‘z ichiga olgan o‘yinlar va jumboqlardan foydalanib, o‘qituvchilar mavzuni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yanada qiziqarli va qulayroq qilishlari mumkin, bu esa matematikada tushunish, jalb qilish va ishlashni yaxshilashga olib keladi.

Adabiyotlar.

1. Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O‘rta maktab boshlang_ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.) Toshkent. ―O‘qituvchi‖ 2006 yil.

2. Ummatkulova Sayyora Shavkatovna. Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashlarini shakllantirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7

3. Z.A Narimbetova, N.J Asqarova. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida didaktik o‘yinlarning ahamiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал №2 2021ж.

4. Jumaev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (O O‘YU uchun ) Toshkent. ―O‘qituvchi‖ 2014 yil.

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING XALQARO BAHOLASH DASTURI MASALALARIDA

**Djumayev M.– professor, Qilicheva M.O'.–magistrant, TDPU.**

Annotatsiya. Ta'limga kompetensiyaviy yondoshuv eskirib qolgan "bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish" konsepsiyasiga qarshi o'laroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondoshuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Kalit so'zlar. Matematika o'qitish, kompetensiya, xalqaro baholash, ta'lim va tarbiya, pedagogika, psixologiya.

Абстрактный. Компетентностный подход к образованию, в отличие от устаревшего понятия «приобретение знаний, умений и компетенций», предполагает приобретение обучающимися различных форм компетенций, позволяющих им эффективно действовать в ситуациях, возникающих в повседневной жизни, профессиональной, имеет место лично и в обществе. Таким образом, при компетентностном подходе основа математического образования ориентирована на усиление практического, прикладного направления.

Ключевые слова. Преподавание математики, компетентности, международной оценки, образования и воспитания, педагогики, психологии.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga matematikani o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Standart loyihasi tuzilishda quyidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan foydalanildi:

1) Yevropa Kengashining "Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalar – umumevropa standartlari strukturasi" to'g'risidagi hujjati («Key competences for lifelong learning — a European Reference Framework»)

2) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o'quvchilarni baholash Dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) standartlari .

3) Ta'lim natijalarini baholash bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiyasining (International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) ) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendensiyalarini o'rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center (TIMSS)) standartlari.

1-hujjatning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda Xalq ta'lim vazirligi qoshidagi Respublika ta'lim markazi tavsiyasiga ko'ra matematika bo'yicha quyidagi tayanch kompetensiyalarga erishishga qaratilgan **ta'lim standartining yangi avlodini** yaratish olib borilmoqda:

- Kommunikativ kompetensiya
- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi
- Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
- Umummadaniy kompetensiyalar
- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

- Matematik (fanga oid) kompetensiya

Kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy hamda fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari tushunchalariga umumiy ta'riflar berilgan bo'lsa ham, biz bu kompetensiyalarga matematika fanining o'ziga xosligi va o'quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatini xisobga olgan xolda yondashdik.

«Matematik kompetensiya» tushunchasiga kelsak, unga quyidagicha yondashilgan:[2]

*Ta'rif:* Matematik kompetensiya – kundalik holatlarda vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun matematik mushohada yurita olish va uni qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Hisob-kitoblarni amalga oshirishning rivojlangan ko'nikmalariga tayangan holda asosiy urg'u tafakkur yuritish, bilim va malakalarga beriladi.

Matematik kompetensiya- turli darajada matematik mushohada yurita olish (mantiqiy va fazoviy tafakkur) hamda ma'lumotlarni taqdim etish usullarini puxta egallash va qo'llashni o'z ichiga oladi.

(Original)

*Definition:* Mathematical competence is the ability to develop and apply mathematical thinking in order to solve a range of problems in everyday situations. Building on a sound mastery of numeracy, the emphasis is on process and activity, as well as knowledge. Mathematical competence involves, to different degrees, the ability and willingness to use mathematical modes of thought (logical and spatial thinking) and presentation (formulas, models, constructs, graphs, charts).

(Ruscha)

*Opredelenie:* Matematicheskaya kompetentnost - sposobnost razvivat i primenyat matematicheskoe мыshlenie dlya resheniya selogo ryada problem v povsednevnых situatsiyax. Opirayas na razvitыe navыki vыchisleniy, osnovnoe vnimanie udelyaetsya na znaniya i umeniya. Matematicheskaya kompetentnost vklyuchaet, v raznoy stepeni, sposobnost i gotovnost primenyat matematicheskie sposobы мыshleniya (logicheskoe i prostranstvennoe мыshlenie) i opisaniya ob'ektov (formulы, modeli, konstruksii, grafiki, diagrammы).

*Matematik kompetensiya bilan bog'liq bo'lgan zarur bilim, malakalar va fanga bo'lgan qiziqish:*

- Matematika fanidan zaruriy bilimlar sonlar, kattaliklar va strukturalar, asosiy amallar va ma'lumotlarni taqdim etish usullari, matematik tushuncha va terminlar haqida qat'iy bilimlarni, hamda matematika javob bera oladigan savollarni anglashlarni o'z ichiga oladi.

- Inson matematikaga hos mulohaza yuritish, matematikada isbotni va matematikaning tilini tushunishi, hamda buning uchun mos vositalardan foydalanishi malakalariga ega bo'lishi kerak.

- Inson uyida va ishdagi kundalik vaziyatlarda asosiy matematik qonunlar va asosiy matematik usullarni tadbiq etish hamda asoslangan mushohada yuritish ketma-ketligini qurish va uni baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.

Matematikaga ijobiy munosabat haqiqatga nisbatdan hurmat, isbotlash uchun dalillarni izlash, ularning asoslanganligini baholay olish orqali shakllanadi.

(Original) *Essential knowledge, skills and attitudes related to this competence:*

Necessary knowledge in mathematics includes a sound knowledge of numbers, measures and structures, basic operations and basic mathematical presentations, an understanding of mathematical terms and concepts, and an awareness of the questions to which mathematics can offer answers.

An individual should have the skills to apply basic mathematical principles and processes in everyday contexts at home and work, and to follow and assess chains of

arguments. An individual should be able to reason mathematically, understand mathematical proof and communicate in mathematical language, and to use appropriate aids.

A positive attitude in mathematics is based on the respect of truth and willingness to look for reasons and to assess their validity.

(Ruscha) *Neobxodimыe znaniya, umeniya i pozitivnoe otnoshenie k matematike, svyazannыe s matematicheskoy kompetensiey:*

Neobxodimыe znaniya v matematike vklyuchayut v sebya prochnыe znaniya o chislax, velichinax i strukturax, osnovnыx operatsiyax i bazovыx matematicheskix predstavleniyax, ponimanie matematicheskix terminov i ponyatiy, a takje osoznanie voprosov, na kotorыe matematika mojet dat otvetы.

Chelovek doljen imet navыki primeneniya osnovnыx matematicheskix pravil i sposobov v povsednevnыx situatsiyax doma i na rabote, a takje postroeniya posledovatelnosti argumentirovannыx rassujdeniy i ix otsenivaniya. Chelovek doljen umet matematicheski rassujdat, imet ponimanie o matematicheskom dokazatelstve i matematicheskom yazыke, a takje ispolzovat sootvetstvuyuщie sredstva.

Polojitelnoe otnoshenie k matematike formiruetsya na uvajenii k istine i gotovnosti iskat argumentы i otsenivat ix obosnovannost.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz **«matematik kompetensiya» tushunchasiga quyidagicha yondashdik**: bu - vaziyatni strukturalash, matematik bog‘lanishlarni aniqlash, jarayonlarni matematik modellarini tuzish, ularni tahlil qilish va ko‘rinishlarini o‘zgartirish, olingan natijalar bo‘yicha tegishli asoslangan va maqbul hulosalar chiqarish orqali ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lish.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi va yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, to‘g‘ri mantiqiy mushohada yuritishga, kundalik hayotimizda duch kelinadigan ehtimolliy-statistik xarakterga ega masalalarni yechishga, jumladan turli ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni tahlil etish usullariga, xavflarni aniqlash va baholashga imkon beruvchi **“Ma’lumotlar va imkoniyatlar”** nomli bo‘lim A1 va A+ darajalariga propedevtik tarzda kiritilishini lozim deb topdik.

Ko‘rinib turibdiki ana’anaviy yondashishda o‘quvchining masala yechish o‘quv faoliyati reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, u o‘zini bajaruvchi sifatida namoyon etadi. Tadqiq etish elementlari faqat masala shartlarini tahlil qilgandagina namoyon etadi. Standart masalalarini yechish –tabiati nostandart bo‘lgan, kundalik hayotda kam uchraydigan masalalarni yechishga aylangan. Shuning uchun ham barcha darajalarga oid darslik mualliflari ayrim o‘quv va, ayniqsa, amaliy masalalarga muammoli masala sifatida yondashishlari lozim.

*Uchinchidan*, murakkabroq bo‘lgan mantiqiy, qiziqarli va nostandart xarakterdagi masalalar bilan shug‘ullanish o‘quvchilarga fanni chuqurroq o‘zlashtirishga, avval o‘rganilgan tushunchalarni takrorlashga va ularga tanish algoritmlarini odatiy bo‘lmagan, qiziqarli usulda o‘zlashtirishlariga imkon beradi. Demak, shunday turdagi masalalar A1+, A2+ va B1+ darajalariga kiritilishi tayanch kompetensiyalarga samarali erishishga, o‘zlaridagi noyob iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishga olib keladi.

*O‘qitish usuli haqida.*

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim berish sharoitida o‘qituvchilarning o‘z faoliyatiga yondashuvi ham o‘zgarishi kerak. O‘qituvchi bundan buyon darslik bilan birgalikda o‘quvchilarga “ob’ektiv bilimlarni” yetkazuvchisi bo‘lib qolmaydi. Zamonaviy o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillilik hissini hosil qilish, ularning har biri uchun o‘zining iqtidori va qiziqishini amalga oshira oladigan rivojlantiruvchi muhitni yaratishdan iborat. Shuning uchun ham, matematika fani o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari, pedagogika ta’lim muassasalaridagi ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqilishini hamda zamonaviy metodik qo‘llanmalarni yaratishni tavsiya etamiz.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda matematika fanini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

| **Ta'lim bosqichi** | **Bitiruvchilar** | **Standart darajalari** |
|---|---|---|
| Boshlang'ich ta'lim | Boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari | A1 |
| | Matematika chuqurlashtirilib o'qitiladigan ihtisoslashtirilgan maktablarning boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari | A1+ |

Mazkur standart asosida matematika bo'yicha ta'lim muassasasi xususiyatlarini inobatga olgan holda davlat attestatsiyasi uchun nazorat-baholash ko'rsatkichlari, o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli vazirliklarning buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

**a) Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya**

**(A1)** – berilgan chegaralarga tegishli bo'lgan butun sonlarni hamda sodda kasr sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, modellarda tasvirlay oladi, ularni o'z ichiga olgan sodda sonli ifodaning qiymatini (milion ichida) og'zaki va yozma hisoblay oladi ;

– o'rganilgan yassi va fazoviy figuralarni tasavvur qila oladi, taniy oladi va nomlay oladi simmetriya o'qi, burishga doir mashqlar;

– atrof–borliqdagi ob'ektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay oladi, asosiy kattaliklarini o'lchay oladi va chamalay oladi;

– kundalik hayotda uchraydigan (nur) koordinatalar sistemalarini real ob'ektlar (masalan teatrdagi tomoshabin, samolyotdagi yo'lovchi, shaxmat figurasi) joylashuvini aniqlashda qo'llay oladi;

– ob'ektlarning xossalari bo'yicha tartiblay oladi; sodda kombinatsiyalarini (to'plam va ular orasigi munosabatlar) tuza oladi;

– murakkab bo'lmagan ko'rinishlarda berilgan ma'lumotlarni o'qiy oladi; murakkab bo'lmagan tayyor jadvallarni to'ldira oladi, ustunli diagrammalarni tuza oladi, sonning o'rta arifmetigi va o'rtacha tezliklarni hisoblay oladi.

**(A1+) –** arifmetik hisob–kitob texnikasiga va juft–toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

– bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yecha oladi;

– sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik masalalarini yecha oladi.

**b) Kognitiv kompetensiya (A1, A1+)**

– atrof–borliqdagi hodisa va jarayonlarni matematik tilda ifodalay oladi, tahlil qiladi va sharhlay oladi;

– o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv va amaliy masala yechishda qullay oladi;

– analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi.

Bitiruvchilarning matematika fanidan egallagan kompetensiyalari darajalariga qo'yiladigan talablar ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bo'yicha uzviy bo'lib, matematik kompetensiyalarning deskriptorlari "can do" mazmunida tasvirlangan. Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida ta'lim mazmuni va matematik kompetensiya deskriptorlari Trends in international mathematics and science study center (TIMSS)) baholash standartlariga o'zaro bog'liq holda olindi hamda ular sodda va tushunarli shaklda berildi. Bitiruvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, deskriptorlar:

– har bir darajani to‘liq egallanganlikni ta’minlash uchun ta’limning barcha bosqichlarida o‘quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqishda tuzuvchilar tomonidan inobatga olinishi,

– O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz majburiy ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining davlat attestatsiyasi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishda nazarda tutilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida matematika fanini o‘rganishning asosiy vazifalari:

ta’lim-tarbiya jarayonida tayanch kompetensiyalarni matematika fani mazmuniga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda ta’lim mazmunini hayot va texnika taraqqiyoti bilan bog‘lash, ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish orqali o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Recommendation of the European Parliament and of the Council of 18 December 2006 “On key competences for lifelong learning” (2006/962/EC)

2.PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy.

3.Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

4.Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

5.Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

6. Djumayev M.I Razvitiye matematicheskoy kompetentnosti u budushix uchiteley nachalnix klassav v uchebnom protsesse. Materiali III-yey mejdunarodnoy nauchno-proakticheskoy konferensii «Sovremenniye problemi obucheniya matematike, informatike i fizike v sredney i visshey shkole» (16-go maya 2024 goda). Pod obshey redaksii M.Nugmonova. – Dushanbe: Poligrafiya TGPU im. S.Ayni, 2024. – St.100-106

7.Dzhumaev M.I. Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. *https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172*

8.Djumayev M.. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son.2024 / 148-165 b. http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika, informatika.htm,

9.M.I. Dzhumaev Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. *https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172*

10.Djumayev M.I Ta’lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxpxti.uz 1(5)2024 163-168 http://buxpxti.uz

# GEOGRAFIYA O‘QITISHDA DIFFERENSIALLASHGAN VA INDIVIDUALLASHGAN TA’LIMI HAQIDA

**Djumayeva M.M.– o‘qituvchi, TerDU.**

**Annotatsiya.** Maktabda ta’lim olayotgan har bir bola iqtidorini, individual imkoniyatlarini va boshqa qator shaxsiy sifatlarini batafsil o‘rganmay, tahlil qilmay turib mazkur o‘quvchi kelajagini pedagogik jihatdan to‘g‘ri baholab bo‘lmaydi. O‘quvchilarning faolligini ta’minlashda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan qator muammolar mavjud.

**Kalit so‘zlar**. Geografiya, integratsiya, differensial o‘qitish, indivilual o‘qitish, ta’lim va tarbiya.

Geografiya o‘qitishda innovatsion differensiallashgan va individuallashgan ta’limi**ni amalga oshirish** intellektual tayyorgarligi asosida boshlang‘ich ta’limda o‘qitishni to‘g‘ri tashkil etish muammosi ham g‘oyat muhimdir. Fanning maqsadlari

1. Talabalarning Rossiya ta'lim tizimida sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlar va ularni amalga oshirish strategiyalari haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.
2. Bakalavrlarning ham evristik, ham tadqiqot darajasida ilmiy va tizimli kompetentsiyasini rivojlantirishni ta'minlash.
3. Magistratura talabalarining olgan bilim va malakalarini amaliy faoliyatda amalga oshirishga tayyorligini shakllantirish.
4. Turli innovatsiyalarni, ularning amalga oshirilishi va samaradorligini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish.

Fanni o‘rganish natijasida talaba quyidagilarni bilishi kerak:

 ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarining nazariy jihatlari;
 ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha asosiy me’yoriy hujjatlar;
 ta’limdagi innovatsion jarayonlar mezonlari;
 yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘quv jarayonini tashkil etishning innovatsion usullarini ishlab chiqish tamoyillari;
 ta’limda zamonaviy yondashuvlar va ularni amalga oshirish strategiyalari qoidalari;

uddalay olish:

 innovatsion yondashuvlarning nazariy tamoyillarini qo‘llash va nazariyani amaliyot bilan bog‘lash;
 mamlakat va mintaqaning innovatsion ta’lim holatini yo‘lga qo‘yish;
 gumanistik ta’lim paradigmasi asosida rivojlanayotgan maktabni innovatsion izlash strategiyasini ishlab chiqish;
 ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarning zarurligi va imkoniyatlari bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish;
 o‘quvchilarni samarali rag‘batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida pedagogik jarayonga innovatsion uslublarni joriy etish;
 zamonaviy ta’limning innovatsion tendentsiyalarini hisobga olgan holda o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini qurish va amalga oshirish;
 ta’lim tizimlarining resurslarini o‘zlashtirish va ularning ishlanmalarini loyihalash;

egallashi kerak:

 rejalashtirish va innovatsiyalarni boshqarish texnologiyalari;
 ta’lim tizimini qurishning turli nazariyalari, tushunchalari, yondashuvlarini tahlil qilish va tanqidiy baholash usullari;
 innovatsion jarayonlarda ishtirok etish texnologiyalari.

Taniqli ruhshunos olim L. S. Vigotskiy taraqqiyotidan ilgarilab ketgan ta’limgina samarali bo‘lishini qayta-qayta ta’kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga

oshirilayotgan ishni ertaga o'zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o'sib borishiga imkoniyat yaratadigan, tafakkurning yangi-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik hizmat tizimi mavjud bo'lgan tadbirdagina erishish mumkin.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish jarayonida maktab psixologlari quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

1. Har bir o'quvchida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan stress (hissiy zo'riqish) holatlariga o'rinishlarni aniqlash (psixodiagnostik ishlar);

2. o'quv faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish jarayonida o'quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta'sir etish mumkin bo'lgan holatlarini oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun muntazam ravishda tegishli tadbirlar o'tkazish (psixoprofilaktik ishlar);

3. fanlarni o'zlashtirmaydigan o'quvchilarning o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va shu asosida ular bilan alohida mustaqil ishlar olib borish, ulardagi imkoniyatlarni keng miqyosda o'rganish va rivojlantirish orqali o'quvchi shaxsidagi faollikni oshirish yo'llarini izlash (rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar);

4. har bir o'quvchining o'zigagina xos iqtidori, qiziqishlari, maqsadlari o'qish imkoniyatlari haqida shu o'quvchining o'ziga, sinf rahbariga va ota-onasiga o'z vaqtida tegishli ma'lumotlar bera olish (psixologik maslahat ishlari);

5. psixologik xizmat nizomiga amal qilgan holda har bir o'quvchi uchun «shaxs psixologik varaqasi» ni to'ldirish. har bir sinfdagi o'quvchilar guruhi, rasmiy va norasmiy kichik guruhlar, sardorlar va ayrim «ajralib qolgan» o'quvchilar bilan individual–psixologik ishlar olib borish rejalarini tuzish. o'quvchilarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish va ularni kasbga yo'llash bilan bog'liq tadbirlar ko'lamini belgilash (umumiy faoliyat tadbirlari)...

Qisqasi, har bir o'quvchi uchun psixologik muxofaza imkoniyatlarini yaratish va shu asosda o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash zarur bo'ladi. Maktab o'quvchilariga xos psixologik qonuniyatlarga to'liq rioya qilish ta'limni tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek bolalarga bilimlari va huquqlari doirasida boshlang'ich ta'lim tizimida olib borilayotgan darslarni psixologik jihatdan tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish ta'limdagi yutuqlar omili bo'ladi. Bu jarayonda ayniqsa, aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bo'lgan ayrim o'quvchilar faoliyatiga alohida e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. O'ylaymizki, maktab psixologlari tomonidan yuqorida qayd etilgan muammolarning bartaraf etilishi va vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi istiqbollarni yanada yuksakroq saviyaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1.Анохин, А. А. География населения с основами демографии : учебник для академического бакалавриата / А. А. Анохин, Д. В. Житин. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 279 с.

2.Геттнер, А. География. Ее история сущность и методы / А. Геттнер ; переводчик Е. А. Торнеус. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 490 с.

3.Djumayev M. Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son.2024 / 148-165 b. http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika, informatika.htm, E-mail: fizmat_jurnali@inbox.uz

4.M.I. Dzhumaev Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan **Science and innovation.** International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. *https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172*

# DARSLARDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI BO‘YICHA O‘QITUVCHILAR UCHUN TAVSIYALAR

**Djumayev J.M.– o‘qituvchi, TAFU.**

**Annotatsiya.** Asrlar davomida ajdodlarimizning aqlu-zakovati bilan yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining xar tomonlama kamol topishida yetakchi omildir. SHunday ekan, hozirgi zamon kishisi, xususan yosh avlodning milliy tushunchasini, ongini boyitib borish katta axamiyatga ega.

Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy boyliklar xalqimiz tomonidan ko‘z qorachigidek saqlanmoqda va o‘rganilmokda. O‘sib kelayotgan yosh avlod - maktab o‘quvchilarini mana shu asarlar bilan tanishtirish ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bilim saviyasini yuksaltiradi.

Kalit so‘zlar. Mutafakkirlar, Sharqona tarbiya, tarix, pedagogika, madaniyat,ta’lim va tarbiya, boshlang‘ich sinf, texnologiya.

Tarixiy materiallardan foydalanib dars samaradorligini oshirishni **Rejalashtirishning samarali yo‘llari** - o‘qitish vazifalarini ta’lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan birgalikda loyihalashga tizimli yondashish hamda o‘qitish vazifalarini amalga oshadigan tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdan iborat. Bunda bajariladigan Ishni rejalashtirishda **quyidagi usullardan foydalaniladi:**

- ta’limning mazmuni umumiy, politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirish:

- ta’limning mazmuni muayyan yoshga qaratilishi va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqishi:

- ta’lim mazmunida ajratilgan komponentlar tarbiya mazmuni bilan o‘zaro muvofiq bo‘lishi;

- ta’lim nazariyasida tarixiy materiallarga suyyangan holda muammoli-kamol toptiruvchi o‘qitishni joriy etish va o‘quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo‘llarini izlash. Tarixiy materiallar asosida muammoli kamol toptiruvchi o‘qitishning nazariyada ishlab chiqilgan asosiy g‘oyalarini quyidagicha ifodalash mumkin;

- ta’limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g‘oyasi, ya’ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish;

- ilmiy farazni olg‘a surish, asoslash;

- ilmiy farazni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan muammoli o‘qitishni tashkil etish;

- o‘quvchilarning ijodi imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilik yo‘sindagi ko‘nikma va malakalarni o‘stirish g‘oyasini singdirish;

- muammoli o‘qitish nazariyasida qator qonunlarni ifodalash, ulardan muammoli dars o‘tish bilan muammoli o‘rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, o‘quvchilarning tayyorlik darajasi bilan muammoli o‘rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajrata bilish.

Didaktikada ishlab chiqilgan o‘quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirish nazariyasi muammoli kamol toptiruvchi o‘qitish nazariyasiga juda yaqin. Faollik nazariyasining asosiy g‘oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta’lim muhitida (o‘qitish mazmuni, shakllari va metodlari bilan) o‘quvchilarning faolligini tobora oshirib borishdan iborat Tarixiy materiallar asosida. bilish faoliyati deganda biz ularning bilim va ko‘nikmalarni egallashlarni tushunamiz. Bilim - bu insonning umumlashtirilgan tajribasidir. U faoliyatning turli sohalarini fanda mavjud dalil, qoida, xulosa qonuniyatlar, g‘oya, nazariyalar ko‘rinishida aks ettiradi. Boshlang‘ich maktabda ko‘proq dalillar va tarixiy materiallar orqali oddiy tushunchalar o‘rgatiladi.

Tarixiy mavzular asosida o‘quvchilarning bilish faoliyatining muvaffaqiyati quyidagi

omillar bilan belgilanadi:

1.Nazariy tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf matematika darslarida tarixiy materiallardan foydalanish jarayonida o‘quvchilarning faol bilish faoliyatini oshirishda o‘qituvchi yetakchi o‘rin tutadi.

2. Matematika darslarida tarixiy materallardan foydalanib dars samaradorligini oshirishda bilish faoliyati jarayoni bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish asosida shaxs xususiyatlari, faoliyatning muayyan uslubi, umuman hayotiy uslub shakllanadi.

3.Boshlang‘ich ta’limning dastlabki bosqichlarida faoliyatning barcha turlariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar modellashadi.

Shu bois bilish faoliyatini shakllantirishga uning tarkibiy qismlari birligida, shuningdek mazkur jarayonning didaktik asosi sifatida ham qaraladi.

Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o‘quv jarayoni bilimlarni o‘zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo‘llashning (muammoli va reproduktiv) usullarini o‘rganish yuzasidan tashkil etiladigan faoliyatdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinflarda bolalarning bilimlari kengayganligi, chuqurlashganligi, layoqat va ko‘nikmalari bir qadar mukammallashganligi kuzatiladi.

Mehnatsevarlik, o‘z o‘zini boshqara bilish qobillik va kattalar hamda tengqurlari bilan bilvosita muloqotlar, kichik maktab yoshidagi bolalarga rivojlanish imkonini beradi. Bu yerda gap bolalarning o‘z sevimli mashg‘ulotlari bilan soatlab yolg‘iz shug‘ullana olishlari haqida ketmoqda. Ularning bu xususiyatidan o‘quv-tarbiya jarayonida tarixiy materiallarni qo‘llashda foydalanish mumkin.

Biz tadqiqotimiz jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarning iqtidorini rivojlantirishning psixologik-pedagogik, ilmiy-didaktik shartlarini ko‘rib chiqdik. Boshlang‘ich sinflarga tarixiy materiallardan foydalanish dars samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

1. matematik bilimlarni to‘g‘ri qabul qilish va bilish faoliyati tarixiy materiallardan foydalanib dars samaradorligini oshirishning zaruriy shartidir.
2. Uzoqni ko‘ra bilish masalalar yechishning tahlil qilish dars samaradorligini oshirishning asosiy usuli va elementi hisoblanadi.
3. Muammoli yo‘l- ijodiy faoliyatdan foydalanish usuli bo‘ladi.
4. Tarixiy mavzulardan foydalanib, darsni tashkil etish dars samaradorligini oshirishning zaruriy shaklidir.

Shuni qayd qilish lozimki, bunda matematik tasavvurning shakllanish jarayonlari, *matematika nazariyasi, elementar matematika rivoji, o‘zgaruvchan miqdor matematikasi, matematik tahlil va geometriya, hozirgi zamon matematikasining* boshlanishiga qaratilgan. Barcha bu ma’lumotlar davrlashtirilgan. Misr, qadimgi Vaviloniya, Xitoy, Hindiston, Yunoniston,O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq, Uyg‘onish davri Yevropasi matematikasi va geometriyasi ma’lumotlari bayon qilib berilgan.

Foydalanilgan adaiyotlar ro‘yxati

1.Sirajiddinov. S.X.Muxammad ibn Musa Al-Xorezmi. Matematicheskiye traktati". Tashkent, Izdatelstvo "Fan" , 1983, 305 str

2.Tllashev X.X. Obshepedagogicheskiye i didakticheskiye idei uchenix ensiklopedistov Blijnego i Srednego Vostoka epoxi sred nevekovix. –T.: Fan, 1989 g

3.To‘raqulov E., Raximov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. -T.:O‘qituvchi. 1992.- 80 b.

4.Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. ?odiriy nomidagi xalq merosi. 1993.- 223 b.

5.Frumin, I.D. Vizov kriticheskoy pedagogiki. ID. Frumin // Voprosi filosofii. 1998. №12. - S. 55-62.

6.Jumayev Erkin, Osnovnimi strukturnimi innovatsionnoy deyatelnosti uchashixsya starshix klassov // Pedagogik mahorat. Nazariy va ilmiy - metodik jurnal.Buxoro.-№4.- 2021 yil. -B.67-72.

# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Djurayeva Sh.Q. - “Lider bolalar maktabi” o‘qituvchisi**

Bugungi kunda, psixologiyada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini hal qilishning bir necha yo‘nalishlari mavjud.

**Birinchi yo‘nalish,** intellektual iste’dodlilik shaxsning ijodiy faoliyati uchun zarur, biroq yetarli shart emasligi haqidagi fikr, da’vo bilan bog‘liq. Ijodiy xulq-atvorni aniqlashda motivasion qadriyatlar va shaxsga xos xususiyatlar asosiy rol o‘ynaydi. Ijodkor shaxsning asosiy xususiyatlari qatoriga kognitiv iste’dodlilik, muammolarga nisbatan sezuvchanlik va noaniq va murakkab vaziyatlarda mustaqillik kiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini shakllantirishning nazariy masalalarini kreativlik (ijodkorlik) asosida pedagogik ijodkorlikda o‘ziga xos ko‘rinish ekanligini professor N.N.Azizxodjaevaning D.B.Bogoyavlenskayaning kabilarning tadqiqotlarida ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Olima bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik funksiyasini faollashtirish asosida innovasion faoliyat orqali pedagogik voqelikni to‘g‘ri his etish, kasbiy bilimlarni shakllantirishda pedagogik refleksiyani qaror toptirish va pedagogik mahoratni puxta egallash kerakdir deb ta’kidlaydi.

Uning asarlarida intellektual faoliyatning uchta darajasi ochib beriladi: rag‘batlantiruvchi-mahsuldor, nofaol (inson ma’lum bir harakat doirasidagina ishlaydi va tashabbus ko‘rsatmaydi), evristik (inson harakat usulining yaxshilanish yo‘l(lar)ini topadi), kreativ (inson o‘z oldiga maqsad qo‘yadi: mutlaqo boshqacha harakat usulini topish va bu maqsadda chuqur ichki rag‘batlantirish bo‘ladi). Insonning kreativ faolligi shaxsning kreativ (ijodkorlik) turiga xos muayyan psixik tuzilishi bilan belgilanadi. Olima ijodiy iste’dodni har qanday faoliyatni eng yuqori darajada bajarish va uni faoliyat sub’ekti tashabbusi bilan rivojlantirish xususiyati sifatida belgilaydi. Bu nazariy yondashuvning bizning tadqiqotimiz uchun ham muhim bo‘lgan amaliy xulosa, natijasi bor: ijodiy kompetentlikni rivojlantirish haqida gap ketganda, ishini faqat qo‘shimcha dasturlar va o‘qitish metodikalarini tayyorlash bilan cheklab bo‘lmaydi. Ishonchimiz komilki, ta’lim o‘qituvchi va talabaning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilsa, faoliyatning ichki rag‘batlantirilganini, shaxsning yo‘naltirilganligi va ijodiy kompetentlikka asos yaratuvchi qadriyatlar tizimini rivojlantirishga sharoit yaratish zarur.

**Ikkinchi yo‘nalish** vakillari B.R.Adizov, Sh.Pozilova, A.Dj.Rou, J.Gilford, A.Disterverg. Ya.A.Ponomarevlar ijodiy tafakkurni intellektga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil omil, deb hisoblashadi.. Bu yondashuvda intellekt aql darajasi bilan kreativlik darajasi orasida korrelyatsiya mavjudligiga urg‘u beriladi. J.Gilfordning eksperimentlarida intellekt aql va kreativlik darajasi o‘rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiyani aniqlangan. Intellekt koeffitsienti o‘rtacha qiymatlardan yuqori bo‘lganda kreativlik intellektga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil omilga aylanadi. Ana shu faktlar asosida har bir psixik jihatdan normal insonda muayyan ijodiy salohiyat mavjud bo‘ladi va uni iloji boricha erta davrlarda rivojlantirish zarur degan xulosalar chiqariladi. Bunda mustaqil ta’lim faoliyatida bo‘lajak o‘qituvchisining ijodiy va kasbiy faoliyatining kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish orqali tadqiqot ishimizning dastlabki jarayoniga asosiy fikr, mulohoza, qoida zarurdir.

Tadqiqotchi J.Gilfordning fikricha, ijodiy fikrlash tafakkur boyligi, vaqt birligida ko‘p sonli yangi g‘oyalar o‘ylab topish, ishlab chiqarish qobiliyati; sharoitga qarab moslashuvchan tafakkur bir vazifadan boshqasiga o‘tishning tezligi; boshqalarga o‘xshamaslik, bevosita bog‘lanmagan aloqadorliklarni ishlab chiqish, g‘ayrioddiy javoblar berish, nostandart yechimlar topish; ijodiy fikrlash quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi: tafakkur boyligi (vaqt birligida ko‘p sonli yangi g‘oyalar o‘ylab topish,

ishlab chiqarish qobiliyati); sharoitga qarab moslashuvchan tafakkur (bir vazifadan boshqasiga o‘tishning tezligi); boshqalarga o‘xshamaslik (originallik), bevosita bog‘lanmagan aloqadorliklarni ishlab chiqish (o‘ylab topish), g‘ayrioddiy javoblar berish, nostandart yechimlar topish; qiziquvchanlik; farazlarni (gipotezalarni) ishlab chiqish qobiliyati; javob reaksiyasining rag‘batdan (stimuldan) mantiqiy mustaqil bo‘lishi; rag‘bat va javob reaksiyasi orasida muayyan (aniq) aloqadorlik mavjud bo‘lganda, javobning voqelikdan uzilganligi

Ijodiy fikrlashning sanab o‘tilgan parametrlari Gilfordning kub modelining bir qismi bo‘lib, olim divergent fikrlashni umumiy ijodiy qobiliyat sifatida kreativlikning asosi deb hisoblagan. Bunday fikrlashda muammoni hal qilishning turli yo‘llarini izlash imkoni bo‘ladi va kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladi. Divergentlik - «turli yo‘nalishlarda fikrlash qobiliyati», kengroq «makonga» chiqishning qidirilayotgan hodisasiga mos keladi. Ijodiy faoliyatning muvaffaqiyati fikrlashning ikki turi – divergent va konvergent fikrlashning maxsus birga kelgan kombinasiyasini ta’minlaydi. Divergentlik tafakkur qidiruv faoliyati ob’ektiga nisbatan tashqi hisoblangan ma’lumotlarni olish va tahlil qilish natijasida shu ob’ekt haqida ko‘plab va bir xil to‘g‘ri bo‘lgan g‘oyalar majmuini ilgari surishga tayyorligida namoyon bo‘ladi. Konvergent fikrlash ma’lumotlarni tadqiqotning asosiy maqsadiga bo‘ysunuvchi yaxlit tuzilmaga (strukturaga) birlashtirish imkonini beradi. Bunda kreativlik orqali shaxsning yuqori darajasini boshqa fazilatlariga: tasavvur, fantaziya, yuqori emotsionallik, tafakkur, fikrlashning mustaqilligi, ongning qabul qila olish jarayonida tajriba va bilimlarga bog‘liq bo‘ladi. Bizning tadqiqotimizda oliy ta’lim muassasalarida kasbiy faoliyat sharoiti orqali ijodiy fikrlashning sifati va xususiyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Ijodkor shaxsni rivojlantirish muammosini hal qilishning **uchinchi yo‘nalishi** tadqiqotchi D.B.Bogoyavlenskayaning konsepsiyasiga ko‘ra, intellekt yangi vazifalarni hal qilish, va harakatlarni avtomatlashtirishda ishtirok etadi. Tashqi olamga nisbatan intellektaul aqliy xulq-atvor tashqi muhitga moslashishda, uning turini tanlashda yoki uni o‘zgartirishda ifodalanishi mumkin. Agar inson uchinchi turdagi munosabatlarni amalga oshirsa, u ijodiy xulq-atvorni namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b
2. Богоявленская Д. Б. Психология одаренности: понятие, виды, проблемы. М.: МИОО, 2005. 175 с.
3. Гильфорд Дж. Три стороны интеллекта. Дж.Гильфорд // Психология мышления в 2 т. / под.общ.ред. А.М.Матюшкина. – М.: Прогресс, 1965. – 525 с.
4. Казанцева В.В. Формирование творческой компетентности учителя начальной школы в самообразовательной деятельности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Воронеж – 2013. 205 с.
5. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. //Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. Под ред. В.А.Сластенина. –2 ч. –М.: Гуманит. изд. центр. Владос, 2003. – 256 с.

# BOSHDANG'ICH TA'LIM YO'NALISHIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI OQITISHDA INNOVASION YONDASHUV

**Do'stov M.– o'qituvchi, FTU.**

**Annotatsiya.** Boshdang'ich ta'lim yo'nalishida axborot texnologiyalarini oqitishda innovasion yondashuv o'ziga xos gumanitar informatika fanining jadal rivojlanishi haqida gapirish mumkin; filologik, psixologik, pedagogik, tarixiy va boshqalar; ikkinchidan, umumiy informatika rivojlanishini ikki yo'nalishga ajratish haqida: texnik, kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan bog'liq va gumanitar, inson va kompyuterning o'zaro ta'siri muammolarini o'rganish, axborot texnologiyalarini insoniyat jamiyati hayotiga kiritish va ularning gumanitar sohada qo'llanilishi.

**Kalit so'zlar:** kompyuter, axborot, texnologiya, filolgiya, til va jamiyat, gumanitar yshnalishlar, mohiyat va mazmun, amaliyot.

Boshdang'ich ta'lim yo'nalishida axborot texnologiyalarini oqitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish va ularni ishlatish ko'nikmalarini o'rgatish lozim. Bunday mas'uliyatli vazifani bajaruvchi o'qituvchining o'zi kerakli bilimlar bilan qurollangan, hayotiy tajribaga ega va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi egallagan bo'lishi zarur. Mana shularni hisobga olib, «Axborot texnologiyalari» fani o'qituvchilariga metodik yordam sifatida o'quv rejasidagi to'qqizta mavzuning mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan va bir necha yillik tajribada sinab ko'rilgan interfaol usullardan foydalangan holda o'qitish uslubiyotini keltirib o'tishni lozim deb topdik. Metodik qo'llanmada har bir mavzu bo'yicha alohida dars ishlanmalari berilgan bo'lib, unda dars jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun zamonaviy interfaol usul va texnologiyalar:

- aqliy hujum;
- kichik guruhlarda amaliy ish bajarish;
- pinbord (inglizcha pin –mustahkamlash, boord-doska);
- rolli o'yin;
- kichik guruhlarda videofilmni tahlil qilish;
- induvidual amaliy ish bajarish;
- kichik guruhlarda bahs-munozara;
- tadbirkor- ishbilarmonlik o'yini;
- kichik guruhlarga ajratilib boshqalarni o'qitish;
- kitobdan foydalanib bayon yozish;
- tadqiqot usulidan keng foydalanilgan. Ushbu usul va metodikalar ko'pgina pedagogik adabiyotlarda bayon etilgan bo'lsada, o'qituvchilarning yodiga solish maqsadida bu yerda ularning qisqacha mazmun-mohiyatini bayon etib ketishni maqsadga muvofiq deb topdik.

**Aqliy hujum**-hoyalarni ilgari surish (generatsiya qilish) usulidir. Mashg'ulot ishtirokchilari birlashgan holda yoki individual holda qiyin muammolarni yechishga harakat qiladilar. Bu usulning asosiy vazifasi-muammoni mustaqil hal etishga ta'lim oluvchilarda motivatsiya uyg'otishdir. Bu usulni «Axborot texnologiyalari» ning ko'pchilik darslarida tadbiq etish mumkin.

**Kichik guruhlarga ajratilib amaliy ish bajarish.** Bunda ta'lim oluvchilar harakatchan kichik guruhlarga bo'linadilar va o'qituvchi tomonidan berilgan biror amaliy ish topshiriqni yechadilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'rtasida shaxsiy, bir vaqtda jamoaviy holat kuchayadi, ta'lim oluvchilar bilimini hamkorlikda boyitilishi ta'minlanadi, guruhning har bir a'zosi o'zini shu guruhning bir bo'lagi sifatida his etadi.

**Pinbord.** Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzalligi: o'quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O'z fikrini faqat og'zaki emas, balki

yozma ravishda bayon etish, mantiqiy tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Bu usulni ko‘proq axborot texnologiyalari fanining nazariy darslarida qo‘llash mumkin.

**Rolli o‘yin.** Ishbilarmon yoki rolli o‘yinlar muammoli vazifaning bir turidir. Darsning bu usulida matnli materiallar o‘rnida darsni yoritib berish uchun o‘quvchilar tomonidan rollar o‘ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi, o‘yin ishtirokchilari biror o‘yinni o‘ynashi davomida biror mavzuni yoritadilar. O‘yinda rollarni ijro etish orqali o‘zlarini boshqaradilar va oldindan ko‘zlangan natijaga erishadilar. Rolli o‘yinlar o‘ynaladigan darsni tashkil etuvchi o‘qituvchi, mavzuga mos ssenariyni yaratishi, rol ijrochilariga topshiriqlarni oldindan taqsimlab berishi, ba’zi hollarda rollar darsni o‘zida taqsimlanib, ijro etilishiga erishish lozim.

**Kichik guruhlarda o‘qitish.** Bu usulda ta’lim oluvchilar qo‘yilgan muammo bo‘yicha axborot va ma’lumotlarni turli o‘qitish usullaridan foydalanib boshqalarga o‘rgatadilar. Bu metodning afzalligi shundaki, axborot va ma’lumotlarni o‘rgatuvchilar mavzu bo‘yicha bilimlarni mustaqil ravishda egallagan bo‘lishlari kerak. «Axborot texnologiyalari» fanidan bunday darslarni tashkil etish uchun guruh a’zolari zamonaviy kompyuterli texnologiyalardan erkin foydalana olishlari kerak bo‘ladi.

**Videofilmlar tahlili.** Ta’lim berishning bu usulida mavzuga mos videofilmni guruhni kichik guruhlarga ajratilib yoki individual tarzda tahlil qilishga erishiladi. Bu usulni «Aqliy hujum» usuli bilan qo‘shib olib borilishi ta’limda yanada samaradorlikka erishishga olib keladi.

**Kichik guruhlarda bahs-munozara.** O‘quv guruhi ixtiyoriy ikki yoki uch kichik guruhlarga o‘ziga xos tarzda ajratilib, biror mavzu bo‘yicha oldindan berilgan topshiriq yoki yangi axborot va ma’lumotlarni munozara, fikr almashinuv tarzda yechilishi yoki o‘zlashtirilishiga erishiladi.

**Kitobdan foydalanib bayon yozish.** Ushbu usul o‘quvchilar o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari, berilgan matnni o‘z fikrlari bilan ongli, tushungan holda bayon eta olishlariga qaratilgan.

**Individual amaliy ish bajarish.** O‘quvchilar faoliyatidagi bu usul olingan bilimlarni amaliy vazifani bajarishda qo‘llashga qaratilgan. Nazariy o‘rganilgan bilimlar amaliyotga tadbiq etiladi. «Axborot texnologiyalari» fanida bu usul ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki har bir o‘quvchi nazariy bilimni amaliyot bilan qo‘shib olib bormasa, hech qanday ijobiy natijaga erisha olmaydi.

**Tadqiqot usuli.** Bunda o‘quvchilarning ayrim tadqiqot ishlarini, ya’ni diplom ishi va kurs loyihalarini, bitiruv ishlarini, biror mavzu bo‘yicha qo‘yilgan muammoni ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishlari, natijalarni tahlil qilishlari kerak bo‘ladi.

Har bir darsda muammoli savollar yordamida «aqliy hujum» uyushtirilishi o‘quvchilarda erkinlik, ijodkorlik, vatanparvarlik, fanga qiziqish, tadbirkorlik, uddaburonlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Yangi ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarining ishlab chiqilishi va ta’lim jarayoniga joriy etilishi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning qo‘llanilishi munosabati bilan dars ishlanmalariga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib bormoqda. Dars ishlanmalari uchun tayyor qoliplar yo‘q, chunki jonli dars jarayonini hech qanaqa qolipga solib bo‘lmaydi. U turli xil sharoitlarda turlicha tuzilishi mumkin. Bularni hisobga olib qo‘llanmada yoritiladigan har bir darsning namunaviy tarxini, dars yoritilishining texnologik xaritasini jadval shaklini keltirdik. Dars mazmunini yanada yoritish maqsadida unga slaydlar ham kiritilgan.

Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili. Yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limda innovatsiyalar, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o‘quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni

amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi.

Innovatsion iqtisodiyotda zamonaviy AKT ni yuqori darajada bilish, raqamli texnologiyalarni oʻzlashtirish va rivojlantirish qobiliyati oʻta muhim omil sifatida qaraladi.

Informatika va AT oʻquv predmeti - umumiy oʻrta ta'lim oʻquv fanlarining tarkibiy qismi, oʻquvchilarga ilm-fan asoslari toʻgʻrisidagi bilimlarni amaliyotga joriy qilish, inson faoliyati, umumiy, raqamli va moddiy madaniyatning turlarini shakllantirishning umumiy tamoyillari, oʻziga xos koʻnikmalarini oʻzlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida amaliy muammolarning innovatsion yechimlarini topish va hayotga tadbiq etish imkonini beradi.

Fanlarni oʻqitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot- telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda oʻquvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

**Oʻz-oʻzini rivojlantirish kompetensiyasi**ni shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega boʻlish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega boʻlish, yangiliklarga intilish va oʻzlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda roʻy berayotgan progressiv va innovatsion oʻzgarishlardan xabardor boʻlish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga oʻrgatish zarur.

**Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasi**ni shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega boʻlish hamda badiiy, ilmiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Informatika va axborot texnologiyalar fanini oʻqitishni rivojlantirish konsepsiya Oʻzbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan "Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2025-yilgacha Oʻzbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida informatika va AT fanini oʻqitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.

Jumladan: ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Izrail, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimida ham «Informatika» fani umumiy ta'limning asosiy boʻgʻini hisoblanish tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda jahon bozoriga malakali kadrlar tayyorlashga qoʻyiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish va joriy etish;

umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan oʻquvchilarda axborotlashgan jamiyatda ta'lim olishi, kelajakda raqamlashtirilgan muhitda yashashi va ishlashi uchun egallagan koʻnikmalarni boyitish va layoqatini shakllantirish;

informatika va AT fani Davlat ta'lim standarti talablarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qoʻyiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

informatika va AT fani boʻyicha umumiy oʻrta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qoʻyiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

umumta'lim muassasalarining metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

informatika va AT fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek oʻqitish metodikasini takomillashtirish;

informatika va AT fanini o‘qitishda variativ o‘quv modullarini ishlab chiqish;

o‘quvchilarni loyiha va o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etishning metodikasini ishlab chiqish;

ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;

informatika va AT fanini umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;

o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda informatika va AT fani bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish.

Innovatsion iqtisodiyotda zamonaviy AKT ni yuqori darajada bilish, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish va rivojlantirish qobiliyati o‘ta muhim omil sifatida qaraladi.

Informatika va AT fani - umumiy o‘rta ta’lim o‘quv fanlarining tarkibiy qismi, o‘quvchilarga ilm-fan asoslari to‘g‘risidagi bilimlarni amaliyotga joriy qilish, inson faoliyati, umumiy, raqamli va moddiy madaniyatning turlarini shakllantirishning umumiy tamoyillari, o‘ziga xos ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida amaliy muammolarning innovatsion yechimlarini topish va hayotga tadbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Matematika soxasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining  PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

**2.Стратегия действий** по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февралья 2017 года № УП-4947

3.Farberman B.L. va boshqlar. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. – Toshkent;

4. Morozova L. "Narisuy-ka, kletochka za kletochkoy", Izdatelьstvo Выstrov, M, 2006 god.

5. Programmno-metodicheskiy kompleks "MIR INFORMATIKI" razrabotan izdatelьstvom "Uchebnaya kniga" g. Yekaterinburg Obuchayuщaya programma "Korolevstvo kriptografii", CHGPU, 2002 god

6. Selevko G.K. Pedagogicheskie texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya UVP. – M.: NII shkolьnых texnologiy, 2005. – 212 s.

7.Djumayev M.I  Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173

8.Djumayev M.I  The transformation of тe english language’s variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz  19-27 ***https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607***

9. Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5* ISSN: 2754-6705

10. Джумаев М.И. Перспективы совершенствования преподавания математики в школе, колледже и вузе Республики Узбекистан. Ямало.Ханецк Россия «Профессиональное образование арктических регионов» № 6(147). 2023. 3-6 ст https://arctic-journ

# TA'LIM MUASSASALARIDA KASBIY TAYYORGARLIK - TAMOYILARI

**Ergashev J.M. – o‘qituvchi, TGFU.**

**Annotatsiya.** Dasturiy ta'minot butun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Maktab o‘quvchilari tomonidan fanlarning asoslarini nafaqat darslarda, balki tanlov kurslarida o‘rganish, ularning to‘garaklar, to‘garaklar, talabalar ishlab chiqarish jamoalari ishlarida ishtirok etish, maktabdan tashqari mashg‘ulotlar va ijtimoiy foydali ishlarning butun tizimini o‘tkazish jarayonida amalga oshiriladi.

**Kalit so‘zlar.** Dars, innovatsiya, texnologiya, ta’lim va tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, didaktik tamoyillar.

Dars - bu maktabdagi o‘quv jarayonining asosiy tashkiliy shakli. Xizmatga yo‘naltirish (dasturiy ta'minot) ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun darsning ajralmas qismi kasbiy ta'lim bo‘yicha ish bo‘lishi kerak. Dars o‘quv jarayonining asosiy mazmuni hisoblanadi. Maktab fanlarini o‘rganish jarayonida odamlarning mehnatini ochib berish, ularni ishlab chiqarish, uning texnologiyasi, politexnika asosida ilg‘or odamlar va kasblar bilan tanishtirish uchun imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, fanlardan darslarni o‘tkazish imkoniyati cheklangan. Shunday qilib, maktab ishlari doirasida talabalar bevosita ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni kuzatish, mehnat faoliyatining har xil turlarida o‘zlarini tekshirish imkoniyatiga ega emaslar.

Dasturiy ta'minot butun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Maktab o‘quvchilari tomonidan fanlarning asoslarini nafaqat darslarda, balki tanlov kurslarida o‘rganish, ularning to‘garaklar, to‘garaklar, talabalar ishlab chiqarish jamoalari ishlarida ishtirok etish, maktabdan tashqari mashg‘ulotlar va ijtimoiy foydali ishlarning butun tizimini o‘tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalarida dasturiy ta'minotning samaradorligi ko‘p jihatdan jarayonning shakllari va usullariga bog‘liq. Maktabdagi dasturiy ta'minotning asosiy shakllari kasbiy ta'lim va o‘quvchilarga kasbiy ta'lim berishdir. Kasbiy ta'lim jarayonida uning asosiy qismi amalga oshiriladi - kasbiy ma'lumot, ya'ni talabalarni jamiyatdagi mehnatning turli turlari, kasblarning xilma-xilligi va xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar bilan tanishtirish. Bu bir holatda talabalarning muayyan kasblarga bo‘lgan qiziqishini chuqurlashtirishdan iborat bo‘lsa, boshqa holatda talabalarning kasblarga qiziqishini oshirishdan iborat.

Profilni tanlashda o‘quv yurtlari bitiruvchilarining 90 foizi kasb-hunar kollejlarini, 10 foizi akademik litseylarni tanlaydi. Shu asosda, jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash uchun maktablarda dasturiy ta'minotning mazmuni o‘zgarib bormoqda. Maktabda dasturiy ta'minotni olib borishda pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Maktablarda dasturiy ta'minotni olib borishda an'anaviy amaliy mashg‘ulotlar, suhbatlar, dialoglar kabi an'anaviy usullarga qo‘shimcha ravishda yangilarini ishlating, masalan: o‘quv o‘yinlari, konferentsiyalar, ishlab chiqarish jamoalari bilan uchrashuvlar.

O‘quv jarayonida dasturiy ta'minotni tashkil qilishda politexnik yo‘nalishni va talabalarni o‘qishni chuqurlashtirish kerak. Maktabdagi dasturiy ta'minotning muvaffaqiyati turli fanlarning asoslari, mehnat ta'limi va ta'limini tashkil etishda va o‘quvchilarga amaliy bilim beradigan texnik mashg‘ulotlarni o‘tkazishda erishiladi. O‘rta maktablarda umumta'lim fanlari maktab o‘quvchilari uchun kasbiy ta'limning asosiy manbai hisoblanadi, chunki ushbu fanlarning har biri xalq xo‘jaligining ma'lum tarmoqlari to‘g‘risida ma'lumot beradi.

Maktablarda dasturiy ta'minot bu nafaqat o‘qituvchilarning mehnat mavzusidagi ishi, balki barcha o‘qituvchilarning "Mahallalar" (mahalliy hokimliklar), ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlar bilan birgalikdagi ishi. maktabda o‘qituvchi-fan mashg‘ulotlar davomida ushbu mavzuni iqtisodiyotning turli sohalari va sohalari bilan bog‘laydi. Va psixologlar va maktab ma'murlari o‘quvchilarga individual kasb va qiziqishlarni hisobga olgan holda UVP tashkil

etadi, o‘quvchilarga kasb tanlashlariga yordam beradi. Ta'kidlanishicha, maktab fanini o‘qitishda asosiy narsa fanning asoslarini, bu boradagi qonunlarni ochib berish va hodisalarni, naqshlarni tavsiflash orqali talabalar o‘rganilayotgan milliy iqtisodiy yo‘nalish tarkibiga kiradigan ushbu kasbning ilmiy mohiyatini tushunishlari kerak.

Ta'lim muassasalarida dasturiy ta'minot tizimi maktab fanlarining o‘zaro bog‘liqligini, mehnat ta'limi va ba'zi fanlar bo‘yicha texnik mashg‘ulotlar amaliyotini tashkil etishni ta'minlaydi. Ushbu ta'rifdan ko‘rinib turibdiki, mehnat ta'limi jarayonida qo‘llaniladigan turli xil usullar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Har bir mavzu dasturiy muammolarni turli usullar bilan hal qilishga hissa qo‘shadi. Gumanitar tsikl sub'ektlari kasbiy yo‘naltirishning axloqiy, dunyoqarash asoslarini shakllantirishga ta'sir qiladi va uni rivojlantirish jarayonini faollashtiradi. Tabiiy matematika fanlari - o‘quvchilarni politexnika asosida o‘qitish uchun ishlab chiqarishning ilmiy asoslari ochib beriladi.

Darslarda quyidagi dasturiy vazifalarni hal qilishingiz mumkin:

a) talabalarni turli kasblar bilan tanishtirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatlarini ochib berish;

b) talabalarga tanlangan kasblarini olish usullari, o‘quv yurtlari, mutaxassisliklari, o‘qish muddati, kasbiy o‘sish istiqbollari to‘g‘risida ma'lumot berish;

v) ushbu mintaqada shoshilinch ehtiyoj mavjud bo‘lgan kasb egalariga moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlashga ijobiy munosabatni shakllantirish;

d) kasbiy faoliyatning ayrim turlarining xususiyatlari haqida g‘oyalarni chuqurlashtirish;

e) kasbiy qiziqishlarni, doimiy ijtimoiy va mehnat qobiliyatlarini va asoslangan professional niyatlarni shakllantirish.

Dastur tizimi xohlaydi Shunday qilib, mening ishimning maqsadi tanlab olingan ta'lim asosida kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

Tuman maktablaridagi o‘quvchilar bilan kasbga yo‘naltirish tizimini yarating.

Talabalar uchun kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishda har bir kasb uchun maxsus nashr etilgan o‘quv adabiyotlari qo‘llaniladi, kasblar bo‘yicha federal darsliklar, shuningdek o‘quv dasturlari talablarini hisobga olgan holda boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik uchun tegishli o‘quv adabiyotlari mavjud.

O‘qituvchilarning yuqori malakasi sizga uslubiy ishlarni kerakli darajada tashkil etish imkonini beradi. O‘quv zavodi o‘qituvchilari doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirmoqdalar. So‘nggi bir necha yil davomida men "Pedagogik oylik" tashkil qildim va uning doirasida barcha o‘qituvchilar tomonidan ochiq darslar o‘tkazilmoqda. Darslarga o‘zaro qatnashish haqiqatan ham muloqotning jonli shakli va o‘z-o‘zini tarbiyalashning eng qulay shakllaridan biridir. Har yili o‘qituvchilar uzluksiz ta'lim kurslariga qatnaydilar. Va bu bosh o‘qituvchining tezkor faoliyati, o‘qituvchilarning o‘zlari qiziqishi va bu bo‘limning o‘quv bo‘limining uslubiy bo‘limida jiddiy ishlarning natijasi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Зуфарова М.М. Реализация гуманитарного подхода при подготовке сотсиалных работников в профессионалном колледже.- Мактаб ва ҳаёт// Ташкент.- 2008, № 7-8, с. 53.

2.Эgamberdiev N. Sharipova N Yukori sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish texnalogiyasi.-Toshkent.- Uquv qullanma.-2011 62 b.

3.Sharipov Sh.S, Davlatov K, Nasriddinova G.S. Kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari.-Toshkent.- 2007.-146 , b.

4. Umarov S.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish texnalogiyalari.-Toshkent.- 2005 diss.pfn. 160 b.

# MILLIY HUNARMANDCHILIK ASOSIDA UYUSHMAGAN XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Magdiyeva M.E.– o‘qituvchi, Erimbetova S.S. – talaba, TDPU.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi.

**Kalit so‘zlar:** hunarmand, xalq hunarmandchiligi, kasbiy amaliy kompetensiya, an’ana, pedagogik imkoniyatlar

Ayollarning ijtimoiy-psixologik jihatdan barqarorligi albatta, ularning bandligi orqali ta’minlanadi. Axborotda aynan ushbu maqsadga erishish yo‘lida qilingan ishlar, jumladan ayollarni munosib ish bilan ta’minlash, ularni kasb-hunarga tayyorlash va malakasini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar hamda oilada ayolning o‘rnini mustahkamlash, ularni ijtimoiy-psixologik himoya qilish orqali oilaviy ajrimlarga barham berish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratildi.

Xonliklar davrida xalq amaliy san’ati ustalari Xiva, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yig‘ila boshladilar. Ko‘pincha Farg‘ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari Toshkentga kelib binolarni bezar edilar. Bu esa kashtachilik maktablarining yanada rivojlanishiga, o‘ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o‘ynaydi. Lekin bu kashtalar bir-biriga o‘xshasada, har bir kashtachilik maktabi o‘zining alohida kompozitsiya hosil qilish qonuniyatlari, prinsiplari, ish uslubi, rang koloriti bilan ajralib turadi.

Talabalarga zamon talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiya berish, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarni qo‘llash, ularni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishga undaydi.

Xususan, kashtachilik san’atida kashta kompozitsiyalarini tuzish va ranglashda Corel Draw grafik dasturi qulayliklar yaratadi. Bu dastur grafik dizayn sahifalarini ishlab chiqish, fotosuratlarni tahlil qilish va vektor animatsiyasi borasida ko‘plab imkoniyatlar beradi. Shuningdek, dastur kompozitsiya yaratish va uni bajarishda kerak bo‘lgan harakatlarni bir necha bor qisqartiradi. Masalan, yangi elementlar: ellips, to‘g‘ri burchak va egri chiziqlar orqali «sichqoncha» tugmasining ikki marta bosilishi natijasida kerakli o‘lcham va burilish burchagiga ega bo‘linadi.

Kashta kompozitsiyalarini tuzish va ranglashda Corel Draw professional grafik dasturi juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, ushbu dastur orqali qisqa vaqt ichida kashta kompozitsiyasini turli tusda ranglab, mos koloritni tanlab olish mumkin. Bu jarayonni girih kashta kompozitsiyasini hosil qilish va ranglash orqali ko‘rib chiqamiz.

Corel Draw dasturini ishga tushirish uchun uning yorlig‘i rasmini ish stolidan topib, ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi olib kelinadi va sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosiladi. Bu rasmcha ekrandan topa olinmagan taqdirda, quyida joylashgan masalalar panelidagi «Pusk» menyusi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichini olib kelib, chap tugmasi bir marta bosiladi. Namoyon bo‘lgan ro‘yxatdan «программы» qismi tanlanadi. O‘ng tomondagi ro‘yxatdan Corel Draw qatori topiladi va ustiga sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi. Bu amallarni bajargandan so‘ng Corel Draw dasturi ishga tushadi. «Nabor

instrumentov» (uskunalar) menyusidan «pryamougolnik» buyrug‘i tanlanadi va «strl» tugmasi yordamida kvadrat shakli chiziladi.

Bugungi kunda ATlar va ularning tushunchalari bir-muncha ommabop hisoblanib, ular amaliyotga kirib ulgurganligini ko‘pchiligimizga ma’lum. Aytish mumkinki, ular zamirida noan’anaviy o‘qitish tizimi yotadi.

Shu munosabat bilan ta’lim jarayoniga ATlarning keng ko‘lamda tatbiq qilinishi, ta’lim mazmunini boyitishga, uni takomillashtirishga va o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirishda jadallash-tirish, jamoaviy hamda yakka tartibda mashg‘ulotlar olib borish orqali, ta’limni kompleks loyihalashtirish muammolarini yechishni taqazo etadi.

Shunday qiliiiib: Ta’lim jarayonida ATlarni qo‘llash uning mazmunini rivojlantirish, shakl va metodlarini yangilashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Badiiy tasvir yaratish jarayoni shakllarni tahlil qilish yo‘li orqali ongli tasavvur qilish holatiga intilish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Амиргазин К. Ж., Удалов С. Р. Формирование компетентностей в процессе обучения декоративно-прикладному искусству // Омский научный вестник. 2012. № 2 (106). С. 223-225.

2. Гурьев А. И. Статус межпредметных связей в системе современного образования // Наука и школа. 2002. № 2. С. 41-45.

3. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 5. С. 34-42.

4. Кенжебеков Б. Т. Методологические подходы к исследованию развития профессиональной компетентности специалиста // Профессиональное образование. 2004. № 5. С. 177-182.

5. Мишина А. В. Развитие искусствоведческой компетенции бакалавров художественных факультетов // НАУКОВЕДЕНИЕ: интернет-журнал. 2015. Т. 7. № 4 (июль – август). URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/razvitie-iskusstvovedcheskoy-kompetentsii-bakalavrov-hudozhestvennyh-fakultetov (дата обращения: 27.06.2017).

6. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: “Sano-standart”, 2015.

7.Erkinovna, M. M. (2021, February). The role and importance of the creative approach in the teaching of folk art and the science of artistic design. In E- Conference Globe (pp. 5-7).

8.Магдиева, М. Э. (2022). Использованию В Конце XIX–Начало XX Веках В Узбекистане Местных Тканей Для Пошива Одежды–Шёлковых, Полушелковых И Процесс Их Изготовления. Miasto Przyszłości, 28, 1-3.

9.Erkinovna, M. M. Teaching folk craft and artistic design in professional education. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 10(03), 355-356.

10.Erkinovna, M. M. (2023). Pedagogical Foundations of Women's Professional Competence Based on Crafts. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(4), 56-59.

11.Магдиева, М. Э. (2023). Традиционное Искусство Ткачества. Miasto Przyszłości, 33, 145-149.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASH

**Eshonqulova Sh.– PhD, dotsent, Eshonqulov Sh.-PhD, dotsent,**
**Shodmonova M.- talaba, JDPU.**

**Annotasiya**: Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturlari, ularning olib borilishi tartibi hamda nizomlari haqida yoritilgan. PISA xalqaro baholash dasturi mezonlari, uning natijalari va ushbu dastur ishlab chiqilishidan ko‘zlangan maqsad haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:**Xalqaro baholash dasturi, OSED, IEA, PISA, matematika, tabiiy fanlar, o‘qish savodxonlik, tadqiqot, dastur, mamlakat, davlat.

So‘ngi yillarda respublikamizda ta'lim tizimida ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Bu haqida yangi qonunlar qabul qilindi va tez kunlar ichida joriy etildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi har tomonlama e’tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur.Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. Bu dastur bo‘yicha har uch yilda o‘quvchilarning bilimini baholash maqsadida sinovlar o‘tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) PISA dasturi bo‘yicha testlar o‘tkazilgan bo‘lib, keyingi sinovlar 2021 yilda bo‘lishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz ham 2021 yildan bu dasturga qo‘shilishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Lekin bu dasturdan qatnashishdan maqsad testlarni o‘tkazish yoki o‘quvchilarni testga tayyorlash emas, o‘quvchilarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish raqobatbordosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. Xo‘sh, PISA dasturining maqsadi nima, u qanday zaruriyat tufayli paydo bo‘ldi va PISA savollari qanday prinsipga asoslangan holda tuziladi?

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma‘lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopedialar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma‘lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma‘lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi planga tushib qoldi.

Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma‘lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “kosa tagidagi nimkosa”ni ko‘ra olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.

PISA testlari xuddi shu o‘zgarishlarni ta‘lim tizimida aks ettirish, maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

PISA test tarkibi

PISA testlari 5 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi: O‘qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo‘nalishlari. O‘zbekiston 2021 yilda uch yo‘nalish: O‘qish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Testlarda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi! bu testlarda o‘quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini sinovdan o‘tkazish nazarda tutilmagan!.

Respublikamizda qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achiyevement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

IEA(Talim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg‘unlik asosida baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan obyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o‘qitish usullari hamda uy sharoitida o‘quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to‘planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi VM ning 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora -tadbirlari to‘g‘risida" gi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. [1].

Boshlang‘ich ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalar sifatida esa ta'lim jarayonida turli xil matnlardan foydalanishni ta'minlash zarur: yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, murakkab (ko‘plik), turli xil matnlarni o‘qish uchun turli strategiyalarni ishlab chiqish, tushunib o‘qishni shakllantirish va baholashning turli shakllaridan foydalanish (qog‘oz va kompyuter shakllari) kabi vazifalar qo‘yilgan. Rossiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarda PIRLS darslari. O‘qish tezligini nazorat qilishdan ko‘ra tushunib o‘qishga urg‘u berish kuzatildi. O‘qish savodxonligi funksional savodxonlikning integrativ komponenti sifatida anglatmoqda. Rossiyada bu davlat hujjatlari darajasida qayd etilgan (FDAS UBT 2009-y.) Matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy-ilmiy va ma'lumotnomalarni o‘qishni o‘rgatishda o‘ziga xoslik ishlab chiqarilmoqda. O‘qish savodxonligini baholashning turli modellari metapredmet natijasi sifatida yaratiladi. [4]. [5].

Ushbu tadqiqot sinovi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, 2021-yil uchun mo‘ljallangan tadqiqotlarda O‘zbekistonning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham ishtirok etishi o‘qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o‘qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni va faollikni talab etadi. O‘quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo‘yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o‘zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o‘quvchining dunyoqarashi , mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrini tinglab, to‘g‘ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o‘rganib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

3. "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar. Sidorova Galina Aleksandrovna, Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedogogika fanlari nomzodi.

4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil. 92 b.

5. " PISA.2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o‘qish savodxonligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari" nomli taqdimot. Kuznetsova Marina Ivanovna, Rossiya ta'lim akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti Boshlang‘ich ta'lim markazi yetakchi ilmiy xodimi. e-mail: centeroko@mail.ru Veb-sayt www.centeroko.ru

6. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi saytlari.

E-mail: markaz@tdi.uz Veb-sayt: http://www.markaz.tdi.uz/ Telegram: https: //t.me/milliymarkaz

# DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN IN THE PROCESS OF LEARNING USING NEW TECHNOLOGY

**Gazieva L.A.– teacher, Begmanova U. – student, TSPU.**

**Annotation** At present, the general direction of modernization and improvement of the learning process leads to a reduction in reproductive, traditional methods and the introduction of new, more modern and effective ones, during which the student becomes an active participant in the learning process.

**Key words.** Development, the process of learning, education, intellectual skills in younger students, primary grades.

We defined the development and implementation of a system of lessons as a pedagogical condition for the development of educational and intellectual skills, which are the basis for the formation of the ability to self-organize knowledge in primary school students. M. Dzhumaev proposed a system of specific exercises as a means of forming logical knowledge and skills, studying concepts and actions, and revealing the connections between them in first-graders [1].

It should be noted that, despite the attention of teachers, psychologists, didacticians, and methodologists to the problem of creating conditions for the formation of intellectual skills in schoolchildren, with the importance of this group of skills noted in the literature for the development of productive methods of activity, for the formation of full-fledged educational activity, in real teaching practice, teachers most often build their work in traditional conditions based on methods and forms of a reproductive nature and the choice of subject-object relationships in the learning process.

The success of learning largely depends on the conditions in which it takes place. We have determined that the most effective development of educational and intellectual skills is in the conditions of personality-oriented learning, built on the basis of subject-subject relationships between the participants in the pedagogical process. This creates the prerequisites for revealing the essential powers of students, their intellectual potential, the ability to independently develop their own activity. As is known, to organize such training, it is necessary to change the professional position of the teacher, create an atmosphere of "free learning" in the classroom, use methods that stimulate the student's activity and development. Therefore, among the conditions for the development of educational and intellectual skills, the following were identified: orientation towards humanistic principles of education in the process of educational activity, implementation of a system of lessons on the problem of developing educational and intellectual skills of primary school students, use of an optimal combination of teaching methods and forms of educational work in the system of lessons [4].

An analysis of didactic literature shows that the structure and methodology of lessons at school largely depend on the didactic goals and objectives that are solved in the process of studying a particular topic. This allows us to talk about the methodological diversity of lessons and to highlight those that are characterized by a number of common features. The specificity of the lesson system is that each lesson combines learning something new, repetition in the form of updating previous knowledge, skills and abilities, the formation of new concepts and methods of activity and control over the assimilation of the educational material of the entire topic as a whole in the course of its application by schoolchildren in solving practical and educational problems in the lesson.

In our study, the system includes the following subsystems: the goal, the content of specific educational and intellectual skills, the model of the teacher's didactic activity, the intellectual activity of primary school students, and the pedagogical conditions for the formation of educational and intellectual skills in primary school students.

One of the system-forming elements is the goal - the formation of specific educational and intellectual skills in primary school students that contribute to the effective formation of the ability to self-organize knowledge as the basis for their successful learning in middle and high school and mastering a synergetic style of thinking.

The characteristic features of this method include the fact that knowledge is given to students in a "ready-made" form, the perception of knowledge is organized by the teacher using various didactic tools, and students perceive, comprehend knowledge and memorize the information communicated [5].

The main focus of the reproductive method is the development of skills and abilities in the use and application of acquired knowledge. The teacher communicates and explains knowledge in a "ready" form, and students master the techniques for completing individual tasks.

The problem-based method involves revealing various problems in the studied educational material and showing ways to solve them.

The partial-search method is aimed at gradually preparing students for independent problem setting and solving. The teacher communicates part of the knowledge, students find part of the knowledge independently, participating in heuristic conversations, mastering techniques for analyzing educational material, and so on.

The main purpose of the research method is to ensure the organization of students' creative search activity in solving problems that are new to them. The educational process is characterized by high intensity, during which students master techniques for independently setting problems, finding ways to solve them, and so on [7].

The importance of this classification for primary school teachers is that they see the paths that need to be taken to teach children to think and independently acquire knowledge. The first is represented by methods of organizing and implementing educational and cognitive activities. Here, four large groups of methods are distinguished, based on various aspects. Visual, verbal and practical methods (aspect of transmitting and perceiving educational information). A group of inductive and deductive methods (logical aspects). Reproductive and problem-searching methods of teaching (aspect of thinking). Methods of independent work and work under the guidance of a teacher (aspect of learning management) [3].

The second includes methods of stimulation and motivation of educational and cognitive activity. Yu.K. Babansky in this group distinguishes two other subgroups: methods of stimulation and motivation of interest in learning and methods of stimulation and motivation of duty and responsibility in learning. The first is represented by methods of emotional and moral stimulation, cognitive dispute, analysis of life situations, cognitive games, educational discussions, creation of situations of success and others. The second is based on methods of explaining the social and personal significance of learning, methods of presenting requirements, compliance with which means fulfilling one's duty, methods of exercise and accustoming to fulfilling requirements, encouragement and censure and others.

The third group includes methods of control and self-control over the effectiveness of educational and cognitive activity. Here, methods of oral, written, laboratory-practical control and self-control are distinguished. It is important that control is not a separate element of the educational process, but simultaneously performs educational, developmental, educational, and motivating functions. Self-control in these conditions involves the formation of the ability to independently find mistakes, inaccuracies, and outline ways to eliminate the identified gaps [8].

The form of educational work is understood as the design of a segment of the learning process link, covering the management of educational activities of different students.

Modern didactics distinguishes three main forms of organizing students' educational activities in the lesson: frontal, individual, and group. The frontal form involves joint

activities of all students under the management and control of the teacher. The individual form is independent work of each student. The group form is based on the cooperation of students in small groups with less strict control of the teacher.

Group forms involve dividing the class into groups, teams, and links. Among them are: paired (two people purposefully solve assigned tasks), link (they involve organizing the educational activities of permanent groups), brigade (specially formed temporary groups of students perform specific tasks), differentiated-group (for different typological groups of students, tasks are given and specified that correspond to their educational capabilities), cooperative-group (they involve students working in groups on specific tasks, as a result of which the performance of each new group is a continuation of the previous one) [8].Главной особенностью групповой формы учебной работы является то, что во время общения говорящего слушает один или несколько человек (группа).

As a result of the work carried out, we have established that the methods and forms of educational work are closely linked with the mental activity of schoolchildren, cognitive interest and independence.

This, in turn, directly affects the development of educational and intellectual skills and the ability to independently organize the process of assimilation of knowledge, which is basically built on these same characteristics.

Thus, the inclusion of schoolchildren in active work based on humanistic principles of education, and the use of a system of lessons taking into account the application of an optimal combination of teaching methods and forms of educational work will significantly expand the educational and educational possibilities of the lesson and will contribute to the development of educational and intellectual skills in younger students.

Literature

1. Dzhumauev M.. About the main principles and essence of the implementation of the national curriculum. No. 1 - issue Physics and mathematics, journal of informatics/Tashkent 1 - issue 2024 / 148-165 p. http://uzpfiti.uz/uz2/fizika, matematika, informatics.htm,

E-mail: fizmat_ jurnali@inbox.uz

2.M.I. Dzhumaev Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. ***https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172***

3.Djumayev M.I Ta’lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxpxti.uz 1(5)2024 163-168 http://buxpxti.uz

4. Dzhumaev M.I. Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan **Science and innovation.** International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. ***https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172***

5. Dzhumaev M.I**.** Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan Science and innovation. International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. ***https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172***

6. Dzhumauev M. About the main principles and essence of the implementation of the national curriculum. No. 1 - issue Physics, mathematics, informatics magazine/Tashkent. 2024 / 148-165 p. http://uzpfiti.uz/uz2/fizika, matematika, informatics.htm.

# РАЗРАБОТКА ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ

**Газиева Л.А. – преподаватель, ТГПУ.**

**Электронный образовательный ресурс** (ЭОР) – это специально созданный виртуальный инструмент, предназначенный для организации и проведения образовательного процесса с использованием информационно-коммуникационных технологий. ЭОР предоставляет доступ к различным образовательным материалам, включая учебники, учебные пособия, видеоуроки, интерактивные задания и тесты, аудиоматериалы и другие ресурсы.

Они могут быть представлены в различных форматах, таких как текстовые документы, аудио- и видеофайлы, интерактивные приложения и т.д. ЭОР обычно используются в школах, колледжах, университетах и других образовательных учреждениях для обучения и самообразования. Они позволяют учащимся получать знания и навыки в удобном для них формате, где и когда им удобно, и предоставляют возможность персонализации образовательного процесса.

**Электронный математический образовательный ресурс** - это интерактивная платформа или веб-сайт, предназначенный для обучения математике через использование электронных средств. Он предоставляет учащимся доступ к различным математическим материалам, учебным пособиям, задачам, тестам и другим образовательным ресурсам, которые могут быть использованы для самостоятельного изучения или дополнительного обучения математике.

Электронные математические ресурсы обычно предлагают интерактивные задания, объяснения математических концепций, возможность задавать вопросы и получать обратную связь. Они могут быть полезны как для учеников, так и для учителей, чтобы обогатить учебный процесс и сделать его более интересным и доступным.

Разработка электронных образовательных ресурсов для обучения математике требует следующих шагов и методик:

**1. Определение целей и задач**: какие конкретные цели и задачи должны быть достигнуты с помощью электронных ресурсов. Например, целями может быть улучшение понимания математических концепций, развитие навыков решения задач, подготовка к экзаменам, обеспечение доступности математического материала, повышение эффективности обучения или развитие навыков применения математических знаний. Задачи же конкретизируют эти цели и определяют конкретные шаги и ресурсы, необходимые для их достижения. Например, разработка задач, тестов, интерактивных упражнений, анимаций и других элементов, способствующих усвоению математического материала.

При определении целей и задач необходимо учитывать возможности технологий, интересы и потребности обучающихся, а также особенности образовательной программы. Важно также проследить соответствие целей и задач стандартам обучения, чтобы обеспечить качество и эффективность образовательного процесса.

**2. Анализ аудитории**: изучение целевой аудитории, чтобы понять их потребности, уровень знаний и предпочтения в обучении. Это поможет создать ресурсы, которые будут наиболее эффективны и интересны для учащихся.

Для этого можно провести анализ возрастных и уровневых характеристик учащихся, их предпочтений в обучении, уровня математической подготовки, используемых учебных материалов и технологий. Такой анализ позволит определить, какие темы и задачи нужно включить в ресурс, чтобы он соответствовал уровню

аудитории, и какие формы представления материала (видеоуроки, интерактивные задания, тесты и др.) будут наиболее эффективны для усвоения математических знаний. Также важно учитывать особенности восприятия информации различными категориями аудитории, включая аудиторию с особыми образовательными потребностями.

Полученные данные помогут создать более адаптированный и персонализированный математический ЭОР, способствующий эффективному и интересному обучению. Кроме того, анализ аудитории поможет определить предпочтения учащихся в использовании технологий и онлайн-ресурсов, что позволит создать более удобный и привлекательный для них формат обучения. Например, если большинство учащихся предпочитают видеоуроки, то стоит уделить особое внимание созданию качественных и понятных видео материалов. Если аудитория предпочитает интерактивные задания, то основной упор нужно сделать на разработку интерактивных задач и упражнений.

**3. Составление структуры и контента**: определение основных тем, которые будут включены в ресурсы, и разделение их на логические модули или уроки, разработка содержания каждого модуля, включая теорию, примеры и упражнения.

Процесс структурирования ЭОР включает в себя такие шаги, как разделение материала на темы и подтемы, определение последовательности изучения материала, создание навигационной системы для быстрого доступа к нужной информации.

Разработка контента ЭОР состоит из создания теоретического материала, объясняющего основные понятия и правила в математике, предоставления примеров и иллюстраций для наглядного представления материала и разработки интерактивных заданий и упражнений для закрепления полученных знаний.

Кроме того, ЭОР должны содержать проверочные тесты и математические задачи разной сложности для тренировки навыков их решения. При оформлении дизайна и интерфейса ЭОР обращается особое внимание на его удобство, понятность и привлекательность для пользователя, с добавлением графических элементов, повышающих интерес к математике.

На завершающем этапе разработки проводятся тестирование ЭОР на разных уровнях (возрастах) учащихся, выявляются ошибки и недочеты в контенте и интерфейсе, вносятся корректировки и улучшения на основе полученной обратной связи, после чего производится запуск ЭОР на платформе или сайте для доступа учащихся.

Контент ЭОР в школьной математике может включать теоретический материал по различным темам математики, иллюстрации, диаграммы, графики, примеры решения задач с подробными пояснениями, интерактивные упражнения и задания для тренировки навыков, проверочные тесты, задачи разной сложности для развития умения решать математические задачи, а также дополнительные материалы, связанные с математикой, такие как видеоуроки, ссылки на полезные ресурсы и т.д., чтобы учащиеся могли найти нужную информацию и последовательно изучать материал.

**4. Интерактивность и мультимедиа**: использование интерактивных элементов, таких как видео, анимации, игры и тесты, может сделать обучение более интересным и эффективным.

Одним из основных преимуществ использования интерактивных и мультимедийных элементов является возможность активного участия учащихся в процессе обучения. С помощью интерактивных заданий и упражнений, учащиеся могут самостоятельно исследовать математические явления, проверять гипотезы, экспериментировать и находить решения. Это позволяет им развивать творческое мышление, аналитические навыки и наблюдательность.

Мультимедийные элементы помогают наглядно демонстрировать математические концепции и процессы, лучше понять связи между ними. Например, анимация может помочь визуализировать процесс умножения или деления, а видеоурок может объяснить теорему Пифагора или правило дифференцирования.

Интерактивность также позволяет адаптировать материалы под индивидуальные потребности и уровень учащегося. Математические ЭОР могут предлагать учащемуся разные уровни сложности заданий, а также подробные объяснения и подсказки в случае затруднений. Это помогает учащимся лучше усвоить материал и преодолеть трудности.

Кроме того, интерактивные и мультимедийные элементы делают процесс обучения более интересным и привлекательным. Разнообразие форматов и подходов позволяют сделать обучение более разнообразным и увлекательным, что способствует увлеченности учащихся и поддерживает их мотивацию.

Организация ЦОР при традиционной методике представляет собой иерархическое разбиение тем на более мелкие подтемы. Это обеспечивает выдачу информации «малыми порциями». Адаптивная методика позволяет формировать универсальную систему обучения, учитывающую, что учащиеся могут иметь как самый низкий, так и самый высокий уровень подготовки. При этом целесообразно сначала представить ученику материал в краткой форме, затем провести определение уровня знаний и умений и лишь, потом выдать рекомендации к изучению дальнейшего материала, предоставляемого в объеме, соответствующем его уровню.

Список литературы

1. Абдуллина Л.Б., Ишкильдина З.К. Образование в пространстве школы и вуза: опыт, проблемы, перспективы: сборник материалов XI Международной научно-практической конференции. - Стерлитамак: Стерлитамакский филиал УУНиТ, 2022. – 179 с.

2. Аверина Л.В., Боровкова Т.И., Ежова Н.А., Лавриненко Т.Д., Лутошкина В.Н., Мороз Т.Г., Печерская Э.П., Савельева Н.Н., Сергеева И.В., Фролова С.Л. Педагогика: учебное пособие. – Электронное издание. – Электронные текстовые данные. - Нижний Новгород: НОО «Профессиональная наука», 2018. – 244 с.

3. Алимов Р.Х., Азаматов О.Х., Хайитматов У.Т. Информационные технологии в образовании: учебное пособие. - Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. – Ташкент: Издательство «IQTISODIYOT», 2019. - 158 с.

4. Батанасова Б.Е., Навий Л., Сабитова Т.Б., Утельбекова Ш.С. Проектирование педагогической деятельности: учебное пособие. - Астана: Издательство НАО «Холдинг «Кәсіпқор», 2018. – 116 с.

5. Жук А.И., Казимирская И.И., Жук О.Л., Коновальчик Е.А. Основы педагогики: учебное пособие для студентов / под общей редакцией А.И. Жук. – Минск: ОДО «Аверсэв», 2003. – 336 с.

6. Зайцев В.С. Современные педагогические технологии: учебное пособие. – В 2-х книгах. – Книга 1. – Челябинск: ЧГПУ, 2012. – 411 с.

7. Иванова Е.Н. Лабораторные занятия по дисциплине «Методика обучения математике в начальной школе»: методические рекомендации. – Костанай: Издательство КГПУ, 2019. – 24 с.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI RAQAMLI TA’LIM MUHITI BILAN TANISHTIRISH MAZMUNI

**G‘ofurova M.S. – magistrant, TDPU.**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini raqamli ta’lim texnologiyalari , zamonaviy usullari, o‘ziga xos xususiyatlari, istiqbolli yo‘llari, muammo va yechimlari haqida fikr yuritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning o‘rni, o‘quvchilar rivojlanishidagi ahamiyati kabi masalalar aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim, tarbiya, pedogogik texnologiya, tafakkur, boshlang‘ich sinf, innovatsion texnologiyalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishdagi o‘quv jarayoni turli xil darslarda ham bilim, ham ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va qo‘llashda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchining vazifasi materialni o‘quvchilarga tushunarli tarzda tushuntirish va dars davomida o‘quvchilarning hozirgi bilimlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishdir, aks holda u noto‘g‘ri tushunish xavfini tug‘diradi. Shunday ekan, o‘qitish vositalarini tanlash va o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni tashkil etish masalasi dolzarb bo‘lib qoladi. O‘zining  qulayligi va tushunarliligi tufayli ta’limiy o‘yin texnologiyasi kognitiv startegiyani amalga oshirish usuli sifatida ana shunday vositaga aylanishi mumkin. Shu vaqtga qadar bir qator olimlar o‘yinni mustaqil tadqiqot sohasi sifatida ilgari surdilar. “O‘yin kattalar tomonidan bajariladigan va bolalar uchun “begona” bo‘lganidan farqli o‘laroq, ular uchun tanish faoliyat shaklidir. Bolalarning hayotida katta o‘rin egallaydi va u uchun bu yerda bo‘lish qiziqroq.

Bugungi fan-texnologiyalar rivojlanib borayotgan zamonda o‘quvchi bolalarning katta qismi raqamli vositalardan foydalana olish imkoniyati va ko‘nikmalariga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi aqliy tafakkur shakllanishida biz turli xil psixologik, mantiqiy va aqlni charxlovchi topshiriq, testlarga murojaat qilgan edik. Xuddi shunday materiallarni endilikda biz o‘quvchi bolalarga materiallarni va ma’lumotlarni chiroyli dizayndagi, animatsion holatdagi dastur, o‘yin yoki quiz testlar orqali raqamli holatda uzatadigan bo‘lsak, o‘ylaymizki, bolalar tafakkurining shakllanishi nisbatan ortib boradi. Shuning uchun  ham biz bolalarni avvalo, raqamli ta’lim muhiti bilan tanishtirishni lozim deb bilamiz.

Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan raqamli ta’lim texnologiyalarini umumta’lim maktablari ta’lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog‘i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat’iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimedia va internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi raqamli texnologiyalarining umumiy ta’lim maktablari ta’lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo‘l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta’siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Umumiy ta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalari vositasida o‘qituvchi va o‘quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, xususan:

· axborot yig‘ishning yangi usullarini va ularni qo‘llashni bilib oladilar;

· bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;

· mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;

· bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’lim sohasida, o‘quv

faoliyatida va o‘quvchilar ijodiy, aqliy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Raqamli ta’lim muhiti ta’limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Axborot raqamli texnologiyalarini qo‘llashda o‘quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va raqamli texnologiyalarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi raqamli texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova Toporkova va boshqalar o‘qituvchining raqamli texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;

2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;

3) umumiy kommunikativ (o‘zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi;

4) axborot vositasida o‘zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo‘lishi;

5) o‘zini refleksiyalash (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo‘lishi;

6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o‘zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o‘zlashtirish.

Pedagog-olim V. K. Selevko esa o‘qituvchining kompyuter savodxonligini raqamli texnologiya mazmunining muhim qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

· informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;

· kompyuterli texnikaning (smartfon, smartwatch, ipad, laptop va hk) umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;

· zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;

· umumiy vazifa bajaradigan zamonaviy dasturning qobiqlar va operatsion vositalarini (Norton Commander, Windows va boshqalarini) bilish hamda ularning vazifalarini o‘zlashtirish;

· hech bo‘lmaganda bir matn redaktorini o‘zlashtirganlik;

· dasturlashtirish algoritmlari, tillari va paketlari haqidagi boshlang‘ich tasavvurlarining bo‘lishi;

· utilitar (amaliy foyda beradigan) vazifalarini bajaradigan amaliy dasturlaridan foydalanishning boshlang‘ich tajribasi.

Axborot raqamli texnologiyalarining asbob-uskuna va dasturiy vositalarining juda jadallik bilan rivojlanib borishi, masalan, yangi avlod kompyuterlarining, yangi dasturlarining chiqishi, turli ta’limiy vazifalarni hal etish qulay texnikaviy imkoniyatlar ochib beradi. Biroq ilmiy izlanishlar o‘quv maqsadida foydalaniladigan axborot tizimlari o‘z didaktik sifatlariga ko‘ra hali ham qoniqarsiz darajada ekanligini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, axborot texnologiyalarini o‘qitish maqsadlarida foydalanishning metodik (pedagogik) vositalari axborotlashtirishning texnikaviy vositalari rivojlanishidan ancha orqada qolib ketyapti. Kompyuterning imkoniyatlari juda katta, biroq pedagogik maqsadlarda u yetarli darajada foydalanilmayapti.

O‘qitish maqsadidagi axborot uni loyihalashtirish bosqichida kiritiladi. Xususan, axborot — avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining ma’lumotlar bazasini yaratishda, elektron darsliklarni tuzish uchun o‘quv materialini tayyorlashda, modellashtiriuvchi turdagi kompyuter tizimlari bilan o‘quv ishlarining ssenariylarini, masalalar va mashqlar, test topshiriqlari tuzishda kiritiladi. Raqamli texnologiyalar bir yo‘la bir necha fan sohalariga

informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma’lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg‘unlikda psixologik pedagogik asos yetakchi o‘rin tutadi. Raqamli ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy qilish muhim o‘rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagi ta’limiy texnologiyalardan farqli ravishda, raqamli texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo‘lib esa raqamlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi.

Agar dars jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mukammal rejalashtirilmasa, aniq qo‘yilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Natijada zaif, yetarli darajada tashkil etilmagan dars samarasiz yakunlanadi. O‘quvchi zerikib keraksiz hissiyotlarga beriladi, uning bilimga chanqoqligi pasayadi va hatto o‘qishga bo‘lgan qiziqishi sinadi. O‘quvchi bu fanga salbiy munosabatda bo‘la boshlaydi. Shuning uchun o‘qituvchi interfaol metodlarni raqamli texnologiyalar bilan birgalikda dars jarayoniga tatbiq qilar ekan, o‘quvchilarda fanga va mavzuga qiziqishni uyg‘ota olishni o‘z rejasidan chetda qoldirmaslik kerak. Ko‘plab adabiyotlarda, o‘quv munozaralari va bahslarni tashkil etishda bunday usullardan samarali foydalanish tavsiya etila boshladi. O‘qituvchi o‘qitish va o‘rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi o‘qitish jarayoni hamda o‘qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to‘liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o‘qitish uslubi shunday yo‘lga qo‘yilsin-ki, bunda o‘quvchilar o‘qitilayotgan fanni to‘liq o‘zlashtira olishsin, o‘qituvchi ham oldiga qo‘ygan maqsadiga to‘laqonli erishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS” jurnali, 2023-yil, may soni, 19-21b.
2. Arruda, Eucidio Pimenta, Kerres, Maykl muallifligidagi maqola
3. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatika o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari. O‘quv qo‘llanma. Guliston, GulDU, 2014 y., 151 b.
4. Astra Salvensis, 2021, Issue2, p7

# RAQAMLI TA’LIM JARAYONINI ELEKTRON MUHITDA QURISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

**Hakimov F.N. – katta o‘qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya.** Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning dolzarbligi, mazmuni va uning mohiyati, mexanizmlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, boshqarish, mexanizmlar, umumiy o‘rta ta’lim hamda  ta’lim texnologiyalari.

Raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelgan zamonaviy sharoitda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi ta’lim jarayonini qurish, jumladan, ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy elektron axborot-ta’lim muhitini barpo etish, ta’limni boshqarish strategiyalarini amalga oshirish va ta’limni rivojlantirish bo‘yicha yangi talablarni qo‘ymoqda. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materialini moslashtirish, shu munosabat bilan ijtimoiy buyurtmalar, Oliy ta'limning Federal davlat ta'lim standarti bilan belgilanadigan va talabaning shaxsiy so‘rovlari asosida shakllantirilgan ta'lim natijalariga erishish. kalit. Elektron ta'limni jadal joriy etish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish sharoitida ta'lim formatlari o‘zgarmoqda, ta'lim paradigmasi gibrid ta'lim jarayoniga o‘tmoqda, oflayn va onlayn ta'lim integratsiyasi kontekstida amalga oshirildi. Muvofiqlikka erishish yangi raqamlashtirish tendentsiyalari sharoitida universitet talabalari uchun samarali ta'lim jarayonini yaratish va natijada raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va elektron ta'limning tarqalishiga olib keladigan muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish.

Mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik tadqiqotlar uchun elektron muhitda o‘qitish sharoitida samarali va samarali ta'lim jarayonini qurish muammosi yangi emas. O‘quv jarayoni va ta'lim faoliyatini pedagogik loyihalash masalalari N.G. asarlarida ochib berilgan. Alekseeva, V.V. Afanasyeva, V.V. Yudina va boshqalar. Onlayn ta'limni tashkil etish va elektron o‘quv muhiti va resurslarini rivojlantirishga yondashuvlar A.A.ning tadqiqotlarida keltirilgan. Andreeva, T. Bates, E.V. Bochkova, M.E. Vayndorf-Sysoeva, A. Xikena, V.A. Shershneva va boshqalar.

"Raqamli avlod" deb ataladigan zamonaviy avlod o‘quvchilarining rivojlanishining psixologik jihatlari va xususiyatlari.

O‘quv jarayonini qurishning quyidagi asosiy psixologik va pedagogik jihatlarini aniqladik:

- ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish (o‘rganish motivatsiyasi, qaror qabul qilishning intuitiv shartlari, ta'lim mazmunining shaxsiy ma'nosi);
- talaba nuqtai nazaridan va zamonaviy dunyo ehtiyojlaridan kelib chiqadigan shaxsiy ta'lim natijalarini ishlab chiqishga qaratilgan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta'lim;
- fanning mazmuni integral jihatdan yaxlit bo‘lishi, o‘quv jarayonida bilimlarning tizimli taqdimotini ifodalashi va talabalarda yaxlit idrokni shakllantirishi kerak;
- fan bo‘yicha o‘quv materialining mikro porsiyali o‘zgaruvchan taqdimoti;

kognitiv ta'lim tizimidan faoliyatga asoslangan tizimga o‘tish, ya'ni. ta'lim tizimida aylanayotgan axborotdan mustaqil amaliy harakatlar va harakatlarga o‘tish

**Xulosa.** Umumiy ta'limni raqamlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi o‘qitishda yangi texnologiyalarni birlashtirish, birinchi navbatda yuqori ta'lim natijalariga erishish o‘quvchilarning hozirgi holatini baholash muhimdir raqamli ta'lim tashkilotlarini turli

darajalarda o'zgartirish o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash doirasini o'z ichiga oladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida xulosa qilib aytganda dunyoda shunday davr keldiki, ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish salohiyati va jamiyatning ilmiy darajasi kompyuterlarning umumiy quvvati va axborotni qayta ishlashning texnologik mukammalligi bilan belgilanadi. Ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish axborotni qayta ishlash qobiliyatini oshiradigan prinsipial jihatdan yangi ishlab chiqarish modulli dasturlar va texnologiyalari bilan jihozlash va rivojlantirishni talab qiluvchi eng muhim vazifadir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF 6108 - sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 60-sonli Farmoni.

3. Norboy o'g'li, H.F. (2023). Umumiyo'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Journal of new century innovations*, *37*(1), 44-48.

4. Norboy o'g'li,H.F. (2023). Umumiyo'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-son 1-to'plam iyul 2023 yil. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *1*(1), 276-281.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA FONETIKANING O'QITILISHI

**Ro'zimurodova N.– talaba,**
**Ilmiy rahbar: Hamrayev M.A. –dotsent, f.f.n., TDPU.**

Jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Til-bu belgilar, so'zlar va grammatik qoidalar majmui bo'lib, u fikrlarni ifodalash va muloqot qilish imkonini beradi. Nutq esa tilning amaliy qo'llanishi bo'lib odamlar o'rtasida muloqot qilish jarayonidir. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchilarning fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Ammo bunda ular nutqdan to'g'ri foydalanishlari zarur. To'g'ri nutq-tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish; so'zlarni ma'nosiga ko'ra to'g'ri ishlatish. Agar bola o'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalasa, atrofdagilarga uning fikri tushunarli bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari og'zaki va yozma nutqdan to'g'ri foydalanishlarida fonetikadan olgan bilimlarining amaliy ahamiyati katta. Bular:

a) fonetik bilimga asoslangan holda 1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davrida o'ishni va yozishni bilib oladilar;
b) fonetik bilimlar so'zdagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni ajratish asosini tashkil etadi;
c) fonetik bilim morfologik va so'z yasalishiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator imloviy malakalar (jarangli va jarangsiz undoshlarning imlosi) shakllantirish uchun zamin bo'ladi;
d) so'zning tovush tomonini bilish, uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhimdir: hozir va hozir so'zlari ma'nosidagi farq faqat urg'u orqali ajratiladi.

1-sinfda fonetika va grafiklarni o'rganishga katta e'tibor beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Ma'lumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni o'quvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usullari (unli tovushlar talaffuz qilinganda havo oqimi og'iz bo'shlig'idan erkin ravishda o'tadi, undosh tovushlar talaffuz qilinganda havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi);
2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, ba'zan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);
3) bo'g'in hosil qilish xususiyati (unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qilmaydi).

Shunday qilib,1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq a'zolarining vaziyatini kuzatish ko'nikmasini o'stirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4- sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlarni o'zlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta o'zlashtirishga imkon berishi bilan birga, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini o'stirish vazifasini ham bajaradi.

Barchaga ma'lumki, o'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harf bilan ifodalanadi. O'quvchilar ko'pincha tovush bilan harfning o'rnini aralashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar. Ularda grafik malakalarni shakllantirish uchun quyidagilarni o'rgatish zarur:

1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, kitob so'zidagi b harfi p tovushini, kitobim so'zidagi b harfi b tovushini ifodalaydi);
2) jo'ja so'zidagi j tovushi (jarangli, portlovchi) ham, jurnal so'zidagi (jarangli, sirg'aluvchi) ham bitta j harfi bilan ifodalanadi;
3) ) tong, keng so'zlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush (ng) ikki harf birikmasi (ng) bilan ifodalanadi;

4) sh, ch harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi (shar, choy).

O'quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlar ham tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Kuzatishda o'quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko'rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan baqir – paqir, gul – kul, dil – til, zina – sina, joy – choy kabi so'zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari b va d jarangli undoshi so'z oxirida kelganda, uning jarangsiz jufti p va t talaffuz qilinishi bilan va bunday so'zlarning yozilishini tekshirishda fonetik bilimlarga asoslanadi. O'qituvchilar fonetik bilimlarga asoslangan holda jufti bor jarangli undoshlarning yozilishini quyidagicha tushuntiradi. Masalan, maktab so'zi oxirida jufti bor undosh tovushni eshityapman, shuning uchun so'zni tekshirish kerak. Shu undoshdan keyin unli tovush qo'yib so'zni aytaman: maktabi. Maktabi so'zida b tovushi eshitilyapti, shuning uchun maktab so'zida b harfini yozamiz. Shunday qilib, o'quvchilar qanday so'zlar tekshirishni talab qilishi va uning sababini, qanday so'zlar tekshiruvchi so'z hisoblanadi va nima uchunligini bilishlari zarur.

Endi boshlang'ich sinflarda bo'g'inni o'rgatishga to'xtaladigan bo'lsak, bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O'quvchilar so'zni bo'g'inga bo'lishda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. 1-sinf o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda bo'g'inlarga bo'lib, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash mashqlari har kuni o'tkaziladi. O'quvchilar "So'zlar bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi", va "Bir harfdan iborat bo'g'inni oldingi satrda qoldirib, yoki keyingi satrga ko'chirib bo'lmaydi" degan asosiy bo'g'in ko'chirish qoidalari 1-sinfdayoq o'rganadilar. Bolalar ayniqsa, singil, ko'ngil, tongi kabi so'zlarni bo'g'inga bo'lishda qiynaladilar, chunki bu so'zlarda bitta jarangli undosh tovush ng harf birikmasi bilan ifodalanadi. Bu so'zlarni bo'g'inga bo'lishda bu ikki harf sing-lim, ko'ng-lim, tong-gi so'zlaridagi oldingi bo'g'inda qolishi yoki si-ngil, ko'-ngil, to-ngi so'zlaridagi kabi keyingi bo'g'inga ko'chirilishi kerak. Katta, ikki kabi ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga bo'lganda ikkita bir xil undoshning biri oldingi bo'g'inda qolishi ikkinchisi keyingi bo'g'inga o'tishi (kat-ta, ik-ki) o'quvchilarga 2-sinfdayoq o'rgatiladi. Ona tili darslarida bo'g'in va so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi haqidagi tushunchalar bir necha qismlarga bo'lib o'rgatiladi:

1) unli tovush bo'g'in hosil qiladi;
2) so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi;
3) so'zlar bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi;
4) bir unlidan iborat bo'g'in oldingi satrda qoldirilmaydi, keyingi satrga ham ko'chirilmaydi;
5) ketma-ket kelgan bir xil unli va bir xil undoshli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi;
6) harflar birikmali (ng, ch, sh) so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi;
7) tutuq belgili so'zlarning bo'g'inlab kochirilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

**1.** S.Matchonov va boshqalar.Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Ishonchli hamkor, 2021.
2. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Nosir, 2009.
3. S. Avezov va T. Choriyev. Til va nutq o'stirish metodikasi. 2006.
4. Internet resurslari (Ziyonet.uz, kitob.uz).

# O'ZBEK TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI

**Suyunboyeva D.–talaba,**
**Ilmiy rahbar: Hamrayev M.A. –f.f.n., dotsent, TDPU.**

O'zbek tili o'qitish metodikasi – fani hozirgi kungacha boy tajriba to'pladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi birinchi navbatda, falsafa va umumiy tilshunoslik hamda tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Metodika fani ta'limning turli bosqichlarida tilning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish- ning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bilan muhim ahamiyatga egadir. O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalrni hosil qilish; mantiqiy- ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyanishakllantirish; talaba shaxsini ma'naviy (balog'at va fasohat ilmi bilan) boyitishdan iborat.

Endi sifat so'z turkumiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak. O'quvchilar so'z boyligini oshirishda sifat so'z turkumining imkoniyatlari cheksiz. Tildagi so'zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi guruhlarga bo'linishi ularning so'zlik holati, grammatik xususiyatlari asosida maydonga keladi. Ma'lumki tilshunoslikda sifat turkumiga oid so'zlarning tarixi olis davrlarga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati turk", Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat-ul adab", Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyatlari, ularning turli xil tashbehlar va badiiy san'atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida fikr-mulohazalari mavjud edi. Avvaldan ma'lum bo'lgan rang-tus, maza- ta'm, shaxs, narsa buyumlarning xususiyatlari, shakl, hajm, o'lchov bildiruvchi so'zlar, ularning qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'lishi, belgining darajasini bildirishi kabilarga suyangan holda sifat ma'nolari ajratiladi. Predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar sifat deyiladi: yaxshi (kitob), kamtar (yigit), chiroyli (shahar), keng (yo'l), katta (bino), shirin (olma), qadimgi (tarix), devoriy (gazeta) kabi. Sifatlar belgini o'zicha, ayrim olingan holda bildirmaydi, balki borliqdagi u yoki bu narsa va hodisalarga tegishli holda anglatadi. Shuning uchun sifat, odatda, narsa va hodisalarning nomi bo'lmish otlarni aniqlab keladi: kuzgi shamol, aqilli bola, qizil qalam, malla soch, tor ko'cha kabi. O'zbek tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos ma'nosi, maxsus sifat yasovchi affikslarga va shakl yasovchi affikslarga ega ekanligi bilan farqlanib turadi. Grammatik jihatdan narsa belgisi bilan qiyoslab, darajalab ko'rsatishi yoki narsa belgisini kuchaytirib va kamaytirib ko'rsatish xususiyatiga ega: katta- kattaroq, eng katta, ko'k-ko'kroq, eng ko'k, ko'm-ko'k, ko'kimtir, yangi-yangiroq, eng yangi-yap-yangi kabi. Sifat odatda otga bog'lanib keladi. Uning biror belgisini aniqlashga xizmat qiladi. Ba'zan ot so'z ham hech qanday morfologik belgisiz sifatlovchi bo'lib keladi. Lekin belgima'nosini anglatib kelgan bunday ot singari mustaqil ish turlaridan foydalanish samarali bo'ladi. Bunday ishlarni o'zaro musobaqa yo'nalishida o'tkazish mumkin – o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi: 1-guruh insondagi ijobiy fazilatlarni, 2-guruh shu so'zlardagi zid ma'noli salbiy xislatlarni topadilar.

Mazkur so'zlar so'z birikmalari hosil qilish, gaplar qurish, matnlar yaratishga zamin bo'ladi. Ushbu ish jarayoni o'quvchilar so'z boyligini oshiradi, ijodiy tafakkurini kengaytiradi, nutqning sayqallanishiga yordam beradi. O'z nutqida to'g'ri va o'rinli qo'llash usullarni o'rganadi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanib, matn yoki she'riy ifoda sifatida yuzaga chiqara olish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. To'xliyev va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.
2. A. G'ulomov va boshqalar. Nutq o'stirish metodikasi. – Toshkent, 2007.

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJTIMOIY FAOL KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL

**Hasanova M.T. – o'qituvchi, TMCI.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kun ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, ijtimoiy faol, ta'lim-tarbiya, boshlang'ich ta'lim, ma'naviyat – ma'rifat, milliy o'zlik, rivojlantirish.

Boy tariximizga asoslanib qat'iy ishonch bilan ayta olamizki, bu zamindan ko'plab buyuk allomalar: fozilu-fuzalolar, olimu–ulamolar, siyosatchilaru-tarixchilar, qahramonlaru-sarkardalar, davlat arboblariyu jahongirlar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning ko'pgina asoslari mana shu tabarruk zaminda yaratilgan va takomillashtirilgan.

Al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'beklar orqali o'zbek xalqi va Vatanimiz Yer kurrasidan Samogacha ma'lum va mashhur bo'ldi, chunki Samo jismlaridan ikkitasining nomi bu ikki alloma-ajdodlarimiz nomiga qo'yilgan. Shu sababli ham IX-X asrlarda Sharq fani taraqqiyotida Markaziy Osiyo donishmandlari ijodini musulmon madaniyatining "Oltin davri" deb e'tirof etildi yoki yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, "Oynai jahon" ning makoni Toshkentdir va "qog'oz" ning makoni esa qadimiy va hamisha navqiron Samarqanddir.

Madaniy tarzda paxta yetishtirish, ipak qurti boqish dastlab diyorimizda boshlanganligi, keyin boshqa o'lkalarga tarqalganligi tarixdan ma'lum. Demak, paxta, ipak tolalari ortilgan karvonlar bilan birga qog'oz Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo'g'iliston, Marjurlar davlati orqali Chin va Chimochinga, Yaponiyaga, buyog'i esa Eron, Arab, Rim, Yunon, Andaluziya va Kastiliyaga yetib borgan, deyish mumkin."

Vatanimiz, ona zaminimizda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning dunyo ilm-faniga qo'shgan salmog'ini yanada baland ko'taruvchi quyidagi ma'lumotlarni e'tiboringizga havola etamiz: "Hozir birinchi kosmonavt kim bo'lgan?" – deb kimdan so'ramang, darhol "Yuriy Gagarin" deb javob beradi. Atoqli olim, shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda "Bizdan so'rasalar, dunyoda birinchi fazogir Turon o'g'loni Farobiy, Beruniylar, zamondoshi Al – Javhariy bo'ladilar. Kamina Beruniy haqida yangi asar yozish uchun manbalar ko'rayotib, Al-Javhariy va uning jasorati haqida ma'lumot uchratib qoldim", degan edi. Yaqinda esa Turkiyalik olim, professor Usmon Turonning "Turkiy xalqlar mafkurasi" kitobida ushbu satrlarga ko'zimiz tushib qoladi: "IX asrda Turk faylasufi Farobiy va uning hamshahari Ismoil Javhariy arab tiliga oid "Sixax" nomli ulkan asarni, tog'asi Ibrohim bin Ishoq esa "Devon ul-arab" kitobini" yozadilar.

Qo'yilgan muammoning yechimini topishda quyidagi ishlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi:

milliy tarbiyaning nazariy tarixiy asoslari o'rganilib chiqildi va ular Zardushtiylar ta'limoti, uyg'onish davri ta'limoti, jadidchilik harakati namoyondalari ta'limotlari uzluksizlikda (ketma-ketlikda) bitta tizimga keltirildi;

shaxsning ma'naviy kamoloti; mafkuraviy imunitet va g'oyaviy kurashchanlik; sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyat; boshlang'ich bilim va madaniyatning bugungi kun, kelajak avlod uchun ahamiyati haqida hamda ularning tarixiy ildizlari va hozirgi holati mazmuni to'g'risida ketma-ketlikda tegishli nomlarda kompyuterli o'qitish va nazorat qilish tizimlar ishlab chiqildi;

milliy qadriyatlar, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy boyliklar, xalq og‘zaki ijodi, urf – odatlarning tarbiyaviy ahamiyati, milliy tarbiyaning tarixiy asoslarini e’tiborga olgan holda milliy ma’naviy qadriyatlarni o‘rganish uchun “Qadriyatlar” nomli kompyuterli tizim ishlab chiqildi;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarimizga bugungi kunda o‘qishda va boshqa yo‘nalishlardagi faoliyat ko‘rsatishga davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar haqidagi ma’lumotlar bir tizimga keltirildi;

bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilariga ijtimoiy faol kompetentsiyasini rivojlantirish modulining tarkibiy qismlari mazmun mohiyati va ularning talabalarda shakllanadigan fazilatlar va xislatlar yagona tizimga keltirildi;

yuqoridagi ketma-ketlikda ma’lumotlar bazasi (bilimlar banki) tashkil etildi;

ma’lumotlarni axborotga aylantirish mezoni ishlab chiqildi;

tayorlangan axborotlarni kompyuterli tizimda ishlatish algaritmi ishlab chiqildi;

“bo‘lajak boshlag‘ich sinf o‘qituvchilariga ijtimoiy faol kompetentsiyasini rivojlantirish” nomli (kompyuterli tizim tayorlandi)

Adabiyotlar

1. Umumiy o_rta ta‘limning Boshlang_ich ta‘lim davlat ta‘lim standarti va o_quv dasturi. – T., 2017. – B.25
2. Москалская О.И. Грамматика текста. – М., 1981. 7 с.
3. Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. 116 с.
4. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o_zbek adabiy tili.–T.:Xalq merosi, 2003.181-b.
5. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1989. – Б. 9.
6. Гоноболин Ф.И. Книга об учителе. М.: Просвещение, 1965. - 260 с.
7. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом мышлении: Кн. для учителя. -М.: Просвещение, 1987. 190 с.
8. Кормен Т., Лейзерсон Ч., Ривест Р. Алгоритмы: Построение и анализ. -М.: МЦНМО, 2001. 960 с. 9. Дроздикова J.Н. Творческая самореализация старшеклассников в условиях системно-целевой дифференциации обучения// Дисс. канд. пед. наук. Казань, 1998. - 194 с
10. Хен Д. Педагогика и технология – применение телекоммуникации в образовании // Информатика и образование. Международный спец выпуск, 1996. -с.43-49

# BO‘LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O‘QITUVCHILARINING REFLEKSIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH USULARI

**Hayitov A.I.–katta o’qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida rekleksiv kompetentlikni rivojlantirish modelini yaratish va uning mazmuni haqida so’z borgan. Rekleksiv kompetentlikni rivojlantirish modelini yaratishning bloklari va ularni amalga oshirish usullari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** boshlang’ich sinf o’qituvchisi, kompetenlik, refleksiya, refleksiv kompetentlik, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish, model, model mazmuni.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda xalqimiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar jarayonida ta’lim subyektlariga yaratilayotgan imkoniyatlar, yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor, ta’lim muassasalarining o‘quv-ilmiy-metodik va moddiy-texnik imkoniyatlarini zamon talablari darajasida ta’minlash, Davlat ta’lim standarti, Davlat ta’lim talablari, o‘quv dasturlarini o‘zgartirish, yangilash va takomillashtirish yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan ishlar ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatdan yuksaltirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu jarayonlar, o‘z navbatida ta’lim oluvchilar va pedagoglar faoliyatini takomillashtirishning zarurligini belgilab beradi.

Respublikamizda boshlang‘ich kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish va ular uchun metodik ta’mintoning yangi avlodini yaratish, zamonaviy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkillashtirishning me’yoriy asoslari yaratildi hamda moddiy-texnik bazasi takomillashtirilmoqda. O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-con «O‘zbekicton Recpublikacini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar ctrategiyaci to‘g‘ricida»gi farmonida. «Yoshlarni jismonan, ruhan va aqlan sog‘lom, vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai-nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»[3] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengayatiradi.

Ta’lim sohasidagi munosabatlar “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun bilan tartibga solinib, qonunning 9-moddasida boshlang’ich ta’lim haqida so’z yuritiladi. Unga ko’ra umumiy o’rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to’ladigan yilda qabul qilinishi hamda boshlang’ich ta’lim oluvchilarda umumiy o’rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko’nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilganligi belgilab berilgan[4].

Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonining umumiy mazmuni bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligiga nisbatan nazariy-metodologik yondashuvlarni aniqlashni talab etadi.

Tadqiqot uchun aniq metodologik asos sifatida tizimli, shaxsiy-faoliyatli, refleksiv-ijodiy, shaxsga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlar belgilab olindi.

N.A.Muslimov tadqiqotlarida tizimli yondashuvga quyidagicha ta’rif beriladi. Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo‘nalishi bo‘lib, uning asosida ob’ektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv

---

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони.
4 O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi 637-son Qonuni. – T., 2020.

tadqiqotchining ob'ekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi 5.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirishga E.F.Zeer, O.V.Kalashnikovalarning ilmiy ishlarida ajratib ko'rsatilgan omillar muayyan darajada ta'sir etadi.

E.F.Zeer, O.V.Kalashnikovalarning pedagogik refleksiyani rivojlanishiga yuqori darajada ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: o'ziga adekvat baho berish, o'z-o'zini nazorat qilish, fikriy faoliyatning moslashuvchanligi, kasbiy yo'nalganlik, ijobiy "Men" obrasi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga moyillik, xulq-atvorda subyektivlik, empatiya 6.

Shuningdek, pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra pedagogik refleksiyaning rivojlanishiga quyidagi omillar ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi belgilab berilgan[7]:

- ✓ shaxsning individual tipologik xususiyatlari: jinsi, yoshi, xulq-atvor xususiyatlari;
- ✓ ijtimoiy omillari: pedagogning ta'lim va tarbiya tizimidagi tajribasi; ijtimoiy maqomi (muayyan rasmiy lavozimlarni egallash).

Mazkur omillarning samarali ta'siri orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'z shaxsiyatini o'zgartirish va rivojlantirishga intilish, kasbiy faoliyat jarayonida o'zini o'zi bilish, shaxsning faoliyatda sheriklar tomonidan qanday qabul qilinishini tasavvur qilish, ichki xususiyatlarini tahlil qilish kabi qadriyatli munosabatlar tizimi shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan omillar refleksiv kompetentlikning alohida tarkibiy jihatlarini rivojlantirish amaliyotida hisobga olinishi lozim. Chunki ular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslararo munosabatlarda ematiya, o'z-o'ziga adekvat baho berish, boshqalar bilan o'z shaxsini identifikatsiyalashga oid nuqtai nazarlarni tarkib toptirishga xizmat qilib, samarali refleksiv pozitsiya va refleksiv tayyorgarlikni rivojlantirishda o'z o'rnida ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Dissertatsiyamizning 1.1-§ va 1.2-§ paragrafida yoritib berilgan refleksiv kompetentlik mazmuni, tuzulmasi va tarkibiy qismlariga asoslanish tadqiqotimiz doirasida mazkur jarayonni amalga oshirish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi modelni ishlab chiqish imkonini berdi.

Model lotincha modulus – o'lchov, me'yor ma'nolarini anglatib, biror narsaning xuddi o'zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko'plab ishlab chiqarish uchun andoza bo'la oladigan nusxasi8.

Modellashtirish bu bilish obyektining har xil modellarini yaratish va undan ilmiy ijodda foydalanish imkonini beruvchi ilmiy metoddir. Modellashtirish metodida obyekt o'rniga uning modeli o'rganiladi 9[52-53-betlar.]. Modellashtirmoq – biror narsaning modelini ishlamoq, yaratmoq *10*.

Demak, model modellashtirilayotgan jarayonga samarali ta'sir etishga yo'naltirilgan tizimli-konseptual vositadir. Biz tomonimizdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish modeli ochiq tavsifga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bevosita bog'liqlikda ishlab chiqilgan.

---

5 Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг тазарий-методик асослари: Дис. ... д-ра пед. наук. – Тошкент, 2007. – 315 б.

*6* https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/9110/1/ii_2000_07.pdf

[7] Khayitov, A. I., Mirkholikova, C. K., Tursunova, M. B., & Baltamuratova, A. P. (2023). Pedagogical-Psychological Characteristics of Development of Reflective Competence of Future Primary Class Teachers. *Journal of Advanced Zoology, 44*(S-2), 1809-1818.

*8* Ўзбек тилининг изоҳли луғати / Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқ.; А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – 606-б.

9 Саифназаров И., Никитченко Г., Қосимов Б. Илмий ижод методологияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 199 б.

*10* Ўзбек тилининг изоҳли луғати / Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқ.; А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – 606-б.

Mualliflarning fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, refleksiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonini modellashtirish – bu bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishda ahamiyatga ega bo‘lgan talablar asosida ishlab chiqilgan, zaruriy pedagogik shart-sharoitlarning samarali ta’sirini inobatga olgan holda usul, metod va vositalardan foydalanishni aks ettiruvchi mazkur jarayonni tashkil etish bosqichlari, funksiyalari, tamoyillari, mezonlari va darajalarini ifodalovchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan andozadir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishga nisbatan mavjud tarkibiy qismlar, yondashuv va tamoyillarni tahlil etish asosida jarayonni quyidagi modelini taklif etamiz. (2.2.1-rasmda aks etgan).

Bo‘lajak boshlang’ich sing o‘qituvchilarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish modeli uchta bir-biri bilan bog‘liq motivatsion-qadriyatli, mazmunli-protsessual, baholovchi-natijali bloklardan iborat.

Motivatsion-qadriyatli blok o‘zida ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalarni aks ettirdi. Ijtimoiy buyurtma sifatida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish belgilab olindi.

Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi faoliyatning samarasi, eng avvalo, uning maqsadini to‘g‘ri belgilab olinishi bilan bog‘liq. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish jarayoni mazmuni uning maqsad va vazifalarida yanada aniqlashtiriladi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model doirasida quyidagi maqsad belgilab olindi: bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlan-tirish jarayonining asosiy vazifalari etib quyidagilar:

- bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, tendensiyalarini aniqlashtirish;
- integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish;
- fanlararo modulli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish;
- bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarida empatiklik, ijtimoiy munosabatlarda emotsional nazoratning mavjudligi, kommunikativlik, tashkilotchilik, hamkorlikdagi faoliyat, o‘ziga ishonish, refleksivlik kabi fazilatlarni rivojlantirish;
- bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish jarayonining maqsad va vazifalari strukturaviy-funksional modelning bloklari bilan bog‘liqdir.

# "TARBIYANING MAZMUNI VA UNING MOHIYATI" MODULINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY MASALALARI.

**Inoyatova Z.X - v,b dotsent, O'ktamjonova M.A.,**
**Izzatova N. A. - talabalar, TDPU.**

**Annotatsiya:** Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

**Kalit so'z:** Tarbiya,shaxs, ta'lim, jamiyat ,tafakkur, avlod, ilm-fan, odob-axloq, texnologiya.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidlagan muhtaram Prezidentimiz.

Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda ayniqsa o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim- tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya mazmuni. Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Alisher Navoiy o'zining "Farhod va Shirin" dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.of

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbek pedagogikasi antologiyasi //Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Safo Ochil. – Toshkent, o'qituvchi, 1995. – 137-bet.

2. Avloniy A. Odob bostoni va axloq gulistoni. – Toshkent, o'qituvchi, 1994. – 10bet.

3.Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, o'qituvchi, 1992. – 22-23betlar

4. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar.– Toshkent, Davlat nashriyoti

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDA MAKTABNING ROLI

**Inoyatova Z.X – v,b dotsent, Mansurova M.J –talaba, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikirlashga o'rgatish. o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirishda maktabning roli. Sohada mavjud bo'lgan muammo va yechimlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, fikrlash, qobiliyat, ta'lim, tarbiya, texnologiya, rivojlantirish, ijodkorlik, raqamli ta'lim.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning kreativ fikrlashga yo'naltirishda metod, usul va turli vositalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu metod va

eng ko'p ta'lim bilan shug'ullanadigan joyi maktabdir. Ularning ta'lim olishi vositalardan foydalanib o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda maktab yetakchi rolni egalllaydi.

O'quvchilarning uchun muhim rol o'ynaydigan shaxs bu-o'qituvchi. Har bir o'quvchi o'zining ijodiy, ijtimoiy faolligi orqali rivojlanishi va muvaffaqiyatlarga erishishi, o'zligini namoyon qilishi uchun maktab va o'qituvchilar kerakli sharoitlarni yaratib berishlari bu sohada eng yaxshi yechim bo'ladi. Atrof-muhit va yaratilgan shart sharoitlar o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirishda alohida o'rin egallaydi Kreativ faollik o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab shakillantiriladi. Ushbu jarayonda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mas'uliyatlilik, kreativ faollik ko'nikmalari tarkib topadi. Boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlash qobiliyatini samarali shakillanishi uchun ijtimoiy jihatdan barqaror nuqtai- nazarga ega bo'lgan ijobiy xarakterdagi ijodkor shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Globallashuv davrida ta'lim jarayonida zarur bo'ladigan vosita va usullarni yangilashni taqazo qilmoqda. Bunday yangilanish o'qituvchi, o'quvchi hamda maktab ta'limini boshqaruvchi sub'ektlar faoliyatiga aloqadordir. Mazkur vositalar sirasiga darsliklar, o'quv adabiyotlari, kompyuter texnologiyalari, o'qitishning innovatsion usullarini kiritish mumkin. Bu o'quvchining keativ faollik ko'rsatishini ta'minlash, mustaqil fikrlashi uchun keng yo'l ochish, yangiliklar yaratishiga imkoniyat berish o'zi uchun individual ta'lim yo'nalishini tanlashiga yo'l ochish demakdir. Pedagogika, psixologiya, sotsiologiyaga oid manbalarda sezgiga asoslangan tasavvur hamda xayol yoki ijodkorlikni aniq tushunish holatlari haqida fikr yuritiladi. Ijodkorlikka asoslangan nuqtai nazarni yo'naltirish uchun muammoning tarixiy ildizlariga murojaat qilish lozim.

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

Kreativlik va ijodiy layoqat tushunchasi ilmiy hodisa sifatida o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab mutaxassislarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Ko'plab xorijlik mutaxassislarning tadqiqotlarida kreativ faollikning mohiyati, vazifalarni bajarishda ma'lumotlarni, axborotlarni turli usullarda jadallik bilan qo'llash sifatida tushunilgan. Bu mustaqil tarzda vujudga keladigan o'quvchilarning faolligiga yo'naltirilgan, o'z-o'ziga muammo qo'yish shaklida namoyon bo'ladigan hodisa bo'lib, bunda vaqt, harakat maromini ifodalovchi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi.

Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog‘liq.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bunda maktablarning rolini oshirish uchun dars jarayonlariga ijodiy tomonlama yondoshish, o‘quvchilarning fikrlarini hurmat qilish talab qilinadi.

Har bir bolani yoshligidanoq to‘g‘ri tarbiyalab borsa , u kun kelib vatani uchun kerakli kadr bo‘lib yetishadi. Hozirda maktabgacha ta’lim davridanoq bolani to‘g‘ri yo‘naltirib borilmoqda.Bolalar dastlabki sodda tushunchalarini maktabgacha ta’lim davridanoq egallab borishmoqda.Dastlabki tushunchalar bola uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bola dastlabki muhim va sodda tushunchalarni boshlang‘ich sinfda o‘zlashtiradi. Mana shu davr har bir bola uchun katta ahamiyat kasb etadi. Yaxshi berilgan bilim kelajakda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Bugungi kunda pedagoglardan doimiy tinimsiz ishlashlari va tajribalarini muntazam oshirib borishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi //Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Safo Ochil. – Toshkent, o‘qituvchi, 1995. – 137-bet.
2. Avloniy A. Odob bostoni va axloq gulistoni. – Toshkent, o‘qituvchi, 1994. – 10bet.
3.Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, o‘qituvchi, 1992. – 22-23betlar
4. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar.– Toshkent, Davlat nashriyoti

# BOSHLANG'ICH SINFLARIDA HAMKORLIK MADANIYATI VA MUHITINI YARATISH IMKONIYATLARI

**Inoyatova Z.X – v,b. dotsent, TDPU.**

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda jamiyatimizda fan, madaniyat va ma'rifatning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya ishlarining bosqichma-bosqich olib borilishi murakkab ko'p funksiyali ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va ma'naviy qiziqishga molik jarayonga aylanadi. Ma'rifat sohasining umumiy maqsadi huquqiy va demokratik davlat talabiga javob beruvchi kishilarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik, madaniyat, ta'lim muassasi,maktab ,o'qituvchi,oila,mahalla,o'qituvchi faoliyati

Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotini integratsiya qilish mexanizmlari va ular o'rtasida axborot va madaniy almashinuvni yagona makonga birlashtirish jarayoni jadallashmoqda. Axborot va madaniy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida zamonaviy insonning tabiat, jamiyat, odamlar bilan assotsiatsiyasi, hamkorligi jarayonlari faollashmoqda.

Hamkorlik pedagogikasi – an'anaviy tarbiyalashdan farq qilib, bola bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratiladi. "Hamkorlikda ishlash" tamoyili tarbiyalanuvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O'quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilanadi, so'ngra uni bajarish uchun bolada o'z kuchiga ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim –tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o'z hohish-irodasini yagona maqsadga – ta'lim olishga yo'naltiradi.

Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli maxsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham, hamkorlik pedagogikasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun o'quv materiallariga ishlov berishda yangi ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Xususan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar, tajriba-sinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar shular jumlasidandir.

O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Ushbu texnologiyada o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularning bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga chiqadigan natija bilan hisoblab chiqiladi. Shunda o'quvchilarning o'z darsiga erishgan natijaga erishgan natija komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'yekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning sub'yektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o'quvchilar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.

Hamkorlik faoliyatlarini biz yana xorijlik olimlarning tadqiqotlarida "

Pedagogik hamkorlik ta'lim jarayoni sub'yektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Pedagogik hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan talaba (o'quvchi) faoliyati uyg'unlashadi, ijodiy xarakter kasb etadiki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatidagi o'ziga xos har bir jihatni hisobga olishni taqozo qiladi.

“O‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma’naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o‘zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g‘oyasi asosida tashkil etiladi. An’anaviy ta’limdagi pedagogik jarayonda o‘qituvchining subyekt, o‘quvchini esa obyekt sifatida ishtiroki o‘zgarib, talaba-o‘quvchi faoliyatning subyekti sifatida ishtirok etadi. “O‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatlari hamkorlikning birga qatnashish, birga qayg‘urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan kabi turlarida amalga oshadi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish ta’lim muassasalari amaliyotiga muayyan o‘zgarishlar kiritishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, uning samarasi ta’lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasining oshganligi, ularning yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga egaliklari, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘zaro faol hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning quyidagi mezonlari va ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratdik:

- ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyatning dialogik tavsifga (dialogik munosabatlar jarayonidagi subyektlarning kommunikativ ustanovkalari) egaligi;
- ta’lim-tarbiya jarayonida subyektlarda qadriyatga yo‘naltirilgan munosabatning (o‘zaro hurmat, o‘zaro ishonch, o‘zaro bir-birini tushunish, mas’uliyatni ongli his etishda subyektlarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatga qadriyatga yo‘nalganligi) umumiyligi;
- subyektlarning o‘zaro birgalikdagi harakatining muvofiqligi (o‘zaro birgalikda maqsadni belgilay olish ko‘nikmasi, unga erishish usullarini rejalashtirish,
- belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, maqsadga erishishni hamkorlikda nazorat qilish, olingan natijalar asosida yangi maqsad va vazifalarni aniqlashtirish);
- faoliyatli-guruhiy mezonlar – o‘zaro birgalikdagi harakatning intensivligi, jamoadagi emotsional-psixologik muhit.

Do‘stona munosabatlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etadigan o‘qituvchilarning qiyofasi va ish uslubida muayyan ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Dars jarayonining tarkibiy tuzilishidan tortib, ta’lim oluvchilarning bilimini baholashgacha, pozitiv, ijobiy munosabat, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan talablar namoyon bo‘ladi. Hamkorlikka asoslangan o‘zaro do‘stona munosabat zamirida ta’limning 5 ta asosiy elementi amal qiladi. Jumladan:

1. O‘zaro ijobiy aloqadorlik. Sinfda ta’lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatlari natijasida bir-biridan yordam so‘rash, ko‘maklashish, qo‘llab quvvatlash, juft-juft yoki guruhlarda ishlash natijasida ijobiy tomondan bir-biriga bog‘lanish vujudga keladi. Sinfdagi ta’lim oluvchilar bir-birlarining kamchiliklarini emas, balki yutuqlarini ko‘rish, tan olish va har bir ta’lim oluvchi o‘ziga xos bo‘lishiga qaramasdan, teng ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa, albatta o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi, qo‘llab-quvvatlanishi zarur.Ta’lim oluvchilarga o‘zlarining bildirgan fikrlari, munosabatlariga tanqidiy qarash, o‘rtoqlarining fikrlarini tinglab o‘z fikrlarini o‘zgartirishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘z bilganlarini bir-birlaridan yashirmaydilar, o‘rtoqlariga bilganlarini o‘rgatib ular bilimining boyishiga ko‘maklashadilar. Shundagina sinfda, maktabda, uyda va mahallada ham barcha insonlar orasida do‘stona munosabat paydo bo‘ladi.

2. Mas’uliyatlilik. O‘qituvchitomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, o‘zi, sherigi, guruhi, sinfi uchun javob berish, vazifalarga mas’uliyat bilan yondashish mas’ullik hissini rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, sinfdagi past o‘zlashtiradigan ta’lim oluvchilarga ham mas’uliyat bilan yondashishga o‘rgatishni guruxdagilar o‘z zimmalariga oladilar. Bu jarayonda o‘qituvchidan katta pedagogik mahorat

va kuchli bilim egasi bo‘lish talab qilinadi. Shundagina sinfdagi ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonidagi barcha ehtiyojlari qondiriladi, ta’lim olish imkoniyatlari kengayadi.

3. «Yuzma-yuz» o‘tirib muloqot qilish imkoniyati. Juft, guruh yoki umumiy sinfda ishlaganda ta’lim oluvchilar yuzma-yuz, ya’ni bir-birlariga qarab o‘tirishlari kerak. Shunda ular o‘zaro fikrlashib, bahslashib, qarorlar qabul qilishlari osonlashadi, bir-birini eshitish, tinglash ko‘nikmalari shakllanadi. «Mehr ko‘zda» maqolining asl mohiyatini anglash, ya’ni bir-birlariga mehr-oqibatli bo‘lish, aynan, o‘zaro fikr almashish jarayonida bir-birining ko‘ziga qarab o‘tirishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Demak, bitta parta atrofida turli jins, turli xarakterdagi va jismonan imkoniyatlari har xil bo‘lgan ta’lim oluvchilar bir-birlariga qarab o‘tirishlari, ularning yaqinlashishlari, do‘stona munosabatga kirishishlariga imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun, turli o‘quv fanlarida guruhlarni almashtirib, barchaning barcha bilan do‘stlashishlariga sharoit yaratish lozim. An’anaviy sharoitda ba’zan ta’lim oluvchilar maktabni bitirib ketgunga kadar ham bir-birlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaydilar. A’lochi ta’lim oluvchilar faqat o‘zaro do‘stlashadilar yoki raqobatlashadilar. Ular bir-birlari to‘g‘risidagi barcha narsalarni bilishga intiladilar. Bu jarayonda ular imkoniyati pastroq bo‘lgan ta’lim oluvchilarni chetlab o‘tadilar, ularda ham insoniy fazilatlar, alohida iqtidorlar borligi, ular ham havas qilsa arzigulik inson ekanligini ko‘pincha tan olmaydilar.

4. Ijtimoiy tajribalar. Hamkorlikdagi faoliyat natijasida ta’lim oluvchilar birbirlarining qobiliyatlarini aniqlay boshlaydilar, ta’lim oluvchilar juftlikda yoki guruhda ishlaganlarida bemalol gaplashish, o‘zaro fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Guruh bajargan ishni har bir ta’lim oluvchi butun sinf oldida takdimot qilishi mumkin, guruh a’zolarining har biri aytilgan fikrga qo‘shimcha qilish huquqiga ega. Xuddi shu vaqtda guruhning boshqa a’zolari uning fikrlarini tinch o‘tirib tinglashlari lozim. Buning natijasida ta’lim oluvchilarda tinglash ko‘nikmalari shakllanadi va mustahkamlanadi. Chunki, bu tarzdagi ta’lim jarayonida barcha ishtirokchilarning fikri birday ahamiyatli va qadrli hisoblanadi. Demak, barcha ta’lim oluvchilarning muloqot imkoniyatlari kengayadi, og‘zaki nutqlari rivojlanadi. Ta’lim jarayoni har bir sinf jamoasida tarkib topgan muayyan tartib, qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ta’lim oluvchilarning o‘zlari o‘qituvchi bilan hamkorlikda joriy etgan tartib-qoidaga barchaning amal qilishini qat’iy talab qiladilar.

5. Baholash. Hamkorlik jarayonida ta’lim oluvchilar bir-birlarini kuzatadilar, nazorat qiladilar, baholaydilar. Albatta, o‘qituvchi o‘quv jarayonining boshkaruvchisi sifatida barcha ta’lim oluvchilarni kuzatadi, bu jarayonda ularning fikr-mulohazalari inobatga olinishi zarur. Bu jarayonda berilgan har bir baho, ma’lum dalillar asosida tushuntirilishi va izohlanishi kerak. Baholash jarayonida ta’lim oluvchilar o‘z-o‘zlariga ham baho beradilar. Bu holat ularni o‘zlariga tashqaridan nazar tashlashlari, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishlariga o‘rgatadi. Chunki, ta’lim oluvchilar bilimini ob’ektiv baholash ehtiyoji shuni taqozo qiladi. Turlicha imkoniyatlarga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ham ishlab chiqilishi zarurligini mavjud tajribalar yaqqol ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-son qarori.

2.Abdullaeva SH.A. Hamkorlik pedagogikasi. –T.: Fan va tex.. 2017. -178 b

3.Dilova N.G‘ Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakillantirish mexanizimlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari b’yicha falsafa doktori (PhD)....diss.-Nukus, 2018. -152 b

# PEDAGOG XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

**Ishbayeva N.A. – PhD, v,b dotsent, TDPU.**

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim tashkilotlarini kadrlar bilan ta'minlash masalalari doirasida olib borilayotgan muhim ishlardan biri kadrlarni kasbiy qayta tayyorlashdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 1026-son qarorida "Kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) — oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar tomonidan ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'qitishning talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada o'quv fani yoki kurs bo'yicha pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish" deb ta'kidlangan [1].

Shuningdek qarorda, "Pedagogik qayta tayyorlash — oliy ma'lumotli nopedagog mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash" deb ko'rsatilgan [1].

Qarorga ko'ra, pedagog xodimlarni kasbiy qayta tayyorlash, qoida tariqasida, kadrlar tayyorlash o'quv rejalariga yangi o'quv fanlari yoki kurslar joriy etilishi, kadrlarning buyurtmachilari yoki mehnat bozorining talablari bilan belgilanadigan ayrim pedagoglarning qayta ixtisoslashuvi yoki yangi mutaxassislikka ega bo'lishi munosabati bilan hududiy markaz tashabbusiga ko'ra shartnoma asosida tashkil etiladi [1].

Kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilarida maxsus qobiliyatlarni shakllantirishga pedagogning faol sub'yektiv pozisiyasini ilgari suruvchi aniq maqsadga yo'nalgan ish tizimini tashkil etish orqali erishiladi [3].

Kasbiy qayta yo'naltirish shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, psixologik, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy sohadagi ta'lim mazmunining o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi bilan bog'liq takroriy, yangilanuvchi o'quv faoliyatiga yo'nalganlikdir. Ya'ni shaxs o'zi egallagan kasb asosida qaytadan malakalarini shakllantirish, oshirish, o'zgartirish va rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqib yo'naltiriladi [3].

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida kreativ o'qitishni tashkil etish innovasion jamiyatda tinglovchilarning faol hayotga qiziqishi va xohishini uyg'otadi, fikrlarni tahlil qilishga undaydi, his-tuyg'ulari va bilimlarini mustahkamlaydi [4]

OTM pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining asosiy vazifasi – tinglovchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratib berish hisoblanadi. Tinglovchining kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash - kreativ o'qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o'qitishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi. Shunday qilib, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslaridagi kreativ o'qitishning maqsadi – tinglovchilarning kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish, shuningdek ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari va dizayn fikrlash texnologiyasi yordamida takomillashtirishdip [4].

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy – siyosiy, ijtimoiy – mafkuraviy o'zgarishlar hamda ta'lim islohoti talablari nuqtai nazaridan pedagog kadrlar malakasini

oshirish va qayta tayyorlash tizimiga yondashadigan bo‘lsak, yangi yondashuvlarga ehtiyojning oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Ta’lim sohasi xodimlari va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash muhim bo‘lib hisoblanib, o‘qituvchilarni qayta tayyorlashda bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’limiy va kasbiy-mutaxassislik malakalarni tarkib toptirish uchun zarur vazifalar amalga oshiriladi.

Rivojlangan industrial jamiyatlarda ta’lim tizimi o‘zgarishlari odimi ta’lim sohasida bir necha yillar umumiy o‘zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, bu esa hamjamiyatlar tomonidan qayta tuzilmalar rivojiga olib boruvchi boshqa metodlar cheklanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli ta’lim sohasida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash masalasi, inson resurslarining ayrim jihatlarini o‘qitish boshqa jihatlar uchun ham umumiy bo‘lib hisoblanadi, biroq ko‘pgina sohalarda yanada ko‘proq samaraga erishish maqsadida tizimlardan maxsus foydalanish zarur.

Bugungi kunda barcha mamlakatlarning ta’lim sohasida o‘qituvchilar ta’limini rejalashtirish muhim omil ekanligi ta’kidlanmoqda. Ta’lim va o‘qituvchilarni tayyorlash sohasining hissasi kelajak istiqboli uchun sarmoya (investisiya)ning eng samarali turi bo‘lib hisoblanadi, chunki o‘qituvchilarni har qanday ta’lim islohotlarni amalga oshirishda tayanch omil deb atash mumkin, jamiyatdagi birorta ham o‘zgarishlar o‘qituvchilarning faol ishtirokisiz amalga oshmaydi.

Ta’lim muassasasini endigina tugatgan o‘qituvchi malaka va ko‘rikmalarga ega bo‘lishi, soha yutuqlari, kasbiy muvaffaqiyatlarni o‘zlashtirishi hamda ta’limning yuksak darajadagi talablariga muvofiq bo‘lishi shart. Hech kimga sir emaski, o‘qituvchilarning malaka oshirganligi ta’siri ostida ta’lim tizimining sifati tobora o‘sib bormoqda va shu sababli ham fan o‘qituvchilari shu sohadagi erishilayotgan yutuqlar asosida, muntazam ravishda, malaka hamda kasbiy salohiyatlarini oshirib borishlari juda muhim bo‘lib sanaladi.

Hozirgi davrda, ko‘pchilik mamlakatlarda, o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘qitishga katta mablag‘ sarflanadi va o‘quv kurslariga katta e’tibor qaratiladi, biroq byudjet munosabati bilan mazkur kurslar bo‘yicha izlashni soddalashtiruvchi, cheklovli ta’lim siyosati amal qiladi.

Dastur yoki o‘quv adabiyoti mazmunida ayrim o‘zgarishlar sababli o‘qituvchilarni ilgariga nisbatan yanada sifatli tayyorlashga ehtiyoj yuzaga keladi. Ilm-fan va texnologiyalar nuqtai nazaridan, yangi ehtiyojlar sababli dastur yoki o‘quv adabiyotlari, shuningdek, yangi metodlarga muvofiq, o‘zgartirilib boradi. Fan va yangi texnologiyalar nuqtai nazaridan, yangi ehtiyojlar yuzaga kelishi sababli dasturlar va darsliklar yangi uslub (metod)larga muvofiq ravishda o‘zgarib boradi. Kursga kiritilmagan yoki to‘liq o‘zlashtirilmagan holatlarda, sinfda, maktab amaliyotida o‘zgarishlarni yuzaga keltirmagan ta’lim mazmuni va bilimlarning chuqurligiga nisbatan aniqlanadi.

Ta’lim islohotida va sifatli ta’lim rivojida eng muhim omil ta’lim tizimida, xususan, yangi malaka va axborotlarga ega bo‘lishga sabab bo‘luvchi o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, ilmiy-texnik sohasida hamkorlik zarurati masalasidir. Biroq bu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari ko‘p jihatdan mavjud pedagogik ta’lim qator kamchiliklarga ega va ularni bartaraf etib, yaxshilashga ehtiyoj katta.

Xozirda o‘qituvchilar uchun uzluksiz ta’lim va o‘qitishning maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirib, o‘qitishda ayrim strategiyalarni yangilash, amaliy malakalarni egallashga zarurat mavjud. Nazariya va amaliyot bilan bog‘liq dastur va xizmatlarni muvofiqlashtirish sohalari eskirgan va ko‘rib chiqilishi zarur. Shu sababli o‘qituvchilarni qayta tayyorlash orqali sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilishi zarur.

Tadqiqot mavjud kamchiliklarni aniqlashda qo‘shimcha ta’lim tizimi sifatini oshirish va o‘qituvchilarni butun qayta tayyorlash tizimi, ayniqsa, boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini sifat jihatidan qayta tayyorlash strategiyasini ta’minlay oladi.

O'qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini yaxshilash orqali ta'lim tizimining sifati ancha yaxshilanadi. Shu sababli quyidagilarni amalga oshirish muhimdir:

- boshlang'ich sinflar o'qituvchilarini qayta tayyorlash mavjud metodlarining kuchli va zaif tomonlarini ko'rib chiqish va aniqlash;
- o'qitishning yangi metodlari va modellarini aniqlash va joriy etish;
- boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining ishlarini isloh qilish bo'yicha qaror qabul qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;
- boshlang'ich sinflar o'qituvchilarini tayyorlash sohasining o'ziga xos xususiyatlari va talablarini tushunish;
- o'qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini yaxshilash uchun model yaratish.

Kuzatishlar tahlili ko'rsatishicha, sifatli ta'lim rivojining eng zarur omili o'qituvchilarni qayta tayyorlashda muhim ahamiyatga molik bo'lgan ilmiy-texnik sohada hamkorlik bo'lib hisoblanadi. Bu qayta tayyorlash uchun yangi axborotlar va malakalarga ega bo'lish uchun zarurdir.

Pedagogik o'quv markazlari va universitetlarining qayta tayyorlov kurslari davrini yakunlash zarur. Kasbiy qayta tayyorlov har yili qisqa muddatlarda milliy maktablar sohalarida, jumladan, ularning o'quv rejasida o'zgarishlar, fanlar mazmuni bo'yicha tuzatishlar yoki yangilanishlar hamda o'qituvchilar malakalarini oshirish bo'yicha o'zgarishlar kiritiladi. Mazkur kurslarni rejalashtirish va amalga oshirish deyarli bir xil e'tiborni talab etadi.

Bugungi kunda o'qituvchilar oldiga qo'yilgan ta'limiy talablarga muvofiq, mazmun nuqtai nazaridan, qiyinchiliklarni yengib o'tish zarur. Kurslarda o'qituvchilarni an'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanib, fundamental o'qitish masalalarini ham e'tiborga olish zarur.

Zaprudskiy o'z tadqiqotlari doirasida "didaktik kompetentlik masalasini talqin etar ekan: "muayyan darajadagi didaktik majburiyatlarni bajarish imkoniyatini ta'minlovchi shaxsning didaktik ahamiyatli sifatlari, bilim, ko'nikma, malakalari tizimi" sifatida namoyon bo'ladi deb talqin qiladi [2].

Didaktik ta'lim nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar tahlillari mazkur davrda yuzaga kelgan didaktik kompetentlikning mohiyati va rolini aniqlash mazmunidagi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning aosiy yo'nalishlarini ajratishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch komponent muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik tayyorgarlikning nomoyon bo'lish sifatlari didaktik kompetentlikni shakllantirilgani bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, didaktik tayyorgarlik tarkibiga muayyan umumiylik hosil qiluvchi, yaxlitlik elementlarga ega bo'lgan invariant va variativ qismlarini keltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrdagi "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 1026-son qarori

2. Zaprudskiy N.I. Nauchno-pedagogicheskoye obespecheniye povыsheniya kvalifikasii uchiteley yestestvenno-matematicheskix predmetov: Diss. v forme nauch. doklada... dokt. ped. nauk. - Minsk, 1993. - 36 s.

3. Otaxonova S. Pedagoglarning kasbiy reoriyentatsiyasi negizida maktabgacha ta'lim muassasasi amaliyotchi psixologlarini kasbiy qayta tayyorlash masalalari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye. 2018, 6. 24-30-betlar.

4. Pozilova Sh. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi. 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI O‘QITISHDA STEAM TA’LIM YONDASHUVINING MOHIYATI

**Ishmetova Sh.Y. – o‘qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya:** STEAM ta’lim texnologiyasi talaba-yoshlarni yangicha, innovatsion va integratsion o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan tubdan farqli metodika hisoblanadi. Bugungi kunda ta’limning rivojlanishi ko‘rgazmalilik, ko‘rsatmalilik va uzviyligini o‘zida mujassamlashtirilgan noan’anaviylik bu ta’lim davr talabidan kelib chiqib muhim ahamiyat kasb etadi. STEAM ta’limi texnologiyasi ta’lim samaradorligini oshiruvchi, talaba-yoshlarga bilim berishda yangicha yondashuv bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** STEAM, ta’lim texnologiyasi, innovatsion metod, integratsiya, loyiha, o‘quv-tadqiqot, bilim, malaka.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha jabhalarda yangilik, izlanish va yangicha fikrlar va zamon talablariga mos ravishda faoliyat olib borish eng muhim masaladir. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yangi fikr, yangi g‘oya va albatta innovatsiyaga tayangan davlat yotadi.

Xalqaro ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, o‘z navbatida, innovatsion yangiliklar yaratishga yo‘l ochadi. Oliy ta’limda talaba-yoshlarning ham akademik salohiyatini o‘stirish, ham ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yetakchilik ko‘nikmasi, notiqlik san’atini rivojlantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash malakasini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, hayotga qat’iy ishonch va qarashlarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Xususan, davlatimiz rahbarining 2019-yilning 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini rivojlantirish to‘g‘risida” Farmoni e’lon qilindi. Ushbu Farmonda keltirilishicha, 2019-2021-yillar davomida respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich STEAM (fan, texnologiya, injenering, san’at va matematika) yo‘nalishlariga ixtisoslashtirilgan “Prezident maktablari”ni tashkil etish vazifasi belgilab qo‘yildi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etiladi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad - iqtidorli bolalarni aniqlash, ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalar, uslublar va xorij tajribasini keng joriy etish, ularni o‘qitish va tarbiyalashda yaxlit tizim yaratish, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdan iborat.

STEAM – hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi STEAM ta’lim texnologiyasini ilk bor Amerika maktablari qo‘llab ko‘rishgan. Ular o‘z bitiruvchilarining ta’limdagi faoliyatini kuzatib, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyalashga qaror qilishgan. Shunday qilib, STEM (Science, Technique, Engineyering and Math) tizimi yuzaga kelgan. Tadqiqot birinchi bor Amerika maktablarida qo‘llanilganligi sababli STEAM aynan Amerikada ishlab chiqilgan deb hisoblanadi. bo‘lib, ayrim maktablar Dastlab STEM (Science, Technique, Engineyering and Math) tizimi yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik unga san’at (Art) qo‘shildi, hozirda STEAM oxirigacha shakllandi.

Ta’lim muassasalarida, pedagoglar kasbiy mahoratida va bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib boruvchi, amaliy faoliyatlariga ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi metodik muhitni

yaratish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda bunday yondashuv STEAM deb atalib, bu taniqli STEM qisqartmasining rivojlanishi hisoblanadi. Demak, STEAM (S-fan, T-texnologiya, E-muhandislik, A-san’at, M-matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. Bu yondashuv kelajakda talabalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Isroil, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta’lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

STEAM Amerikada ishlab chiqilgan yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning fan, texnologiya, injenering, san’at va matematika fanlari yoki bir-biriga bog‘liq boshqa turdosh fanlarning o‘zaro integratsiyasi asosida amalga oshiriladi. Agar oliy ta’limda ushbu texnologiya qo‘llanilsa, ushbu ta’lim texnologiyasi talabalarda muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fiklash, ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash hamda dizayn asoslarini tushunish kabi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, innovatsiyalarni ta’lim jarayonlarida qo‘llash juda kata imkoniyatlarni bizga ochib beradi.Biz innovatsyalarni ta’lim tarbiya jarayonida qo‘llash orqali o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda ularga amaliy qo‘llab ko‘rish imkoniyatini yaratib beramiz ular nafaqat ularni o‘rganadi balki o‘zlari ham o‘rgangan narsalari orqali biror bir yangilik kiritishni o‘rganib o‘zlari biz o‘rgatgan narsalarga qo‘shimcha tarzda kirita olishni o‘rganadilar, ularning bilim darajasini xalqaro baholash standartlariga tenglashtirish uchun o‘qituvchining zimmasiga katta mas’uliyat yuklanmoqda. Bu esa o‘qituvchilardan yanada bilimli, izlanuvchan hamda ta’limga oid eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lishni talab etadi. Davlatimiz tomonidan ham bugungi kunda juda kata o‘zgarishlar amalga oshirimoqda.O‘qituvchilarga maktab ta’limida turli xil innovatsiyalardan foydalangan holda yangilik kiritib turli interfaol metodlar, pedagogic texnologiyalar, didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarga darsni kreativ tarzda tashkil qilishni va shu vositalar orqali o‘quvchilarga mavzularni oson yetkazib berish uchun juda kata imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shuningdek darslarda ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish hamda mavzularni o‘zaro integratsiyalashgan holda o‘qitish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Sh.M.Mirziyoyev 29.04.2019 yildagi “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni
2. Anorqulova G, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
3. “English Teachers: How You Can Use STEAM in Your Classroom By Jennifer Gunn” https://resilienteducator.com/ classroom-resources/ steam-lessons-englishclassroom/ Richard Arum, Melisa Velez. Inproving Learning Enviroment: Schol Discipline and Comporative Perspektive. Stanford Universiy Press, USA 2012.
4. Mutalipova M., Imomov M. Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent:Fan 2006.

# HISTORY OF THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS

**Jalilova F.N.– Master's student, Alfraganus university.**

**Abstract.** There are many phraseological units of an inter-style nature, and their number is constantly growing. However, there are still fewer of them than phraseological units limited in their use to a certain sphere of communication. This is explained by the fact that the overwhelming majority of phraseological units, equivalent in semantics to a word, function in the Russian language as figurative synonyms of words and have some kind of "lowered" or "elevated" expressive-stylistic coloring.

**Key words**. Analysis of psychological and pedagogical literature, methods of working with phraseological units, Linguistic foundations of studying phraseology, children's literature

The premises of the theory of phraseology can be seen in the works of domestic scientists A.A. Potebnya, A.A. Shakhmatov and F.F. Fortunatova. The development of phraseology was also significantly influenced by the ideas of the French linguist C. Bally, who was the first to formulate the characteristics of stable combinations of words and the basis for their classification and, in fact, introduced the term 'phraseology', which was understood as "a branch of stylistics that studies related phrases" [1].

The question of studying stable combinations of words and their semantic and grammatical features in a special section of linguistics was raised in the 20-40s of the 20th century by E.D. Polivanov, S.I. Abakumov, B.A. Larin and L.A. Bulakhovsky, however, phraseology took shape as a separate linguistic discipline in the 40s [2].

The emergence of phraseology as an independent discipline is associated with the name of the domestic scientist V.V. Vinogradov, in whose works the basic concepts, scope and tasks of phraseology were formulated.

One of the important points in the works of V.V. Vinogradov had an attitude towards the role of figurative content in the meaning of phraseological units, that is, to motivation [3]. Trying, on the basis of a strictly 'significance' criterion, to distinguish completely rethought stable combinations of words from combinations of words freely formed at the moment of organizing speech, V.V. Vinogradov used the previously known criterion of "non-derivability" of the meaning of the whole from the meanings of the components of a combination of words in their "usual" meaning, but at the same time gave the phenomenon of motivation a special role, which was reflected in his distinction between "phraseological adhesions" and "unities" [4].

Another important achievement of the phraseological concept of V.V. Vinogradov is the introduction of the category of connectedness of meaning [8]. According to V.V. Vinogradov related "lexical meanings can appear only in connection with a strictly defined range of concepts and their verbal designations". Thus, the connectedness of meaning should be understood as "the ability of a word to be realized only with a strictly defined word or series of words" [5].

For N.N. Amosova, the difference between the connectedness of a meaning with one word and the connectedness of a meaning with a number of words is of fundamental importance. Depending on which of these two abilities the word in the expression has, N.N. Amosova distinguished between 'phrasems' (where the associated meaning must have one determining unit - grind one's teeth) and 'phraseoloids' (the associated meaning must have a number of determining units - pay one's respects/a compliment/court to someone). The last type of expressions N.N. Amosova was generally excluded from the framework of phraseology, since the determining minimum on which the meaning of the verb *pay depends* is not constant [7].

However, as noted by I.V. Arnold, despite the fact that the determining element is not one word, but several, the number of words possible in a given expression is limited by linguistic tradition.

In subsequent years, phraseology went through an intensive period of its classical development, associated with the activities of a whole galaxy of phraseologists who considered themselves to be the school of V.V. Vinogradov (V.P. Zhukov, A.V. Kunin, A.I. Smirnitsky, N.M. Shansky). The main task of this school was to identify the lexico-syntactic differences between phraseological units and free phrases and the difference between the meanings of phraseological units as nominative units of language and the meaning of the word. On this structural-semantic basis, the identification and classification of phraseological units was carried out - all combinations of words that are consistently reproduced in the 'ready-made' lexical and grammatical composition.

Typology V.V. Vinogradov, developed on the material of the Russian language, included three types of phraseological units:

1) phraseological adhesions , or idioms - unmotivated units that act as equivalents of words (carelessly, as if not so);

2) phraseological unities - motivated units with a single holistic meaning arising from the merging of the meanings of lexical components (float shallowly, the first pancake is lumpy), including terms (rest house, question mark);

3) phraseological combinations - phrases in which one of the components has a phraseologically related meaning, manifested only in connection with a strictly defined range of concepts and their verbal designations (fear takes, laughter takes).

According to N.N. Amosova, in order for "the degree of motivation of a phraseological unit to be the basis for the typological division of phraseological units, it would be important... to develop strict and precise objective criteria for its determination" [11]. Otherwise, the inclusion of any phraseological unit in one category or another is accidental. In addition, criticism of the concept of V.V. Vinogradov evokes "a wide and diverse composition of the category of phraseological unities, including technical and scientific terms, catchphrases,... proverbs and sayings" [8]. A significant drawback of the classification of V.V. Vinogradov also has a different basis for determining the types of phraseological units: motivation for groups I and II, limited word compatibility for group III.

To the three groups listed above, a category of phraseological expressions was later added, which are understood as phrases that are stable in their composition and use, which are not only semantically distinct, but also consist entirely of words with a free meaning (all that glitters is not gold; fear wolves, in do not walk in the forest).

The basis of the theory of A.I. Smirnitsky was based on a comparison of phraseological units and words, as well as clarification of the similarities and differences between them in terms of content, function and structure. A common property for them is that both the phraseological unit and the word are a ready-made unit of language; the difference lies in the nature of the design: the integral design of the word and the separate design of the phraseological unit.

The reasons for their reproducibility are as follows:

1. At least one of the components acts in a free meaning (primary or secondary) and at the same time plays the role of a semantically key one, that is, it predetermines the semantic reading of the other component/s associated with it in meaning and form (stormy delight = general and intense delight). Semantically realizable words allow a fairly complete interpretation.

2. This interpretation is possible for a semantically realizable word only when combined with a given semantic keyword.

These two features quite clearly distinguish lexical collocations with an analytical type of meaning from idioms and from free combinations of words [29, p. 65–66]. As for the

structural-semantic varieties, they are associated with the type of language and the type of meaning that underlies it.

As in idioms, in this corpus one can distinguish a core, a periphery and a dynamic 'area'.

The core must have both features and some other features characteristic of analyticism, for example, nominative regularity with irregular ways of performing a nominative task. Under nominative regularity in the work of V.N. Telia is understood as the ability, due to the 'connected' meaning of the word-component, to designate meanings that have general categorical content, characteristic of aspectual and aspectual meanings, for meanings correlated with deep semantic 'cases' [12]. Irregularity is due to the use of lexical means that do not belong to function words that form analytical forms, as well as to 'direct' ways of expressing evaluative or actant meanings [13].

With a nominative approach, combinations in this area should include analytical names of elements of the 'subject series' (genus-species and partial designations of already existing objects, which are named according to species characteristics or according to the relationship between part and whole. For example, white wine, green tea, teapot spout.

The periphery of the area consists of combinations that gravitate towards the strictly analytical forms of the meaning of the keyword (to provide assistance, great success); combinations in which associated meanings tend to acquire their own denotation, that is, due to usage, they are still “attached” to the semantically key word, but have already acquired a nominative “specialization” (to come to a decision, a field of activity); combinations intermediate between idioms and analytical lexical collocations (come to mind, release down the drain). Like idioms, all their components are completely rethought, but at the same time the primacy of the nominal component is realized.

The dynamic area of this class is represented by combinations (which appeared, for example, during the period of perestroika), which are completely included in the regular nominative paradigm, but are irregular in the way of lexical expression of the meanings specified in the nominative 'matrix'. For example, the pie of power, the child of stagnation, the corridors of power.

The choice of a semantically reference word, the 'center' of a phraseological unit, presents great difficulties not only for the reader, but also for the compilers of the dictionary and cannot always be decided unambiguously.

The principle of placing phraseological units in an article on a constant word will not be able to cover all phraseological units, since not everyone has synonymous phrases. In this case, in addition to this principle, you will need to use some other one for the remaining phraseological units.

List of references

1. Avtonomova S.I. Enrichment of students' phraseological stock // Russian language at school. –1988. – №3.

2. Ashukin N.S., Ashukina M.G. Catchphrases: Literary Quotations. Figurative Expressions. 4th ed., suppl. – M.: Art. Literature, 1988

3. Birikh A.K., Mokienko V.M., Stepanova L.I. Dictionary of Russian Phraseology: Historical and Etymological Handbook. – St. Petersburg: Folio-Press, 1998.

4. Bondarenko V.T. On the Comic Function of Russian Phraseology // Russian Language at School, No.3, 2001.

5. Grigoryan L.P. My Language is My Friend: A Teacher's Manual. – M.: Education, 1998.

6. Mokienko V.M. Riddles of Russian Phraseology. – M.: Higher School, 1990.

7. Nemov R.S. Psychology: Textbook. for students higher ped. textbook establishments: In 3 books. – M., VLADOS, 2000 (1, 2, 3 books).

8. Modern Russian literary language / Ed. P.A. Lekanta. – M.: Higher School, 1982.

# TEXNOLOGIYA DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYA

**Jo‘rayeva D.R. – o‘qituvchi, Norqulova M.M.– talaba, BDPI.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, integratsiyasi yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** Integratsiya, matemiatika darslarida, ona tili darslarida, tabiiy fan, tasviriy san’at darslarida.

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo‘lg‘usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko‘zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish talab etlmoqda. Qadim zamonlardan beri ulug‘ ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bolib kelganlari va sharqda renessans davrini boshlab berganliklarini dunyo hamjamiyati tan olgan. Xususan ilm olishga, hunar o‘rganishga, biror bir kasb egasi bo‘lishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo‘lgan va bu o‘znavbatida diyorimizda juda ko‘p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqishiga sabab bo‘lgan.

So‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani madaniyatining ilg‘or yutuqlarini jamlagan, o‘tmish ajdodlarimiz aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta’lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma’nan barkamol avlodga ta’lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.Ta’lim amaliyoti ko‘rsatishicha, maktab ta’limida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bolayotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o‘quvchilarning bilimlarni ongli ozlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi. Boshlangich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bogin vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi.“Integratsiya” sozi lotincha integration-tiklash, toldirish, “integer” butunsozidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi.

-birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bogliklik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

-ikkinchidan tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik predmetlararo aloqadorlik, ozaro aloqadorlik va nihoyat ozaro bir-birini toldiruvchi, kengaytiruv chi hamda chuqurlashtiruvchi o‘quv predmetlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir.

Texnologiya metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tabiat, o‘lkamiz tarixi, o‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot , ona tili, tasviriy san'at, adabiyot, iqtisod bilan bog‘liq.O‘quvchilar matemiatika darslarida o‘rgangan son, sanoq son yig‘indi, ayirma, mavzularini texnologiya darsida ishlatishi mumkin. Masalan: O‘quvchilar bir necha gul yaproqlarini sanab chiqib qirqadilar. Gullarni qirqishda sanoq asosida doira shakllari chizib qirqiladi. Barcha olingan bilimlar texnologiya darsida mustahkamlanadi.

Ona tili darslarida o‘rgangan mavzular texnologiya darslarida ham qo‘llash mumkin. Masalan: Sifat mavzusi texnologiya darsining ko‘p mavzularida qo‘llanadi. Orttirma, qiyosiy daraja, kamaytirma musbat tushunchalar bo‘ladi. Ranglarni birbiridan farqi: Qizii, qip-qizil, qizg‘ish, katta, kattaroq, kichikroq.

Adabiyot darslarida masal, ertak, sh'er, hikoya o‘qishadi. O‘rganilganlar asosida texnologiya darsida applekatsiya yasash mavzusi bo‘ladi. Masalan: quyi sinflarda „Bo‘g‘irsoq", „Sholg‘om" ertaklari asosida applekatsiya yasaladi. Applikatsiyani bajarishdan oldin o‘quvchi tomondan ertak so‘zlab beriladi.

Tabiiy fan bilan bog‘liqligi darslarda o‘quvchilar tabiat in'om etgan barglar, urug‘lar, mevalar, postloq, daraxt shoxlari, parranda patlari, loylardan o‘yinchoqlar, aplikatsiyalar yasashadi.

Tarix fani bilan bog‘liqligi qog‘oz mavzusini o‘tishda uning kelib chiqishi tarixi, kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, misgarchilik, yog‘ochsozlik tarixi haqida o‘quvchilarga tushuncha beriladi. Bunda o‘quvchilarga milliy an'analarimizga nisbatan muhabbat uyg‘otishadi.

Tasviriy san'at darsi bilan texnologiya darsi chambarchars bog‘liqdir. Bu ikki fan har doim bir-birini to‘ldirib boradi. Chunki yasalgan narsa tasviri awal chiziladi. Shu chiziqlar asosida kerakli shakllar qirqiiadi.

Pedagogika fani ta'lim-tarbiya usullarini o‘rgatuvchi fan bo‘lganligi sababli texnologiya darsi bilan doim bog‘liq.Psixologiya fani o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini bilgan holda texnologiya darsini olib boradi. Texnologiya har bir narsani yasattirayotganda o‘quvchilarning ruhiy jarayonini hisobga olish zarur.O‘lkamiz tarixi bu fan bilan bog‘liqligi o‘quvchilarni atrofda bo‘ladigan barcha yangiliklar o‘quvchilarni yangi bilimlar asosida dars o‘tishga ularni fikrlash qobilyatlarini kengaytirishga, ekskursiyalar tashkil qilish va ekskursiyalar asosida ko‘rgan narsalarni bajarishga o‘rgatadi.

O‘quv ustaxona amaliy mashg‘ulot bu fanga bog‘liqligi o‘qishda bajaradigan har bir ishlar tayyorlanadigan ko‘rgazmalar va ulardan qanday foydalanish kerakligini qaysi fanlar bilan bog‘liq holda yangi usul bilan dars berish texnologiya fanida tushuncha beriladi. O‘quvchilar texnologiya fani to‘g‘risida boshlang‘ich bilimlarni egallashda, ularni rejalash, yo‘nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo‘l va elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi va foydalanish, xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi; olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari, tabiatni muhofaza qilish kabi ko‘nikma hosil qilinadi va amalda qo‘llay olishi malakasi shakllantiriladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldago PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Hujjatlar to‘plami, 2017, 6-son, 70-modda.

2. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (texnologiya)

3. R.Ismoilova “Texnologiya” 1-4 sinf – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.

4.Dilnoz Jo‘rayeva, “Daraxtlarning kuzgi ko‘rinishi” mavzusida hajmdor applikatsiya tayyorlash, “PEDAGOGS” international research journal, ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995, 2022, noyabr

5. Jo‘rayeva D, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini texnologiya darslari orqali ishlab chiqarish mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, Илимий-методикалық журнал, 2022 6-сан

6. Kamilova G.A., Jo‘rayeva D.R, Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlash imkoniyatlari, “Maktabgacha ta’lim-maktab-oliy ta’lim” konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel

7. Тилавова Матлаб Мухаммедовна, Жураева Дилноз Рахмитдиновна, Развитие креативности учащихся на уроках технологии, “Maktabgacha ta’lim-maktab-oliy ta’lim” konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel

8. Dilnoz Jo‘rayeva, Texnologiya fani orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb hunarga o‘rgatish mazmuni, ilmiy axborotnoma, 2022

# BOLAGA YAQIN MAQSADNI TANLASH VA UNGA ERISHISHNI O‘RGATISH ORQALI BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARDA AMALIY FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Jo’rayeva D.R. – o‘qituvchi, BDPI,**
**O'rinova G.B.– 12-IDUM, Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Buxoro**

**Annotatsiya:** Maqolada bolaga maqsad tanlashda muhim ahamiyat kab etadigan jihatlar to‘g‘risida hamda maqsadga erishishga undovchi qiziqarli o‘yinlar va kerakli tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maqsad, foyda, zarar, o‘yinchoqlar, “Vizion kengash”,”Orzular kosasi”.

Har bir ota-ona ro‘yobga chiqmagan orzulari ijoibni farzandida ko‘rishni istaydi. Farzandlarining har bir daqiqasini unumli va sermazmun tashkillashga, o‘tayotgan vaqtidan zavqlanishiga harakat qiladi. Uni qiziqishlarini o‘rganadi. Atrofidagi insonlarni namuna qilib ko‘rsatishga, yaxshi-yomonni hamda foyda-zararni farqlashga o‘rgatadi. Kasblar bilan tanishtiradi. Hattoki kelgusidagi ota-onasi xohlagandek kasb egalari bo‘lishi uchun o‘yinchoqlarini ham shunga moslab olib beradilar. Masalan, harbiy bo‘lishini istaganlar ko‘proq tank, o‘yinchoq qurollar bilan band qiladi. Shifokorlikka qiziqtirayotganlar esa shu soha o‘yinchoq turlarini o‘ynatadi. Xullas, hamada turlicha bo‘ladi. Eng quvonarlisi, bolada o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yishida yaqinlarining ko‘mak berayotganligidir.

Ba`zan boshlang‘ich sinfni tamomlayotgan o‘quvchidan kim bo‘lishini so‘rasangiz hali o‘z oldiga biror kasb yoki hunarni maqsad qilib olmaganini aytadi. Biror mashg‘ulotga ham qiziqmasligini bildiradi. Demak, bunga sabab unga yaqin insonlar tomonidan maqsad qo‘yishida turtki bo‘lmagan. Ustozi ham u bilan do‘stona aloqada emas, yoki qiziqishlari bilan o‘rtoqlashmagan. Yoki o‘zi xohlagan o‘yinchoqlar o‘ynay olmagan. Xulosa qilib aytganda, bee`tibor qolgan. Bunga sabab o‘zini kuchsiz his qilishi mumkin.Bu qanday yuz beradi va qachon? Avvalo bola darsni yaxshi o‘zlashtirmagan va topshiriqlarni bajara olmagan bo‘lishi mumkin. Bu hol ketma-ket davom etishi, past baho olishi maktabda ustozlardan uyda esa ota-onadan dakki eshitishi uni atrof-muhitdan ko‘nglini qoldiradi. U hatto majburlikdan maktabga kelishi mumkin. Bu-fojea! Hayotda o‘z oldiga maqsad qo‘ygan insonlar ularga erishish uchun harakat qiladilar. Hatto bolalarga ham hayotda maqsadlar qo‘yishni va ular uchun ishlashni o‘rgatish kerak. Agar siz oylik yoki yillik maqsadlarni qo‘ysangzi, o‘zingizning ushbu odatingizni bolangizga ham singdirishingiz tavsiya etiladi. Akademik maqsadlar yoki boshqa maqsadlarni belgilash haqida bo‘lsin, bolangizga yoshligidanoq maqsad qo‘yishni o‘rgating.

Maqsadlarni belgilash kelajakni rejalshtirishdir. Masalan, agar bola oz` sinovi uchun o‘qishni yoki katta basketbol o‘yiniga tayyorgarlik ko‘rishni rejalshtirsa, demak bu “maqsadni belgilash”. Xuddi shunday, agar bola kelajakda uchuvchi bo‘lishni xohlasa, demak bu uning hayotdagi maqsadi. Biz hayotda maqsadlarni belgilaymiz, lekin aslida ular uchun ishlamaymiz. Har qanday maqdsadga erishish uchun to‘g‘ri rejalashtirish va izchil harakatlar zarur. Shuning uchun, qanday qilib aniq maqsadga erishishni rejalshtirish maqsadni belgilashdan iborat. Ular:

1.Kichik maqsaddan boshlang. Siz oylik yoki haftalik qo‘yishingiz, so‘ngra asta-sekin katta maqsadlarga o‘tishingiz mumkin. Uning kichik yutuqlari ruhlantiradi va u boshqa maqsadlarni qo‘yishga qat`iy qaror qiladi hamda ular uchun ishlashga undaydi.

2.Farzandingiz orzulariga ergashing. Farzandingiz nimaga erishishini xohlasangiz, unga ham yoqishi zarurdir. Tasavvur qiling, farzandingiz futbolchi bo‘lishni xohlasa va siz uning harkatlarini yaxshi shifokor bo‘lishga yo‘naltirsangiz. Bu natijasiz bo‘lib, sizni faqat bolangizdan ajratadi.Farzandingiz o‘z ehtirosini kashf etsin va unga bu uchun ishlashiga yordam bering.

3.Namuna bo‘yicha yetakchilik. Bolalar ota-onaga ergashishni yaxshi ko‘rishadi.Shunday qilib, bolangizni ham rejalshtirish strategiyangizga jalb qilishingiz mumkin. U siz bilan rejalshtirishdan mamnun bo‘ladi hamda siz bilan maslahatlashib ishlashga o‘rganadi.

4. Haqiqatni tekshirib ko‘ring. Bolalar biron bir narsaga erishish uchun mehnatsevarlik muhimligini tushunadigan darajada yetuk emaslar. Farzandingiz tez-tez ma`lum bir maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan sa`y-harakatlarni kamsitish mumkin.Ammo bolangizga oldinda duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni tushuntirishingiz juda muhimdir. Unga tushuntiring, agar u yiqilsa, u o‘rnidan turib, yana ishlashi kerak. Unga o‘rgating, muvaffaqiyat qozonish uchun qattiq ishlashi va ortga chekinmasligi muhimligini his qilsin.

5.Uning harakatlarini maqtang. Maqsadni belgilash qanday muhim bo‘lsa, bolangiz ushbu maqsadlarga erishishda duch kelishi mumkin bo‘lgan turli xil to‘siqlarni yoki muammolarni muhokama qilishi ham muhimdir. To‘siqlar haqida gapirish bolangizni yaxshiroq tayyorlaydi. Shuningdek, safar davomida ma`lum bir muvaffaqiyatsizliklar yuzaga kelsa, u ularga erishish uchun ko‘proq ishlaydi.Yondashuvni baholash va kerakli o‘zgartirishlarni kiritish muhim.

6.Bolalar uchun qiziqarli maqsadlarni belgilash faoliyatini sinab ko‘ring.Vizion kengash yarating, qiziqarli savollar o‘yinini o‘ynang, baxtli g‘ildirak qiling, orzular kosasini yarating, istaklar va yulduzlar o‘yinini o‘ynang.

Orzular kosasi o‘yini. Barcha oila a`zolarini to‘plang va ularning orzu umidlari, maqsadlarini turli xil qog‘ozlarga yozdiring. Uni bankaga yoki katta shisha idishlarga joylashtiring. Ushbu idishni har kuni barcha oila a`zolari ko‘radigan joygda saqlang, chunki bu ularga o‘z maqsdalari uchun ishlashni eslatadi. Yil oxirida yoki belgilangan muddat o‘tgach, hujjatlarni olib chiqib har bir oila a`zosining maqsadlarini o‘qib chiqing va bunga erishdingizmi yoki yo‘qmi deb so‘rang.

Faqatgina o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishini kutishdan ko‘ra, bolangizga hayotini rejalshtirishda yordam berish muhimdir. Yuqorida aytib o‘tilgan maslahatlar bilan siz va sizning farzandingiz maqsadlarni belgilashni puxta yo‘lga qo‘yishingizga ishonamiz. Ushbu maslahatlar yordamida bolangizga maqsad qo‘yishida yaqindan ko‘maklasha olasiz va uning hayotda muvaffaqiyatlaridan mamnun bo‘lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. – T.: O’qituvchi,2011.-20 b.

2. Mirzayev V. To’ptosh o’yini. –T.: CHo’lpon, 2011. -40 b

3. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (texnologiya)

4.Dilnoz Jo’rayeva, “Daraxtlarning kuzgi ko’rinishi” mavzusida hajmdor applikatsiya tayyorlash, “PEDAGOGS” international research journal, ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995, 2022, noyabr

5. Jo’rayeva D, Boshlang’ich sinf o’quvchilarini texnologiya darslari orqali ishlab chiqarish mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў, Илимий-методикалық журнал, 2022 6-сан

6. Kamilova G.A., Jo’rayeva D.R, Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlash imkoniyatlari, “Maktabgacha ta’lim-maktab-oliy ta’lim” konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel

7. Тилавова Матлаб Мухаммедовна, Жураева Дилноз Рахмитдиновна, Развитие креативности учащихся на уроках технологии, “Maktabgacha ta’lim-maktab-oliy ta’lim” konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel

# TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, O'QUVCHI YOSHLARDA TEXNIK IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

**Jo'rayeva D.R. – o'qituvchi, BDPI,**
**Farmonova U.S.– 12-IDUM, Buxoro.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy òrta ta'lim maktablarida texnologiya fanini òqitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:**Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ixtiro

**Kirish.** Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo'lg'usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni kozlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ulig' ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bolib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunuo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o'rganishga, biror bir kasb egasi bolishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo'lgan va bu o'z navbatida diyorimizda juda ko'p dunyo ilm-fani rivojida katta hissa qo'shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizing boy madaniy merosi, tarixiy an'analarini to'liqligicha saqlab qolish, hunarmandchilikni keng targ'ib qilish maqsadida 2017- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni va texnologiyalarni rivojlantirish to'g'risidagi" farmoni Davlat Ta'lim Standartlariga to'laligicha mos kelgan holatda uning sifatini oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda.[1]

## Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Umumta'lim Maktablarida texnologiya fani o'qituvchilari o'zlarini ikkinchi darajali fan o'qituvchisi deb his qilmasliklari va ushbi fanni chuqur egallagan holda o'quvchilarda ham fanga qiziqish uyg'ota olishlari kerak. Texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o'rni va mazmun-mohiyati, fanning o'qitilishdagi maqsadlarini o'zlari teran his etishlari va shu bilan birga o'quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma'noda tadbirkorlikni o'rgatishlari lozim.

Integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikma - larni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni talabalarga oliy ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir.[2]

"O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o'z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini

oshirish va ta’lim bilan qo’shib olib borish, o’quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo’llasada, uning o’ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O’quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug’ullanadilar

Ma’lumki o’qituvchilik kasbi o„ta ma’suliyatli kasb bo’lib, turli jarayonlari oddiy òrganish obyekti sifatida emas, balki o’quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko’rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta’limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya fani o’quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o’rgatadi.”[3]

Texnologiya fanini o’rganish materiallar, ularning xossalarini o’rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo’ladi. Ushbu jarayon o’qituvchilardan texnologik bilimlarni qo’llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o’quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat.

O’quvchilarni yoshligidan mehnatga o’rgatish kelajak hayotlaida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko’nikmalari bilan birga o’quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur.

Mashhur idealist faylasuf E.L. Radlov tomonidan yigirmanchi asr boshidagi eng obro’li falsafiy lug’atlardan birida ijodkorlik biror narsaning yaratilishi bilan bog’liqligi, yaratilish qobiliyati xudoga eng xos bo’lganligi va odam faqat nisbatan ijodiy harakatlarni bajarishi mumkin ... Bunday bayonotlar bilan bir qatorda, ijodiy jarayon tarkibida ongsiz jarayonlarning mavjudligiga e’tibor qaratildi. Keyinchalik, ijodkorlikning har xil turlarini ilmiy o’rganish o’zgargani sari, umuman unga bo’lgan munosabat ham, ijodga berilgan ta’riflar ham o’zgardi. So’nggi paytlarda, asosan, yangi mahsulotning yaratilishi ilgari bo’lmagan ijodkorlik bilan bog’liqligiga e’tibor qaratildi; ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida, yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar vujudga kelganda namoyon bo’ladi.

Ijodkorlik – bu ma’lum bir mavzu uchun ilgari noma’lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo’shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko’lami bilan bog’liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o’lchanadi. So’nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog’liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko’p narsa aytildi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin.

Ratsionalizatsiya – mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog’liq jihatni olamiz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funksiya, dizayner – funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi -tugallangan qurilmadan ba’zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish .

Ratsionalizatorlik taklifi – bu ma’lum bir muammoning mahalliy (umumiy ahamiyatga ega bo’lgan ixtirodan farqli o’laroq) yangi o’ziga xos muhitda (masalan, zavodning ba’zi ustaxonalarida) ishlashini yaxshilash uchun ma’lum bir muammoning echimi. Lekin butun zavod miqyosida emas, balki eng ko’p ishlab chiqarish). Ma’lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo’lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga “bog’lab qo’yish” mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma’lum dizaynlarni yaratish zarur bo’lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o’rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro texnik muammoni, umuman muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn -tuzilmani yaratish;

Loyiha – bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O’qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta’rifiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni

hal qilish bilan bog'lash maqsadga muvofiq ko'rinadi. Va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy echimining tuzilishini ko'rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to'xtalib o'tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo'linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so'z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo'linmasi mavjud bo'lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo'lgan ob'ektiv mavjud bo'lgan mulk yoki hodisani o'rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog'liq bo'linadi. [4]

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo'yishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o'zgartirilganHgidir. Buning asosiy sababi mehnat so'zi keng ma'no va tushunchaga ega bo'ladi.

Xulosa. Hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizda to'g'ri kelmaydi. Texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim.Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

-o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;

-texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag' bilan ta' minlash bo'yicha yetarli choralar ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganli;

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldago PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Hujjatlar to'plami, 2017, 6-son, 70-modda.

2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (texnologiya)

3. R.Ismoilova "Texnologiya" 1-4 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.

4. Dilnoz Jo'rayeva, "Daraxtlarning kuzgi ko'rinishi" mavzusida hajmdor applikatsiya tayyorlash, "PEDAGOGS" international research journal, ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995, 2022, noyabr

# XOTIN-QIZLARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIY OMILLARI

**Kadirova T.J. - O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xotin-qizlarning psixologik farovonligini oshirishda ijtimoiy omillarning ahamiyati tahlil qilinadi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash, jamiyatdagi psixologik madaniyat va motivatsion dasturlar xotin-qizlarning emotsional barqarorligini va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga qaratilgan. Maqola, ayollarning jamiyatdagi roli va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlarini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarni o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar, psixologik farovonlik, ijtimoiy omillar, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya, psixologik madaniyat, emotsional barqarorlik, o‘ziga ishonch.

**Аннотация:** В данной статье анализируется значение социальных факторов в повышении психологического благополучия женщин. Семейная поддержка, психологическая культура в обществе и мотивационные программы направлены на улучшение эмоциональной устойчивости и уверенности в себе у женщин. Статья направлена на изучение современных подходов к обеспечению роли женщин в обществе и их активного участия в социальной жизни.

**Ключевые слова:** женщины, психологическое благополучие, социальные факторы, семейная поддержка, мотивация, психологическая культура, эмоциональная устойчивость, уверенность в себе.

**Kirish.** Xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va ahamiyati har doim yuqori bo‘lgan. Ularning psixologik farovonligi nafaqat o‘zlariga, balki oilalariga va umuman jamiyatga ham bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ayollarning psixologik farovonligini ta'minlashning ijtimoiy omillarini o‘rganish zamonaviy psixologiya va sotsiologiya uchun muhimdir. Mazkur maqolada ayollarning farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy omillar va ularning psixologik jihatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

**1. Xotin-qizlarning psixologik farovonligi tushunchasi**

Xotin-qizlarning psixologik farovonligi insonning ruhiy holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ijtimoiy aloqalari va jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash darajasi bilan belgilanadi. Ushbu farovonlikni oshirish uchun oila muhitidan tortib, jamiyatdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimigacha bo‘lgan omillar muhim ahamiyatga ega. Psixologik farovonlik, shuningdek, ayollarning stressga chidamliligi, emotsional barqarorligi va o‘z-o‘zini baholash darajasi bilan ham bog‘liqdir (Ryff, 1989).

**2. Psixologik farovonlikka ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillar**

- **Oilaviy qo‘llab-quvvatlash**: Oila xotin-qizlarning psixologik farovonligini ta'minlashda eng muhim ijtimoiy institutlardan biridir. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash ayollarning o‘zini xavfsiz his qilishiga, stress darajasini pasaytirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi (Johnson, 2005). Oila a'zolari o‘rtasidagi yaqin aloqalar va hurmatli munosabatlar ayollarning emotsional salomatligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.
- **Jamiyatning psixologik madaniyati**: Jamiyatdagi psixologik madaniyat darajasi ham xotin-qizlarning psixologik farovonligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Psixologik madaniyat, ya'ni jamiyat a'zolarining psixologik yordam olishga tayyorligi va ruhiy salomatlikka bo‘lgan munosabati, xotin-qizlarning o‘z muammolarini hal qilishda qanday yordam olishini belgilaydi (Berry, 1997). Jamiyatning ochiqligi va qo‘llab-quvvatlashi, shuningdek, ayollarning o‘zlariga nisbatan hurmat va qadr-qimmat his qilishlariga yordam beradi.

- **Ijtimoiy aloqalar va do‘stlik munosabatlari**: Ijtimoiy aloqalar, do‘stlik va yaqinlar bilan munosabatlar ham xotin-qizlarning psixologik farovonligini oshirishda muhim hisoblanadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy aloqalarning kengligi va sifatli munosabatlar ruhiy salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi (Cohen & Wills, 1985). Do‘stlar va yaqinlar bilan o‘zaro aloqalar orqali ayollar o‘z hissiyotlarini ifoda etishi va psixologik yordam olishi mumkin.

**3. Motivatsion qo‘llab-quvvatlash va o‘ziga ishonchning ahamiyati**

- **Motivatsion treninglar**: Ayollarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ularni jamiyatdagi faollikka jalb qilish uchun motivatsion treninglar va dasturlar katta ahamiyatga ega. Motivatsion qo‘llab-quvvatlash orqali ayollar o‘z imkoniyatlarini anglab, jamiyatda faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi (Deci & Ryan, 2000). Bu, o‘z navbatida, ularning psixologik farovonligini mustahkamlashga yordam beradi.
- **O‘ziga ishonchni oshirish usullari**: O‘ziga ishonch xotin-qizlarning farovonligini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Psixologik yordam orqali o‘ziga ishonchni oshirish, o‘z-o‘zini baholashni yaxshilash va shaxsiy yutuqlarni e'tirof etish kabilar bu jarayonda asosiy rol o‘ynaydi. O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish orqali ayollar qiyinchiliklarga bardoshliroq va faolroq bo‘lishadi.

**4. Ayollarning psixologik farovonligini oshirishda oila va jamiyatning integratsiyasi**

- **Oilaning roli**: Oila a'zolarining psixologik qo‘llab-quvvatlashi va ularning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari xotin-qizlarning ruhiy farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixologik barqaror oila muhitida o‘sish ayollarning o‘z-o‘zini anglashini va jamiyatda o‘z o‘rnini topishini osonlashtiradi.
- **Jamiyatning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi**: Jamiyatdagi ijtimoiy yordam tizimlari, masalan, psixologik maslahat markazlari, ijtimoiy xizmatlar va ayollarni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar xotin-qizlarning psixologik farovonligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu markazlar va tashkilotlar orqali ayollar o‘z muammolarini hal qilishda kerakli yordam va maslahat olishlari mumkin.

**Xulosa.** Xotin-qizlarning psixologik farovonligini oshirish ijtimoiy omillar va psixologik yordamga bog‘liq murakkab jarayon hisoblanadi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy aloqalar, jamiyatdagi psixologik madaniyat va motivatsion dasturlar orqali ayollarning ruhiy farovonligi oshirilishi mumkin. Ushbu maqola ayollarning psixologik farovonligini ta'minlashda zamonaviy psixologik yondashuvlarning ahamiyatini yoritib beradi va bu sohada yangi ilmiy izlanishlar uchun yo‘nalishlar belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концеп-циясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон Қарори.
2. Эргашева М. Фитрат меросида никоҳ ва оила масалалари //Қонун ҳимоясида.-2003.-№4(88).-Б.28.
3. Davis M., Kestenbaum R, Empathy: a social psychological approach / M. Davis. – Boulder : Westview Press, 2006. – 44 p.
4. Bojovvich L.I. Problemi formirovanie lichnosti: Izbr.psixol. tr./Pod red.D.I.Fel’dshteyna:Ros.akad.obrazovaniya,Mosk.psixol.-sots-in-t.-3-e ied.-M.: MPSI; Voronej: MODEK,2001.

# KASBIY MANAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH TARBIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VOSITASIDA

**Karaboyeva M.Q.– doktorant, QNTPMI.**

**Annotatsiya.** Tarbiya tamoyillari O‘qituvchi shaxsi shakllanishi muammosini hal etish ta’lim muassalarida kasbiy manaviy muhitni sog‘lomlashtirish tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish va pedagogik fikrlashning nisbati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yangicha pedagogik fikrlash chuqur individual, shaxsiy xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. O‘qituvchi pedagogik jarayonni mulohaza qilib ko‘rar ekan, unga zarur qonunlar va kategoriyalarni mexanik ravishda tatbiq etmaydi, balki unga ta’limning madaniy qadriyatlariga, uning muammolariga va ziddiyatlariga bo‘lgan o‘z munosabatini ham olib kiradi. Yakni o‘qituvchining madaniy-ijodiy faoliyati namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar.** Pedagogika, psixologiya, yangicha tafakkur, ta’lim va tarbiya, kasbiy ma’naviy muhit, sog‘lomlashtirish, mexanizmlar.

Tarbiyaning bosh omili ta’lim muassalarida kasbiy manaviy muhitni sog‘lomlashtirish tarbiya tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish yaxlit manzarasini o‘zida ifodalaydigan mezonlarni taklif etishimiz lozim. Pedagogik kasbiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishning holatini belgilaydigan o‘zaro bog‘liq ikki omil bo‘yicha aniqlaymiz:

- o‘qituvchida pedagogik tafakkur belgilari mavjudligi haqida mulohaza yuritish mumkin bo‘lgan mezonlar yordamida;
- o‘qituvchi pedagogik kasbiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishning asosi sifatida uning ijodiy faoliyatini baholash mumkin bo‘lgan mezonlar yordamida.

Modomiki, ta’lim muassalarida kasbiy manaviy muhitni sog‘lomlashtirish tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish tavsiflovchi tafakkur sifati va shaxs sifati o‘qituvchi faoliyati natijasidagina namoyon bo‘lar ekan, pedagogik ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish darajasi haqidagi to‘g‘ri tasavvurga ana shu faoliyatni o‘rganish va tahlil qilish asosidagina ega bo‘lishimiz mumkin.

O‘qituvchining ijodiy faoliyatini qarab chiqar ekanmiz, bu bilan biz «...o‘qituvchida u yoki bu sifat borligini aniqlabgina qolmasdan, balki amaliy pedagogik faoliyatda uning namoyon bo‘lishi darajasini ham belgilaymiz. Shu sababli pedagogik faoliyat ta’lim muassalarida kasbiy manaviy muhitni sog‘lomlashtirish tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish shaxsning pedagogik ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishni aks ettiruvchi uning sifatlari shakllanishi mezoni sifatida qarash mumkin,, [2].

Birinchi navbatda mezonning tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Ana shularga ko‘ra pedagogik ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishning shaxsda shakllanish jarayoni haqida fikr yuritish mumkin. Ushbu bobda umumlashtirilgan nazariy modelda pedagogik Ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va shaxs mohiyatini ong va faoliyat fazilatlari birligi, ya’ni yangicha pedagogik tafakkur va pedagogik Ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishning o‘zaro aloqasi va o‘zaro bir-birini aniqlashi ko‘rsatib berildi. Ushbu hodisani batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish fenomeni sifatida yangicha pedagogik tafakkur biz tomonimizdan jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlari ta’siri ostida shakllanuvchi pedagogik qarashlar uzluksiz ta’lim tizimida namoyon bo‘luvchi ijobiy qadriyat sifatida tushuniladi. Bu «pedagogika fani kategoriyalarini real o‘quv-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish, o‘quv-tarbiya vazifalarini belgilash, ularni hal etish yo‘llari va vositalarini tanlash va asoslash bilan bog‘liq bo‘lgan pedagog faoliyatining alohida unsuridir,, [5].

Hozirgi zamon pedagogika adabiyotida yangi pedagogik tafakkur mezonlari haqida yakdil fikr yo‘q. R.A Mavlonova pedagogik fikrlash deganda «...Ta’limning mazmuni, o‘qitish faoliyati va o‘qituvchi faoliyati kabi tushunchalar ostida o‘quv-tarbiya jarayoni

anglab olishni tushunadi. M.Ochilov esa ushbu tushunchaga «o‘qituvchining o‘z kasbi bilan bog‘liq mehnati xususiyatidan kelib chiqqan uning fikrlash faoliyati o‘ziga mosliklari,, dan iborat degan tushunchani singdirishga intiladi [3].

Yangicha pedagogik fikrlashning o‘ziga mosligi, bizningcha, shundan iboratki, ong va faoliyat birligi uning asosi hisoblanadi. Yangicha pedagogik fikrlash o‘qituvchi shaxsning ijodiy va ijtimoiy shart sharoitlarini ahamiyatli darajaga ko‘tarilishiga ko‘maklashadi.

Yangicha pedagogik fikrlashning tashkil etuvchilarini qanday namoyon bo‘lishini, uning mezonlari nimalardan iborat ekanligini aniqlashga harakat qilamiz.

Dastlab biz ta’lim muassalarida kasbiy manaviy muhitni sog‘lomlashtirish tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishni chuqurroq o‘rganish natijasida R.A.Mavlonovani [3] takrifini asos qilib olib yangicha pedagogik fikrlashning shakllanish darajasini quyidagicha ajratib ko‘rsatamiz:

quyi daraja - bitiruvchi, xalq ta’limi muammolarini tahlil qilishga nazariy bilimlarni qo‘llay olmasligi. Odatda, pedagogik, didaktik va tarbiyaviy tusdagi vazifalarni mustaqil shakillantira bilmasligi, pedagogik vaziyat taqozo etgan muammolarni tashqi holatlarga tayanib hal etishi;

o‘rtacha daraja - olingan nazariy bilimlarni sintezlashtirish va ulardan amaliyotda foydalanish o‘quvining dastlabki ko‘rinishlarini qayd etilishi. Talabalar o‘quv-tarbiya vazifalarini hal etishda, muayyan darajada nazariy va amaliy tayyorgarlik paytida o‘zlari egallab olgan bilimlarga tayanishi. Maktab va pedagogika rivojlanishining zamonaviy tamoyillariga asoslangan anglab yetilgan shaxsiy pedagogik nuqtai nazarga ega bo‘lishi. Ushbu darajadagi pedagogik tafakkur uchun ayrim ijodiy belgilarning namoyon bo‘lishi xosdir;

yuqori daraja - pedagogik vaziyatni tahlil qilishga ijodiy, nostandart yondashishi, aniq sharoitlar asosida vazifaning eng maqbul yechimini tanlashi, pedagogik tushunchalardan tizimli foydalanishi.

O‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatini modellash jarayonida psixologiya-pedagogika fanlarini o‘rganish paytida egallab olgan kategoriyalarga, prinsiplarga, usullarga tayanadi. Yangicha pedagogik fikrlashning shakllanishi darajasidan kelib chiqib, biz uning mezonlari tizimini aniqlaymiz.

O‘rganilayotgan hodisalarga muammoli yondashish yangicha pedagogik fikrlashning asosiy mezonlaridan biridir. Ushbu mezon mavjud bo‘lgan taqdirda ta’lim muassalarida kasbiy manaviy muhitni sog‘lomlashtirish tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish o‘qituvchida shaxsning madaniy-qadriyatli yo‘nalishlarga asoslagan kasbiy bilimlar mavjudligini aniqlash mumkin. Bu o‘qituvchining pedagogik fikrlashini yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Qo‘yilgan masalani aniq tushunish, tafakkurning aniqligi, o‘ziga mosligi, mustaqqilligi pedagogika fanida mafkuraviy shakllanishining navbatdagi mezoni hisoblanadi. U uzluksiz ta’limda bugungi kunda yuz berayotgan va uning tarixiga o‘z fikri mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Uzoq vaqt xalq ta’limi uchun kadrlar tayyorlashda o‘qituvchiga kasbiy tafakkur mos bo‘lishi uchun maxsus topshiriqlar va mashqlar to‘plamlarini ishlab chiqarishning o‘zi yetarlidir, degan fikr ustunlik qildi. Ushbu vaziyatdan chiqish uchun pedagogik fikrlashning abstrakt takriflardan voz kechish zarur bo‘ladi. I.Kant so‘zlari bilan aytganda o‘qituvchiga «aql intizomi,, mos bo‘lishi kerak va shu sababli «umuman pedagogik tafakkur haqida so‘z yuritmasdan, balki o‘qituvchining o‘z kasbiga bog‘liq holda tarixiy-tipologik o‘lchovda fikrlashi,, zarurligi fursati keldi [6].

Pedagogik fikrlashning mustaqilligi, puxtaligi va o‘ziga mosligi uning dialektikligi, teranligi bilan mustahkam o‘zaro bog‘liqdir.

Yangi pedagogik fikrlashning shakllanishini navbatdagi mezoni jarayon va hodisalarni tez anglab olish, tez fikrlash hisoblanadi. V.A.Kruteskiy ushbu xislatlarni

«assoaiaaiplarning qaytariluvchanligi,, deb aytadi va fikrning bir yo‘nalishdagi harakatidan ikkinchi yo‘nalishdagi harakatga tez va erkin o‘ta olish qobiliyati sifatida qaraydi [7].

Tafakkurning insonparvarlashuvi madaniy qadriyatlar, tasavvurlar, an’analarning qayta tiklanishini anglatadi. «Zo‘rlik bilan amalga oshirilgan mafkuraviylashtirish jarayoni jamiyatning ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishi va ma’naviyati yemirilishiga olib keldi. Bu ijtimoiy hayotning barcha sohalarida - ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda, ishlab chiqarishda, turmushda o‘z izini qoldirdi. «Jamiyatimiz yalpi mafkuraviylashuv yo‘liga o‘tib insoniyat ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishi rivojlanishining katta yo‘lidan tobora chetga chiqib keta boshladi, bashariyat yaratgan qadriyatlardan uzoqlashdi va pirovard natijada insonparvarlikdan judo bo‘la bordi,, [10]. Ta’lim tizimini insonparvarlashtirmasdan turib o‘qituvchining tafakkurida tub burilish yasash va uning pedagogik kasbiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishi asoslarini shakllantirish mushkul degan xulosaga keldik.

Intellektual aqliy faoliyatni mehnatning bir turi sifatida talqin qilish ham ta’limga ziyon yetkazdi. Bunday talqin qilish bilimlar sohasini faqat foydali fanlar bilan cheklab qo‘yishga va bu bilan individuallikka e’tibor susayishiga olib keldi. Intellektual faoliyat hatto mutaxassislarni ommaviy ravishda tayyorlashda xalaqit beruvchi sifatda qarala boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston respublikasi konstitusiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. https://lex.uz/docs/6445145

2. O‘zbekiston respublikasi Ta’lim to‘9risidagi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan. https://lex.uz/docs/5013007

3. 2022 — 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha MILLIY DASTUR. https://gov.uz/uz/activity_page/education

4. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI. https://lex.uz/docs/5013007

5. 1.M. Djumayev. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son.2024 / 148-165 b. http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika, informatika.htm, E-mail: fizmat_ jurnali@inbox.uz

6.Djumayev M.I Ta’lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxpxti.uz 1(5)2024 163-168 http://buxpxti.uz

7.Djumayev M.. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari va mohiyati haqida. № 1 –son Fizika matematika , informatika jurnali/Toshkent 1 –son.2024 / 148-165 b. http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika, informatika.htm, E-mail: fizmat_ jurnali@inbox.uz

8.M.I. Dzhumaev Competence- based approach to teaching mathematics to primary school students according to the requirements in the national curriculum of Uzbekistan **Science and innovation.** International Scientific Journal Volume 3 Issue 2 February 2024 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz. https://doi.org/10.5281/zenodo.10694172

9.Djumayev M.I Ta’lim Sifati - Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish vositasida Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal. buxpxti.uz 1(5)2024 163-168 http://buxpxti.uz

10. Karaboyeva M. Q. Deontological Foundations of Spiritual Outlook inTeachers.Progress Annals: Journal of Progressive Research Volume 2, Issue 3, March 2024. ISSN (E): 2810-6466 Website: https://academiaone.org/index.php/8

## KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Karimova J.– magistrant, TDPU.**

**Annotatsiya:** Shaxsning shakllanish jarayonida ta'lim tarbiya, irsiyat va muhit muhim ro'llarni o'ynaydi. Ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilar ko'plab konfliktlarga duch keladi. Quyida ushbu muammolarga muallif tomonidan ta'rif berilgan.

**Kalit so'zlar:** Konfiliktogen, retseptiv, konfliktli vaziyat, nizo va ziddiyatlar, agressiv holat, egoizm.

Kitobxonlarni mustaqil o'quv ehtiyoji va qobiliyatini shakllantirish – barchaning e'tiborini jalb etadigan muammolardan biri bo'lib, ularni hal etishning ahamiyati barcha uchun shubhasiz keraklidir, yechish yo'llarini esa ixtiyoriy savodli inson o'z tajribasidan kelib chiqib taklif etishi mumkindir. Ammo bularning barchasi bunday holatlarda tadqiqotchining qiyinchiliklarini yengillashtirmaydi, balki qiyinchiliklarni yanada og'irlashtiradi. Muammo odatiyga aylanadi, odatiy oson bo'lib tuyuladi, ammo hal etilmaganligicha qoladi. Tadqiqotchi uchun ushbu "oson" odat inersiyasini yengib (jumladan, o'zining ham) yechimni topishi uchun iroda kuchi, fikrlar jamlanganligi, ba'zan esa "sog'lom aqlga qarshi"... - "murakkablashtirish"ga to'g'ri keladi. Bolani kitobga o'rgatish jarayoni ko'pgina manbalarda bir necha bor va yetarlicha bir xilda ifodalangan bo'lganligida murakkablashtirish kerakmi?... Ikki misolni qiyoslaymiz:

"Ona o'g'liga kitob o'qiyapti. O'g'li hali juda kichik. U o'zi o'qishni o'rgangunigacha yillar o'tadi. Ammo u onasi hikoya qilayotganiga qanday hayajon bilan quloq soladi, sehrli sahifalarga qanday qiziqish bilan nazar soladi. Ulkan mo'jizali dunyo uning oldida namoyon bo'ladi va bola sehrlangandek tinglaydi. Shu tariqa inson hayotiga kitob kirib keladi...".

Demak, ta'kidlash joizki kitob – insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifatni shakllantirib, komil inson darajasiga yetib borishida muhim tarbiyaviy kuchga ega. Kitob ikki dunyo saodatiga yo'llaydigan yo'lboshchi. Kitob durbin misoli uzoqni ko'ra oladi, hisoblagich singari turli masalalarga yechim topadi, og'ir kunda yog'du sochib, yo'limizni yoritadi. Hayot to'siqlarini yengib o'tishimizda yordam beradi, har onda donishmandlarning bilim xazinasidan oshno etadi. Inson uchun ozuqa qanchalik muhim bo'lsa, uning aqliy va axloqiy taraqqiyotida ham ma'naviy ozuqa juda muhim. Yoshlarning ma'naviy olamini boyitishda, katta orzu- maqsadlar sari yetaklashda u bebaho vositachidir. Kitob insoniyatning eng boy xazinasi, bilim bulog'i. U insonni yaxshilikka o'rgatib, yomonlikdan qaytaradi.

Biz tomonimizdan keltirilgan parcha I.Ye.Zilberman va V.D.Korkinning "Kitob do'stlari" risolasidan keltirildi. Risola kitobning ijtimoiy targ'ibotchilari uchun mo'ljallangan? Hikoyaning boshida emotsiyalarning konsentratsiyasi jurnalistik usuli bu yerda o'rinli va agar haqiqat buzilmaganida: agar unda istalgan haqiqat singari ifodalanmaganida maqsadga muvofiq bo'lar edi. Balki deyarli bir xil takrorlanadi: "Bolaning maktabdagi ta'limi birinchi yilining ikkinchi yarmidan uning hayotiga badiiy kitob kirib keladi – deb yozadi "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida pedagogika fanlari doktori A.A.Lyublinskaya. – Bola uni kattalar qanday o'qiyotganliklarini nafaqat tinglaydi, balki o'zi ham o'qiy boshlaydi. O'qish texnikasidagi qiyinchiliklar yengib o'tilishi bilanoq bolalar ular uchun yangi faoliyat turiga ko'proq qiziqa boshlaydilar". Olimning mazkur fikrini keltirib, muallif u yuzaki keltirib o'tgan muammoning murakkablik darajasini yetarli anglamayotganligini umuman nazarda tutmadik.

Fikrlarni qiyoslash biz uchun qo'llanmaning o'quvchisi – bo'lajak o'qituvchi yoki boshlovchi tadqiqotchi mazkur mulohazani qanday idrok etishi darajasini ko'rsatish uchun kerak edi, chunki uning oldiga hech qanday savollar qo'yilmagan va unga hech qanday shubhalar bildirilmagan, kattalar o'qib bergan asarlarni tinglashning yoki o'qish texnikasini

egallash natijasidagi ajralmas oqibati sifatida yuzaga keladigan o‘qishga qiziqishni shakllantirish jarayonini soddalashtirilgan idrok etish stereotipi muammoning odatiyligi bilan hosil bo‘lgan.

Kerakli kitobning mazmuniga mos uni o‘qish kitobxonning ongida shubhasiz taassurot, qiziqish uyg‘otadi, navbatdagi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi, irodani biror-bir yangi maqsadlarga erishishga undaydi, ularni amalga oshirish uchun esa yana umuminsoniy faoliyatning fazoviy-vaqt maydonidan ko‘p qirrali ma’lumotlar olami, ya’ni kitoblar olami bilan muloqotga chiqish kerak bo‘ladi. Shu tariqa, kitobxonlik faoliyati doirasi yuzaga keladi, tizim esa o‘z-o‘zini harakatga keltirish shaklini qabul qilib qaytadan ishlay boshlaydi.

Ikkinchi variant. Kitobxon kitobni ko‘rib chiqishga biror-bir yaqqol shaxsiy maqsadsiz murojaat etdi, ammo bu holatda faoliyatning dastlabki komponenti sifatida xizmat qiladigan kitoblarni malakali ko‘rib chiqish jarayonida qandaydir kitob uni qiziqtiradi, biror-nimani bilib olish yoki esga tushirish, yoki boshdan kechirish, yoki qaytadan tekshirish istagini uyg‘otdi va h.k.

Yuzaga kelgan maqsad ta’siri ostida harakat qilib, kitobxon kitobni o‘qish usulini tanlaydi, o‘qishni amalga oshiradi va kitobdagi ifodalangan “begona” tajribani o‘zlashtirib, yoki voqelikni amaliy qayta qurish uchun kuch-quvvatni his qiladi, yoki ko‘ngli to‘lmaslik, qoniqmaslik, norozilik hissini his qiladi, ikki holatda ham insoniyat tomonidan to‘plangan tajribaga murojaat etib, o‘z fikrini tasdiqlash, bilimini chuqurlashtirishga intilish unda yo‘qolmaydi, balki mustahkamlanadi. Bunda kitobxon maqsadni aniqlashtirib, yana kerakli kitoblarni izlashga boshlaydi, chunki olam bilan muloqot qilish va uni ijodiy bilish jarayoni cheksizdir.

Uchinchi variant. O‘qish uchun kitob va o‘qish maqsadi kimdir boshqa inson tomonidan belgilangan (o‘quv, ilmiy yoki amaliy zaruratga ko‘ra). O‘qilganning mazmunini o‘zlashtirib, kitobxon o‘qishni davom ettirish ehtiyojini his qilishi mumkin (maqsadga ko‘ra, mavzu bo‘yicha va h.k.), yoki (juda muhimi!) agar “majburiyatga ko‘ra” kitobni o‘qish jarayonida u hech qanday shaxsiy mazmunni topmasa, bunday ehtiyojni his qilmasligi ham mumkin. Birinchi holatda kitobxonlik faoliyati to‘xtab qolmaydi, balki aksincha shaxsiy mazmunga ega bo‘lib, kitobxon kimdir tomonidan belgilangan, kitob o‘qish jarayonida yuzaga kelgan o‘z ehtiyojlariga mos o‘zgartirgan yoki assotsiatsiyalar asosida ilgari surgan maqsadga mos ravishda kitobxonni belgilangan kitobni o‘qishga undaydigan motiv, kitobxon ko‘z oldida alohida shaxsiy mazmun egallamaganligi sababli o‘qish davomida yo‘qolsa, faoliyat o‘qilganning mazmunini o‘zlashtirish bilan yakunlanadi. Boshqacha aytganda, mazkur holatda boshlang‘ich sifatida xizmat qilgan komponent tadqiq etilayotgan shaxsiy kitobxonlik faoliyati tizimida bir vaqtning o‘zida yakuniy ham bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, mustaqil kitobxonlik faoliyati tizimining ishlashi uchun sharoit yuzaga kelmaydi. “Aylana” hosil bo‘lmaydi, ehtiyojning unga javob beruvchi predmet bilan “uchrashuvi” natijasida u ilk bor faoliyatni yo‘naltirish va boshqarishga qobiliyatli bo‘ladi. Ehtiyojning predmet bilan uchrashuvi favquloddagi harakat, ehtiyojni predmetlashtirish harakati – uni atrofdagi olamdan egallanadigan mazmun bilan “to‘ldirish”dir. Bu esa ehtiyojni psixologik darajaga ko‘chiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. – 224 b. 185-bet
2. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. – T.: TDPU, 2000. 19 b.
3. Baratov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari-T.:O‘qituvchi,1995-56 bet
4. Jumayev R. Z., Ubaydullayev U.A., Xo‘janov B. A. Konfliktologiya asoslari. (o‘quv qo‘llanma) T. “Akademiya” nashryoti. 2000 –yil.209 b
5. Markova A.K. O‘qituvchi faoliyatini psixologik tahlil qilish. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi..:M, 1993, 235 bet 6-11

# ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘QITISHDA INTEGRATIV-KOGNITIV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Karimova K.K. – tayanch doktorant, BDPI.**

**Annotatsiya.** Bugungi ta’lim jarayoni ham o‘qituvchini ham o‘quvchini bir qolipda qotib qolmaslik, har doimgi bir xillikdan voz kechishga undab kelmoqda. Dars jarayonini o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida tashkil etiladigan jarayon sifatida har tomonlama mukammal va davr talabi asosida olib borish bir qancha innovatsion g‘oyalar, qarashlar, topshiriqlarga murojaat qilishni taqazo etadi. mazkur maqolada ham ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etishda integrativ- kognitiv topshiriqlarni qachon, qay tarzda qo‘llash masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** integrativ-kognitiv topshiriq, kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik fikrlash, kreativlik, o‘z-o‘zini baholash, innovatsiya.

**Kirish.** Dunyo bo‘ylab jadal bilan rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi mamlakatimizda ham ta’limga nisbatan islohotlar qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Ta’lim jarayoniga innovatsion, integratsion hamda kompetensiyaviy jihatdan yondashish tobora kuchayib bormoqda. Ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlarni amaliyotda joriy etishning dastlabgi bosqichi, albatta, maktab ta’limi va uning asosi bo‘lmish dars hisoblanadi. Dars mashg‘ulotini qay tarzda olib borish, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan bog‘liq jarayonni qanday tashkil etishi muhim ahamiyatga ega.

Dars davomida integrativ-kognitiv topshiriqlarni qo‘llash bir qancha afzallliklarga ega, bunday topshiriqlardan foydalanish bugungi kunda alohida urg‘u berilayotgan quyidagi jihatlarni o‘zida mujassam etadi:




Zero, dars mashg‘uloti o‘quvchilarda turli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularni turli usul, metod va topshiriqlar yordamida yanada takomillashtirishga qulay shart-sharoit yaratib beradi. Quyida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etishda integrativ-kognitiv topshiriqlardan foydalanish metodikasi haqida so‘z yuritamiz.

2-sinf “O‘qish savodxonligi” hamda “Ona tili” darslaridagi “Kompasim” mavzulari yuzasidan tayyorlangan topshiriqlar:

| | Savol | O‘quvchin javobi |  |
|---|---|---|---|
| 1. | Kompas nima va u haqida yana qayerda yoki qaysi mashg‘ulotida eshitgansiz? | | |
| 2. | Sovuq yoqni ko‘rsatgancha ogoh yotar, Safar chog‘i m to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatar Berilgan ikki qatorni izohlang. | | |
| 3. | Kompasning tomonlari qaysi harflar bilan belgilanga nima uchun? | | |
| 4. | (o‘quvchilardan fikr bildirishlari so‘raladigan y adashib qolgan yo‘lovchi bilan bog‘liq vaziyat yoki muammo keltiriladi) | | |

Jadvalni to‘ldirish jarayonida o‘quvchilar nafaqat darslikda keltirilgan ma’lumotlarni balki qo‘shimcha qiziqarli ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar. Bu esa ulardagi qiziquvchanlikni yanada oshirishga, izlanishga yordam beradi. 4-savol orqali o‘quvchilarda kritik fikrlash, jamoaviy muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda muammo yoki vaziyatga nisbatan har bir o‘quvchining qarashi, fikr-mulohazasini tahlil qilish maqsadga muvofiq. 4-ustunda berilgan o‘z-o‘zini baholash sistemasi esa o‘zini xolisona baholashga o‘rgatish bilan birgalikda darsga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Topshiriq. 1. Ketma-ketlikni to‘ldiring.




2. Rasmdan foydalanib, jadvalda berilganlarga misol yozing.



| | |
|---|---|
| Shaxs nomi | • ________________ |
| Narsa nomi | • ________________ |
| Shaxs-narsa harakati | • ________________ |
| Shaxs-narsa belgisi | • ________________ |
| Shaxs-narsa sanog‘i | • ________________ |

1-topshiriqda ketma-ketlikni misollar yordamida qilish uni yanada mustahkamlashga yordam beradi. 2-topshiriq orqali o‘quvchilar rasm asosida ishlash ko‘nikmalarini yanada takomillashtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, integrativ-kognitiv topshiriqlarni dars mashg‘uloti turi hamda shakliga ko‘ra qo‘llash uning samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, sinf imkoniyatini inobatga olish natijaning yuqoriligini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi o‘quv qo‘llanma Toshkent -.ILM ZIYO. – 2009
2. Aydarova U.B. 2-sinf uchun darslik, Toshkent “Novda Edutainment”, 2023.- 80 b
3. Kuranov S.D. 2-sinf uchun darslik, Toshkent “Novda Edutainment”, 2023.- 88 b
4. Saidova M.J. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari // Sovremennyye innovatsionnyye issledovaniya aktual’nyye problemy i razvitiye tendentsii: resheniya i perspektivi.. 2022 – T. 1. – №. 1. – C. 101-104. https://doi.org/10.5281/zenodo.8040089
5. Karimova K.K. Advantages of using integrative-cognitive tasks in developing professional competence in future primary class teachers. Web of teachers: Inderscience Research IFSIJ JIF:8.325 Volume 2, Issue 5, May - 2024 ISSN (E): 2938-379X

# BOSHLANG 'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA BIRGALIKDA ISHLASHGA DOIR MASALALAR USTIDA ISHLASH

**Kasimov F.M. – professor, Qosimova M.M.– dotsent, BDPI.**

**Kalit so'zlar:** masala, matematik masala, arifmetik masala, arifmetik amallar, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, yig'indini topish, umumlashtirish, solishtirish, xulosalash, suyujetli masala

**Annotatsiya:** Masala- sermazmun kategoriya bo'lib, uni hamma tan olgan yagona ta'rifi yo'q, balki turli soha vakillari o'z yo'nalishlariga qarab masala tushunchasini turlicha talqin qilganlar. Mazkur maqolada arifmetik masalalar ularning xususiyatlari, boshlang'ich sinfda birgalikda ishlashga doir masalalarni yechishga o'rgatishning metod va vositalarilari yoritilgan. Har qanday arifmetik masalalarni muhokama qilib yechish orqali o'quvchilarni masala yechish ko'nikmalarini rivojlantirish xususiy hollari yoritilgan.

Murakkab matnli masalalar ichidan bir xil ketma-ketlikda bajariladigan va bir xil amallar bilan yechiladigan qator masalalarni ajratish qiyin emas. Bunday masalalarni bir turdagi masalalar deb aytish mumkin. Lekin ba`zi muhim belgilarga ega bo'lgan murakkab masalalarni metodika kursida **tipik arifmetik** masalalar deb qabul qilingan.

Tipik masalalarning o'ziga xos belgisi ularning tipik bo'lmagan masalalarga qaraganda ancha qiyinroq bo'lishi va ularni yechish uchun maxsus mulohaza usullarini qo'llash zarurligidadir.

Bunday masalalarni yechishni, yolg'iz bajarish muhlati soat bilan berilgan bo'lsa, bir soatligini, kun bilan berilgan bo'lsa, bir kunligini topishdan boshlash kerak. Birgalikda ishlashga doir masalalar boshlang'ich sinf darsliklarida uchraydi. Ammo bunday tipdagi masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar ayrim xatolarga ham yo'l qo'yishini tez-tez kuztish mumkin.

Quyidagi masalani qaraylik.

Masala: 150 ta velosipedni ta'mirlash kerak. Usto bu ishni 10 kunda, shogirdi esa 15 kunda bajaradi. Ular birga ishlashsa bu ishni necha kunda bajarishadi?

Masalaning qisqa sharti:

Usto- 10 kunda

150 ta velosiped -? kunda

Shogird -15 kunda

Ushbu masala yechish uchun berilganda quyidagi yechim variantlarini ko'rsatishadi.

1-variant: 1)10+15=25 (kunda)

2) 150:25=6 (kun)

2-variant: 150: (10+15)=150:25=6(kun)

3-variant: 1)150:10=15 (ta)

2) 150:15=10(ta)

3)15+10=25 (ta)

4) 150:25=6 (kun)

Javob: Usta va shoigird birga ishlashsa bu ishni 6 kunda bajarishadi.

Bu yechim variantlarini tahlil qilinganda, har gal uchalla yechim variantlarida natija 6 chiqqan bo'lsa, ham 1va 2- yechim variantlari **xato** yechimlaridir.

Agar o'quvchiga har bir amaldan so'ng "nimani topding?" degan savol berilganida ular amal natijalarini izohlab berisha olmaydi. Darhaqiqat "10 ga 15ni qo'shib nimani topding? " degan savolga yoki, " 150 ni 25 kunga bo'lib nimani topding?" kabi savollarga masala yechimiga mos javob topa olmaymiz. Shuning uchun bu masalaning to'g'ri yechimi 3-variant yechimidir.

150 ni 10 ga bo'lib, ustoning bir kuniga nechta velosiped tamirlaganini aniqlaymiz. 150 ni 15 ga bo'lib, shogirdning bir kunda nechta velosiped tamirlaganini aniqlaymiz. 10 ga 15 ni

qo‘shib usto va shogird bir kunda nechta velosiped tamirlaganini topamiz , va 150 ni 25 ga bo‘lamiz. Usto va shogird birgalikda 150 ta velosipedni necha kunda tamirlanganlari topiladi.

Ushbu masalani yana bir ajoyib xususiyati shundaki, 150 soni o‘rniga , 300, 450, 1800 va boshqa sonlarni qo‘ysangiz ham masala o‘zgarmaydi. Masalani quyidagi adekvat ko‘rinishidagi masala sifatida bayon qilish mumkin.

Masala. Bir ishni usta 10 kunda, shogird 15 kunda bajarishadi. Ular birga ishlashsa bu ishni necha kunda bajarishadi?

Bu masala 4-sinf o‘quvchilari yechadigan masala bo‘lib, sonning ulushini va ulushga ko‘ra sonni topishga doir masaladir.

Quyidagi masalalarni qaraylik. Turli miqdordagi yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lgan 3 ta yuk mashinasi bor. Bazadagi yukni har bir mashina yolg‘iz o‘zi tashiganida: birinchi mashina 10 soatda, ikkinchi mashina 12 soatda va uchinchi mashina 15 soatda tashiy oladi. Bu mashina birga ishlaganda shu yuk necha soatda tashib olishadi. Masalani shartini tuzamiz:

1 - avt yolg‘iz - 10 soatda
2 - avt yolg‘iz – 12 soatda | birgalikda necha soatda?
3 - avt yolg‘iz – 15 soatda

1) Birinchi avtomobil yolg‘iz o‘zi bir soatda yukning qanday qismini tashiydi?

$$1 : 10 = \frac{1}{10} \text{(qism)}$$

2) Ikkinchi avtomobil yolg‘iz o‘zi bir soatda yukning qanday qismini tashiy oladi?

$$1 : 12 = \frac{1}{12} \text{ (qism)}$$

3) Uchinchi avtomobil yolg‘iz o‘zi bir soatda yukning qanday qismini tashiydi?

$$1 : 15 = \frac{1}{15} \text{ (qism)}$$

4) Uchala avtomobil bir soatda yukning qanday qismini tashiydi?

$$\frac{1}{10} + \frac{1}{12} + \frac{1}{15} = \frac{1}{4} \text{ (qism)}$$

5) Uchala avtomobil birgalikda butun yukni necha soatda tashiydi?

$$1 : \frac{1}{4} = 4 \text{ (soat)}$$

Javob: 4 soat.

2-masala. Bir ishchi topshiriqni 12 kunda bajarish kerak edi. U ish boshlagandan $4\frac{1}{3}$ kun o‘tgach, unga boshqa bir ishchi yordamga keldi va butun ish 8 kunda bitkazildi. Ikkinchi ishchining yakka o‘zi ishlaganida butun ishni necha kunda bitkaza olardi

Masalani muhokama qilib, quyidagi savol ketma-ketligida yechilishini keltiramiz.

1) Birinchi ishchi bir kunda ishni qanday qismini bajara oladi.?

$$1 : 12 = \frac{1}{12} \text{ (qism)}$$

2) Birinchi ishchi $4\frac{1}{3}$ kunda ishning qanday qismini bajargan?

$$4\frac{1}{3} * \frac{1}{12} = \frac{13}{36} \text{ (qism)}$$

3) Ishning qancha qismi qolgan?

$$1 - \frac{13}{36} = \frac{23}{36} \text{(qism)}$$

4) Ikkala ishchi birgalikda necha kun ishlagan?

$$8 - 4\frac{1}{3} = 3\frac{2}{3} \text{ (kun)}$$

5) Birinchi ishchi $3\frac{2}{3}$ kunda ishning qanday qismini bajargan?

$$3\frac{2}{3} * \frac{1}{12} = \frac{11}{36} \text{ (qism)}$$

6) Ikkinchi ishchi $3\frac{2}{3}$ kunda ishning qanday qismini bajargan?

$$\frac{23}{36} - \frac{11}{36} = \frac{1}{3} \text{ (qism)}$$

7) Ikkinchi ishchi yolg'iz o'zi ishni necha kunda bajara oladi?

$$3\frac{2}{3} : \frac{1}{3} = 11 \text{(kun)}$$

Javob: 11 kun.

Masala: Bikbayeva N, Grifanova K 4-sinf Matematika. 2020 yil 112-bet. 4-masala

Gisht teruvchi ikki usta birgalikda ishlab 119920 ta g'isht terdi, Birinchi usta 17 kun ishladi va har kuni 2860 ta g'isht terdi. Qolgan g'ishtni ikkinchi usta 23 kunda terdi.Ikkinchi usta har kuni nechtadan g'isht tergan?

Bu masalani o'quvchi tahlil qilar ekan ikki usta birgalikda ishlab 119920 ta g'isht terganini, birinchi usta har kuni 2860 tadan g'isht terib 17 kun ishlaganini, qolgan g'ishtlarni ikkinchi usta 23 ta tergani ma'lumligini ta'kidlgan holda ikkinchi ustaning bir kunda tergan g'ishtlarning miqdorini topish talab qilinganini bilib olishi kerak. Masala dastlab tahlil qilinib qisqa shart asosida masala yechimi izlanadi. Masala mazmun jihatdan birgalikda ishlashga doir bo'lsada, unda masalada ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishda ham e'tibor qaratiladi.

Bunday tipdagi masalalarga tayyorgarlik darvri 2-3 sinflarda boshlanib, 4- sinf darsligida aynan bunday tipdagi masalarni ko'p uchratamiz. Bu tipdagi masalalarni yechishga o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchisini yuqori sinf matematikasini chuqur o'zlashtirishlari uchun zamin bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova, M. (2020). Taking into account the individual characteristics of students in teaching mathematics: taking into account the individual characteristics of students in teaching mathematics. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 2(2).
2. Qosimova, M. (2020). Taqqoslashga doir topshiriqlar ustida ishlash texnologiyasi: taqqoslashga doir topshiriqlar ustida ishlash texnologiyasi. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 2(2).
3. Qosimova, M. (2020). On some typical problems to be solved in primary schools: on some typical problems to be solved in primary schools. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 2(2).
4. Qosimova, M. M., & Kasimov, a. A. (2021). On some typical problems to be solved in primary schools. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(1), 502-517.
5. Mukhammedovna, k. M. (2021). Problems of finding two or more numbers from their sum (or difference) and multiple ratios.
6. Qosimova, M. (2020). Taking into account the individual characteristics of students in teaching mathematics: taking into account the individual characteristics of students in teaching mathematics. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 2(2).
7. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). Matematikadan ijodiy o 'quv topshiriqlarining metodik xususiyatlari. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 2(2), 206-211.

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IMPROVIZATSION QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VOSITALARI

**Kasimova O.A. –tayanch doktarant, GulDU.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya konpetensiyasi, ta'lim tizimidagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyati, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida improvizatsiyani amalga oshirish yo‘llari haqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, improvizatsiya, pedagogik improvizatsiya, improvizatsiya xarakteri, pedagogik muloqot, pedagogik ijodkorlik, ijodkorlik, improvizatsiya mezonlari.

Bugungi kun zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi, bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqat o‘qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki, uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi, faqat o‘qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan fanlarni chuqur bilishi zarur. Predmeti va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqishini oshirib, o‘qituvchi obro‘sini ko‘taradi. O‘qituvchilar o‘quvchi bilimining bu bilimlarni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uni shu fanga bo‘lgan qiziqishini, uning fidoyligini ham taqdirlashadi. O‘qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta’lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi milliy qadriyatlarni bilibgina qolmay, uni keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda otashin targ‘ibotchisi bo‘lishi kerak. Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. Ma’lumki, inson oldida biror muammo turgandagina, ijodkorlikka ehtiyoj tug‘iladi. O‘qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va tajribasidir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda, biz o‘qituvchining o‘z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasida yangi, samarali yo‘l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

Faoliyatning o‘zgargan sharoitlari o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq, pedagogik improvizatsiya muayyan darsning maqsadlarini, o‘quv materialining mazmunini, uslubiy qabul qilish va muloqotni maqsadga muvofiq ravishda aniqlashtirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

V.N.Xarkinning fikricha, pedagogik improvizatsiya quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi :[4]

- yaratish va bajarish jarayonlarining mos kelishi yoki ularning minimal bo‘shlig‘i;
- ularning bevositaligi;
- jamoat xarakteri;
- mantiqiylikning birligi, dastlabki tayanch tushunchasi.

L.Yu. Berixonovaning fikricha, pedagogik improvizatsiya tasodifiy hodisa emas, balki o‘qituvchining ijodiy o‘qitish faoliyatining tabiiy, ajralmas va juda muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘ylab topilgan narsani optimallashtirishning samarali usuli va pedagogik rejaga muvofiq pedagogik rejani tezkor tuzatish vositasi sifatida ishlaydi. [2]

Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o‘qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o‘sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o‘sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko‘tarilish bilan o‘lchanadi.

V.I. Zagvyazinskiy ta'kidlaganidek, improvizatsiya yo‘qdan paydo bo‘lmaydi. Muvaffaqiyatli improvizatsiya faqat yaxshi tayyorlangan zaminda mumkin. Zero, eng yaxshi

improvizatsiya bu oldindan tayyorlangan improvizatsiya, deb yarim hazil bilan bejiz aytishmagan. Muvaffaqiyatli improvizatsiyaning asosi odatiy vaziyatlarni tahlil qilish tajribasi, qonunlar va tendentsiyalarni bilish, asosli gipoteza asosida bashorat qilishdir. "Ijodkorlik", deb ta'kidladi V. A. Suxomlinskiy. - bu hech qanday tarzda pedagogik jarayon tushunarsiz, faqat sezgiga bo‘ysunadigan va oldindan ko‘ra olmaydigan narsa degani emas. Faqat aksincha. Aynan nozik oldindan ko‘ra bilish, pedagogik jarayonning ko‘plab omillari va qonuniyatlari bog‘liqligini o‘rganish chinakam ustaga rejani bir zumda o‘zgartirish imkonini beradi”. [2]Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, shaxsga qo‘yiladigan kasbiy talablarning kuchayishi o‘qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, individual faoliyat uslubini rivojlantirish zaruratini oshirdi. Ijodiy faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik improvizatsiyadir. Tajribali o‘qituvchilar o‘z faoliyati davomida turli xil pedagogik muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab texnikalarga ega. Ammo shunday vaziyatlar mavjudki, o‘qituvchi tezda qaror qabul qilishi, sinfda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda nostandart vaziyatlarda moslashuvchan bo‘lishi kerak. [1]

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o‘quvchiga yetkaza olish va nihoyat o‘quvchini ham ijodiy fikrlashga, ilmiy-tadqiqot ishlariga o‘rgata olishni Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O‘qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida buyuk mutafakkirlar, olimlar asarlarini to‘playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi

Biz pedagogik ijodning tarkibiy qismi sifatida pedagogik improvizatsiyaning xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tdik. Ijodiy pedagogik faoliyatni o‘qituvchining faoliyat sharoitiga, o‘z ijodiy salohiyati va farovonligiga, o‘quvchilar jamoasining kayfiyatiga, pedagogik rejani o‘z vaqtida amalga oshirish va tuzatish qobiliyatisiz to‘liq amalga oshirib bo‘lmaydi ya'ni improvizatsiya qilishni maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslash qobiliyatisiz amalga oshirish mushkul. Improvizatsiyani bo‘lajak o‘qituvchilar va yosh o‘qituvchilarga maxsus ishlab chiqilgan mashqlar tizimi yordamida o‘rgatish kerak, ularning o‘ziga xos xususiyati odatiy bo‘lmagan pedagogik vazifani hal qilish uchun ajratilgan vaqtni maqsadli ravishda qisqartirish va asta-sekin kamaytirishdir. Bu yerda o‘qituvchining improvizatsiyaga tayyorligi haqida gapirish kerak.

Demak, darsning pedagogik loyihasi va uni amalga oshirishning yangi, kutilmagan, to‘satdan paydo bo‘luvchi holatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishning samarali vositalarini topishning tabiiy ehtiyoji mavjud. Bu pedagogik improvizatsiya bo‘lib, u o‘ziga xos "tartibga soluvchi" vazifasini bajaradi, u o‘qituvchining g‘oyalari uning ijodiy farovonligi va o‘quv jarayonining haqiqiy sharoitlariga mos kelishini ta'minlashi kerak. Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o‘qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o‘sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o‘sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko‘tarilish bilan o‘lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, Sh. Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik.- T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
2. Палтышев, Н.Н. Постижение педагогического мастерства / – Москва: Изд.центр АПО, 2002. – 64 с.
3. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
4. Харькин В.Н. Педагогическая импровизация: теория и методика. М., 1992 г. - 264с.

# TO DEVELOP OF THE CHILDREN HEALTH

**Khakimdjanova K.– teacher,**
**Qayumova A.– student, TSPU.**

**Annatation:** Now days, preschool education is a part of uninterrupting education. A healthy generation is the starting point of children's journey to a great life. This article explains in a broad sense that in order to impart modern knowledge, a coach must first properly organize the educational process only when he is well acquainted with the physiological mastery of the growing and developing generation at different times.

**Keywords:** Physiology, hygiene, pedagogue, healthy generation, growth, development, heterophony, acceleration, heredity, environment, dominant, recessive, chromosome, gene, mutation, hereditary diseases.

Preschool education is the first stage of uninterrupting education, the task of which is to bring up a healthy child before school

Thanks to independence, physical education and sports, which are a means of forming the nation's gene pool, promoting a healthy lifestyle and educating a harmoniously developed generation, are increasingly becoming a strategic weapon of the idea of national independence. The first President of the Republic of Uzbekistan. I.A.Karimov on September 30, 2017, and President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev signed a decree on radical improvement of the management of the preschool education system. The republic has adopted a number of laws and decisions aimed at improving the health of the population and the younger generation. This is confirmed by the Law on Physical Culture and Sports of September 5, 2015, the Cabinet of Ministers of January 25, 2005 "On additional measures to strengthen the health of women and the younger generation." Example No. 32 and others. A healthy generation means a healthy republic. The task of raising a healthy generation is first and foremost the responsibility of preschool institutions.

Now days, the attention to the system of preschool education in our country is high, and the knowledge of the primary, preschool education process is perfect for children to succeed in their future endeavors, to develop into mature individuals for the development of the country. therefore, reforms in the pre-school education process are being carried out at a rapid pace to date.

Resolution PR-2707 on measures to further improve the system of preschool education in 2017-2021 shows how deep attention is paid to this stage of education in our country.

n accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 30, 2018 No PR-3955 "On measures to improve the management of the preschool education system" developed a concept for the development of preschool education in the Republic of Uzbekistan until 2030 was released. According to it, the roadmap for the implementation of the Concept of development of the preschool education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 in 2019, targets for the development of the preschool education system of the Republic of Uzbekistan in 2019-2024 , Approval of targets for the development of preschool education in the Republic of Uzbekistan in 2025-2030.

In order to impart modern knowledge, a coach must be able to properly organize the educational process only when he is well acquainted with the physiological mastery of the growing and developing generation at different times. Exploring the hygienic importance of the impact of environmental conditions on the child's body will help educators in maintaining and strengthening the health of children. Explaining the laws of growth and development, the characteristics of the functioning of an entire organism, its systems, organs, tissues and cells are determined at different age-related periods. Age physiology

traces the evolution of functions during the individual development of an organism, identifies the interrelationships of physiological processes and the reasons for the interrelationships between them. At the same time, it helps to understand that highly structured matter, that is, the cerebral cortex, plays a leading role in the functioning of organs and the body as a whole.

At different stages of the developing child's body, the activity of different organs and systems is characterized by a number of specific features. As the teacher studied the anatomical and physiological features of children and adolescents, the structural features of some systems and organs (musculoskeletal, respiratory, circulatory, nervous, sensory, gastrointestinal tract, endocrine glands, skin, digestive organs), as well as get acquainted with their activities and hygiene. It is especially important to know the laws of functioning of the nervous system in order to organize sleep and mental work in accordance with the purpose.

**Hygiene** - is a science that teaches a child’s body how it interacts with the effects of the external environment, medicine. related to the sciences of pedagogy and psychology.

Without knowing the anatomy and physiology of growing and developing children, the problem of personal hygiene of children, hygiene of extracurricular activities and hygiene of educational work cannot be solved. The subject of hygiene includes a number of tasks: the impact of environmental conditions on the child's body (natural, social), physical development, health and anatomical and physiological features, hygienic conditions of teaching, work and rest of students, prevention of student diseases and many other tasks. Hygiene of each system in the body requires the management of specific measures, for example: hygiene-movement regime of the musculoskeletal system, sitting properly at the desk, keeping the body in the right position during work, normalizing the use of hand paws when writing, and so on. This event will allow to take measures, adhere to them, strengthen the health of growing children, protect it and prevent various diseases.

One of the main problems of modern biology is to learn how to control the development of an organism. Heredity is the ability of organisms to pass on their traits and characteristics from generation to generation. Due to heredity, the characteristics of an organism are passed from generation to generation without change. The invention of the simple microscope by R. Hooke in 1665 led to the birth of the doctrine of the cell. He made a thin section of foam and when he looked under a microscope he saw tiny cells and called them cells. With the invention of the electron microscope, the study of cell structure and metabolism in the cell began.  The cells are spherical, ductile, prismatic in shape. Each cell is composed of a cytoplasmic membrane, cytoplasm, nucleus, and cell organelles.

A set of cells whose structure and function are similar in origin is called tissue. All tissues in the body are divided into 4 groups: epithelial (bleeding), connective (base-graphic), muscle (muscle) and nerve tissue. Epithelial tissue is single and multilayered, composed of thin plate-shaped cells. The connective tissue mainly forms the inner part of the esophagus and is divided into blood and lymph tissue, connective and bone tissue, and smooth muscle tissue. The cell is a functionally and genetically simple structure of multicellular organisms. Each cell is made up of a nucleus, a cytoplasm, and a cell membrane. An electron microscope, now magnified several thousand times, is now used to study the structure of the cell.

The cell membrane has a three-layer structure, with each layer approximately 25A thick. The outer and inner layers are made up of a series of arranged protein molecules. the middle layer is composed of two rows of lipid molecules. Water, amino acids, glucose, and mineral salts, which are involved in metabolism in the cell, pass into the cell through this membrane.

The lysosome is rounder in shape and the membrane is composed of three layers. Under the influence of enzymes in it, proteins, nucleic acids, lipids are broken down. The

endoplasmic reticulum consists of complex structured channels and cisterns bounded by a membrane. In many cells, many granules are located on the surface of the endoplasmic reticulum membrane. They are called ribosomes. Ribosomes are very small in the cell and are also present freely in the cytoplasm. Nuclear proteins are synthesized in ribosomes located in the nucleus. Ribosomes located in the endoplasmic reticulum play an active role in the synthesis of proteins.

The Golgi apparatus consists of intricate mesh-shaped structures with a double layer of membrane located around the nucleus.

Mitochondria are also referred to as the power stations of the cell. They are oval, rounded, slightly elongated or rod-shaped, thread-like in shape. There are up to 50 mitochondria in a cell, and up to 900 in some cells. The mitochondrial membrane consists of two layers. They contain proteins, lipids and nucleic acids. They also contain many enzymes involved in energy exchange in the cell. Mitochondria produce adenosine phosphoric acid. Muscle tissue. These are myofibrils that have the property of contracting in the tissue fibers. At the same time it is different from other tissues. The body has smooth and transverse muscle tissue




Nerve tissue performs the function of transmitting impulses, ie nerve impulses, which occur in the internal organs under the influence of the external environment. Nerve tissue is made up of neurons and neuroglia. Without studying the heredity of the organism, it is impossible to prevent and treat hereditary diseases.




**Physical development and health of children**

Great attention is paid to the health of the younger generation in our country. The future of the nation and its well-being depends on strengthening and protecting the health of

the younger generation. It is known that the health of a child depends not only on whether they have the disease, but also on its development with age and the functioning of systems. Preschool children are mainly healthy children, they (30%) belong to the first group; (40%) - to the second group; (28%) belong to the third group and (2%) to the fourth group. The incidence of children and their prevalence are not the same everywhere on Earth, they depend on the organization of sanitary and anti-epidemic measures.

It should be noted that the incidence of children and adolescents in our country is declining from year to year. One of the important indicators of children's health is their physical development, i.e. body length (height); weight (body weight); chest rotation (excursion); the power of the lakes; (dynamometry); base - the condition of the musculoskeletal system (shape of the chest, legs, heel position, muscle development, etc.). Various diseases can affect the proper development of these.

The physical development of children depends on their age, gender, nationality and changing social, economic and environmental conditions. Based on this, local standards of physical development will be developed and will need to be updated every 5-10 years. The younger the child, the more often he should be examined every month until the age of 1: every 3 months until the age of 1-3; At the age of 3-7 years, once every six months. In the European Union, there is a decline in health care in children, young people and young families.

What is affecting this. In all EU countries, there is a systemic correlation between health status and social status - there is a decline in social status, as well as a decrease in health status.

These social gradients in health care are harmful and unfair, especially when it comes to children and young people, and this injustice is obvious because the challenges of the early years affect health levels throughout the life cycle.

**Organizing morning physical exercises**

Healthy Morning Exercises Preschoolers include morning physical activity. These types of morning exercises are used to help the participants achieve full physical development, improve their health and improve their motor functions. Sports in the morning exercise. This group includes sports morning physical exercises, artistic morning physical exercises. These are sports and are promoted as sports. The goal is to achieve high perfection in exercise technique, high sportsmanship, and the ability to perform many complex exercises in the morning on the basis of high levels of physical fitness in all respects. Practical types of morning physical training exercises. Morning exercise is a form of practical exercise in which morning exercise is used to restore a child's health more quickly and completely, and is also used in endurance to develop physical qualities. The means of morning exercises are purification exercises, a variety of movements and dance steps; types of general rhythmic exercises without objects and with objects (sticks, dumbbells, swings, balls, etc.), exercises on the exercise wall in rings and practical exercises (running, jumping, climbing, jumping)

***The main forms of morning physical education in preschool institutions:***

Morning exercise is done before training. Its importance: to prepare the body for the process of exercise. Morning exercise lasts 7-15 minutes. Exercise consists of 5-7 exercises. Most weight training is done in the middle of a workout. Morning exercises in kindergarten groups have health and educational functions. As an integral part of the agenda, it is mandatory for every child. Every day after waking up (after 5-7 minutes) specially selected 7-12 exercises activate the activity of the body for 10-15 minutes, have a positive effect on the skills of proper growth of the body, warns of flat feet. Participating in morning exercises allows children to do daily morning exercises that are beneficial. The productivity of mental and physical labor will be slightly reduced. The importance of morning exercise is that the central nervous system receives a stream of signals from the receptors of powerful analyzers,

especially from the proportional receptors, which restores the central nervous system's ability to move quickly and work.

When morning exercises combine the effects of skin receptors on cold and water, the excitation of the nervous system is accelerated. The effects of certain environmental factors (water processes, fresh air and the sun) stimulate the nervous system as well as help the body to exercise.

Characteristics of physical exercise. Standing exercises are not difficult movements. General developmental exercises (morning physical exercises are widely used in all types. This is an exercise that leads to less difficult movements), ie to deepen the physical ability of different muscle groups, to acquire elements, motor skills, work with objects, general physical fitness. It is a physical training tool that actively interacts with the environment in addition to exercise and skills. Free exercise is a type of morning exercise that focuses on developing endurance.

***Rhythmic morning exercise and its types.***

Rhythmic exercise is one of the most popular forms of fitness training. Its main purpose is to run, jump, play games. All this helps to improve health. Rhythmic morning exercises can be done by children of all ages. In a rhythmic morning workout, the movement is unrestricted, affects all parts of the body, agility, dexterity, flexibility, endurance. The rhythm of the music organizes the movements and lifts the mood of the participants. The positive state of the senses motivates the action to be more active, which intensifies their effect on the body. Rhythmic morning workouts can be athletic in nature if endurance, plasticity, play, or mixed exercise predominate. Dance moments make up the bulk of the workout set.

***The tasks of rhythmic physical training are:***

- ➢ Maintaining and strengthening all-round health, improving physical development, strengthening, increasing the body's resistance to adverse environmental conditions;
- ➢ Develop a person's spiritual and physical abilities, cultivate self-confidence and develop creative qualities;
- ➢ Have a range of knowledge on how to use exercise independently and the basics of physical education;
- ➢ Develop a sustained interest and habit in regular physical activity, and include physical activity in your routine.

References

1. “ Odam vaa uning salomatligi ” 8-class B.Aminov, T.Tilavov, O.Mavlonov 2014- yil Tashkent
2. “ Анатомия человека ” Валковой.В.А, Малоштан.Л.Н 2005 год Москва
3. “ Human anatomy and physiology ” Lecture notes for Nursing students 2003 year The US

# RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINf O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV (texnologiya fani misolida)

**Kulboyeva D.A. – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, raqamli ta`lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish. Shuningdek, raqamli ta`lim muhitida texnologiya fani orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlari:** Raqamli ta`lim, muhit, boshlang'ich sinf, o'quvchi, kreativ, kreativ fikrlash, kreativlik qobiliyat, texnologiya, innovatsiya, metod.

Respublikamizda so'nggi yillarda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma`naviyatli etib tarbiyalash, ta`lim tizimida ta`lim samaradorligini yanada oshirish, intellektual barkamol avlodni tarbiyalashning me`yoriy asoslari yaratilmoqda. "Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intelektual hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatidan qanchalik samarali foydalanishimiz bilan chambarchas bog'liq. Fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmini yaratish" ustuvor vazifalar etib belgilandi.[1]

Zamonaviy sharoitda raqamli ta'lim muhitini tavsiflashda bir nechta yondashuvlar ko'zga tashlanmoqda. Misol uchun, raqamli ta'lim muhiti, birinchidan, ta'lim muassasalari faoliyatini avtomatlashtirish, axborotlashtirish va raqamlashtirishni ta'minlovchi ta'lim resurslari va texnologiyalaridan iborat ko'p komponentli majmua; ikkinchidan, pedagoglar va talabalarning ijodiy potensiali, iqtidorini ochib berishga mo'ljallangan antroposofik relevantli axborotli anturaj [3]; uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda bilish faoliyatini tashkil qilish va axborot ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadigan ijtimoiy-psixologik borliq sanaladi. [2] Bir guruh tadqiqotchilar, P.V.Vedeneev, A.S.Zavarixin, J.N.Zayseva, T.N.Kazarina, B.A.Krasilnikova, V.I.Soldatkin, V.S.Tarasov[3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "raqamli ta'lim muhiti" tushunchasining mohiyati antroposofik nuqtai nazardan yoritiladi.

Raqamli ta`lim muhitida yoshlarni birinchi navbatda, ijodkor, kreativ fikrlashga qodir bo'lgan yoshlarga ta`lim-tarbiya berish asosiy vazifa qilib berilgan. Yangilik yaratish hamda voqea va hodisalarga kreativ yondashuvsiz jamiyat turg'unlikga uchraydi. Kreativ qobiliyat insonga tabiat tomonidan layoqat shaklida beriladi va yangilik yaratish zarurati bilan bog'liq. Shu bilan birga, kreativ qobidiyatlarni rivojlantirish va kerativ shaxsni shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratilishi lozim.

Psixologik rivojlanish nuqtai nazaridan ushbu yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchi shaxsini shakllantirish, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan; kognetiv ko'nikmalarini, motivlarini va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish ta`minlangan. Ushbu jarayonning asosiy ko'rsatkichi boshlang'ich sinf o'quvchisining ta'lim olish jrayoniga tayyorligi bo'lishi mumkin, bu esa umumiy ta'limda muvaffaqiyatli o'qish imkonini beradi. Shunday qilib, 11 yillik ta'limning tuzilishi va mazmuni tahlili umumiy o'rta ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatadi:

O'quvchilar o'rganilayotgan fanlarning asoslari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy o'quv masulotlari shaklida shakllantiriladigan tarkibni ta`minlaydigan kreativlikni amalga oshirish. O'rta ta'limning mazmuni an`anaviy asosiy fanlar, shu jumladan texnologiya fanini o'qitish bilan ta`minlanadi.

O'rta maktabda an`anaviy texnologiya ta'limi kursi ilmiy, texnik, texnologik bilimlarni sintez qiladigan va ulardan inson faoliyatining turli sohalarida foydalanishning

ahamiyatini ochib beradigan texnologiya fani oʻrnini bosdi. Ushbu fanda loyihalash ta’lim usuli qoʻllaniladi. Oʻquvchilar loyihalarni mustaqil ravishda, oʻqituvchi rahbarligida amalga oshiradilar. Bu ularga kelajakdagi hayot uchun zarur boʻlgan loyihalash, konstruktorlash, kreativ faoliyat koʻnikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, boshlangʻich sinflarda kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi jarayoni bilan olingan bilim va koʻnikmalar oʻquvchilar tomonidan texnologiya fanini muvaffaqiyatli oʻrganish uchun asos boʻladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi boshlangʻich sinf oʻquvchilarini mustaqil hayot va mehnatga tarbiyalash, ta’lim berish va tayyorlashning zamonaviy xususiyatlariga xos. Biz oʻrganayotgan muammoning rivojlanishining tarixiy xususiyatlarini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, hozirgi vaqtda rivojlanayotgan shaxsni shakllantirishda oʻz-oʻzini anglash, oʻz taqdirini oʻzi qurish, oʻz-oʻzini rivojlantirish jarayonlari falsafa va psixologiyaning yetakchi vazifasi hisoblanadi [4].

Kreativ qobiliyatlarning ikki darajada namoyon boʻlishini oʻz ichiga oladi - umumiy ta’lim va ishlab chiqaruvchi. Ushbu darajalar boshlangʻich ta’lim sharoitining ta’lim jarayonini taqsimlashda hisobga olinadi:

1) bilimlarni oʻzlashtirishni ta`minlash uchun;

2) ushbu bilimlarni amalda qoʻllash koʻnikmalarini shakllantirish va shu aosisda ma’lum bir vaziyat uchun kerak boʻladigan kreativlik qobiliyatlarni egallash.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining mehnat faoliyati kreativ qobiliyatini rivojlantirishni amaliy vositalardan biri sifatida tavsiflash nuqtai nazaridan tahlil qilib, biz ushbu jarayonning xususiyatlarini boshlangʻich sinf oʻquvchilarni mehnat talimi jarayonining dolzarb muammolarini hal qilish uchun asos boʻlib xizmat qilishi kerak boʻlgan darajada koʻrib chiqamiz.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining texnologiya ta’limi asosini zamonaviy mehnatning mohiyati, uning oʻziga xos xususiyatlari tashkil etadi. Mehnat jarayonida uchta asosiy tarkibiy qismni ajratish mumkin: maqsadga muvofiq faoliyat, mehnat predmeti va mehnat vositalari. “Mehnat, birinchi navbatda, har bir kishidan vijdon, mahorat, intizom namoyon boʻlishini talab qiladi, bu ham yuqori mahsuldorlik, ham mehnat munosabatlarining yuqori darajasini ta`minlaydi; ikkinchidan, ishlab chiqarishning barcha sohalarida: sanoatda, qishloq xoʻjaligida, xizmat koʻrsatish sohasida va hokazolarda texnik mutaxassisliklarning tarqalishini belgilab beradigan faoliyat turi sanaladi.

Xulosa qilib, raqamli ta`lim muhitida oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish muammolariga bagʻishlangan ilmiy nashrlarni tahlil qilish, shuningdek boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining amaliy ish tajribasini oʻrganish, ta`lim jarayonida zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish samarali ta`sir koʻrsatadi. Shu bois, ta`lim muassasalarda ta`lim jarayoniga innovatsion yondashishni talab etadi. Bu esa, yosh oʻquvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutqi. – T.: Oʻzbekiston, 2016. – 56 b.

2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yoʻnalishlardagi akademik litseylarda matematika oʻqitish misolida): Ped.fan.dokt….diss. avtoref. –Toshkent, 2006. – B. 49.

3. Электронные компоненты информационно-образовательной среды / В.А.Красильникова, П.В.Веденеев, А.С.Заварихин, Т.Н.Казарина // Ж. Открытое и дистанционное образование. – Томск: 2002. Выпуск 4 (8). – С. 54- 56.

4. Бердуаев Н.А. Самопознание. - М.: Книга, 1991. - 445 с., с.163.

# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TA’LIM SIFATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Madiyeva Ch.D. –o‘qituvchi, TAMI.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim sifatini oshirishda kvalitativ texnologiyalar foydalanish xaqida so‘z yuritilib, kvalimetriya qismlari, metodlari keltirilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar: *P***yedagogik texnologiya**,** pedagogik jarayon, diagnostika, ta’limning samaradorligi, ta’limda kvalitologiya**,** pedagogik kvalimetriya, statistik, validlashtirish, sertifikatsiyalash, ekspert.

Bugungi kunga kelib, an’anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, o‘quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirib borish, iqtidorli o‘quvchilardagi intellektual potensialning muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan muntazam foydalanish ya’ni ta’lim jarayoniga axborot-kommunakatsiya texnologiya elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o‘qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo‘lga qo‘yish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bunday keng qamrovli vazifalar, ilmiy asoslangan g‘oyalar, ya’ni ma’lum bir konsepsiya asosida maqsadli yo‘nalishda amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarni beradi. Mazkur konsepsiyaning asosini boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yondoshuvlar va g‘oyalar tashkil etadi. Bu konsepsiya boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning sifati va samaradorligini ta’minlashning ilmiy asoslangan g‘oyalar asosida amalga oshirilishiga qaratilgan. Konsepsiyada ilgari surilgan boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning nazariy-amaliy g‘oyalari pedagogika fanining yutuqlariga tayanilgan holda belgilab berilgan.

Boshlang‘ich ta’limning asosini shaxs kamoloti, uning barkamol shakllanib, rivojlanishi haqidagi g‘oyalar belgilaydi. Shu jihatdan taklif etilayotgan qarashlar va g‘oyalar tizimi amaldagi fanli o‘qitishga asoslangan boshlang‘ich ta’limdan integrallashgan, shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang‘ich ta’limning istiqbolliligini ifodalaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan boshlang‘ich ta’lim jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta’lim nazariyasiga tayangan holda muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi.

Butun dunyoda ro‘y berayotgan integrallashuv va globallashuv jarayoni bilan bog‘liq holda ta’limning mazmun-mohiyati ham o‘zgarmoqda. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga o‘ta muhim vazifa – o‘z-o‘zini anglash salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bunday o‘quvchilar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak

Mamlakatimiz pedagogikasida o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq adabiyotlarda «ta’lim texnologiyalari» jumlasi tez-tez ishlatilib kelinmoqda. O‘quv jarayoni sifatini oshirishning yangi yo‘llarini ishlab chiqish bir vaqtning o‘zida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish natijasi va uni takomillashtirish sharoiti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi va o‘qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg‘or tajribalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ta’limni texnologiyalashtirish mavzusida xorijiy tadqiqotchi olimlaridan V.P.Bespalko, G.A.Bordovskiy, L.V.Zagrekova, M.V.Klarin, V.A.Kalney, V.N.Maksimova, T.V.Masharova, Yu.K.Chernova, M.A.Choshanov, S.Ye.Shishov va boshqalar hamda xorijiy tadqiqotchilardan L.Anderson, Dj.Blok, B.Blum, T.Gilbert, R.Meydjor va respublikamizda N.Azizxo‘jayeva, L.Golish, B.Ziyomuhammedov, R.Ishmuhammedov, U.Nishonaliyev, M.Ochilov, E.Ruziyev, N.Cayidahmedov, O‘.Tolipov, J.Tolipovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

***Talim jarayoniga nisbatan qo‘llanadigan texnologiya*** atamasidan foydalanish ommalashib borgan sari turli manbalarda turlicha talqin qilinib kelmoqda.

P***yedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan maqsad yo‘nalishi, ta’limning rejalashtirilgan natijalariga erishish kafolati sifatida tushuniladi***.

***Pedagogik texnologiya*** — belgilangan maqsad diagnostikasiga aniq mo‘ljallangan ta’lim jarayonini tashkil qilishni amalga oshiradigan usuli [1, – 16 b]. Pedagogik texnologiyalarning bosh belgisi sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1) maqsadlarni ifodalashning diagnostikalanishi;

2) pedagogik jarayonning amalga oshish imkoniyati;

3) pedagogik natijalarning ishga tushirilishi xususiyati.

Pedagogik texnologiya — oldindan loyihalashtirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini muntazam va tadrijiy tarzda amalga oshirishni ta’minlovchi texnologik tartiblar yig‘indisi. Pedagogik texnologiya, bu — faqat ta’limda texnika vositalaridan foydala- nishigina emas (pedagogik texnologiya ilk bor shunday tushunilgan edi), balki o‘quv-tarbiya jarayonini mazmundor texnikaviy amalga oshirishdir, xususan: konstruksiyalash va usullar hamda materiallarni qullash vositasida ta’lim samaraliligini oshiruvchi omillarni tahlil etish yuli bilan ta’lim jarayonini optimallashti rish tamoyillarini aniqlash va usullarini ishlab chiqish. Pedagogik texnologiyani moddiylashtirish: darsliklar, ta’lim metodikasi, o‘qituvchi, pedagog-o‘qituvchi faoliyati. [2, 236 b.]

V.P.Bespalko [3] pedagogik texnologiyalarning chuqur mazmunini quyidagilarda ko‘radi:

1) ekspromtlardan chekinish va taxminiy loyihalashga o‘tish;

2) o‘quvchilarning o‘z o‘quv-biluv faoliyatlari mazmuni va tarkibini ishlab chiqishlarida;

3) o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifatini obyektiv va maqsadga muvofiq diagnostikligi;

4) o‘quv-tarbiya jarayonlari komponentlari mazmundoligi va tarkibiy yaxlitligi tamoyilini amalga oshirishda [3, 69-70 bb.].

Ta’limning zamonaviy vazifalarini inobatga olgan holda, pedagogik texnologiyalar ta’lim sifatini ta’minlashga qaratiladi. Shuning uchun ta’lim tizimida kvalitativ texnologiyalardan foydalanish xususida gapirish mumkin.

**Ta’limda kvalitologiya** — ta’lim sifati to‘g‘risidagi fan: ta’lim tizimlari vazifalari hamda ularning rivojlanish sifati; ta’lim – tarbiya (o‘qitish) jarayonlari sifati; o‘quvchilar

(o‘quvchi va talabalar) sifati, professor-o‘qituvchilar korpusi sifati va boshqalar sifati. U ta’lim jarayonlari va obyektlari sifati to‘g‘risidagi yagona fan kesimida shakllanadi - bu kvalitologiya [4, s.118]. Keyingi paytlarda pedagogik amaliyotda kvalitativ texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq qilish borasida ilk tadqiqotlar amalga oshirildi.

Kvalimetriya-(lotincha quails-sifat, qadimiy yunoncha metros- o‘lchov) degan ma’noni anglatib, ob’yekt, mahsulot, jarayonlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o‘zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog‘i. [5, 23 b.]

Pedagogik kvalimetriya asoslari masalalari mamlakatimiz va xorijda faoliyat yuritayotgan G.G.Azgaldov, M.I.Grabar, Z.D. Jukovskaya, A.A.Makarov, V.P.Mizinsev, V.I.Mixeyev, J.O.Tolipova va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida atroflicha ochib berilgan.

Kvalimetriyaning uchta: nazariy (umumiy), maxsus, va amaliy tarmoqlari mavjud.

Nazariy kvalimetriyada aniq ob’yekt loyihalanadi (abstraksiyalanadi) va uning sifat ko‘rsatkichlarining umumiy qonuniyatlari va matematik modellari o‘rganiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot ob’yekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, ob’yekt va sub’yektlarning sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqish sanaladi.

Nazariy kvalimetriyaning amaliy sohalarida turli ob’yekt va jarayonlarning sifatini baholash metodikasi va nazariy asoslari umumiy xususiyatga ega.

Maxsus kvalimetriya turli xildagi va har xil maqsadda foydalaniladigan aniq ob’yektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi.

Maxsus kvalimetriyaning ekspert, ehtimollik-statistik, indeksli, kvalimetrik taksonomiya kabi turlari mavjud.

Amaliy kvalimetriya-texnika, ishlab chiqarish, inson mehnati faoliyati, turli loyiha va jarayonlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi. Amaliy kvalimetriyaning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘lanib, texnik kvalimetriya, ijtimoiy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tibbiy kvalimetriya, geologik kvalimetriya va hakoza tarmoqlari mavjud.

Bozor iqtisodiyoti davrida mahsulot (buyum, xizmatlar, jarayonlar)ning raqobatbardoshligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

U yoki bu buyum, xizmatlar, jarayonlarga ehtiyoj bo‘lishi uchun muayyan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirish, maqsadga muvofiq bo‘lish, belgilangan vazifalarni bekamu-ko‘st bajarish kabi qiymatga ega bo‘lishi lozim . Ishlab chiqarish mahsulotlari va jarayonlarda mazkur belgilarning bo‘lishi ular sifatining miqdoriy baholash imkonini beradi .

Xalqaro tajribalar buyum, xizmatlar, jarayonlarning yuqori sifatli bo‘lishiga erishish uchun ularning sifatini aniqlaydigan ilmiy, texnik va tashkiliy mezonlar ishlab chiqilishi lozimligini ko‘rsatdi.

Muayyan ob’yekt yoki jarayon borishi, xizmatlar, jarayonlar sifati etalon sifatida qabul qilingan modelning mezonlari bo‘yicha o‘lchash va olingan natijalarni taqqoslash orqali baholash amalga oshiriladi.

Kvalitativ texnologiyalarni ta’lim sohasining quyidagi o‘rinlarida qo‘llash mumkin:

1. O‘quv-tarbiyaviy jarayoni (masalan, o‘quv maqsadlari taksonomiyasini asoslashda).
2. Umumiy ta’lim sifati monitoringlar tizimini ishlab chiqishda, reyting tizimi, boshqaruv funksiyalari taksonomiyalari, tadqiqotlar monitoringi metodikasi, ta’lim sifatini baholash aksiomatikasini yaratishda.
3. O‘quvchilar tezaurusi monitoringi.
4. O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan didaktik vositalar ekspertizasi. Alohida olingan o‘quv mashg‘ulotlari sifatini baholash.
5. O‘quvchilar o‘zlashtirish darajasini aniqlaydigan test o‘lchagichlarini ishlab chiqish (masalan, ekspert metodlarini qo‘llagan holda).

*Kvalimetrik metodlar* ( metod — grech. — tadqiqot yo'li) – bu obyekt sifatini o'lchash imkonini beradigan metodlar. Pedagogik nazoratni obyektivlashtirish kvalimetriya metodlari guruhiga quyidagilar mansub:

1. Statistik (pedagogik nazorat natijalari statistik ahamiyatliligi va reprezentativligini ta'mnlash; bunda pedagogik nazorat materiallari ishonchliligi ortadi - PNM).
2. Pedagogik nazorat materiallarini validlashtirish metodi (validlikni aniqlash; yuqori validlikka ega pedagogik nazorat materiallarini tanlab olish).
3. Pedagogik nazorat materiallarini sertifikatsiyalash metodi (pedagogik nazorat materiallarini sifat parametrlarini aniqlash, boshqaruv tarkiblarida ularni tasdiqlash).
4. Ekspert metodi (baholashda kollegiallik, pedagogik nazorat materiallarini pedagogik ekspertizasini o'tkazish).

Yuqorida sanab o'tilgan barcha metodlar o'quvchilar bilimini nazorat qilishga bo'lgan pedagogik yondashuvda pedagogik nazorat materiallarini ilmiy ishlab chiqish zamirida yotadi va pedagogik nazoratni kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi, bunda asosiy e'tibor pedagogik nazorat materiallari tur va shakllarining xilma-xilligiga, tizimlililigi, izchilligi, optimalligiga qaratilishi hamda diagnostika qilishning yangi texnologiyalarini joriy etishga asolanganligiga qaratilgan bo'ladi.

Foydalanillgan adabiyotlar

1. Кларин М.В. Инновасии в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. - М.:Наука, 1997.-223с.

2. Oliy ta'lim. lug'at ma'lumotnoma, Toshkent "Moliya"-2003, 454 b.

3. БеспалкоВ.П. Слагаемые педагогической технологии.-М. :Педагогика, 1989.-192с.

4. Развитие системы тестирования в России: Тез. докл. ИИ Всеросс. конф. (Москва, ноябр 2000г.). - М.:Прометей,2000.-Ч.1- 78с., Ч.2- 79с., Ч.3- 100с.,Ч.4-108с.,Ч.5-57с.

5. Tolipova J.O. va b. "Pedagogik kvalimetriya" o'quv – uslubiy majmua, Toshkent – 2016, 163b.

6. Квалиметрия в образовании: методология и практика. Отечественная квалиметрическая научно-практическая школа в системе высшего образования: итоги и перспективы развития. Актуалные проблемы анализа и осенки качества образования: Материалы 10-го Всероссийского Симпозиу- ф ма.- М.:Исслед. сентр проблем качества подготовки спесиалистов , 2002.- Книга 1.- 206с.

# MILLIY HUNARMANDCHILIK ASOSIDA UYUSHMAGAN XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING USTIVOR VAZIFALARI

**Magdiyeva M.E. – o‘qituvchi, Baxromova R.– talaba, TDPU.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (*kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik* va boshqalar)ga ajraldi.

**Kalit so‘zlar:** hunarmand, xalq hunarmandchiligi, kasbiy amaliy kompetensiya, an’ana, pedagogik imkoniyatlar

Bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar nafaqat jamiyat hayotining yangi qadriyat va mazmuniy yo‘nalishlarini, balki odamlarning xulq-atvori va faoliyatining yangi shakllarini, axborotni uzatish, saqlash va tarqatish usullarini ham belgilab bermoqda. Shuning uchun zamonaviy ijtimoiy institutlar orasida ta'lim instituti etakchi, markaziy rollardan birini o‘ynay boshlaydi, bu ajablanarli emas: texnologik, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot sur'ati, jamiyatdagi ma'naviyat holati va boshqalar.., jamiyatning har tomonlama rivojlanishi ta'lim mazmunini rivojlantirish va takomillashtirishga bog‘liq. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Ta’limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ta’lim mazmunini doimiy ravishda yangilab turuvchi keng ko‘lamli axborot oqimlari takomillashtirishni taqozo etadi. Ta’lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish o‘qitishda o‘ziga xosdir.O‘zbekistonda gender tengligi, ayollar huquqlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy o‘zbek ayollari nafaqat g‘amxo‘r ona va xotinlar, balki jamiyat hayotining faol ishtirokchisi, davlat xizmatchilari hamdir. Gender tengligini ta’minlash, jinsi bo‘yicha kamsitish, ayollarga nisbatan zulm va zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlariga barham berish O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi ayollarga e’tibor va g‘amxo‘rlik davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, bu borada tegishli Milliy dastur qabul qilinishi kutilmoqda. Bugungi kunda respublikada gender tengligi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi, Gender tengligi masalalari bo‘yicha komissiya raisi Tanzilya Narboyeva ta’kidlaganidek: “Gender tengligiga erishish bo‘yicha 2030-yilgacha ishlab chiqilgan Strategiyaning qabul qilinishi jamiyatni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. davlatimizning gender siyosati. Strategiyada xotin-qizlarning munosib bandligini ta’minlash, qizlarimizni oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish darajasini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga, shu jumladan, vaqtinchalik kvota tizimi orqali ko‘tarish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha 2021–2030-yillarga mo‘ljallangan davlat organlari faoliyatining muhim jihatlari o‘z ifodasini topgan. kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyalanmagan ayollarni qo‘llab-quvvatlash. Bu sohalar yaqin kelajakda ustuvor yo‘nalishlarga aylanadi va Strategiya ushbu jarayonlarni amalga oshirishda, qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta’minlaydi”.

Xalqaro anjumanda zamonaviy jamiyatda ayollarning o‘rni muhokama qilindi. “Yangi O‘zbekiston: gender siyosati. Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va biznes hayotida ayollar”, xalqaro konferensiya onlayn platforma formatida o‘tkazildi va unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo‘mitasi vakillarining ma’ruzalari tinglandi. O‘zbekiston mehnat va ijtimoiy masalalar bo‘yicha, “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar masalalari agentligi.

Konferensiya ishtirokchilari oldidagi qutlov nutqida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o‘rinbosari, Xalqaro mehnat va bandlik akademiyasi akademigi B.X. Umurzoqov gender masalalari butun dunyoda faol muhokama qilinayotganini aytdi. – Bu tendentsiya, dedi u, O‘zbekistonda xotin-qizlarning rolini yanada oshirish, salomatligini mustahkamlash, ta’lim-tarbiyasiga g‘amxo‘rlik qilish, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Gender tengligini ta’minlash, gender diskriminatsiyasiga, shuningdek, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishidir”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi konferensiya ishtirokchilariga onlayn tarzda o‘z tabriklarini yo‘lladi; M.I. Xodjaeva, iqtisod fanlari doktori, “Izhtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi direktori N.X. Rahimova.

Onlayn muloqotda ishtirokchilarning ta’kidlashicha, konferensiyaning xalqaro formati mamlakatimiz ta’lim, ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy va ishbilarmonlik hayotini rivojlantirishda xotin-qizlarning hissasi va roli, shuningdek, belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash masalalarini yangilashdan iborat. 2021-yilda mamlakatimizda tasdiqlangan Gender tengligiga erishish strategiyasida belgilab berilgan. Mazkur strategiyaning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda ko‘proq yetakchi ayollar paydo bo‘ladi, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta’minlanadi, qizlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi madaniyati shakllanadi..

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar masalalari agentligi direktori o‘rinbosari D.S.ning ma’ruzalarida ta’kidlandi. Kattaxonova, TDDU ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori G.Q.Abduraxmonova va boshqalar so‘zga chiqib, davlat va hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va tuzilmalar darajasida amalga oshirilayotgan ulkan sa’y-harakatlar o‘z samarasini berishi zarurligiga e’tibor qaratdi.. Asosiysi, ayollarning nafaqat oilada, balki jamiyatda ham e'tirofga erishish istagi va irodasi.

Onlayn ilmiy muloqot davomida Rossiya va Qozog‘istondan kelgan xalqaro anjuman ishtirokchilarining ma’ruzalari ham tinglandi. Jamiyatda gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishda barcha davlat va jamoat tuzilmalarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi. Xorijlik ekspertlar tadbir tashkilotchilarining professional yondashuvini alohida qayd etdilar. “Rossotrudnichestvo”ning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi ta’lim dasturlari koordinatori I.V. Suljina, Toshkent filialida to‘plangan ilmiy salohiyat va tajriba evaziga “Rossotrudnichestvo” bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan tadbirlar xotin-qizlar soni ortib borayotganini oliy ta’lim va fan sohasidagi faoliyatga jalb etishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro konferensiya yakunlarini sarhisob qilar ekan, professor N.K.Zokirova shunday ta’kidladi: “Xalqaro konferensiya doirasida turli mamlakatlardan kelgan olimlar, ekspertlar, mutaxassislarning o‘zaro tajriba almashishi gender tengligini yanada ta’minlash, gender diskriminatsiyasiga barham berish, shuningdek. ayollarga nisbatan zulm va zo‘ravonlikning barcha shakllari. Zero, jamiyat va davlatning chinakam taraqqiyoti har bir fuqaroning jinsi va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, huquq va erkinliklari hurmat qilinsa, hurmat qilinsagina mumkin bo‘ladi. Va, albatta, asosiysi, ayollar va yosh qizlarning o‘zlarining ta'limda muvaffaqiyatga erishish, ilmiy faoliyatda va jamiyatda e'tirof etilishiga intilishidir.

Doelis mahalliy hokimiyat organlari va davlat tomonidan nazorat qilinishi mumkin emas, aks holda u mustaqillik yillarida butun respublika bo‘ylab amalga oshirilgan islohotlarning ko‘zlangan maqsadiga erisha olmasligi mumkin, bu esa, shubhasiz, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston, shuningdek, milliy hunarmandchilikni zamonaviy asosda rivojlantirish, o‘rta

va kichik korxonalar. An'anaviy xalq hunarmandchilik, hunarmandchilik markazlari, badiiy an'analarga oid mahsulotlarni ro'yxatga olish, kataloglashtirish va inventarizatsiya qilish bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki jahon hamjamiyatida ham dolzarb mavzudir.

Shu bois, hozirgi vaqtda xalq hunarmandchiligini ilmiy jihatdan o'rganish, ayrim markaz va hududlardagi hunarmandchilikning badiiy-texnologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, xalq hunarmandlari va yo'qolgan hunarmandlarni aniqlash, shu orqali ularni qayta tiklash va rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. noyob hunarmandchilik an'analari. Masalan, mahalliy va tashqi bozorda badiiy hunarmandchilikka katta e'tibor qaratilayotgani bois bu sohadan katta daromad keltirayotgan bo'lsa-da, bu an'analar bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. G. Dombrovskiyning 1995 yilda yozilgan maqolasida Shahrisabz kashtachiligi haqida umumiy ma'lumot berilgan, lekin boshqa viloyatlarning kashtachilik mahorati haqida so'z yuritilmagan [3] (Dombrovski, 1995). 2005-yilda A. Hakimovning kashtachilik haqida umumiy ma'lumot berilgan maqolasida O'zbekiston viloyatlarining kashtachilik namunalari keltirilgan, ammo ularning to'liq tavsifi yo'q [4] (Hakimov, 2005). Demak, bu hududning an'anaviy hunarmandchiligi, xususan, kashtachilik ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha o'rganilmagan.

Bu sohadagi muhim manbalardan biri 1999-yilda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti [5] doirasida ingliz tilida chop etilgan O'zbekiston hunarmandchiligi badiiy atlasidir (O'rta Osiyo badiiy hunarmandchiligi va kasb-hunar atlasi, 1999). Lekin u yerda ham qator xatolarga yo'l qo'yilgan. Kashtachilik san'at tarixida mavzu sifatida ko'p yillar davomida o'rganilmagan. Faqatgina O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tomonidan nashr etilgan 19—20-asrlar O'zbekiston kashtachiligi katalogida kashtachilik namunalari haqida qisqacha ma'lumotlar inventar shaklida berilgan. O'zbekiston amaliy san'atiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ham bu haqda so'z yuritilmaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligining aniq mahalliy tomonlarini ko'rsatuvchi turning ayrim qirralarini ochib beradigan ilmiy ekspeditsiya tashkil etilmagan.

Zamonaviy o'qituvchi ma'lum bir texnologiyani amalga oshirib, uning asoslarini tushunish darajasiga ko'tarilishi mumkin va kerak bo'lsa, uni o'zgartirishi, yangisini yaratishi mumkin, lekin mustaqil ravishda faoliyatni tashkil qilganda, u, albatta, barcha yutuqlar hajmiga ega bo'lishi kerak. ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish sohasida pedagogika va tarbiya psixologiyasi nazariyalari, ilg'or pedagogik amaliyotda to'plangan. Bu bizni universitet ta'limi sohasida ham, Ta'lim va fan vazirligi o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish yoki ularni qayta tayyorlash sohasida ham professor-o'qituvchilarni tayyorlashga yangicha qarashga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Амиргазин К. Ж., Удалов С. Р. Формирование компетентностей в процессе обучения декоративно-прикладному искусству // Омский научный вестник. 2012. № 2 (106). С. 223-225.

2. Гурьев А. И. Статус межпредметных связей в системе современного образования // Наука и школа. 2002. № 2. С. 41-45.

3. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 5. С. 34-42.

4. Кенжебеков Б. Т. Методологические подходы к исследованию развития профессиональной компетентности специалиста // Профессиональное образование. 2004. № 5. С. 177-182.

5. Мишина А. В. Развитие искусствоведческой компетенции бакалавров художественных факультетов // НАУКОВЕДЕНИЕ: интернет-журнал. 2015. Т. 7. № 4 (июль – август). URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/razvitie-iskusstvovedcheskoy-kompetentsii-bakalavrov-hudozhestvennyh-fakultetov (дата обращения: 27.06.2017).

6. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: "Sano-standart", 2015.

# MASALA TUSHUNCHASINI BIRINCHI SINFLARDA KIRITILISHI

**Yuldashev B.N. - kata o'qituvchi, Majidova U. -talaba, BuxDPI.**

Masala echish malakasi 1-sinfdan boshlab oʻquvchilarga shakllantira boshladi. Dasturga asosan 1-sinfga yigʻindi va oldikni topishga doir doir yigindi va qoʻshiluvchini topishga doir, sonni bir necha birlik orttirish va kamaytirishga doir ayirmali taqqoslashga doir sodda masalalar, ayirmani, ayriluvchini, kamayuvchini topishga doir murakkab masalalar hamda geometrik masalalarni yechishga oʻrgatiladi. Oʻquvchilar masalalar yechish jarayonida amal komponentlari va ular orasidagi boglanishlarni ongli oʻzlashtirishlari lozim. Tayyorgarlik etapi 10 ichida sonlarni raqamlash (raqamlarni oʻrgatish) davridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Dastlabki davrlarda 1-sinf oʻquvchilarining oʻyin faoliyati kuchli boʻlgani sababli oʻyinchoqlar vositasida ogzaki masalalar tuzish va uni yechish tavsiya qilinadi.

a).Predmetlar soni (berilganlar) va natijalarni oshkora koʻrsatib, yigindini aytishga doir masalalar tuzish orkali oʻquvchilarga masala toʻgrisida dastlabki tasavvurlar hosil kilinadi. Bu davrda «masala sharti», «masala savoli» kabi tushunchalar ishlatilmaydi. Dastlabki masalalar oʻquvchilarning koʻz oʻngida tuziladi. Bunda oʻquvchilar oʻqituvchining barcha harakatlarini kuzatib turishadi. Masalan: Oʻqituvchi bir oʻquvchini doskaga chiqarib, qoʻliga bitta koptok beradi va oʻquvchilardan soʻraydi.

- qani oʻquvchilar, oʻrtogingiz qoʻlida nimani koʻryapsiz?
- (koptokni)

-Ular nechta? (1 ta)

Men unga yana 1 ta koptok sovga kildim (doskadagi oʻquvchi qoʻliga oʻqituvchi yana 1ta koptok beradi).

- Oʻrtogingiz qoʻlida nechta koptok boʻldi? (2ta)

Bu jarayonda berilganlar ham, natija ham oʻquvchilarga oshkora koʻrsatiladi. Faqat ulardan natijani idrok kilib aytishlari talab kilinadi. Masala tuzish topshirigi bevosita koʻz oʻngidagi narsalar bilan amalga oshadi. Masalan: daftar, ruchka, qalam, oʻyinchoqlar vositasida turli mazmundagi masalalar tuzishga oʻrgatish orkali ularga dastlabki tassavvurlar hosil qilinadi.

b).Predmetlar soni va berilganlar oʻquvchi koʻz oʻngida namoyon qilinib, natijani koʻrsatmay, yigindini topishga doir masalalar tuzish bilan oʻkuvchilarga masala toʻgrisida tushunchalar berib boriladi.

Stol ustiga sariq va 2ta qizil kartondan kesilgan olmalar terib qoʻyilgan boʻladi. Biror oʻquvchini doskaga chikarib, uning qoʻliga savatga beriladi va stol ustidagi qizil olmalarni terib oʻquvchilarga koʻrsatib savatga solish talab qilinadi. Oʻquvchi birin-ketin 2ta qizil olmani olib koʻrsatib savatga soladi.Oʻqituvchi oʻquvchilarga koʻrsatib oʻrtogingiz savatga nechta olma soldi? (2ta) Doskadagi oʻquvchidan yana 1 ta sarik olmani olib savatga solish soʻraldi.

- qani oʻkuvchilar, oʻrtogingiz yana nima ishni bajardi?

yana 1ta olmani savatga soldi.

- Savatda jami qancha olma boʻldi? Yashiringan javob soʻraladi. (3 ta)

Bu bilan oʻquvchi masala yechimini ongli 3 elementli toʻplamga 1 elementli toʻplamni birlashtirishdan hosil boʻlgan toʻplam elementlar sonini topadi.

v) Rasmga qarab masalalar tuzish, oʻquvchilarni mustaqil masalalar tuza olish koʻnikmasini tarkib toptirishda katta ahamiyatga ega.

Bunda asosan, darslik sahifalaridagi rasmlarga qarab:

Bor edi 2 ta kapalak, uchib keldi 1 ta kapalak, jami nechta boʻldi? (Yigʻindini topishga doir masala) (19 bet)

Darahtda 3 ta qush bor edi, 1 tasi uchib ketdi. Nechta qush qoldi? (qoldiqni topishga doir masala)

Plakatdagi rasmga qarab sinf jamoasi bilan birga masala tuzish.

Doskaga raqamlar suratlarda o‘z ifodasini topuvchi plakat osib qo‘yiladi. Shu plakatga qarab sinf jamoasiga masala tuzish taklifi kiritiladi.

Predmet rasmiga qarab masala tuzish topshirig‘ini o‘qitvchi o‘qo‘vchilarga chegaralab borishi mo‘mkin.

Masalan: biror predmet rasmini va amal belgisini ko‘rsatib masala tuzishni taklif qiladi. (Non va qo‘shish amali, ruchka va qo‘shish amali).

2. O‘quvchi ko‘z o‘ngida bo‘lmagan narsalarga doir masala tuzish. O‘quvchi ongida bu narsa yoki rasmlar tasviri saqlangan bo‘lib, o‘qo‘vchi o‘zi ko‘rgan narsa va rasmlarni hotiraga tinglab masala to‘za olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Masalan: Magazinda 5 ta sumka bor edi. 2 tasi sotildi. Magazinda nechta sumka qoldi.

10 ichida nomerlash mavzusida yig‘indi va ayirmani topishga doir masalalardan tashqari sonni bir necha birlik orttirish yoki kamaytirishga doir masalalar ko‘riladi. Bunday masalalarni tuzish va uni yechish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘shancha “shunga ortiq ”, “shuncha kam”, tushunchalari bilan tanishtirishi lozim. Bu jarayon ham o‘qituvchi ko‘rsatmasi amalga oshirish talabga muvofiqdir. Masalan, ikkita o‘quvchi qo‘lida bir miqdorda daftar berib, Nodirning qo‘lida 5 ta daftar bor. Sanab ko‘rsatadi, Zarifning qo‘lida ham o‘shancha daftar bor. Zarifning qo‘lida nechta daftar bor? (5 tta).

Bunday tushunchalarni o‘quvchilar to‘liq tushunib olganlaridan keyin “…..ta ortiq”, yoki “….ta kam” tushunchalari kiritiladi. Tahminan bunday ko‘rinishdagi masalalarni keltirish maqsadga muvofiqdir. “Naimaning qo‘lida 3 ta gul bor edi, Salimning qo‘lidagi gullar undan 1 ta ortiq. Salim qo‘lida nechta gul bor?

Yoki Dildorada 8 ta yong‘oq bor edi. Uning singlisi Dilbarda 2 ta kam yong‘oq bor. Dilbarda nechta yong‘oq bor ?” (6 ta).

Bunday ko‘rinishdagi masalarni yechish orqali o‘quvchilar berilgan miqdorlarni bevosita bir necha birlik orttirish yoki kamaytirishni o‘rganib oladilar.

Noma’lum qo‘shiluvchini topishga doir masalalar.

Noma’lum qo‘shiluvchini topishga doir masalalar tuzish va yechish malakasini shakllantirish orqali o‘quvchilarga tenglama tushunchasiga oid dastlabki poydevor hosil qilinadi.

O‘quvchilar qo‘liga bir hil turdagi bir necha predmetlarni berib, ularni yig‘indisini topish talab qilinadi.

Masalan: Bir o‘quvchining qo‘lida 3 ta daftar, ikkinchi o‘quvchining qo‘lidga 5 ta daftar berib jami (3+5=8) o‘quvchi yig‘indini bemalol topa oladi. (3-birinchi qo‘shiluvchini, 5-ikkinchi qo‘shiluvchini, 8-esa yig‘indi ekanligi tushuntiriladi. Chunki, bu ikkita sonni qo‘shamiz). Endi o‘qituvchi 8 ta daftardan 3 tasini o‘quvchilar ko‘z o‘ngida oladi va o‘quvchilardan nechta daftar qoldi deb so‘raydi (8-3=5(ta) daftar qoldi). Qolgan daftarlarni topish uchun qaysi amaldan foydalandik? -ayirish amali bilan

Keltirilgan ikkita masala solishtirilib (3+5=8 va 8-3=5 ) tuzilgan ikkita ifodaning farqi so‘raladi. Ikkinchi ifoda birinchi ifodadagi yig‘indidan birinchi qo‘shiluvchini ayirish bilan hosil qilinadi.

Endi o‘qituvchi boshqacha masala tuzadi.

8 ta daftardan 5 tasini oladi. Qolgan daftarlarni sanaydi. O‘quvchilar 8-5=3 ko‘rinishida ifoda tuzib 3 ta daftar qolganini aytishadi. Yana bu ifoda birinchi ifoda bilan solishtiriladi. 3+5=8, 8-5=3. bunda yig‘indidan ikkinchi qo‘shiluvchini ayirish natijasi ekanligi ko‘rib turibdi.

- endi o‘qituvchi partaning ustiga 5 ta daftarni sanab qo‘yadi va o‘quvchilarga bilintirmay sekingina 3 ta daftarni 5 ta daftarga qo‘shib qo‘yadi. Jami natijasini sanab, 8 ta daftar hosil bo‘lgani o‘quvchilarga ko‘rgazmali ko‘rsatadi. Ularga murojaat qilib, stolning ustiga nechta daftar bor edi?

-5ta

5 sonini o‘qituvchi doskaga yozadi.
- Nechta daftar qo‘shilgani ma’lummi?
- Yo‘k, noma’lum.
Demak, kuyidagicha yozamiz.
5 + □ = 8
-Jami daftarlar soni ma’lummi ?
5 + □ 8
-Ha, nechta (8 ta)
Darcha o‘rniga kanday son ko‘yishimiz mumkin (3 ni)
- Kanday topdik ?
Chunki 8 – 5 = 3
Huddi shunday savol javoblar bilan □ + 3 =8 8 – 3 = 5 kabi sonli ifodalarning hosil qilinishi va yechilishi tushuntiriladi. O‘kuvchilarga son ma’lumotlari to‘lik bo‘lmagan holda bajariladigan amalga ko‘ra masalalar tuzishni o‘rgatish bilan asosan o‘kituvchi ko‘shiluvchi va yig‘indini: har ikkala ko‘shiluvchi, kamayuvchi va ayiriluvchi, kamayuvchi va ayirimani erkin tanlash imkoniyatini beradi.
Ya’ni □ + □ = 8 ; 5 + = □ ; □ + □ = □; □ - □ = 5; 7 - = □ □ - 5 = □ ; ko‘rinishidagi shemalarni doskaga yozib, masalalar tuzish topshiriklarini beradi. Ko‘rinib turibdiki, bunday shema asosida masala-lar tuzish o‘kuvchilarda umumsinf jamoasi bilan ishlash , erkin fikrlash, o‘z fikrini mustakil bayon etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. 10 ichida yoki 20 ichida son ma’lumotlarini mustakil tanlash orkali o‘kuvchilarni masalalar tuzishga o‘rgatish mumkin Bunda o‘kituvchi barcha erkinlikni son ma’lumotlarini tanlash imkoniyatini o‘kuvchiga beradi. Fakat amal tanlash o‘kituvchi tomonidan bajariladi.Ya’ni □ + □ yoki □ - □ kabi shemalarga ta’lukli masalalarni tuzish talab kilinadi.

Iloji boricha har kanday turdagi masalalarni tuzishni talab kilishdan oldin o‘kituvchi namuna sifatida o‘zi masala tuzib uni birgalikda yechish tavsiya kilinadi O‘kuvchilarni berilgan shartga ko‘ra masala tuzishga o‘rgatish ularning ku-zatuvchanligini, topkirligini, aktivligi-yu idrok qilish qobiliyatlarini, rivojlantiradi. 1 – sinfda asosan qisqa shart rasm va chala matn asosida masalalar to‘zishga ko‘prok e’tibor beriladi. Ya’ni berilgan ma’lumot rasm yoki predmetlar tasvirida ifodalangan kiska yozuvlarga ko‘ra masala tuziladi.

Adabiyotlar

1. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
2. Djamshitovna X. M. Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Primary Educational Process //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – S. 192-195.
3. Djamshitovna X. M. Didakticheskiy potensial sovremennых informasionnых texnologiy v dostijenii professionalnoy kompetentnosti buduщyego uchitelya //Mejdunarodnыy jurnal kulturы i sovremennosti. – 2021. – T. 11. – S. 201-204.
4. Djamshitovna X. M. i dr. Pedagogicheskiye vozmojnosti realizasii individualnogo podxoda k nachalnomu obrazovatelnomu prosessu / / Yevropeyskiy jurnal bezopasnosti i stabilnosti jiznedeyatelnosti (2660-9630). – 2021. – T. 12. – S. 252-255.
5. Haydarova M., Yuldashev B. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATIV YONDOSHUV //Fiziko-texnologicheskogo obrazovaniye. – 2021. – №. 2.
6. Haydarova M., Yuldashev B. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATIV YONDOSHUV //Fiziko-texnologicheskogo obrazovaniye. – 2021. – №. 2.

# SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA ODDIY FOLKLORIZMLAR IFODASI

**Mamayusupova S.M. –katta o ‘qituvchisi, PhD, JDPU.**

**Annotasiya.**Ushbu maqolada oddiy folklorizmlar muammosining tasnifiy ,tahliliy jihatdan o‘rganish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** transformasiya, istilohlar,ilmiy, nazariy, muammolar, xarakterli, xususiyatlar, tendensiyalar, xalqchillik, kompozision folklorizm , ijtimoiy, etnografik.

Yozma adabiyotga maqol, matal, iboralarning ko‘chishi “oddiy folklorizmlar” deb ataladi. Oddiy folklorizmlar she’riyat poetikasidagina emas, nasriy asarlar poetikasida ham muhim rol o‘ynaydi. Oddiy folklorizm Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiiyatini ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. XX asr zamonaviy o‘zbek nasri ustalari A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Muxtor, S.Ahmad kabi ko‘plab ijodkorlar singari Shukur Xolmirzayev ham o‘z hikoyalarida xalq maqollari, matallari, topishmoqlar, xalqona obrazli, iboralardan nihoyatda mahorat bilan foydalanadi.

Maqol, matal, idiomalar, xalqona obrazli ifodalar, frazeologizmlarning yozma adabiyot tomonidan o‘zlashtirilishi, xususan, xalq maqol va matallarning she’riyatga ko‘chuvi masalasini ko‘pchilik tadqiqotchilar, masalan, T.Xo‘jayev, M.Hakimov, D.Xoliqova, L.Sharipovalar o‘rganishgan. Oddiy folklorizmning nazariy tabiatini o‘rgangan B.Sarimsoqov, I.Yormatovlar oddiy folklorizmni ikkiga bo‘lishdi. Bular asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar. Oddiy folklorizmlarni bu tipda tasniflab, nomlanishidayoq, uning nazariy tabiati oydinlashib turibdi. Ya’ni xalq maqol va matal, obrazli xalqona badiiy ifodalar (idioma va boshqalar)ning aynan o‘zidek ishlatilishi asl oddiy folklorizmlar bo‘lsa, ularning ijodkor tomonidan qaytadan o‘zgartirishlarga uchrab, yangilanishi “qayta ishlangan oddiy folklorizmlar”ni tashkil etadi. Atoqli yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida asl folklorizmlar ham, qayta ishlangan folklorizmlar ham ko‘p uchraydi. Oddiy folklorizmning har ikki turiga adibning epik turning roman, qissa, hikoya, esselaridan minglab misollar topish mumkin. Oddiy folklorizmlar she’riy asar badiiyatini yuksaltirishda, uni yetuk badiiy asar sifatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etganidek, nasriy asarlarda ham xuddi shunday ahamiyatga molikdir. O‘zbek adabiyotshunosligida oddiy folklorizmlarni o‘rganish borasida, asosan, maqol va matallarning she’riyatda ishlatilishi masalasi ko‘proq tadqiq etilgani ma’lum bo‘ldi. Vaholanki, oddiy folklorizmlar doirasiga xalq iboralari, idiomalar, xalqona oborotlar ham kirishini nazariyotchi olimlar belgilab berishgan. Shu nuqtayi nazardan yondashib, biz Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ko‘zga tashlangan asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlarni aniqlashtirishda maqol, matal, obrazli xalqona ifodalar, iboralarga ham e’tibor qaratib, tahlil qildik.

Shukur Xolmirzayevning “Nimadir yo‘q bo‘ldi” hikoyasida “o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa, qo‘ymas” maqoli ishlatilgan bo‘lsa, “Olma yemadim” hikoyasida “Og‘zining suvi keldi”, “tanglayi qurib, tili og‘zida aylanmay qolish”, “ko‘zini qismoq”, “pishillab yemoq” kabi ibora va obrazli xalqona ifodalar qatorida “bir mayizni qirqqa bo‘lib yemoq” matali o‘zlashma shaklida ishlatilgan. Hikoya kontekstida ishlatilgan mazkur oddiy folklorizmlar badiiy asar badiiyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Masalan: “Bir hafta o‘tdi. Er-xotin begonalar kabi yashashdi. Qismatulla qiynaldi, o‘rtandi: o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa, qo‘ymas. Shubhasiz, Hikmatoy ham azob chekkan bo‘lsa kerak: axir u ham Qismatullaga o‘rgangan...”. Mazkur parcha “Nimadir yo‘q bo‘ldi” hikoyasidan olindi. Hikoya qahramonlari Qismatullo va Hikmatoy bir ziyofatga borishib, muomalasi o‘zaro va o‘zgalarga nihoyatda halim, shirin juftlikni ko‘rishib, ularning orasidan ola mushuk o‘tadi. Qismatullo ularga taqlid qilib, xotinidan, o‘sha ziyofatda ko‘rgan juftning ayolidek bo‘lishni Hikmatoydan kutadi. Taassufki, ularning bir-biriga nisbatan tushunarsiz, sovuqqon

munosabati tufayli ikkalasining ham qalbidagi chinakam muhabbat darz ketadi. Begonalardek bir-birining ko'nglini qoldirib yashayotgan er-xotinning ruhiy holatini jonli ifodalash maqsadida yozuvchi xalq orasida mashhur bo'lgan "O'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas" maqolini hikoya matniga singdirib yuborgan.

Ikkinchi hikoyada esa "Bir mayizni qirq bo'lib yeyish" obrazli xalqona ifoda "Bir mayizni ikki bo'lib yeyish" shaklida biroz o'zgartirilgan holda ishlatilgan. Masalan: "Eshakka o'rnashib o'tirgan kishi bo'lib, Mo'minga qaragandim, uning yuzidan menga achinganini payqab qoldim. Darhol, ko'zimni qisdim. Bir mayizni ikki bo'lib yeydigan Mo'min do'stim fikrimni payqadi. Asta sekin eshagi menga yaqinlashib keldi". Shukur Xolmirzayev hikoya kontekstida oddiy folklorizmni yuzaga keltirar ekan, xalq og'zaki ijodida azaldan mavjud bo'lgan "Bir mayizni qirq bo'lib yemoq" obrazli xalqona ifodani o'zgartirib, o'zlashtirib, do'sti bilan "Bir mayizni ikki bo'lib yeyish" shaklida qo'llagan. Ya'ni ikki do'stning nihoyatda qadrdonligiga "Bir mayizni ikki bo'lib yeyish" qayta ishlangan oddiy folklorizm turini qo'llash orqali yozuvchi hikoya matnida ikki do'stning qadrdonligiga ishora etib, ta'sirchanlik hamda jonlilik, milliy ifodaga erishadi. Natijada, hikoya matnida oddiy folklorizm vujudga kelgan. Adib mazkur xalqona obrazli ifodani hikoyaning tarkibiy qismiga aylantira bilgan.

Shuningdek, yozuvchining "Olis yulduzlar ostida", "Sog'inch" hikoyalarida ham oddiy folklorizmning bir qancha turlari, ya'ni xalq maqollari, matallari, iboralari, obrazli ifodalar mahorat bilan qo'llanilgan. Adib xalq ijodining durdonasi bo'lgan yombi quyma obrazli, jonli, ta'sirchan frazeologizmlar va maqol-matallarni shunchaki ko'r-ko'rona ko'chirib qo'ymagan. Balki yozuvchi ularni hikoya kontekstiga nihoyatda silliqlab, ba'zan maqol, matal, iboralar matnini o'z ijodiy laboratoriyasida qaytadan ishlab, o'zgartirib, ba'zi qismlarini tushirib, yangilab, o'z ijodida oddiy folklorizmlarning ajoyib namunalarini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Misol uchun, har ikki hikoyada uchraydigan oddiy folklorizmlarga e'tibor qaratamiz.

"...Azim maktab direktori oilasidan, Ismat maktab qorovuli oilasidan; Azim goho darsdan keyin yumshoq kulimsiragancha Ismatlarnikiga borib, uni ovga taklif etar, ov deganda oyog'i kuygandek tipirchilab qoladigan Ismat unga jon-jon deb rozi bo'lar va ikkalasi toqqa chiqib ketar edi". Bu parcha "Sog'inch" hikoyasidan olindi.

Adibning "Yangi zot" hamda "Qariya" hikoyalarida ham oddiy folklorizmning asl oddiy folklorizm va qayta ishlangan folklorizm turlari talaygina uchraydi. Masalan, hikoya matnida "Olamda yo'q, o'zingda yo'q" maqolining ikkinchi qismi tushirilib qoldirilib, birinchi qism ikkinchi qism sifatida ishlatilib, birinchi qismga yozuvchining o'z so'zi qo'shilib qayta ishlangan oddiy folklorizm paydo bo'lgan. Jumladan: "...Bu mollar og'ilda ham, olamda ham yo'q mahal. Bu yigit sovxoz qoramollarini ko'zdan kechirib yurib, archali tog' ostida haybatli, semirib ketgan bir buqani ko'rib qoladi". Shuningdek, hikoya matnida "Ko'ngli buzilmoq", "ko'ngli bo'sh", "ko'zdan kechirmoq", "boshini liqillatmoq" iboralari ham uchraydi. Bu xalqona obrazli frazeologizmlar qahramon ruhiyatini tabiiy ochib berishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Ш.Холмирзаев замондошлари хотирасида. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2010 й

2.Қозоқбой Йўлдошев "Эркин сўз" Ш.Холмирзаев замондошлари хотирасида.Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи , 2010 й

3.М.Ҳамидова "Ҳозирги ўзбек адабиётида миллий қаҳрамон муаммоси"(Шукур Холмирзаев ижоди мисолида)ф.ф.н.дисс.Тошкент-2001

4. М.Имомкаримова "Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини"ф.ф.н.дисс.Тошкент-2004й

5. Холмирзаев Ш.Наврўз,Наврўз ҳикояси, Сайланма III жилд. Ҳикоялар.Тошкент: Шарқ -2009.

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARDA TARQATMA KARTOCHKALARDAN FOYDALANISH

**Masharipova U.– dotsent, PhD, Rajabova D.- talaba, TDPU.**

Mamlakatimizda amalda bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining hal qiluvchi bosqichlaridan sanaladi. Chunki ushbu bosqich o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarga fan yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilimlar beradi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Davlat ta'lim standarti bo'yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Darslarida didaktik o'yin va boshqotirmalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga defirensial yondashgan holda qiziqishlarini hisobga olib topshiriqlar beriladi.

Sinfdan tashqari ishlarda o'quv materiallarining mazmuni asosida tuzilgan tarqatma kartochkalar o'quvchilarning mustaqil izlanishiga xizmat qiladi. Ushbu kartochkalarni tayyorlashda quyidagilar hisobga olinadi:

- kartochkalar estetik jihatdan o'quvchilarni qiziqtirishi kerak;
- kartochkalarda beriladigan topshiriq va savollar o'quvchining yoshi va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lishi;
- topshiriqlar turli variantda bo'lishi;
- kartochkalardagi topshiriqlar tushunarli holda yozilgan bo'lishi, o'quvchilar ularni qiynalmay o'qiy olishi lozim;

Tarqatma kartochkalar 1-2-sinflarda rasm va yozuv shaklida bo'lsa, 3-4-sinflarda esa turli shakllarda, ko'rinishda va turli darajadagi topshiriqlar aks ettirilgan holda bo'ladi.

Masalan, 3- sinflarda ona tili fanidan "So'z tarkibi" bo'limi "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzusida o'quvchilarga tayyorlanadigan kartochkalar quyidagi ko'rinishda tuzishimiz mumkin:

| | |
|---|---|
| meva +x = mevazor | x + dosh = vatandosh |
| x = mevazor – meva | x = vatandosh - dosh |
| x = zor | x= vatan |
| meva + zor = mevazor | vatan + dosh = vatandosh |

Bu ko'rinishdagi kartochkalarni tuzishdan maqsad o'quvchilarni bilimlarini yanada mustahkamlash bilan birgalikda ularni matematik bilimlarini ham sinovdan o'tkazadi. Chunki ushbu topshiriq matematik tenglama usulida tuzilgan. Topshiriqning yana bir afzal tomoni shundaki bolalarni ko'proq fikrlashga o'rgatadi. 2-sinfda Bo'riboy Ahmedovning "Amir Temur haqida hikoya" asari yuzasidan tayyorlangan va o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun beriladigan tarqatma kartochkalar yuqoridagi fikrlarning uzviy davomi hisoblanadi.

1.Temurbek necha yoshida otasi uni Ibodulla domlaning qo'liga topshiradi?

2.Temurning otasining ismi kim edi?

3.Ibodulla domla Temurga yaxshi o’qisang kim bo’lasan deb uqtirdi?

4.Temur qancha vaqt Ibodulla domlaning qo’lida tehsil oldi?

5.Hikoya kimning bolaligi haqida ekan?

Tarqatma kartochkalarning ko‘rinishi ham o‘quvchilarga bevosita ta’sir o‘tkazadi, ularni qiziqishlarini yuzaga chiqaradi va shakllantiradi. Berilgan savollar mavzuni mustahkamlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini vujudga keltiradi. Shuningdek tarqatma kartochkalardan odobnoma va matematika darslarini tashkil qilishda ham foydalanish mumkin. Har qanday kartochkalardan foydalanishning ortida ma’lum maqsad ko‘zlanishi kerak. Bu –maqsad bolaning ma’naviy olamini boyitib, uning teran fikrlashi, mavzudagi adabiy -estetik  xususiyatini his qila olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yuksak axloqiy sifat va nafosat tuyg‘usini shakllantirishda samarali natija beradi.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING AQLIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA GRAMMATIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

**Masharipova U.– dotsent, PhD, Abduvaliyeva S.L.- talaba, TDPU.**

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim – ta’lim tizimining poydevori hisoblanib, u o‘qituvchi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki o‘quvchi keyingi ta’lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim bosqichi sifatida qaraladi. Bugungi kunda ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta’lim dunyosiga dadil kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash juda muhim. O‘quvchilarning aynan mana shu sifatlari bugungi ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Buning sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni egallash o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarda ularning egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga imkoniyat yaratiladi. Bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi uchun ham sharoit yaratiladi.

Barchamizga ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda yuksak darajadagi pedagogik mahorat hamda yetarli darajada tajriba talab etiladi. Shuning bilan birgalikda har bir o‘qituvchidan dars mazmunli va samarali o‘tishi uchun darsni to‘g‘ri rejalashtirish talab etiladi. Bunda darsning saviyasini, o‘quvchilarning esa o‘zlashtirish salohiyatini oshirishda grammatik o‘yinlarning ahamiyati katta. Grammatik o‘yinlar o‘quvchilarning bilimdonligini, topqirligini, izlanuvchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tanlangan, mavzuga asoslangan holda o‘tkazilgan grammatik o‘yinlar albatta yaxshi natija beradi. Grammatik o‘yinlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Grammatik o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak;
2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi lozim;
3. Grammatik o‘yinlarni o‘tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Grammatik o‘yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak;
5. Grammatik o‘yinlarning o‘tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda grammatik o‘yinlarni biz, asosan, ona tili darsini o‘tayotganimizda foydalanamiz. Chunki ona tili darsligida qoidalar, mavhum tushunchalar ko‘pligi tufayli o‘quvchida tushunmovchiliklar yuzaga kelishi kuzatiladi. Buni oldini olishda grammatik o‘yinlardan foydalanish bizga qo‘l keladi. Dars davomida o‘tkazishimiz mumkin bo‘lgan ayrim grammatik o‘yinlar, jumladan, boshqotirmalar, krossvordlar haqida to‘xtalib otamiz. Ularning qay darajada qiziqarli bo‘lishi oqituvchining izlanuvchanligiga, ijodkorligiga va mahoratiga bog‘liq. Masalan, o‘quvchilar bilan leksikologiya mavzusini o‘tayotganimizda foydalanishimiz mumkin bolgan “Bittami yo ko‘pmi” grammatik o‘yinini dars davomida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi qog‘ozda oldindan tayyorlab qoyilgan so‘zlarni birin-ketin o‘qiydi. O‘quvchilar esa keltirib o‘tilgan so‘zlarning bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli ekanligini aytishadi. O‘yin davomida eng ko‘p topqirlik qilgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Yana bir misol “So‘zdan so‘z yasash” o‘yini. Bunda o‘qituvchi doskaga biron so‘z yozib qo‘yadi

Bu kabi o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarni topqirlikka, balki, nutqiy rivojlanishiga ham turtki boladi. Shu bilan bir qatorda bunday grammatik o‘yinlarni o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘tkazsak, o‘quvchilarning o‘tilgan mavzularni yanada mustahkamlashga imkon yaratib beramiz.

# "HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI" FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LANISHI

**Maxmudov S.Y. – o'qituvchi, FPI.**

**Annotatsiya:**: Ushbu maqolada Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda pedagogik texnologiya qo'lanishi orqali o'quvchilarda fani tanqidiy va tahliliy fikrlarni rivojlantirishda o'quv dasturlari talablari bo'yicha muammoli yoki munozarali ishlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega

**Kalit so'zlar:** Xavfsizlik, hayot faoliyati, texnologiya, inson, tabiat, xavf, hodisa.

Bugungi kunga kelib, o'qituvchilar (pedagoglar) ko'p hollarda metodologiyani texnologiyadan ajrata olmaydilar. Shuning uchun bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar to'plamidan iborat. Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining (pedagogning) kasbiy faoliyatini yangilaydigan va oldindan belgilangan maqsad yo'nalishi bo'yicha ta'limning yakuniy natijasini kafolatlaydigan tadbirlar majmuidir.

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, bu mavzu rivojlangan mamlakatlarda u yoki bu darajada hal etilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani joriy etishga urinishlarning ma'lum bir natijasidir. Pedagogik amaliyotda texnologiya. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini uyg'unlashtirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud, chunki nazariya va amaliyotning birligi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Shuning uchun pedagogik texnologiyani pedagogikaning alohida sohasi yoki faqat ta'lim amaliyotini optimallashtirishga qaratilgan tizim sifatida qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya ushbu sohadagi nazariy va amaliy tadqiqotlarni uyg'unlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Tanqidiy va tahliliy fikrlarni rivojlantirishda o'quv dasturlari talabalari bo'yicha muammoli yoki munozarali ishlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonida munozara darslarining ikki turi qo'llaniladi: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslari. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi maktabning jadal rivojlanishi talabi bilan pedagoglarning uni amalga oshirishga qodir emasligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan bog'liq.

## "Chaynvord" uslubi

Ushbu uslubdan o'tilgan mavzu bo'yicha tinglovchilarning olgan bilimlarini mustahkamlashda foydalanish mumkin. Buning uchun mashg'ulot rahbari mavzu bo'yicha savollar tuzadi va jadvalning birinchi bo'limiga joylashtiradi. Jadvalning ikkinchi bo'limiga to'g'ri javobdagi xarflar soniga teng nuqtalar qo'yiladi. Tuzilgan savollar jadvalga shunday joylashtiriladiki, to'g'ri javoblarning oxirgi harfi keyingi javobning bosh harfiga to'g'ri kelishi kerak.

**Mavzu**: Favqulodda vaziyatlar.

| | |
|---|---|
| Geologik xavfli hodisa | . . . . . . . |
| Bilimlarni mustahkamlash jarayoni | . . . . . . . |
| Yer yuzida eng ko'p yuz beradigan zilzila turi | . . . . . . . . |
| Tog', yonbag'irliklarda ko'p yuz beradigan xavfli hodisa | . . . . . |
| Texnogen favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omil | . . . . . |
| Radioaktiv zararlanish | . . . . . . . . |
| Daryo, irmoqlarning xavfli tarzda pastga quyilishi | . . . . . . . |

| | |
|---|---|
| O‘zbekiston hududida yuz bergan eng kuchli zilzila nomi | ....... |
| Xirosimaning egizagi | ........ |

Tinglovchilar berilgan topshiriqni bajarish tartibi bilan tanishtiriladi va ularning topshiriqni bajarish jarayoni kuzatib boriladi. Yakunda jadval quyidagi ko‘rinishga keladi:

| | |
|---|---|
| Geologik xavfli hodisa | **Z**ilzil**a** |
| Bilimlarni mustahkamlash jarayoni | **A**maliyo**t** |
| Yer yuzida eng ko‘p yuz beradigan zilzila turi | **T**ektoni**k** |
| Tog‘, yonbag‘irliklarda ko‘p yuz beradigan xavfli hodisa | **K**o‘chk**i** |
| Texnogen favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omil | **I**nso**n** |
| Radiaktiv zararlanish | **N**urlani**sh** |
| Daryo, irmoqlarning xavfli tarzda pastga quyilishi | **Sh**arshar**a** |
| O‘zbekiston hududida yuz bergan eng kuchli zilzila nomi | **A**ndijo**n** |
| Xirosima egizagi | **N**agasak**i** |

Ushbu uslub orqali tinglovchilarning mashg‘ulot davomidagi zerikarli ishtirokiga o‘zgartirish kiritish, ko‘rib o‘tilayotgan mavzu davomida o‘zlashtirib borish darajasini oshirish va olingan bilimlarni yanada mustahkamlashlariga erishish mumkin. Chunki “Chaynvord” uslubi orqali tinglovchi o‘zini sinf xonasidan darhol o‘z uyiga, ishxonasiga yoki sevimli transportiga ko‘chib o‘tgandek xis qiladi.

**“Muammo” texnologiyasi**

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o‘quvchi)larga predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishni o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba’zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos ta’lim texnologiyalarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoning kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

O‘quvchi yoki talabalarni guruhlarga ajratib, ularni mos o‘rinlariga joylashtirgandan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya’ni u mashg‘ulotning bosqichli bo‘lishini va har bir bosqich talaba (yoki o‘quvchi)lardan maksimum diqqat-e’tibor talab qilishini, mashg‘ulot davomida ular yakka va jamoa bo‘lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat talaba (yoki o‘quvchi)larning berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg‘otadi. Mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg‘ulot boshlanadi:

- talaba (yoki o‘quvchi)lar tomonidan mashg‘ulot uchun tayyorlangan kino lavha diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab qo‘yish (agar kinofilm ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lmasa u holda o‘qituvchi predmetining mavzusi bo‘yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi materialdan foydalanishi mumkin);

- har bir a’zo ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A3 formatdagi qog‘ozga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ish guruh vakili tomonidan o‘qib eshittiriladi;
- o‘qituvchilar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi;
- tarqatilgan qog‘ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir a’zosi o‘zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi; o‘qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir a’zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

| **Vaziyat turi** | | **Vaziyatdan chiqib ketishda sizning harakatlaringiz** | **Vaziyatdan chiqib ketishda uchraydigan qiyinchiliklar** |
|---|---|---|---|
| Qor ko‘chkisi ostida qoldingiz | | Imkon darajasida qor ostida bo‘shliq yaratish, biror jism yoki so‘lak orqali yer va qor ko‘chkisi tepa yuzasini aniqlash va yuzaga chiqishga harakat qilish | Qor massasinnig zichligi, olingan jarohatning og‘irligi, ruhiy holat va h.k. |

Yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so‘ng har bir talaba (yoki o‘quvchi) bajargan tahliliy ishini barchaga o‘qib eshittiradi;

- muammolar va ularning yechimi bo‘yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- himoyadan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Kichik guruhlarga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi. Tanqidiy va tahliliy fikrlarni rivojlantirishda o'quv dasturlari talabalari bo'yicha muammoli yoki munozarali ishlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega bunday texnologiya bilan o‘tkazilgan mashg‘ulot natijasida har bir talaba (yoki o‘quvchi) qaysidir muammoni yechishdan avval uning sababi aniqlanishi kerakligini, keyin esa o‘ziga zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyasi va usullarni tanlashi hamda uning harakatlarini aniq belgilab olishi kerakligini bilib oladi. Yuqoridagi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda Hayot faoliyati xavfsizli faniga qiziqishlarini ortirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida): Ped. fan. dokt diss. avt. –T., 2006, - 49 b. 49.
2. Bazarova S.D. Oliy texnik ta’limda kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining tizimli asoslanishi: Ped. fan. dokt diss. avt. –T., 2009 - 36 b.
3. Rahnomoyevich, D. M., & Yusufalievich, M. S. (2021). Life Safety As A Secure Way Of Interaction With The Environment.*The American Journal of Applied sciences*,*3*(04), 208-213.
4. Yusufalievich, M. S., & Maripjon o‘g‘li, X. O. (2022). Natural Emergency Situations and Protection of the Population from their Effects.*Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*,*3*(5), 379-383.
5. Махмудов, С. Ю. (2017). Проблемы преподавания безопасности жизнедеятельности в вузах.*Достижения науки и образования*, (2 (15)), 48-50.

# BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA FUNKSIYA VA KETMA-KETLIK TUSHUNCHALARINI O‘RGANISH

**Mavlonov A.O‘.– o‘qituvchi, TAFU.**

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga matematika darslarida funksiya va ketma-ketlik tushunchalarini o‘rganishda quyidagi ma’lumotlarni Innovatsion texnologiyalarni qo’llagan holda nazariy mashg’ulotlarni o’quv amaliyoti bilan uzviy bog’liqligini ta’minlashga bog‘lab o‘qitish maqsadga muvofiq.

**1-ta'rif.** $A$ va $B$ to‘plamlarning dekart ko‘paytmasi deb shunday to‘plamga aytiladiki, uning elementlari tartiblangan juftliklardan iborat bo‘lib, bu juftliklarning birinchi elementar $A$ to‘plamdan, ikkinchilari $B$ to‘plamdan olingan bo‘ladi. Dekart ko‘paytma $A\times B$ shaklda ifoda etiladi, ya'ni

$$A\times B=\{(a;b): a\in A,\ b\in B\ \}.$$

Shuni ta'kidlash lozimki, agar $A\neq B$ bo‘lsa, $A\times B\neq B\times A$ bo‘ladi.

Xuddi shunga o‘xshash $A_1, A_2,\dots,A_n$ $n$ ta to‘plamning dekart ko‘paytmasi $A_1\times,\ A_2\times,\ \dots\times A_n$ to‘plamni aniqlashimiz mumkin:

$$A_1\times,\ A_2\times,\ \dots\times A_n=\{(a_{1,}\ a_{2,\dots}\ a_{\text{n}}\ ): a_i\in A_i,\quad i=1,2\dots,n\ \}$$

**2- ta'rif.** Faraz qilaylik $f\subset A\times B$. Agar $(a,b)\in f$ va $(a,c)\in f$ ekanligidan $b=c$ tenglik kelib chiqsa, u holda $f$ - akslantirish deyiladi.

$(a,b)\in f$ ekanligini $f(a)=b$-ko‘rinishida ham ifoda etish mumkin. $A\times B\supset f$ akslantirishning aniqlanish sohasi deb quyidagi to‘plamga aytiladi:

$$D(f)=\{a: a\in A,\ \exists\, b\in B,(a,b)\in f\}$$

$A\times B\supset f$ akslantirishning o‘zgarish (qiymatlar) sohasi -$E(f)$ deb, quyidagi to‘plamga aytiladi: Ushbu

$$E(f)=\{b: b\in B,\exists a\in A,(a,b)\in f\}=\{f(a): a\in D(f)\}$$

to‘plam, $f$-akslantirishning o‘zgarishi, qiymatlar sohasi deb yuritiladi.

Agar $f$ - akslantirish uchun $D(f)=A$ bo‘lsa, u holda $f$ $A$ to‘plamni B to‘plamga akslantiradi deyiladi, bu holat $f: A\to B$ ko‘rinishda ifoda etiladi.

Agar $f: A\to B$ akslantirish uchun $E(f)=B$ bo‘lsa, bunday akslantirish ustiga akslantirish deyiladi.

Agar $f(a)=b$ va $f(c)=b$ tengliklardan, $a=c$ tenglik kelib chiqsa, $f$ - akslantirish o‘zaro bir qiymatli akslantirish deyiladi.

Agar $f: A\to B$ akslantirish o‘zaro bir qiymatli ustiga akslantirish bo‘lsa, bunday akslantirish ekvivalentlik munosabati deyiladi. Bu holda $A$ va $B$ to‘plamlar ekvivalent yoki teng quvvatli to‘plamlar deyilib, $A \sim B$ shaklda ifoda etiladi.

**3- ta'rif.** Agar $f\subset R\times R$ bo‘lsa, u holda $f$ - akslantirish funksiya deyiladi.

$(x,y)\in f$ bo‘lganda, $y=f(x)$ ko‘rinishda yozilib, $x$-erkli o‘zgaruvchi yoki argument, $y$-bog‘liqli o‘zgaruvchi yoki funksiya deyiladi.

Demak, funksiya deb, aniqlanish va o‘zgarish sohalari sonli to‘plamlardan iborat bo‘lgan akslantirishga aytilar ekan.

Funksiyaga odatda quyidagicha ta'rif ham beriladi:

X va Y haqiqay sonlar to‘plamlari bo‘lsin. Agar X to‘plamdagi har bir $x$ songa biror $f$-qoida yoki qonunga ko‘ra Y to'plamdagi bitta $y$ son mos qo‘yilgan bo‘lsa, X

to'plamda funksiya berilgan deb ataladi va $y = f(x)$ kabi belgilanadi. Demak funksiya ikki to'plam orasidagi moslikni ifodalaydi.

Bu yerda, X to'plam funksiyaning aniqlanish sohasi, Y esa **o'zgarish** sohasi deyiladi.

Bu ta'rifning yuqoridagi 9-ta'rifga teng kuchli (ekvivalent) ekanligi, $f = \{(x, f(x)) : x \in X\}$ tenglikdan bevosita kelib chiqadi.

Funksiyaning berilish usullari turlicha bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Agar $y$-bog'liqli o'zgaruvchi bilan $x$-erkli o'zgaruvchi orasidagi bog'lanish formula orqali ifodalansa, u holda, funksiya analitik usulda, ya'ni $y = f(x)$ tenglik ko'rinishida, berilgan deyiladi,

Masalan, $f = \{(x, x^2) : x \in R\}$ funksiyani $y = x^2$ ya'ni $f(x) = x^2$ formula orqali berish mumkin.

**4-ta'rif**. Analitik usulda berilgan $y = f(x)$ funksiyaning aniqlash soxasi deb, $x$ argumentning shunday qiymatlar to'plami $D(f)$ ga aytiladiki, bunda har bir $x \in D(f)$ uchun $y$ ning qiymati chekli va haqiqiy son bo'lishi lozim.

$D(f) = \{x : f(x) -$ chekli va haqiqiy$\} = \{x : f(x) \in R\}$.

Masalan, $f(x) = \frac{1}{\sqrt{x}}$ funksiya uchun $D(f) = (0, +\infty)$ bo'ladi, chunki $x < 0$ bo'lsa $\sqrt{x}$ - haqiqiy son bo'lmaydi va $x = 0$ bo'lsa $\frac{1}{\sqrt{x}}$ chekli son bo'lmaydi.

2. Funksiyaning jadval ko'rinishda berilishi.

Masalan, $f = \{(0,1);(1,3);(2;-5)\}$ funksiya berilgan bo'lsa, uni quyidagi jadval shaklida berish mumkin.

| $x$ | 0 | 1 | 2 |
|---|---|---|---|
| $f(x)$ | 1 | 3 | -5 |

3. Funksiyaning grafik usulda berilishi. Bu holda $f = \{(x, f(x)) : x \in D(f)\}$ to'plam tekislikdagi, dekart koordinatalar sistemasida $(x, f(x))$ nuqtalarni belgilash natijasida hosil bo'lgan to'plam shaklida beriladi. Bu to'plam funksiya grafigi deyiladi.

Masalan, $f(x) = x^2$ funksiyani grafik usulda bersak, u quyidagicha bo'ladi:



4. Funksiyani biror qonun yoki qoida yordamida bayon qilish bilan ifodalash. Masalan, Dirixle funksiyasi deb nomlanuvchi funksiya quyidagicha beriladi:

$$f(x) = \begin{cases} 1, & agar\ x\ ratsional\ son\ bo'lsa \\ 0, & agar\ x\ irratsional\ son\ bo'lsa \end{cases}$$

**5-ta'rif.** Agar barcha $x \in D(f)$ uchun $f(-x) = f(x)$ $(f(-x) = -f(x))$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda $f$ - funksiya juft (toq) funksiya deyiladi.

Masalan, $f(x) = x^2$ –juft funksiya, $f(x) = x^3$ - toq funksiya bo'ladi.

Funksiya toq ham, juft ham bo'lmasligi mumkin:

Masalan: $f(x) = |x| + \sin x$, $y = 1 + x$;

**6-ta'rif.** Agar $\exists M > 0$ bo'lsaki $\forall x \in X$ uchun $|f(x)| \le M$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $f$ -funksiya $D(f) \supset X$ to'plamda chegaralangan funksiya deyiladi.

**7-ta'rif.** Agar shunday musbat $T$ son mavjud bo'lsaki, $\forall x \in D(f)$ uchun $x \pm T \in D(f)$ bo'lib, $f(x \pm T) = f(x)$ tenglik o'rinli bo'lsa, bunday funksiyaga davriy funksiya deyiladi. Bunday $T > 0$ sonlarning eng kichigi $f(x)$ funksiyaning davri deyiladi.

Masalan, $f(x) = \sin x$ funksiyasi chegaralangan, davri $T = 2\pi$ bo'lgan davriy funksiyadir, chunki istalgan $x$ uchun $|\sin x| \le 1$ $(M = 1)$ bo'lib, $\sin(x \pm 2\pi) = \sin x$ tenglik o'rinlidir.

**8-ta'rif.** Agar $\forall x_1 \in \mathrm{X}$, va $\forall x_2 \in \mathrm{X}$ uchun, $x_1 < x_2$ tengsizlikdan $f(x_1) < f(x_2)$ $(f(x_1) > f(x_2))$ tengsizlik o'rinli ekanligi kelib chiqsa, $f$ funksiya $D(f) \supset \mathrm{X}$ to'plamda o'suvchi (kamayuvchi) funksiya deyiladi. Agar ta'rifda $\mathrm{X} = D(f)$ bo'lsa, funksiya o'suvchi (kamayuvchi) funksiya deyiladi. Bunday funksiyalar monoton o'suvchi (kamayuvchi) funksiyalar ham deyiladi.

Masalan, $f(x) = \sin x$ funksiya $\left(-\frac{\pi}{2}, \frac{\pi}{2}\right)$ intervalda o'suvchi, $\left(\frac{\pi}{2}, \frac{3\pi}{2}\right)$ intervalda esa kamayuvchi funksiyadir. $f(x) = x$ funksiya o'suvchi, $f(x) = -x$ funksiya esa kamayuvchi funksiya bo'ladi.

**9-ta'rif**. Natural sonlar to'plamida aniqlangan f funksiyaga sonlar ketma-ketligi deyiladi, ya'ni,

$$f : N \to R.$$

Agar $x_n = f(n)$, $n \in N$, deb belgilash kiritsak, sonlar ketma-ketligini, $\{x_n\}_1^\infty$ yoki $x_1, x_2 ..., x_n ...$ ko'rinishda ifoda etish ham qabul qilingan. Bu yerda $x_n$ -ketma-ketlikning n-hadi deyiladi.

Masalan, $f(n) = \frac{1}{n}$ ketma-ketlikni $\left\{\frac{1}{n}\right\}_{n=1}^\infty$ yoki $1, \frac{1}{2}, \frac{1}{3}, ..., \frac{1}{n}, ....$ ko'rinishlarda ifoda etish mumkin. Bu ketma-ketlik monoton kamayuvchi, chegaralangan ketma-ketlik bo'ladi, chunki $n \in N, m \in N$ uchun n<m bo'lsa $\frac{1}{n} > \frac{1}{m}$ bo'lib, istalgan $n \in N$ uchun $\frac{1}{n} \le 1$ tengsizlik o'rinli bo'ladi.

$X = \{(x_1, x_2, \ldots, x_n) : x_1 \in A_1, x_2 \in A_2, \ldots x_n \in A_n\}$, $A_i \subset R$, $i = \overline{1, n}$ va $B \subset R$ to'plamlar berilgan bo'lsin.

**10-ta'rif**. Agar biror *f*- qoida va qonunga ko'ra X to'plamning har bir $(x_1, x_2, \ldots, x_n)$ elementiga, B to'plamning aniq bir $y$ qiymati mos qo'yilca ko'p o'zgaruvchili (n-o'zgaruvchili) $y = f(x_1, x_2, \ldots x_n)$ funksiya berilgan deyiladi.

Masalan, $f(x, y) = x^2 + y^2$ ikki o'zgaruvchili funksiya bo'ladi yoki quyidagi funksiya $f(x_1, x_2, \ldots, x_n) = x_1^2 + x_2^2 + ... + x_n^2$ n o'zgaruvchili funksiyaga misol bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жураев Т.Ж., Худойберганов Р.Х., Ворисов А.К., Мансуров Х. Олий математика асослари. Дарслик. - Т.: Ўзбекистон. 1999. – 290 бет.
2. Ермаков В.И. Общий курс высшей математика для экономистов. –Н.: 2010.- 575 стр.
3. Sharaxmetov Sh., Asraqulova D.C., Qurbonov J.J., Iqtisodchilar uchun oliy matematikadan masalalar to'plami. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU. 2006. – 226 бет.
4. Соатов Ё.У. Олий математика - Т.: Ўқитувчи. 3-жилд. 1996. – 640 бет.
5. Минорский И.П., Сборник задач по высшей математике. -М.: 2004. -368 бет.

# BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI TOPSHIRIQLAR (MASALA YECHISH) AHAMIYATI

**Meyliyev S.X. – dotsent,**
**Hamidullayeva H.B., Qurbonova S.M. - talabalar, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich matematika darslarida qiziqarli topshiriqlar (masala yechish) ahamiyatini o‘z ichiga oladi. Bu qiziqarli topshiriqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish darsning mazmunini va qo‘yilgan maqsadini o‘qituvchining ko‘magisiz aniqlaydilar va mustaqil ravishda bajaradilar.

**Kalit so‘zlar**: ta`rif, Teorema, xulosa, tushunchalar, aksioma, kriteriya va konsepsiyalar.

Ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishning asosiy maqsad va vazifalari har tomonlama yetuk, yuksak insoniy fazilatlarga ega shu bilan birga o‘z kasbini fidoiysi bo‘lgan mutaxassislarni tayorlash hisoblanadi.

Hozirgi kunda barcha maktab ta’lim muassasalarini boshlang‘ich sinf matematika darslarini o‘qitish, nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash borasida har bir o‘quvchini o‘tilgan mavzuga tegishli masalalar yechishga e’tiborini kuchaytirish o‘qituvchiga juda katta ma’suliyat yuklaydi[1].

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan ollayin va oflayin ta’limda o‘tilgan mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni (qiziqarli masala, test va b.) har bir o‘quvchi tomonidan mustaqil bajarilganligini nazorat qilib borish juda muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchiga boshlang‘ich sinf matematika darslarini o‘qitish jarayonida olgan bilimlarini baholash va ularni fanga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish an’anaviy dars jarayonlarida ancha qiynchilik tug‘diradi, buning oldini olish uchun har bir o‘quvchini o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib qiziqarli masala va topshiriqlar beriladi hamda bu masalalarni yechishga, nazariy darslarni o‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish va hayotiy masalalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi ta’lim jarayonida o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni matematika fanidan qiziqishlarini ortirish uchun internet tarmog‘ida ishlash imkoniyatlarini ham inobatga olgan holda topshiriqlarni tayorlashi kerak va dars jarayonida ya’ni dars jarayonida ishlashga imkoniyati bo‘lmagan o‘quvchilar bilan telegramm tarmog‘idan foydalangan holda o‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli ma’lumotlarni imkon qadar yetkazib berib boradilar[2, 3].

Matematika darslarida masalalar yechishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalaridan kelib chiqib, murakkablik darajasi turli xil bo‘lgan masalalardan foydalanish o‘quvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashga undaydi.

Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib, o‘qituvchi tomonidan bir nechta o‘quv adabiyotlardan o‘tilgan mavzularga tegishli masalalar, savollar va testlar tayyorlanishi kerak. Umuman olganda dars jarayonida o‘tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida topshiriqlar taqdimotlar testlar o‘quvchilarga o‘z vaqtida taqdim qilib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qiziqarli matematika darsining –Boshlang‘ich sinf matematika darslariga tegishli masalalar va ularning yechimlaridan namunalar keltiramiz[4].

**1. Masala:** Bobo 56 yoshda, nabirasi 14 yoshda. Necha yildan keyin bobo nabirasidan ikki marta katta bo‘ladi?

Yechilishi: Masalani shartiga asosan Bobosi 56 yoshda nevarasi 14 yoshda, necha yildan keyin boboni yoshi nevarani yoshigan 2 marta katta bo‘lishini topishimiz kerak ?

Buning uchun bobosini yoshlariga ma'lum bir yosh qo'shilganda albatda nevarasini yoshlariga ham qo'shiladi.

Quyidagicha tenglama tuzamiz : $56+x=(14+x)\cdot 2$,

$$56+x=28+2x$$

$$56-28=2x-x$$

x= 28 yoshdan keyin bobosini yosh nevarasini yoshidan 2 marta katta bo'ladi. Javob 28yil.

**2. Masala:** Toshbaqa 1 minutda 50sm yo'l bosadi. U 0,1 km masofani qancha soatda bosib o'tadi?

Yechilishi: Berilgan toshbaqa 1 minutda 50 sm yo'l bosadi.

0,1 km masofani qancha vaqt oralig'ida bosib o'tadi.

Buning uchun masalada qatnashgan kattaliklarni bir birlikga keltirib olamiz.

50 sm =50:100 = 0,5 m

0,1km masofani metr birligiga o'tkamiz 0,1km = 0,1·1000m =100 m

Bir minutda 0.5 metr masofani bosadi

x minutda 100 metr masofani bosadi. U holda 100 m =0,5m·x bundan kelib chiqadiku,

x= 100 m : 0,5 m = 200 min Bu topilgan vaqtni masalani shartiga asosan soatda ifodalaydigan bo'lsak 200 : 60 =60·3+20 ya'ni 3 soatu 20 minutda bosib o'tadi.

Javob.3 soat 20 minut.

**Boshlang'ich sinf matematika darslarida mavzuga doir qiziqarli topshiriqlar, masalalarni yechish natijasida:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchillarida har bir o'quvchi berilgan masalani o'z qobiliyatidan kelib chiqib, mustaqil ishlash bilan shug'ullanadi.
2. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganligi va amaliyotga qo'llay olish qobiliyati o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi.
3. Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tish jarayonida internet tarmog'idan foydalanib har bir o'quvchiga qiziqarli topshiriq va masalalar oldindan berilib borilsa, shunigdek ota - onalarni nazoratiga olinsa dars samaradorligi oshirilib boriladi.
4. O'qituvchini har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imkoniyati yaxshi bo'ladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida qiziqarli topshiriqlar (masala yechish) ahamiyati:

1. Boshlang'ich sinf matematika darslarida qiziqarli topshiriqlar masalalar testlarni dars bo'lishidan oldin o'quvchilarga telegram kanali orqali berish internetni ishlash tezligini ayrim joylarda pastligi yoki umuman bo'lmasligi sababli o'quvchilar bilan dars o'tish va topshiriqlarni bajarishda murakkabliklar paydo bo'ladi.
2. Boshlang'ich sinf matematika darslarida qiziqarli topshiriqlar, masalalar testlarni o'z vaqtida beraolmaslik hamda ularni tahlil qilishdagi ayrim kamchiliklar o'qituvchi - talaba o'rtasida jonli muloqatni yetarli darajada amalga oshira olmaslik ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribali o'qituvchi har bir o'quvchilarning o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda, turli xil metodlarni, qiziqarli savol va topshiriqlarni, masalalarni, testlarni dars jarayoniga qo'llagan holda dars o'tishni yo'lga qo'yilishi va o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini ortirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil. 312 b
2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2014 yil., 160 bet.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIK KECHA VA VIKTORINALAR TASHKIL ETISH

**Meyliyev S.X. – dotsent,**
**Ortiqova S.S., Xolmamatov J.A. - talabalar, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik kecha va viktorinalarni tashkil etishda o‘ziga xos yondoshuvlarni o‘z ichiga oladi. Ular matematik kechalar va viktorinalar vazifalarining mazmunini va qo‘yilgan maqsadlarni o‘qituvchining ko‘magisiz aniqlaydilar va mustaqil ravishda bajaradilar.

**Kalit so‘zlar**: ta`rif, teorema, xulosa, tushunchalar, aksioma, kriteriya va konsepsiyalar.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishiga erishishi, umumta’lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O‘quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlarni yaxshi o‘zashtirishlari uchun boshlang‘ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashish uchun boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur[3, 4].

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini orttiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga, tanqidiy fikrlashga, o‘zini namoyon etishda va xulqini yaxshilashga ta’sir etadi. Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda, o‘quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mantiqiy tafakkurini oshirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turi bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi[5]. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko‘proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. O‘quvchilarda matematikaga va uning tadbiqlariga qiziqish uyg‘otish.
2. O‘quvchilarning matematikadan dastur bo‘yicha bilimlarini kengaytirish.
3. O‘quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarni hosil qilish.
4. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash.
5. O‘quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish.
6. O‘quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmati haqidagi, matematika maktabining dunyo fani orasidagi yetakchilik roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganligidan, uning anchagina qismini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Maktab tajribasida matematikadan kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan bajariladigan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi.

1. Qiziqarli matematika soatlari va daqiqalari.

2. Matematik to'garaklar uyushtirish.
3. Matematika gazetasi chiqarish.
4. Ekskursiya o'tkazish.
5. Matematik burchak tashkil qilish
6. Matematika kechalari o'tkazish.
7. Boshlang'ich maktablarda matematika olimpiadasi o'tkazish.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi.

1. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko'nikmalarini hisobga olgan holda o'tkaziladi
2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o'quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o'quvchilarning individual talablarini qanoatlantirish maqsadida o'tkaziladi.
3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish shakliga ko'ra darslardan farq qiladi va ko'pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar uyushtirishdagi dastlabki qadam qiziqarli matematika soatlari va daqiqalaridir. O'quvchilar qiziqarli matematika soatlarida odatdagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko'tarinki ruh bilan ishlaydilar. Bunday mashg'ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo'lishi kerak. Bu malakalarda qiziqarli matematikaga doir ko'rsatma qurollar: sanash jadvallari, figuralarni sanash, devoriy oyna formasidagi o'yinlar, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o'quvchilarga katta yordam beradi[4].

Matematika kechalarini matematika to'garagining hisoboti tariqasida, shuningdek o'quvchilar hisoblashlarni yozma va og'zaki hollarini o'rganib olganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Uning maqsadi o'quvchilarning matematikadan bilimlarini amalda tadbiq qilish qobiliyatlari, og'zaki va yozma, tez hisoblash ko'nikmalari, fazoviy tasavvurlarini hisobga olishdan iboratdir. Matematik kechalarni matematika to'garagining hisoboti xarakterida o'tkazish mumkin. Kechaning maqsadi o'quvchilarning matematikadan bilim malakalari, nazariyani amalda tadbiq qilish qobiliyatlari, og'zaki va yozma hisoblash ko'nikmalarini, fazoviy tasavvurlari, geometrik tushunchalaru va boshqalarni hisobga olishdan iboratdir. Matematik kechani ikki bo'limdan iborat qilib, maktabdagi I – IV sinf o'quvchilarini qatnashtirib o'tkazish mumkin [5, 6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқи. // Халқ сўзи газетаси, 2017у 16 январ
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil. 312 b
3. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2014 yil., 160 bet.
4. Axmedov M., Abduraxmonova N.,Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Metodik qollanma. Toshkent. "Turon iqbol" 2008 yil
5. S.Burhonov va boshq. Uchinchi sinf matematika darsligi. T., "Sharq" 2012 y
6. Jumaev M. E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2013 yil.

# BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

**Miltikboyeva Z.U. –magistrant, TDPU.**

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishning dolzarbligi bayon etilgan. Shuningdek kreativ tafakkurni shakllantirishning bir nechta metodlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, kreativlik, kreativ tafakkur, metod.

O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash haqida so'z yuritar ekanmiz o'quvchilarni nafaqat har tomon lama yetuk, ilm asoslarini mukammal egallagan balki kreativ fikrlay oladigan, g'oyaviy jihatdan chiniqqan, kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxasisi qilib tarbiyalash bugungi kuning asosiy talabidir.

Kreativlik lotincha "create"- yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor degan ma'nolarni ifodalaydi. Kreativlik- individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo' llab-quvvatlash;
2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
3) shaxs fantaziyasi va tasawurining yuqori baholanmasligi;
4) boshqalarga tobe bo'lish;
5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

O'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'tadi. Ammo bu jarayonda o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi talab etiladi . Negaki ayni shu jarayonda o'qituvchi o'zi bilmagan holda bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishdan to'sib qo'yishi mumkin. Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, bolalarda kreativlikni rivojlantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama harakterga ega bo'lib o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi.

Quyida o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish uchun bir nechta metodlarni keltiramiz.

Birinchi misol: O'quvchilar ko'pburchaklar mavzusini o'rganish jarayonida o'qituvchi ularni maktab hovlisiga olib chiqadi, qo'llariga bo'r berib, yo'lakka turli xil ko'pburchaklarni chizishni topshiradi. Topshiriqni bajarishgach ularga bu shaklni o'zlari yoqtirgan narsaga aylantirishlarini aytadi. O'quvchilar bu shakllarni geometrik shakldagi mushukchalar,

robotlar, va shunga o'xshash narsalarga aylantiradilar va ularni nima uchun yoqtirishlari so'raladi . Bu orqali o'quvchilarning ijodkorligi rivojlantiriladi.

Ikkinchi misol: O'quvchilarga muzlash tushunchasini o'rgatish jarayonida o'qituvchi o'quvchilardan " Faqat suv muzlaydimi?" deb so'raydi. O'quvchilar esa navbat bilan muzlashi mumkin bo'lgan narsalarni aytishadi. O'qituvchi o'quvchilarni qiziqtirish maqsadida tajriba sifatida ba'zi narsalarni tashqarida qoldirishni taklif qiladi. O'quvchilar ro'yxat tuzadilar suv, sharbat, yelim, sirka, tish pastasi, oyna tozalagich, qog'oz. Ertasi kuni ular tajriba natijalarini muhokama qiladilar. O'quvchilar o'rtasidagi nima muzlab qolishi haqidagi muhokama o'z g'oyalarini himoya qilish va murosaga kelish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ushbu muhokama deduktiv mulohazalarni va faol tinglashni rag'batlantiradi.

Xulosa. Kuzatish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldim. Hozirgi paytda o’quvchilarni kretiv fikrlashga o’rgatish zamon talabiga aylanmoqda. Bunday fikrlashga o’rgatish, albatta, boshlang’ich ta’lim o’qituvchisiga bog’liq va katta mahurat va mas’ulyat talab etiladi. O’qituvchi o’quvchilarning qiziqishlariga e’tibor berishi va muttasil shug’ullanib borishi kerak.O’quvchilarning yanada qiziqishini orttirish uchun rag’batlatirishi va qulay shart-sharoit yaratib berishi kerak.Bu jarayonda o’qituvchi albatta ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi kerak.Shundagina o’quvchilarda yanada kretiv fikrlash qobiliyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. Innovatsion ta"lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha
3. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'lanma. -T.: Fan, 2GG5, 66 b. 4.Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok.dis. -Toshkent, 2GG3. - 276 b.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA TEXNOLOGIYA DARSLARINING AHAMIYATI (2-sinf darsligi misolida)

**Mirsaidova M. – assistant, O’FPI.**

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan texnologiya darslari bolaning mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyatining yaxshi rivojlanishini, kelgusida axloqan sof inson bo‘lishiga yordam beruvchi immunitetni shakllantirishni talab qiladi. Texnologiya fani orqali yosh avlodni yaratuvchanlikka, inson va texnologiya orasidagi aloqalarni rivojlantirish ko‘nikmasini shaklllantirish bilan birga, bolada estetik tarbiyani axloqiy tarbiyani rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu mavzuning muhim tomonlaridan yana biri shundaki, axloqiy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalangan insonni salbiy kuchga ega bo‘lgan g‘oya to‘g‘ri yo‘ldan qaytara olmaydi, chunki, uning fikr-hayolida faqat ijobiy bo‘lgan fikr, shuurida esa vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘usi yotadi.

**Kalit so‘zlar:** mehnatga muhabbat, milliy qadriyat, axloq, odob, texnologiya darslari, vatanga muhabbat, ajdodlar merosi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni mustaqil fikrlay olish darajasiga yetkazishga katta e’tibor qaratilayapti. Yangi jamiyat qurishda ta’lim-tarbiya, hozirgi vaqtda esa axloqiy tarbiya mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-g‘oyaviy, ma’naviy-madaniy hayotida, ayniqsa, yosh avlodni barkamol inson qilib yetishtirishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyatimizning kelajagi bo‘lmish yosh avlodni ona Vatanga sadoqatli, vatanparvar, bir so‘z bilan aytganda komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu esa o‘z navbatida Respublikamiz o‘qituvchilari va murabbiylaridan tinimsiz mehnatni zamonaviy talablar asosida ta’lim-tarbiyani amalga oshirishlarini pirovar natijada haqiqiy vatanparvar yoshlarni shakllantirishni taqozo etadi. Bu borada hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari o‘rinlidir: “Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”.[11]

Inson shaxsini har tomonlama yetuklikka erishishda, o‘sib kelayotgan yosh avlodga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini singdirishda milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor tuyg‘ularini kamol toptirishda ona tili va o‘qish savodxonligi fanining o‘rni beqiyosdir. Ayni paytda ona tili fani oldiga qo‘yilgan talab o‘quvchining ijtimoiy komunikativ savodxonligini rivojlantirish bilan birga, ijtimoiy jihatdan shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon ma’naviy barkamol, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqatli shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Vatan tuyg‘usini shakllantirish, uni yosh avlod ongida va nozik qalbida jo‘sh urdirish, bugungi kundagi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Nima uchun yosh avlodda axloqiy tarbiya orqali o‘z ona vataniga muhabbat hissini uyg‘otish, ularga vatan haqidagi tushunchalarni texnologiya darslari orqali berishni boshlang‘ich sinfdanoq boshlashimiz kerak? Chunki, bola tarbiyasiga nafaqat oila va maktab hayoti, balki u yashayotgan muhit ta’sir etadi, ushbu muhit ta’sirida tarbiyalanadi. Hozirgi kundagi muhit esa faqat ijobiy holatlardan iborat emas, balki salbiy ta’sir etuvchi holatlar ham mavjud. Masalan, diniy ekstremizm va aqidaparastlik, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, zo‘ravonlik, OITS va jangarilikni targ‘ib etuvchi kinofilmlar, internet orqali

---

[11] *(МирзиёевШ.М. уқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи(2020 йил 30 сентабрь).*

berib kelinayotgan, bizning g‘oyamizga mutlaqo teskari bo‘lgan mafkurani targ‘ib etuvchi vositalarni paydo bo‘lishidir. Xuddi ana shu holat yosh avlodga boshlang‘ich sinfdanoq har bir dars orqali axloqiy tarbiya berishni taqozo etmoqda.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turish, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq kishidan har xil vaziyatlarda yaxshi o‘ylab olib, maqsadga muvofiq ish ko‘rish kerakligini talab etsa, odob o‘z qoidalarini odat tusiga kirishini , har qanday vaziyatda axloqlilikni nomoyon qilishni taqozo etadi. Axloqlilik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi murakkab holatlarda muammolarning yechimi sifatida qaralib, insonning kamolotga erishish yo‘lini yoritib boradi. Axloqli ,odobli, komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat va diyonat, hayo va iffat, vafo va sadoqat, himmat va saxovat, iymon-e’tiqod kabilar mujassamlashgan bo‘ladi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishda vatanga bo‘lgan mehrini, sadoqatini uyg‘otish, o‘z vatani ravnaqiga hissa qo‘shish, ona diyorini qadriga yetish insoniylik burchi ekanligini singdirish muhim o‘rin tutadi. Axloqiy tarbiya faqat bugungi kunda emas, qadim davrlardan beri sayqallanib kelayotgan jarayon hisoblanadi. Yosh avlodni ma’naviyatli, ma’rifatli, odob-axloqli qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi muhim ahamiyatga ega. Buyuk allomalarimizdan Farobiy, Imom Buxoriy, Ibn Sino, Termiziy, Beruniy, Yassaviy, Naqshbandiy, Navoiy, Yusuf Xos Hojiblarning ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalarini rivojlantirishdagi xizmatlari kattadir. Ularning bizga qoldirgan merosidan o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanib kelmoqdamiz.

Texnologiya darslarida ta’lim va tarbiyaning yaxlitligiga darsliklarda ham katta e’tibor berilmoqda. 2-sinf “Texnologiya” darsligida “Kuzgi gullar. Urug‘lardan gullar shaklini yasash” mavzusi orqali o‘quvchilarga tabiat, tabiat o‘zgarishlari, o‘simliklar, ularni yasashni o‘rgatish bilan birga tabiatga mehr, o‘simliklarni asrab-avaylash, mehnatga muhabbatni shakllantirish tushunchalari bilan ham mustahkamlangan. 17-betda berilgan D.Iqoniyning “Mehnat” she’ri ham gapimizning yaqqol misolidir:

MEHNAT

Mehnat qilsa ustasi gar,
Qochar undan tanbal har gal,
Mehnat – rohat, bilsang agar,
Ko‘nglingda u bo‘lsa har gal.

Ushbu she’r orqali o‘quvchilarni mehnatsevarlikka, dangasalikdan qochishga o‘rgatish, mehnat qilgan kishi doim farog‘atda yashashi haqida tushunchalar singdiriladi. Har bir dars ham ta’limiy ham tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lishi kerak. Shu jumladan texnologiya darslari orqali biz o‘quvchilarda bir-birini hurmat qilish, qizg‘onchiq bo‘lmaslik, ahil bo‘lish, doim yordam kerak bo‘lganda do‘stlarga ko‘maklashish kabi axloqiy sifatlarni rivojlantirishimiz mumkin.

“Texnologiya” darsliklarida Poytaxtimiz Toshkent va boshqa diqqatga sazovor shaharlarimiz haqida rasmlar, ma’lumotlar, she’rlar keltirilgan bo‘lib, bu tushunchalar orqali o‘quvchilarda vatanga muhabbat, o‘z ona vatanini asrab-avaylash tushunchalari shakllantiriladi.

2-sinf “Texnologiya” darsligida berilgan “Applikatsiya usulida qog‘ozdan naqsh yasash”, “”Hunarmand usta: G‘oya va ixtiro” mavzulari orqali milliy qadriyatlarimiz, ganchkorlik kasbi haqida tushuncha berib, ajdodlarimiz merosi, urf-odatlarimiz haqida ham tushuncha berish maqsadga muvofiq sanaladi.

Har bir bobda har xil kasblar haqida ma’lumot berilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu kasblar haqida ma’lumot berayotganimizga har bir kasbning mashaqqati, insonlarga foydasi haqida gapirish bilan birga insonlar bilan muloqot qilish, muomala madaniyati

tushunchalarini singdirish ham o‘quvchilarni axloqiy tushunchalarga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intizomlilikni tarbiyalash, barkamol shaxsni voyaga yetkazish axloqiy tarbiyaning vazifasi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktab muhitiga moslashtirish bilan birga, odob-axloq sifatlarini shakllantirish maqsadida xulq me’yorlarini singdirish o‘qituvchilardan katta e’tibor va bola shaxsiga ijobiy yondashishni talab qiladi. Bu me’yorlarni o‘quvchilarda shakllantirishda, o‘qituvchidan ularning yosh va individual xususiyatlariga monand tarbiya metodlarini tanlashni taqozo etadi. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash maktabga kelgunga qadar oilada, mahallada, maktabgacha ta’lim muassasasida amalga oshiriladi. Tarbiya berish jarayonini pedagog bolaning qiziqishlari asosida olib borishi kerak. Shunda qo‘yilgan maqsadga erishish ehtimoli katta bo‘ladi. Darslarda ham o‘yin metodlaridan foydalanib, bolaning ta’lim olishi bilan birga ma’naviy-axloqiy kamolotini rivojlantirishimiz kerak. Jamoat joylarida intizomni shakllantirish uchun esa o‘quvchilar bilan darsning sinfdan tashqari shakllarini to‘g‘ri tashkil qilishimiz, o‘yingohlarga, xiyobonlarga , ishlab chiqarish korxonalariga, hayvonot bog‘lariga, tabiat qo‘yniga sayohatlar tashkillashtirishimiz kerak. Bu kabi sinfdan tashqari ishlar bolalarni jamoat joylarida o‘zini qanday tutishga, tabiatga bo‘lgan mehrini oshirishga, ishlab chiqarishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M.O‘qituvchilar va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi(2020-yil 30-sentabr).
3. “Texnologiya” 2-sinf darslik . X.R Sanaqulov, D.X. Abdiyeva. Toshkent-2021
4. “Texnologiya 2-sinf mashq daftari”. X.R Sanaqulov. Toshkent-2021
5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. - T.: “ Fan va texnologiya”, 2018, 528 bet.
6. Muslimov N. A., Sharipov Sh.S., Qo„ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash: darslik - Toshkent: 2014. - 456 b. 3
7. Abdiyeva Q.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari. Magistrlik dissertatsiyasi. 2017-yil.
8. Hasanboyev J. va boshq. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari: Metodik qo‘llanma / J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2000.

# “GALLAKTIKADA BIR KUN” VA “SARIQ DEVNI MINIB” ASARLARIDA IJODKOR MAHORATI

**Mirsanova M.H. – assistent, O’FPI.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli yozuvchilarimiz Xudoyberdi To‘xtaboyev va Sa’dulla Quronovlarning ikki mashhur asari haqida, shuningdek, sarguzasht-fantastik yo‘nalishdagi asarlarning bolalar adabiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** sarguzasht-fantastik, “Sariq devni minib”, “Gallaktikada bir kun”, roman, fantaziya, ijodkor mahorati

Sarguzasht-fantastik asarlarda xayoliy uydirmalar sarguzasht voqelik bilan birgalikda kechadi. Bu janrda yozilgan asarlar kichik hajimli ertak, qissa, yoki yirik hajimli romanlar va dostonlar bo‘lishi ham mumkin. Bilamizki, ertaklarda fantaziyaga istagancha erkinlik bor, fantastika sarguzasht voqelik bilan birgalikda kechadigan ertaklarimiz adabiyotimizda bisyor. Shuningdek, romanlarimiz ham talaygina. Bu o‘rinda bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” asarlarini va Sa’dulla Quronovning “Gallaktikada bir kun” romanini alohida ta’kidlamaslik mumkin emas. Bundan tashqari havaskor yozuvchilarimizdan biri Otabek Quvvatovning “Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig‘ida” asari ham sarguzasht-fantastik yo‘nalishda yozilgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari 1968-yilda yozib tugallangan, asar elon qilingach yozuvchiga katta shuhrat keltirgan. Asar dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan. “Sariq devni minib” asarining jahon tillariga tarjima qilinishiga sabab, 1971-yilda Italiyaning Rim shahrida o‘tkazilgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida Janni Rodarining shu asar haqida aytgan iliq gaplari sabab bo‘lgan edi. Shundan keyin asarga qiziqish uyg‘ondi va ko‘pgina tillarga tarjima qilinib, chet el kitobxonlariga ham yetkazildi.

Asarda topib olgan sehirli qalpoqchasiga ishonib Hoshimjon safarga chiqadi. Safar davomida Hoshimjon va sehirli qalpoqcha bir-biridan qiziqarli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Sehirli qalpoqchaning sharofati bilan sehirli-fantastik hodisalarning guvohi bo‘lamiz. Bu romanni o‘qib chiqqan kitobxon borki qahramonga mehri tushadi. Ijodkorning tasvir mahorati juda kuchli va chiroyli. Hoshimjonning tilidan hikoya qilinuvchi bu asarda bola xayolotining naqadar beg‘ubor va murakkabligini bilib olishimiz mumkin. Asarni o‘qish davomida qahramonning hatti-harakatlari, qabul qiladigan qarorlari va turli vaziyatlardagi fikrlari kitobxonda beixtiyor kulgu uyg‘otadi. Bu albatta ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat beradi. “Sariq devning o‘limi” romani asarning mantiqiy davomi bo‘lib, Hoshimjonning ulg‘aygan, hayot yo‘lini halol mehnat va bilimlarga tayangan holda olib borish voqealari tasvirlangan. Bu qismda sehirli qalpoqchadan faqatgina kerakli o‘rinlardagina foydalanadi. Masalan: jinoyatchilarni tutishda, ularning kirdikorlarini ochib berishda, bu kabi o‘rinlarni asarni o‘qish jarayonida ko‘p uchratamiz.

Yana bir ijodkorimiz Sa’dulla Quronov o‘zining “Gallaktikada bir kun” asari bilan sarguzasht-fantastik yo‘nalishda yozilgan asarlarimiz repertuarini yana bir bor boyitdi. Bu asar ikkita kitobdan iborat .

Asar qahramoni 12 yoshli Ahmad ismli bola bo‘lib, nihoyatda bilimli va zukko edi. Yozuvchi o‘z qahramonini shunday ta’riflaydi: “…bu bolakay favqulodda kuchli zehn va idrok sohibi edi. Kichkina bo‘lishiga qaramay u fizika, matematika, kimyo va astronomiya fanlarini professorlar darajasida o‘zlashtirgandi. Aytish mumkinki, bunday noyob bolalar faqat yuz, balki ming yilda bir marta dunyoga keladi. U har qanday eshitgan, ko‘rgan narsasini xotirasiga xuddi video lavhaday muhrlab olar, kitob matnlarini so‘zma-so‘z emas,

balki sahifaga bir qarashning o‘zida o‘qib olardi. Agar bilsangiz, bunday odamlarni “fotografik xotira” sohibi deb ataydilar”[12].

Ahmad Ko‘kkezar nomli sayyoralar aro uchar kema loyihasini ixtiro qiladi. Ammo bu ixtironi chindan yasash mumkinligiga yerlik olimlar ishonolmaydilar. Bu ixtiro o‘zga sayyoraliklarning e’tiborini tortadi. Margul ismli o‘zga sayyoralik bilan Ahmad hamkorlikda kemani yasab tugatadi va kemada sayohatga chiqadi. Asar voqealari davomida Koinotda bo‘layotgan o‘zaro nizolarga yechim topishda Ahmad ham hissa qo‘shadi. Yovuz kuchlar ustidan g‘alaba qilinadi. Asar juda ham qiziqarli sarguzashtlarga boy. Ijodkorning fantaziya kuchi juda keng. Sa’dulla Quronov o‘zining “Gallaktikada bir kun” asari bilan o‘zbek bolalar adabiyoti xazinasini yana bir bor boyitdi. Bu asar Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan keyingi o‘rinda turadigan sevimli asar sifatida baholanmoqda. Bu ikki asarning yozilish janri va yo‘nalishi bir-biriga o‘xshash ikkalasi ham sarguzasht-fantastik yo‘nalishda yozilgan. Ammo ikkalasi ikki xil olam, o‘zgacha tasir kuchiga ega. Ijodkorlarning mahoratini ko‘rsatib bergan bu asarlar adabiyotimizning durdona asarlari qatoridan joy oldi. Bolajonlarimizning sevimli kitoblariga aylanib ulgurdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.To‘xtaboyev X. Sariq devni minib, Yangi asr avlodi, T.: 2015, 540 bet
2.Quronov S. Gallaktikada bir kun, Toshkent.
3. Mirsanova, M. (2024). Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolalar adabiyotidagi o ‘rni va “mungli ko ‘zlar” asari haqida mulohazalar. tadqiqotlar, 29(1), 116-118.
4.Mirsanova, M. (2021). Erkin Vohidovning adabiy tanqidiy qarashlariga doir. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 954-960.

[12] Quronov S. Gallaktikada bir kun, Toshkent. 3-bet

# ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

**Миртурсунова Ю.А. – преподователь, ТГПУ.**

Эффективность применения интерактивных технологий на уроках читательской грамотности подтверждается рядом исследований. Использование интерактивных методов, таких как интерактивные задачи, игровые приложения, веб-квесты и мультимедийные ресурсы, способствует активному участию учеников в обучающем процессе и улучшению понимания прочитанного материала.

Интерактивные технологии позволяют учителям создавать динамичные уроки, которые учитывают разнообразные стили обучения учеников и стимулируют их интерес к урокам чтения. Кроме того, интерактивные технологии могут быть эффективным средством дифференциации обучения, позволяя адаптировать материал под уровень и потребности каждого ученика. Исследования также показывают, что использование интерактивных технологий на уроках чтения способствует развитию ключевых навыков, таких как анализ текста, критическое мышление и умение делать выводы на основе прочитанного. Таким образом, интерактивные технологии являются эффективным инструментом для повышения грамотности и активности учеников на уроках чтения.

**Информационно-коммуникационная технология**

В рамках работы по формированию читательской грамотности эта технология особенно актуальна. Это, прежде всего, работа с разными источниками информации. В словарной работе для объяснения незнакомых слов и понятий актуальны толковый и энциклопедический словари. Важным преимуществом технологии является наглядность, так как большая доля информации для детей младшего школьного возраста усваивается с помощью зрительной памяти, и воздействие на неё очень важно в обучении. Наиболее популярным здесь является использование возможностей мультимедийной презентации (программа Power Point). Но здесь важно не увлекаться. Презентация не самоцель, она должна выделять основные моменты темы (при необходимости!).

**Здоровьесберегающая технология**

Неотъемлемой частью работы учителя является применение здоровьесберегающей технологии, которая позволяет создать на уроке зону психологического комфорта. Здесь наряду с учетом дозировки учебной нагрузки, соблюдением гигиенических требований, благоприятным эмоциональным настроем, включением оздоровительных моментов, хочу отметить важность смены видов деятельности на уроке, позволяющие преодолеть усталость, уныние, неудовлетворительность.

**Личностно-ориентированная технология**

На личностно-ориентированном уроке создается учебная ситуация, когда не только излагаются знания, но и раскрываются, формируются и реализуются личностные особенности учащихся. Здесь важно создать эмоционально положительный настрой учащихся на работу. Особенностями этой технологии являются:

- Продумывание учителем возможностей для самостоятельного проявления учеников; предоставления им возможности задавать вопросы, высказывать оригинальные идеи и гипотезы.
- Организация обмена мыслями, мнениями, оценками; стимулирование учащихся к дополнению и анализу ответов товарищей.
- Стремление к созданию ситуации успеха для каждого обучаемого.

• Побуждение учащихся к поиску альтернативной информации при подготовке к уроку.

Один из приемов работы – вариативные домашние задания, что даёт возможность каждому ученику проявить себя, свои сильные стороны, тем самым делая более позитивным отношение ребят к обучению в школе.(4, 39)

Моделирование – это сложная методическая деятельность, в которой выделяются определенные составляющие:

-обязательность предварительного анализа материала по русскому языку;

-работа с моделью или ее преобразование;

-соотнесение результатов, полученных при помощи моделирования учебных занятий по русскому языку, с реальными результатами. (3, 55)

Выбранные методики должны быть подходящими в контексте особенностей учащихся младшего школьного возраста, выбранной темы занятия и цели урока по русскому языку. Этому способствует информированность о принципах проведения моделирования учебных занятий по русскому языку:

- адекватность;
- автономность;
- обобщенность;
- изоморфизм;
- структурность.

Своеобразным помощником педагога в процессе подготовки к проведению учебных занятий по русскому языку является моделирование учебного материала. В данном аспекте возможны два способа применения методики моделирования:

а) логически упорядочить учебный материал и представить его в легкой обозримой, наглядной форме для облегчения работы по определенным тематикам;

б) представить учебный материал с помощью различного рода средств, например творческого материла, таблиц, схем и т.д.

Развитие творческих способностей учеников младшего школьного возраста невозможно без осуществления целостной системы методически подкрепленных средств и приемов ведения учебного занятия. Один из способов приобщения учащихся к искусству - это формирование грамотного и вдумчивого чтения, привитие интереса к литературе и показ важности грамотности в современных реалиях.

Учет познавательной активности учащихся (который проходит благодаря восприятию и отражению окружающего мира, решению проблемных ситуаций) невозможен без творческого направления работы по формирования универсальных учебных действий и грамотности на учебных занятиях по русскому языку в начальной школе. В процессе моделирования учебных занятий педагогу необходимо брать в расчет тот факт, что творческий процесс требует постоянного развития образного мышления, воображения, чувственной стороны.

Методически грамотное определение целей и задач учебного занятия по русскому языку в младших классах, разработка адекватной структуры урока и продумывания шагов преподнесения материала, соблюдение требований к нему — вот верный путь повышения качества начального образования.

Использованная литература

1.Давыдов В.В., Репкин В.В. Организация развивающего обучения. // Феникс. – 1996. С.12.

2.Развитие творческой активности школьников / Под ред. А.М. Матюшкина. - М.: Педагогика, 1991. С.44.

3.Хуторской А.В. Практикум по дидактике и современным методикам обучения / А.В.Хуторской - Питер, 2004. С.55.

# BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

**Mirxalilova N.A. – Ipak yo’li innovatsiyalar universiteti katta o’qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy metododlogik asoslari, funksional savodxonlik bo’yicha ish olib borgan olimlar, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi masalalari bayon qilingan.

**Kalit so’zlar:** mustaqil fikrlash, bilish faolligi, funksional savodxonlik, TIMSS xalqaro baholash dasturi, PIRLS xalqaro baholash dasturi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 997-son «Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ma’lum darajada xizmat qiladi.

Respublika olimlaridan M.Jumayev, A.Kudratova, K.Boymenova U.Inoyatov, B.Xodjayev, M.Vahobov, O.Qo‘ysinov hamda D.M.Mamatqulovlarning tadqiqotlarida maktab o‘quvchilarida ijodiy faoliyat ko‘nikmalari va malakalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, bilish faolligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganilgan; o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalariga oid tadqiqotlarni I.E.Shernazarov, D.M.Maxmudovalar o’rgangan; xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish, unga tayyorgarlik ko‘rish va o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlantirish, savodxonlik darajasini aniqlashga oid topshiriqlar ishlab chiqish kabi masalalar A.Radjiyev, A.A.Ismailov, X.J.Daminov, Q.K.Karimberdiyev, G.O.Tog‘ayeva, N.A.Karimov, Z.A.Kosimova, G.A.Pirimov, D.Asqarova, S.R.Akbarova, D.Norboyeva, D.Manapova, M.Uralova, B.Q.Haydarov, H.P.Ahmedov, M.Maxsudov, M.Boymuratova, E.Tursunovларнинг ishlarida o‘z aksini topgan

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida funksional savodxonlik, ularni shakllantirish muammolari A. A. Veryayev, M. N. Nechunaeva, G. V. Tatarnikova, M.A. Xolodnaya A.A.Leontiyev, B. G. Kubaydullayevna, V.P.Bespalko, I.A. Volodar, A.M. Mitina, B.A.Ananev, Ch. Kupisevich va boshqa olimlarning izlanishlarida keng yoritilgan.

Xorijiy davlatlarda funksional savodxonlikka doir hamda TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturi ilmiy-tadqiqot ishlari Mary Lindquist, Ray Philpot, Ina V.S., Mullis, Kerry E. Cotter, Victoria A.S., Centurino Lee, R. Jones, Kelly, Martin, R.Tayler, J.Gilford, B.S.Blum, D.Xeynot, B.P.Bitinas, B.S.Blum, R.M.Gagne, P.Ya.Galperin, Dj.P.Gilford, A.M.Matyushkin, Ch.S.Nosal, M.Oboro kabi olimlar

Ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida quyidagi tavsiyalar berildi:

1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining funksional savodxonligini shakllantirishda TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturida yuqori natijalarga erishgan davlatlarning ilg‘or tajribalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, O‘zbekiston milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish va bu orqali ta’limning xalqarolashuviga erishish lozim.

2. O‘quv-me’yoriy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan funksional savodxonlikni shakllantirishda TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturi konsepsiyasiga muvofiq o‘quvchilarning kreativ fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish, fanlararo bog‘liqlikni qo‘llagan holda topshiriqlarni yechish, mustaqil hayot uchun zarur bo‘lgan o‘qish, matematik va kreativ savodxonlikni rivojlantirishga keng e’tibor qaratish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining funksional savodxonligini shakllantirishda TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturi qo‘llaniladigan topshiriqlar analogini ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlarini shu kabi topshiriqlar bilan boyitish, dars mashg‘ulotlarida va sinfdan tashqari ishlarda, jumladan, to’garaklarda mazkur topshiriqlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim.

4. TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturi qatnashuvchi respublikadagi tayanch maktablar bilan bir qatorda barcha umumta’lim maktablarida xalqaro baholash dasturiga oid ma’lumotlar bazasidan foydalanish, xalqaro baholash dasturida qatnashmaydigan maktablarda ham xalqaro baholash dasturi tajribalarini sinab ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Annals of Forest Research https://www.e-afr.org/ 2022. 5399-5404-b.

2. Mirxalilova N.A. Use of the "Working with objects" methodology in preparing for international studies // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences // ISSN (E): 2832-8019 Volume 13, | June, 2023. Pp: 152-154. www.americanjournal.org.

3. Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал. 2022/5. 36-39 bet. (13.00.00) №20.

4. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlik tushunchasi // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/2] ISSN 2181-7324. Falsafa https://science.nuu.uz/.Social sciences. 216-218 b (13.00.00) №15.

5. Mirxalilova N.A. O’qish, matematik va kreativ savodxonlik funktsional savodxonlikning asosi // Yosh olimlar Axborotnomasi. Maxsus son (4)2023 104-109 b. (13.00.00) № .

6. Mirxalilova N.A. Functional Literacy in Primary Education // AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies Volume 2, Issue 4, 2024 ISSN (E): Pp: 2993-2599.

7. Mirxalilova N.A. Use of the "working with objects" methodology in preparing for TIMSS international studies // «Әуезов оқулары-21: жаңа қазақстан-еліміздің болашағы» М. Әуезов атындағы оңтүстік Қазақстан университетінің 80 жылдығына арналған халықаралық ғылыми–тәжірибелік конференция еңбектері. ТОМ 2-1 Шымкент 2023 UDC 37 292-293 b.

8. Mirxalilova N.A. O’qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o’rni // Maktabgacha va boshlang’ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 18-noyabr 2022-yil. 175-178 b.

10. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar // “Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent amaliy fanlar universiteti, 2023-yil 19-21-dekabr kunlari. https://zenodo.org/records/10444474. 370-372 bet.

11.. . Mirxalilova N.A. Boshlang’ich ta’limda funksional savodxonlik darajalarini oshirish // Home /Archives / vol. 18 no. 2 (2023): Образование наука и инновационные идеи в мире | Выпуск журнала № 18 | Часть2. http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542. 174-177 b.

# MAXSUS RIVOJLANISHGA MUHTOJ BOLALARDA NUTQ BUZILISHLARINI TUZATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Mo‘minova E.M. – magistrant, TKXU.**

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 5- iyundagi PF-6079-son «Raqamli o‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1,3].

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi paqamli texnologiyalarni defektologiya amaliyotida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu nafaqat rivojlanishida nuqsonli bolalar bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki butun boshli inklyuziv ta’lim jarayoniga ham muayyan o‘zgarishlarni kirityapti.

To‘g‘ri talaffuzni o‘rganayotganda logoped ko‘pincha bolani o‘qitish jarayoniga darhol va sezilmaydigan tarzda kiritadigan taqdimotlardan foydalanadi. Rasmlardagi so‘zlarni nomlashda bola ular asosida gapirishga o‘rganadi. Bu mutuxassislarga bola talaffuzini aniqlash hamda rivojlantirishga yordam beradi. Inklyuziyali bolalarning artikulyar gimnastikani bajarishida logoped ko’pincha musiqa, proektordagi rasm materiallari, ertak va multfilmlardan parchalardan foydalanishadi. Nutq terapiyasining asosiy bosqichlaridan biri avtomatlashtirish, ya’ni, berilgan tovushni faol nutqqa kiritishga qaratiladi. Ovozlarni avtomatlashtirishni video ertaklar va turli xil nutq terapiyasi o‘yinlaridan foydalanish orqali kuzatish mumkin. Talaffuzda qiyinchilik tug’diradigan tovushni nutqqa kiritishda ota-onalar hamda logopedlarga yaxshi samara berganligi bois audio darslardan foydalanish taklif qilinadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda har bir tovush guruhi uchun original nutq terapiyasi kollajlarini yaratish maqsadga muvofiq. Bu borada ota-onalarning ham yordamidan foydalaniladi. Kollajining har bir qahramonini nomlash orqali biz avtomatlashtirilgan tovushni talaffuz qilamiz. Masalan, "TerRRitoRRRiyaga sayohat." Sayohatda quyidagi singari misollarga murojaat qilinadi: "RRRashidning AsqaRRRR amakisi, SharRRRRik laqabli iti, MaRRRRRat degan qo‘shnisi boRRRR. U RRRaketaning uchayotganini ko’RRRadi. Bunda bola R tovushini avtomatlashtiradi. Nutqning leksik va grammatik tuzilishini shakllantirishda audiofayllar va video fragmentlar katta rol o’ynaydi. Bolalar uchun qushlar, suvning ovozini, shamol va boshqa tabiiy tovushlarni tinglash juda qiziq. Ko’pchilik bolalar banan, apelsin, ananas qanday o’sishini bilishmaydi. Shuning uchun proektor yordamida mevali daraxtlarni ko‘rsatish, jadvallar asosida she’rlarni yodlatish ham muhim sanaladi. Bundan tashqari, tovush va harflarni o‘rganish, yangi materialni mustahkamlashda o‘quv multfilmlari va didaktik o‘yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Afsuski, so‘nggi yillarda nogiron bolalar sonining ko‘payishi kuzatilmoqda. Bu toifadagi bolalarni tarbiyalash va o’qitishning eng samarali usulini topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Muammoni hal qilishning samarali yechimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, hisoblash qurilmalari (kompyuterlar), shuningdek telekommunikatsiyalar (Internet) yordamida amalga oshiriladigan axborot bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonlari va usullaridan izlash zarur.

An’anaviy ta’limning ko‘plab muammolariga masofali ta’lim, onlayn kurslar, mobilь, elektron ta’lim manbalari yechim topib bermoqda. Dunyo e’tirof etgan

texnolog olim Bob Djonson fan- texnika taraqqiyoti bo‘lgan har qanday natijalarga cheklov qo‘yish emas, balki ulardan samarali foydalanish lozimligini ta’kidlaydideydi[4,142] . Uning asosiy g’oyasi – zamonaviy ta’lim yoshlarning AT texnologiyalariga qiziqishini to‘sishi kerak emas, balki ularga bu vositalardan ratsional foydalanishni o‘rgatish maqsadga muvofiq ekanligida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda AT korreksion va rivojlantiruvchi ta’lim sohasidagi o‘qituvchilar va mutaxassislarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. O‘quv faoliyatimda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda quyidagi ish turlarini bajarish yaxshi samara beradi: • Internetda tezkor qidiruv va bolalar bilan o‘zaro munosabatda bo’lish uchun rag’batlantiruvchi material, turli mashqlar shakllari va amaliy topshiriqlarni chop etish; • kompyuter va raqamli axborot vositalarida saqlangan o‘z taqdimotlaringizni yaratish; • hisobotlarni tuzish, ish natijalarini qayd etish va saqlash; • Internetdan foydalangan holda kasbiy malakani oshirish va kasbiy darajani oshirish.

Zamonaviy kompyuterdan foydalanish imkoniyatlari bola qobiliyatlarini to’liq va muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkon beradi. Kompyuter bolaning rivojlanish muhitining bir qismi bo’lib, uning intellektual rivojlanishi va motivatsion sohasini boyitish omiliga aylandi. Odatda, logopedlar o’z faoliyatida quyidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishadi: • Kompyuter • Multimedia proektori • Printer • Videomagnitofon, DVD pleer • Televizor • Magnitafon • Kamera • Videokamera Interfaol materiallarning quyidagi turlarini ham ajratish mumkin: • Rasmlar; • Videolar; • Videokliplar (filmlar, ertaklar, multfilmlar); • Multimedia taqdimotlari; • Bolalar uchun o’quv kompyuter o’yinlari; • Raqamli fotosuratlar va multfilmlar to’plamini yaratish mumkin. Tuzatish darslarida AKTdan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: • og’zaki usullar vizual usullar bilan uyg’unlashganda, o’rganishga ikki yarim sharli yondashuvdan foydalanish; • bolalarning ma’lumotni idrok etishning vizual kanalidan (ranglar palitrasi, animatsiya effektlari) va materialni yaxshiroq tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradigan eshitish kanalidan (tovush fayllari - hikoya, musiqa) foydalaning; • to‘g‘ri nutq, aqliy jarayonlarni shakllantirish va ularning kamchiliklarini tuzatish jarayonini optimallashtirish; • tuzatish jarayonini faollashtirish, ya’ni darslar tezligini oshirish, mustaqil ishlarining ulushini oshirish. AKTdan foydalanadigan har bir dars keng qamrovli bo‘lib, bolaning individual imkoniyatlari va ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan korrektsion ta’limning an’anaviy va kompyuter vositalarining optimal kombinatsiyasini ifodalaydi. Bundan tashqari, sinflarda ko’rish buzilishining oldini olishga qaratilgan o’yinlarni kiritish maqsadga muvofiq. Kompyuter yordamida darslarni o‘tkazishda: kompyuterdan foydalanish mashg‘ulot davomida 10-15 daqiqadan oshmasligi va haftada 2 martadan ko‘p bo‘lmasligi zarur.

Professor U.Sh. Begimkulov ATdan foydalangan holda o‘qituvchilarning tuzatish ishlarining yo’nalishlari: umumiy ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o’yinlar, tashqi dunyo bilan tanishish, matematik tushunchalarni shakllantirish, kognitiv jarayonlari-idrok, xotira, diqqat, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish va tuzatish ustida ishlash, vizual-fazoviy munosabatlarni shakllantirish, sensor-idrok rivojlanishi darslarini amalga oshirishni tavsiya etadi[4,42].

Darslarimda logoped bolalarni rivojlantirish uchun maxsus saytlardan foydalanadi: Kichkintoylar uchun o’quv o’yinlari - bu saytning nomi oz sonli yorqin, bolalar uchun qulay va mazmunli flesh-o’yinlar. O‘yinlar "Alifbo", "Raqamlar", "Mantiq", "Diqqat va xotira" kabi bo’limlarida taqdim etilgan. Saytning eng yaqqol afzalliklari o‘yinlar bepul va saytda hech qanday reklama yo‘qligi. Salbiy tomoni shundaki, bu o’yinlar yetarli emas. O‘yinlar toifalarga bo’linadi: diqqat va xotira, mantiq va fikrlash, topishmoqlar va boshqotirmalar Turli veb-saytida bolalarni o’qishga o’rgatish uchun noyob o‘yinlar mavjud. Harflar, shakllar va bo‘g‘inlarni bog‘lash orqali bolalarning o‘zlari so‘zlarni tuzish va o‘qish tamoyillarini qanday tushuna boshlaganini sezmaydilar.

Har qanday yoshdagi bolalar uchun krossvordlar va boshqotirmalar, labirintlar va ko‘chirma kitoblar, til tvisterlari va audio ertaklar, o‘quv multfilmlari, hunarmandchilik va boshqotirmalar mavjud. Sayt chop etish uchun materiallar va turli oflayn harakatlar tavsiflari bilan to’ldirilgan. Ma’lumotlar bazasi yangi eksklyuziv materiallar va yangi g’oyalar bilan muntazam yangilanadi. Logopedlar doimo ota-onalarni farzandlarining kamchiliklarini tarbiyalash va tuzatishga yordam beradigan qiziqarli saytlar bilan tanishishga taklif qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, AKTdan an’anaviy o‘qitish usullari bilan uyg‘unlashgan holda tizimli foydalanish sharti bilan tuzatish va rivojlantirish ishlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Monitoring natijalariga ko‘ra, nogiron bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishda barqaror ijobiy dinamikani kuzatish mumkin. Shunday qilib, biz o‘qituvchi-logopatolog ishida AKTdan foydalanish nogiron maktab o‘quvchilariga yordam berishning o‘ta zarur va asosli turi, ularning optimal rivojlanishini ta’minlash, shaxsiy potentsialni ochib berish va noto‘g‘ri moslashishning oldini olish manbai deb hisoblaymiz.

R. Ishmuxamedov, A. Abdukodirov, A. Pardaevlarning e’tiroficha, hozirda kompyuter texnologiya imkoniyatlarilardan foydalanmay ta’lim jarayonini tashkil etishni tasavvur kilish kiyin. Kompyuter dasturiy vositalarining tarkibiga kiruvchi interfeysning kulayligi, pedagoglarga zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali uzlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Logopedik jarayonda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin [3,45].

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, agar nutqiy nuqsonlarni tuzatish pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalar qo’llanilsa va nutq terapiyasi aralashuvining o’zi natijalarga asoslangan tabaqalashtirilgan yondashuvni hisobga olgan holda qurilsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan nutqni rivojlantirish bo’yicha nutq terapiyasi diagnostikasi, logopediya ishlari yanada qiziqarli va samarali bo’ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ўзбекистон республикаси Президентининг 2020-йил 5-июндаги ПФ-6079-сон «Рақамли ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.3-б.

2.Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошкариш назарияси ва амалиёти мавзусидаги педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Тошкент. 2007.46-б.

3.Ишмухамедов Р., А. Абдукодиров, А. Пардаев. "Таълимда инновацион технологиялар: таълим муассалари педагог-ўкитувчилари учун амалий тавсиялар"45-б.

4.Kuralov, Y. A., Makhmudova, D. M., (2020). Methodology of developing creative competence in students with problematic education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part IIISSN 2056-5852, 142.

# MILLIY MA'NAVIY MEROS VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Farangis M.G'. – o'qituvchi, Alfraganus universiteti.**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda milliy ma'naviy merosning ahamiyati, imkoniyatlari yoritib berilgan. Milliy ma'naviy meros vositasida takomillashtirilgan texnologiyalarning imkoniyatlari dalillar asosida isbotlangan. Milliy ma'naviy meros tushunchasi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Metod, texnologiya, pedagogik texnologiya, milliy ma'naviy meros tushunchasi, nutq, nutqiy madaniyat, nutqning ifodaliligi va til vositalariga boyligi, xalq og'zaki ijodi.

Sharq qadimdan o'z mutafakir olimlari bilan ulug'lanib kelingan. Chunki bu donishmandlarning ilm-fan sohasiga qo'shgan ulkan merosi umumjahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan boylikdir. Bu meros bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Sharqda va`zxonlik-balog'a, balog'at (chechanlik, notiqlik) deb yuritilgan va notiqlik san`ati rivojlanishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar ham murakkablashib bordi. Buyuk allomalardan Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Abu Ya`qub Sakkokiylar ham tilga, lug'atga so'z odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir asarlar yozganlar, boshqa sohalarga doir yozgan asarlarida ham nutq madaniyati masalalariga katta e`tibor berganlar.

Mana shunday Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy. Butun umrini ilm-fanga baxshida etgan olim Xorazmdagi notinchliklar tufayli bir muddat Jurjonda-shoh Qobus huzurida istiqomat qiladi, ilmiy asarlar yaratadi. Qobusga bag'ishlab "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlarini yozdi.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Vatanimizdagi 31millionga yaqin xalq o'zbek tilini ona tilim deydi. Bundan tashqari o'zbek tili Saudiya Arabistonida, Turkiyada, AQShda, Afg'oniston va Qoshg'arda hamda birqancha boshqa davlatlarda yashovchi o'zbeklarning ham ona tilidir.

O'zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VIIasrlarga oid O'rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi.

X-XI asrlardan boshlab o'zbek (turkiy) tilida yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" asarlari.

Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o'zbek) tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk tilining rivojida Alisher Navoiyning o'rni beqiyosdir. Alisher Navoiy o'zbek tilini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi. 1920-yillardan boshlab, maktab-maorif sohasida madaniyat va adabiyotda o'zgarishlar ro'y berdi. Adabiyotimizga yangi yorqin iste'dodlar kirib keldi. O'zbek tilining lug'at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi aniqlasha bordi.

Til insoniyat tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har qaysi millatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga mos tarzda rivojlanib boradigan ijtimoiy hodisadir. Har bir millatning tili ikki xil ijtimoiy vazifani bajaradi: bir tomondan, jamiyat a'zolari orasida o'zaro aloqa uchun xizmat qilib, ularni birlashtiradi, ikkinchi tomondan, bir millatni boshqasidan ajralib turishini ta'minlaydi.

Til va nutq tushunchalarini tahlil etadigan bo'lsak, til bu ma'lum bir xalq tomonidan ishlatilib kelinadigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Nutq esa aynan shu tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir. Demak, til va nutq tushunchalari bevosita bir-biriga bo'gliqdir. Agar jamiyatda nutqning buzulishi ro'y bersa, bu kelajakda shu xalqning adabiy tilida ham yemirilish bo'lishini anglatadi. Ijtimoiy jarayon bo'lgan til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, umuman har qanday vazifasini nutq

shaklida, nutq ko‘rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so‘zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagi-matndagi aniq ifodasidir, ko‘rinishidir, holatidir. Shunga ko‘ra, S.Usmonov ―Til qachon ma‘lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo‘lgandagina ma‘lum funksiyani bajarishi mumkin, deydi. Miyamizda (ongimizda) ob‘yektiv olamning ta‘siri tufayli hosil bo‘lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan til (nutq) orqali namayon bo‘ladi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda maktabgacha va boshlang’ich maktab davridan boshlab, bolalarning nutqini, nutqiy madaniyatini tarbiyalash dolzarb masala ekanligini ta’kidlash mumkin. Hozirgi kunda yoshlar o’rtasida nutqning buzulishi, kelajakda tilning zavol topishiga olib keladi. Aynan shu muammolarni oldini olish uchun ham hozirgi kunda tarbiyachi va pedagoglar yoshlarning nutqiy madaniyatini tarbiyalashi lozimligi yurtboshimiz tomonidan ham qayta-qayta ta’kidlanyapti. Bu muammolarni trabiyachi va pedagoglar aynan ta’limiy faoliyat jarayonida amalga oshirishi mumkin. Buning uchun pedagoglar tomonidan qo’llaniladigan metod va texnologiyalar yordam beradi. O’qituvchilarning pedagogik mahorati va ular qo’llayotgan texnologiyalar, yoshlarning nutqini rivojlantirishga, ularning ongiga milliy ma’naviy merosni singdirishga yordam beradi.

Metod aslida yunoncha „metodos“ so'zidan olingan bo‘lib, „bilish va tadqiqot yo‘li“, „nazariya“, „ta’limot“ kabi ma’nolarn bildiradi. Metodika (yurt, „methodike") biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o‘qitish usullari haqidagi ta’limot— ta’lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir.

Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi: 1. O'qitishning vazifalari va mazm unini aniqlaydi. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya’ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta’lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanm alar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi. 2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari - mashqlar va yozma ishlaming izchil tizimini ishlab chiqadi, ya’ni „Qanday o'qitish kerak?" savoliga javob tayyorlab beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307- sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059- sonli Qarori.

3. Aliqulov X., Nosirov R., Qodirov M., Omonboyeva R., Ashurov A. Tasavvuf ta’limoti va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. O‘quv qo‘llanma. Andijon. 2005y.36– b.

4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati.– T.,1994–y. 7–b. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001y. 242–b.

5. Aliqulov X. Mutafakkirlar axloq va adolat xaqida.T. Adolat. 1995–y.30–b. 6. Alisher Navoiy. Hayratul-abror – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 155 b.

7. Zhabborova, O. I., & Kenjaeva, H. P. (2018). Bases of gender equality of rights in Uzbekistan. Международный журнал гуманитарных и естественных наук, (5- 2).

8. Кенжаева, Х. П., Тожиев, Ф. И., & Жураев, Б. Н. (2014). РОЛЬ ЖЕНЩИН В СОЗДАНИИ И РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Инновации в технологиях и образовании (pp. 119-123).

9. Кенжаева, Х. П. (2021). ФУҚАРОЛИК МАДАНИЯТИ МЕЗОНЛАРИ ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ТАЛҚИНИДА. Academic research in educational sciences, 2(3).

# TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO’LAJAK O’QITUVCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**Musaeva U.X. –o'qituvchi, JDPU.**

Bugungi kunda raqamli texnBugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga jadal kirib bormoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tashkil etish, boshqarishda raqamli texnologiyalar ushbu sohani rivojlantirish, qog‘ozbozlikni kamaytirish va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish nafaqat odamlarning yashash tarzini, balki fikrlash tarzini ham o‘zgartirmoqda. Raqamlashtirish barcha sohalarga kirib borsa, birinchi navbatda qog‘ozbozlik, tanish-bilishchilik, korrupsiyaning oldi olinadi va shaffoflik ta’minlanadi. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi . Agar oddiy iqtisodiyotda asosiy resurs moddiy ne'matlar bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda axborot qayta ishlanadi va uzatiladi. Ularni tahlil qilgandan so'ng, to'g'ri boshqarish uchun yechim ishlab chiqiladi. Pandemiya davrida ta’limning yangi davri – raqamli ta’lim davri boshlandi.

Agar biz ta’limning bu ikki tomonining tafakkurini o‘zgartira olsak, ya’ni o‘quvchi mustaqil bilim olib, mustaqil bilim olish yo‘llarini topa olsa, o‘qituvchi esa o‘quvchini raqamli texnologiyalar asosida yangi bilimlar bilan qurollantira olsa, ta’lim ham o‘zgacha shaklga o‘tishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi vakillari ongsiz ravishda katta tarixiy missiyani bajarmoqda. Hozir O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida biz shu paytgacha gapirgan masofaviy, raqamli ta’lim uchun haqiqiy poydevor yaratilmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tashkil etish, boshqarishda raqamli texnologiyalar ushbu sohani rivojlantirish, qog‘ozbozlikni kamaytirish va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish nafaqat odamlarning yashash tarzini, balki fikrlash tarzini ham o‘zgartirmoqda. Raqamlashtirish barcha sohalarga kirib borsa, birinchi navbatda qog‘ozbozlik, tanish-bilishchilik, korrupsiyaning oldi olinadi va shaffoflik ta’minlanadi. “Raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi .

Agar biz ta’limning bu ikki tomonining tafakkurini o‘zgartira olsak, ya’ni o‘quvchi mustaqil bilim olib, mustaqil bilim olish yo‘llarini topa olsa, o‘qituvchi esa o‘quvchini raqamli texnologiyalar asosida yangi bilimlar bilan qurollantira olsa, ta’lim ham o‘zgacha shaklga o‘tishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi vakillari ongsiz ravishda katta tarixiy missiyani bajarmoqda. Hozir O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida biz shu paytgacha gapirgan masofaviy, raqamli ta’lim uchun haqiqiy poydevor yaratilmoqda.

Universitet bitiruvchisi jamiyat iqtisodiyoti va madaniyatining raqamli transformatsiyasining yetakchi tendentsiyalarini tushunishi kerak; ta'lim traektoriyasini o'rganish va qurish uchun samarali axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega; axloqiy tamoyillarni hisobga olish va axborot jarayonlari va muloqotda ijtimoiy mas'uliyatni bilish; kasbiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni izlash, tanqidiy tahlil qilish, ob'ektiv foydalanish va ijodiy o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bunda raqamli madaniyatga ega bo’lgan bo‘lajak bakalavr raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu munosabat bilan raqamli madaniyatni bakalavriat talabalarining shaxsiy va kasbiy yo‘naltirilgan sifati sifatida o‘rganish muammosi yangilanmoqda.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash joizki, raqamlashtirish imkoniyatlari va sur'ati ko'pincha foydalanuvchilarning ularni o'zlashtirish mahoratidan ustun turadi. Oliy ta’lim sohasida allaqachon tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda: ta’limning tashkilotlararo shakllari rivojlanmoqda; onlayn texnologiyalar va masofaviy ta'lim shakllari universitetlarda o'quv jarayonining bir qismiga aylanmoqda; ilmiy va kasbiy kutubxonalar va ma’lumotlar bazalaridan ochiq foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda; elektron talim muhiti shakllantirilmoqda. Bu raqamli madaniyatni shakllantirish uchun universitet axborot-ta'lim muhitining yangi imkoniyatlarini tushunish va tizimlashtirish zaruratini tug'diradi.

Bu raqamli madaniyatni shakllantirish uchun universitet axborot-ta'lim muhitining yangi imkoniyatlarini tushunish va tizimlashtirish zaruratini tug'diradi. O'rganilayotgan masalalar nuqtai nazaridan, qiymatga yo'naltirilgan kasbiy ta'limni qo'llab-quvvatlash usullarini o'rganish, raqamli muhitning kasbiy yo'naltirilgan elementlarini o'rganishga qiziqish va motivatsiyani oshirish yo'llarini aniqlash, axborotni kiritish uchun pedagogik asoslash dolzarb bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonidagi resurslar, elektron ta'limning axloqiy jihatlarini rivojlantirish, tegishli uslubiy yordamni ishlab chiqish va boshqalar.

Bu asoslar zamonaviy pedagogika fanida universitetning axborot-talim muhitida bakalavriat talabalarining raqamli madaniyatini shakllantirishning pedagogik tizimini tushunish, ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish bilan bog‘liq ijtimoiy ahamiyatga ega vazifa borligini takidlash imkonini beradi.

lmiy adabiyotlarda ta'limni raqamlashtirish va shaxsning raqamli madaniyatining ba'zi jihatlarini shakllantirish asoslarini ta'kidlaydigan tadqiqotlar mavjud. E.Agazzining kompleks tadqiqotlarida B.S. Gershunskiy, V.A. Vozchikova, A.S. Kiseleva, A.V. Korotkova, B.V. Kristal, N.N. Moiseeva, I.G. Morgenstern, E.P. Semenyuka, E.G. Solovyova, S.V. Orlova va boshqalar axborot jamiyati rivojlanishining falsafiy va ijtimoiy jihatlariga alohida e’tibor qaratganlar.

Bugungi kunda raqamli ta'lim ta'lim tizimlarimizda o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontekntda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual lobaratoriyalarda o'rganish talabalarni yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Ta'lim jarayonida talabalarning raqamli madaniyatini shakllantirishning yaxlit tizimi hali ishlab chiqilmagan. Shuningdek, talabalarning o‘quv va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun zamonaviy raqamli resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari salohiyatidan foydalanishning uslubiy ta’minoti ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Masalan, o‘quvchilarning o‘quv va ilmiy faoliyatga qiziqishini rag‘batlantirish uchun kasbiy yo‘naltirilgan ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish masalalari yoritilmagan, onlayn muloqot orqali talabalar o‘rtasida raqamli odob-axloq asoslarini shakllantirish texnologiyalari o‘rganilmagan.

Shunga ko'ra, qarama-qarshiliklarning mavjudligi haqida gapirish qonuniydir:

- iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatga bo‘lgan talablarning ortib borishi bilan ta’lim va kasbiy yo‘naltirilgan raqamli muhitda samarali axborot-kommunikatsiya jarayonlarini amalga oshirishda madaniy bakalavriat talabalarining yetarli darajada shakllanmaganligi o‘rtasida;
- raqamli iqtisodiyot talab qilayotgan bakalavriat talabalarining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini takomillashtirishni ilmiy asoslash zarurati bilan talabalarda raqamli madaniyatni shakllantirishning integral tizimining pedagogik nazariyasining sust rivojlanishi o‘rtasida. kelajakdagi kasbiy faoliyat kontekstlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoni;

- bakalavriat talabalari o'rtasida raqamli madaniyatni shakllantirishda universitet axborot-talim muhitining salmoqli salohiyati bilan talim va o'zi - o'zini boshqarishni qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy raqamli resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy ta'minoti yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida talabalarning ta'lim faoliyati.

Shunday qilib, gumanitar fanlarni o'qitishda raqamli o'quv texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi va o'quv jarayoni sifatiga, o'quvchilar tomonidan olingan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning sifatiga, mehnat bozorida kelajakdagi mutaxassislarga bo'lgan raqobat va talabga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Gumanitar fanlarni o'qitish doirasida raqamli texnologiyalar va vositalardan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishga maqolada keltirilgan turli xil yondashuvlar o'qituvchilarga o'quv mashg'ulotlarining raqamlashtirish va interaktivlik darajasini oshirish, shuningdek, professional ta'limni tashkil etishda zamonaviy ta'lim muhitini yaratishda uslubiy yordam bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston RespublikasiPrezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi PF 6079 sonli "RaqamliO'zbekiston 2030" strategiyasi.
2. U.R. Khamdamov, A.I. Abdullaev, J.B. Elov. Conceptual Model of the Education Management Information System for Higher Education Institutions // International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering. Volume 9, No.5, September – October 2020. India. –p.7295- 7300
3. 5 окт. 2020 г. — Указ. Президента Республики Узбекистан. Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации. Указ Президента Республики Узбекистан, от 05.10.2020 г. № УП-6079
4.BaevaL.V. Elektronnayakulьtura: opыtfilosofskogoanaliza / L.V. Baeva // Voprosыfilosofii. – 2013. – № 5. – С. 75–84.

# ХУЛҚИ ОҒИШГАН ЎСМИРЛАР ИЖТИМОИЙЛАШУВИДА ОТА-ОНА ВА БОЛА МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

**Мусаева У.Х. –Умумий педагогика кафедраси ўқитувчиси.**

**Аннотация:** Мазкур мақолада хулқи оғишган ўсмирлар ва уларнинг ижтимоийлашувида ота-оналар ва болаларнинг муносабатлари хусусида фикрлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** оила, хулқ оғиши, девиант хулқ-атвор, микроижтимоий муносабатлар, ёмон хулқ, девиация (оғиш), ахлоқий тарбияси, маънавий камолот.

Ўсмирлар ижтимоийлашувида ота-она ва бола муносабатларининг психологик хусусиятларини ўрганиш ҳамда ўсмирлар ўртасида хулқ оғишининг олдини олиш тадбирлари, энг аввало, хулқ оғишини келтириб чиқарадиган шарт-шароит ва сабабларни бартараф қилишни тақозо қилади.

Масаланинг долзарблигидан келиб чиққан ҳолда, бугунги кунда бутун дунё миқёсида, шу жумладан, республикамизда ўсмирлар ўртасида хулқ оғишининг олдини олиш борасида бир қатор илмий ва амалий жиҳатдан асосланган чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг "Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда. "Тарбия қанча мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди", дейди донишмандлар. Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди"[13], деган таъкиди, юртимизда ёшлар тарбиясига, айниқса, оила, оналик ва болаликни ижтимоий муҳофаза қилишга алоҳида эътибор берилаётганининг далолатидир.

Буюк мутафаккир Ибн Сино дейди: "агар ёмон хулқ одатга кириб қолса, у мижоз бузилишини келтириб чиқаради. Масалан, ғазаб кучли қиздиради, қайғу кучли оздиради, ҳафсаласизлик нафсоний қувватни бўшаштириб, мижозни балғамликка мойил қилади. Хулқнинг мўътадиллиги натижасида, ҳам нафас, ҳам бадан соғлом бўлади"[14] . Ибн Сино ахлоққа оид кўплаб муаммоларни одамнинг руҳий ҳолати ва маънавий хоссаларининг ҳис-ҳаяжонли пайдо бўлиши асосида талқин этади.

**Девиант хулқ-атвор** — микроижтимоий муносабатлар (оилавий, мактабдаги муносабатлар) ва кичик ижтимоий гуруҳларга хос булган ижтимоий меъёрлар ва хулқ-атвор қоидаларини бузиш билан боғлиқ меъёрдан оғувчи хулқ-атвор турларидан биридир. Бу хулқ-атворни "ғайриинтизомий" деб атасак ҳам бўлади. Девиант хулқ-атворнинг ёрқин намоён бўлишига намойиш, агрессия, ўқишдан қочиш ва дайдилик, болалар ва ўсмирлар орасидаги ароқхўрлик, гиёҳвандлик ва у билан боғлиқ ғайриижтимоий ҳаракатлар, жинсий тавсифдаги ғайриахлоқий хатти-ҳаракатлар, ўзига суиқасд қилишга уринишларни мисол қилиб келтирсак бўлади.

Жамиятда қабул қилинган қоидалар, хулқ-атвор меъёрларидан четга чиққан ўсмирларни "қийин ўсмир" ёки "тарбияси оғир ўсмир" дейилади. "Тарбиялаш оғир" деганда, педагогик таъсирга қаршилик кўрсатиш тушунилади. Тарбиялаш оғир, қабул қилинган меъёр ва қоидаларга тарбияланувчи томонидан амал қилинмаслигини фанда девиация (оғиш) ҳодисаси орқали ўрганилади.

Девиация (оғиш) ҳам инсонга, ҳам уни ўраб турган оламга хос бўлган ўзгарувчанлик ҳодисасининг жиҳатларидан бири ҳисобланади. Ижтимоий соҳада

[13] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи.1 июль, 2017 й.

[14] Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим ва тарбия ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. –Б. 88–89

ўзгарувчанлик фаолиятга боғлиқ бўлиб, инсоннинг атрофдагилар билан ўзаро муносабатини акс эттирадиган хулқ-атворда ўз ифодасини топади. Аввал айтиб ўтганимиздек, хулқ-атвор меъёрдан четга чиққан бўлади. Ўсмирнинг меъёрдаги хулқ-атвори унинг ижтимоийлашуви, ривожланиши, эҳтиёжларига мостушувчи микросоциум билан ўзаро муносабатида акс этади. Агар атрофдагилар ўсмирнинг у ёки бу хусусиятларига ўз вақтида эътибор қаратишса, унинг хулқ-атвори доимо меъёрда бўлади. Бундай меъёрдан оғишган хул қ-атвор жамият томонидан бола шахсияти хусусиятларини инобатга олмаслик оқибатида келиб чиқади, деган тушунча пайдо бўлади. Афтидан, меъёрдан оғиш ган хулқ-атвор ижтимоий дезадаптация кўринишларидан бири ҳисобланади. Болалар ва ўсмирлар дезадаптацияси ҳақида гапирганда, бу жараёнга гирифтор бўлган болалар тоифаларини аникутаб олиш лозим:

1) мактабга қатнамайдиган мактаб ёшидаги болалар;

2) етим болалар;

3) ижтимоий етимлар. Улар тузук овқатланишмайди, жисмоний, руҳий, жинсий қийноқларга дучор бўлишади;

4) гиёҳванд ва токсин моддалар истеъмол килувчи болалар;

5) жинсий интизомсиз болалар;

6) ғайриқонуний хатти-ҳаракатлар содир этган болалар.

Расмий маълумотларга кўра уларнинг сони катталарга қараганда, икки ҳисса тез ошмоқда.

Ахборот инқилоби, қадриятларнинг уйғунлашуви ва молиявий бозорларнинг интеграцияси билан узвий боғлиқ бўлган ушбу даврда инсонларнинг маънавий-руҳий оламини издан чиқаришга қаратилган турфа шаклдаги мафкуравий, маънавий таҳдидлар содир бўлмоқда. Бундай вазиятда шахснинг ахлоқий тарбияси, маънавий камолоти масаласи алоҳида долзарблик касб этади. Маълумки, шахс маънавий камолотида оилавий тарбиянинг ўрни беқиёс. Оиланинг болаларга тарбиявий таъсир доираси ўта кенг ва аҳамиятлидир. Бироқ кейинги пайтда оилада фарзандлар тарбиясида, уларни камол топтиришда бир қатор муаммоларга дуч келинмоқда. Ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги салбий муносабатлар болаларда хулқ оғиши ҳамда психосоматик касалликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлиши мумкин.[15]

Хулқ оғиши ва тарбиясида нуқсонларга эга ўсмирларнинг ота ёки онасидан бирининг спиртли ичимликка ружу қўйиши ҳолати ҳам оилада тарбияланаётган болаларга салбий таъсир этиб, уларнинг алкоголизм кўчасига кириб кетишларига сабаб бўлади. Шу боисдан “Ота-оналардан бирининг жамият ва ахлоқ меъёрларига зид бўлган хулққа эга бўлиши” ҳолати болалар ва ўсмирларда хулқ оғишининг келиб чиқишига ва тарбия бузилишига сабаб бўлиши кузатилади.

Оилавий тарбия инсон маънавий камолотида муҳим ўрин тутади. Оила бирламчи ҳаётий кўникмаларни, Ватанга муҳаббат, ота-она ва атрофдагиларга садоқат каби юксак ахлоқий ва маънавий сифатларни шакллантиришда, турмушга, ижтимоий фаолиятга нисбатан психологик ва амалий жиҳатдан тайёрлашда катта имкониятларга эгадир. Оилада фарзандларни тарбиялашда, уларни камол топтиришда мавжуд муаммолар, нуқсонлар болаларнинг хулқ-атворига, шахс сифатида шаклланишига салбий таъсир кўрсатади. Маънавий-ахлоқий жиҳатдан суст ривожланганлик ва шахсдаги ўзига хос хусусиятлар (ўзгарувчанлик, қўзғалувчанлик, беқарорлик, ҳиссиётга берилувчанлик, тобелик, журъатсизлик ва бошқалар) болалар ва ўсмирларда девиант хулқнинг келиб чиқишига сабаб бўлади.

Шахснинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан баркамоллиги эса ижтимоий турмушда вужудга келган турли хил низоли вазиятлардан чиқиб кетишига ёрдам беради. Вояга етмаганларда девиант ахлоқ, хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг келиб чиқишига

[15] Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: «Маънавият», 2008. – 270 б

таъсир этувчи яна бир омил ота-оналарда фарзандлар тарбиясига доир билимларнинг етарли эмаслигидир. Болаларга профилактик таъсир кўрсатишда ўсмирнинг шахс сифатидаги шаклланиши жараёнини, унинг ўзига хос хусусиятларини, характер хислатлари ва психологиясини ҳисобга олган ҳолда иш тутиш яхши натижа беришини унутмаслик лозим. Фарзанд тарбиясида уларнинг ёшга оид ва психологик хусусиятларини билиш ҳамда ҳисобга олиш ўта муҳимдир. Шунингдек, уларда ўзига ишонч, ўз хулқини яхшилаш мотивларини қуйидагича шакллантириш зарур:

- болаларни ўз хулқ-атворини ўзи баҳолашга ўргатиш; - фарзандига бўлган ишонч;

- оилада олдига қўйилган вазифаларни бажаришда эришган ютуқларини рағбатлантириш;

- тарбия беришнинг оптимал стратегиясини аниқлаш; - болаларга мустақил фаолият (ўқиш, ўйин, меҳнат, хобби ва қизиқишлари)ни танлаш учун имконият бериш;

-“Оила марказ”лари, амалиётчи психологлар, маҳалла фуқаролари йиғини ва шифокорлар билан маслаҳатлашиш.[16]

Тарбия бузилишининг субъектив сабабларига ўсмир шахсининг қизиқиш ва эҳтиёжлари, дунёқараши ва маънавий олами, мақсад ва йўналишлари, қадриятлари, ҳуқуқий онги, ҳаётий режалари, турмуш тарзи ва мотивлари (ҳаётий йўналиши, мақсад ва қарашлари) киради.

Субъектив шарт-шароитларга эса аҳолининг демографик ва ижтимоий-психологик хусусиятлари, хусусан, этнопсихологик жиҳатлари, характери, темпераменти, ёши ва жинси киради.

Объектив сабаблар сифатида жамиятдаги носоғлом муҳит, шарт-шароит, иқтисодий ва сиёсий беқарорлик, кичик ижтимоий гуруҳлардаги ижтимоий-психологик муҳит, кишилар билан бўладиган ўзаро шахслараро муносабатларда намоён бўлади.

Тарбия бузилишининг объектив шарт-шароитлари эса, жамиятдаги ташкилий ва техник хатоликлар, бошқарув тизимидаги камчиликлар, қонун ва қоидаларнинг талабга жавоб бермаслиги ва бошқалардан иборатдир.

Шунингдек, тарбия бузилишининг келиб чиқиш сабаб- ларини аниқлаш, энг аввало, у юзага келган ижтимоий муҳит хусусиятларини ўрганиб чиқишни тақозо қилади. Чунки тарбия бузилишини умумий кўринишда оладиган бўлсак, у бирор бир шахсга хос бўлган субъектив хулқатвор натижаси эмас, балки субъектив ва объектив жараёнлар, шарт-шароитлар, муносабатлар натижаси сифатида ифодаланишини кузатишимиз мумкин. Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда, ижтимоий жараёнларнинг индивидуал хатти-ҳаракатларга таъсири масаласига ойдинлик киритиш зарур бўлади.

Демак, ўсмирдаги дезадаптация (ижтимоий шароитларга мослашувнинг заифлашуви ёки бутунлай йўқолиши)ланган хулқни тузатишнинг кейинги шарти ўсмир психикасидаги ўзгаришни ўз вақтида аниқлаш ва тиббий, психологик-педагогик ёрдам кўрсатиш ҳисобланади. Ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишида моддий етишмовчилик кўпинча сабаб сифатида эмас, балки хулқ оғишининг келиб чиқиши учун қизиқиш ва шарт-шароит тарзида хизмат қилгани кузатилади.

Демак, айтиш мумкинки, ўсмирларда тарбия бузилишининг келиб чиқишида иқтисодий етишмовчилик омили асосий сабаб сифатида намоён бўлмайди. У фақатгина муайян шарт-шароит сифатида хизмат қилади холос.

---

[16] Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. Монография. – Тошкент, “Фан” нашриёти – 2008, 314 бет.

# ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ ПРИ УСЛОВИИ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Мусахожиева Д.Б. – магистрант, ТГПУ.**

В условиях стремительного развития цифровых технологий образование в начальной школе претерпевает значительные изменения. Инновационные методы преподавания, интегрированные с цифровыми ресурсами, способствуют повышению качества обучения и адаптации учебного процесса к потребностям современных учащихся. Важным аспектом является внедрение таких методов, как проектное обучение, игровые технологии, коллаборативное обучение и перевернутый класс, которые позволяют сделать образовательный процесс более интересным, доступным и эффективным. Применение инновационных методов преподавания способствует не только лучшему усвоению учебного материала, но и развитию важных навыков, необходимых для успешной адаптации в будущем.

Таким образом, внедрение инновационных методов преподавания в начальной школе в условиях цифрового образования представляет собой важный шаг к созданию современной образовательной среды, ориентированной на индивидуальные потребности учащихся и актуальные вызовы общества. Методики преподавания в начальной школе играют ключевую роль в формировании основ знаний и навыков у младших школьников. В этот период у детей закладываются базовые умения, такие как чтение, письмо, математические навыки и основы логического мышления. Эффективные методики помогают не только передавать знания, но и развивать у детей интерес к обучению, самостоятельность и умение работать в команде.

Инновационные методы преподавания в начальной школе в условиях цифрового образования включают использование информационных технологий, арт-технологий, проектного и деятельностного подходов, а также игровые методы и тестирование. Такие методы позволяют лучше развивать познавательные процессы детей, их творческие способности и мотивацию к обучению, сохраняя интерес к предметам и улучшая качество усвоения материала. Особое внимание уделяется личностно-ориентированному подходу, который направлен на создание условий для индивидуального развития каждого ребенка. Также широко используются цифровые технологии, которые повышают вовлеченность учащихся и активизируют самостоятельную работу. Например, применение мультимедийных средств, таких как PowerPoint, значительно улучшает восприятие учебного материала.

Современные методики преподавания в начальной школе направлены на создание комфортной и мотивирующей учебной среды, где дети могут развиваться как интеллектуально, так и эмоционально. Разнообразие подходов и их гибкость позволяет учителям учитывать индивидуальные особенности каждого ребенка и готовить его к успешному дальнейшему обучению. Цифровое образование представляет собой важный элемент современного образовательного процесса, внедряя технологии в обучение и обучение на всех уровнях.

Литература:

1. Каплюк, А. И. «Цифровое образование: вызовы и перспективы». Издательство «Наука». 2020г.
2. Павлова, М. А. «Индивидуализация обучения в цифровой образовательной среде». Журнал «Образование и Инновации». 2019г.
3. Герасимова, Л. И. «Цифровая грамотность как ключевой компонент современного образования». Издательство «Просвещение». 2021г.
4. Farkhodjonova N. F., Zhuraev Zh. A. "The influence of ideological processes on the national idea in the context of globalization" // Theory and practice of modern science.

# INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA’SIRINING KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV JIHATLARI

**Muxammadiyev J.I. – talaba, TDPU.**

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan, barcha ma’lumotlar raqamlashtirilayotgan davrda biz yoshlar o‘zimizni rivojlanishdan, ijtimoiy tarmoqlardan chetga tortib tura olmaymiz. Rivojlanish jarayonida faol ravishda ishtirok etishimiz, dunyo bo‘ylab yuz berayotgan kashfiyotlar va yangilanishlardan doimiy ravishda xabardor bo‘lib turishimiz zarur. Chunki bu bugungi zamon talabidir.

Shu o‘rinda Birinchi prezidentimizning 2011-yil 27-iyun Matbuot kuni munosabati bilan o‘tkazgan tadbiridagi maruzasini yodga olsak: “Biz odamlarimizning Internet imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishga bo‘lgan intilishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz. Takror bo‘lsa-da, aytmoqchiman – axborot olamida qandaydir devor o‘rnatish, o‘z qobig‘iga o‘ralib, mahdudlikka yuz tutish yo‘li bizga aslo ma’qul emas. … Shu bilan birga, bugun yon-atrofimizda, uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga oladigan bo‘lsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg‘itishga qaratilgan g‘arazli kuchlar ham Internet imkoniyatlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinayotgani va bunday intilishlarning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi”, - deydi Islom Karimov.

So‘nggi yillarda yoshlar orasida internet, ijtimoiy tarmoqlar ancha keng ommalashdi. Yurtimizdagi ko‘plab ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari “Odnaklasniki.ru”, “Facebook”, “Instagram”, “Tik-tok”, “V.Kontakte”, “X(twitter)” va boshqa turdagi sahifalarda o‘z akkauntlariga ega. Ammo, guruch kurmaksiz bo‘lmaydi, deganlaridek, ushbu ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, yoshlar ongini zaharlaydigan postlar ham ko‘p uchramoqda.

Ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchi yoshlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatdiki, so‘rovnomada ishtirok etganlarning 40 % ga yaqini ushbu tarmoqlardan do‘stlar orttirish, manfaatli tanishuv va online uchrashuvlar uchun foydalaniladi degan bo‘lsa, 60 % dan ortiq qatnashuvchilar ijtimoiy tarmoqlardagi video roliklar, postlar yoshlar tarbiyasiga yomon ta’sir ko‘rsatayotganini, turlibegona yot go‘yalar ta’siriga tushish holatlari kuzatilayotganini tan olishdi. Ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashgani bilan undan foydalanuvchi yoshlar uning salbiy ta’sirini ko‘ra bilayotganini, to‘g‘ri yo‘lda foydalanishga harakat qilayotganini kuzatish albatta quvonarli holat.[17] Bugungi kunda eng keng tarqalgan ijtimoiy tarmoq muammosi bu qimor va shunga o‘xshash tavakkalchilikka asoslangan (jumladan totalizator) o‘yinlaridir. Ushbu o‘yinlar sabab qanchadan qancha insonlar millionlab pullarini behuda sarflashmoqda. Agar insonlarda, ko‘pincha o‘sib kelayotgan yosh avlodda onlayn tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga qarshi mafkuraviy, g‘oyaviy immunitetni shakllantira olsak bu bizning eng katta yutug‘imiz bo‘ladi deb aytishimiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan barcha xabarlarni, yangiliklarni ham foydali va to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Tarqalayotgan xabarlar orasida turli diniy va irqiy ayrimachilik kayfiyatini shakllantiruvchi, mavjud konstitutsion tizimga qarshi bosh ko‘taruvchi olomonni shakllantiruvchi ig‘volar ham uchrab turadi. Ushbu axborotlarni to‘g‘ri tushunish uchun teran fikr va keng dunyoqarash talab etiladi.

Afsuski, ushbu global tarmoq cheksiz va bepayondir. Shu sabab ham hali oq va qorani tanib ulgurmagan yoshlarni ushbu zararli, yot va begona g‘oyalardan himoylash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu global tarmoqdan foydalanayotgan vaqtda yoshlar soatlarni, kunlarni behuda va besamar o‘tkazayotganini bilmaydilar. Bundan tashqari

[17] https://ijtimoiyfikr.uz/

yoshlarga g‘arb orzusi singishi natijasida katta yoshlilarning pand-nasixatlari eshitmaydigan, ajdodlar ma’naviy merosinini nazarga ilmaydigan bo‘lib ulg‘ayishmoqda.

Adabiyotlarda ijtimoiy tarmoq atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “odamlarning muloqot qilish, o‘xshash qiziqishlari yuzasidan boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun foydalaniladigan onlayn platforma”. Ilk bor insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqlarning elektron pochta ko‘rinishi vujudga kelgan. Dastavval, ikki kishi o‘rtasidagi ma’lumot almashish uchun yaratilgan ijtimoiy tarmoq, keyinchalik bir necha kishilar yoki guruhlar o‘rtasidagi aloqa vositasiga aylandi.

Virtual muloqotning avj olishi natijasida insonlar o‘rtasida jonli muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bir muncha pasayib ketdi. Insonlardan “Nega jonli muloqotdan ko‘ra, virtual muloqot qulay?” deb so‘ralganida ular tomonidan berilgan javoblarda uzoq masofa bosib yurish shart emas, istalgan vaqtda aloqa bog‘lash mumkin, vaqtni tejaydi deb javob berishdi. Ammo, virtual muloqot bog‘lash vaqtida ijtimoiy tarmoqlarga kelgan turli xabar va yangiliklarni ko‘rib chiqish uchun ko‘proq vaqt sarflashimiz mumkin. Vaqt qanday o‘tganini ham bilmay qolamiz. Vaqtimizni keraksiz narsalarga sarflaymiz. Virtual muloqot real voqelikdan ayri holda kichadi va inson o‘zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Bu esa insoniy his tuyg‘ularni yo‘qolib borishiga sabab bo‘ladi. Yaqin yillar davomida insonlar chin ko‘ngildan jonli muloqot uchun bir-birlariga “uyga keling, mehmon bo‘lib ketasiz” deb ta’klif bergan bo‘lsa, hozirda esa “telegramga kanlimga tashrif buyuring, facebookdagi sahifamga kiring” degan takliflar ko‘p uchramoqda. Bunday takliflar hech kimni ajablantirmay qo‘ygan desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dunyoda g‘oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi davrda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish eng muhim va dolzarb vazifalardan biriga aylanib ulgurdi. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqgan holda tashkil etish, yoshlarimizda ma’fkuraviy immunitetni shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga dahldorlik hissini oshirish juda ham zarur. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvand moddalar savdosi, zo‘rlik bilan biror tuzumni joriy etish oqibatida yuz bergan xalqaro maydondagi ziddiyatlar, geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi avj olgan bir davrda biz o‘zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olishimiz, yovuz kuchlarning asosiy e’tibori nimaga qaratilgani aniqlab va undan keng xalq ommasini ogohlantirishimiz kerak. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g‘oya targ‘iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntirishimiz kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’kidlanganidek, “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir”.[18] Ushbu teran fikrlarning mazmun mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlarning ongiga, qalbiga singdirishimiz zarur. Bugungi kunda yoshlarni vaqtini behuda ijtimoiy tarmoqlarga sarflashini oldini olish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlari, sport musobaqalari, zakovat intellektual o‘yinlari tashkil etib kelinmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish uchun turli o‘quv kurslari, IT markazlari tashkil etilmoqda. Bugungi globallashuv davrida yoshlarni internet, ijtimoiy tarmoqlardan chetga tortib olishning iloji yo‘q. Shu sabab ham ularni to‘g‘ri yo‘naltira olsak, ko‘zlangan maqsadga erishishimiz mumkin. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda foydali, yoshlar ma’naviyatini yuksaltiruvchi ko‘rsatuvlar, video roliklar, kino, serial va badiiy filmlar suratga olishimiz va namoyish etishimiz, internetda milliy saytlarimizni yaratishimiz va bularda yoshlarbop ruknlar ochishimiz, shu vositalar orqali milliy g‘oyani singdirib borishimiz, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish mavzusida ilmiy loyihalar tayyorlashimiz kerak.

[18] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// Jamiyat, 2019-yil, 31-avgust.

XXI asr- o‘z navbatida internet asri, raqobatbardosh kadrlar asri deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi davrda davlatning ravnaqi, kuchi hamda salohiyati ko‘p jihatdan xalq ma’naviyatining yuksakligiga va pokligiga, yoshlarning intellektual savodxonligiga, ular ongi, ichki dunyosi va qalbida milliy g‘oyaning nechog‘lik rivojlanganligi bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetning
qanchalik shakllangani, ma’naviy bo‘shliq qanday ma’lumotlar bilan to‘ldirilgani yuqoridagi holatlarni baholashda bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi.

Bugungi davrni raqobatbardosh kadrlar davri deb atayabmiz. Biron-bir kadr faqat o‘z sohasiga tegishli bo‘lgan bilimlarni egallashdan tashqari kompyuter texnologiyalaridan keng foyadlana olishi, xorijiy tillardan birida erkin so‘zlasha bilishi talab etilmoqda. Buning uchun esa ko‘proq o‘z ustimizda ishlashimiz, o‘rganishimiz, izlanishimiz talab etiladi. Vaqtimizni ijtimoiy tarmoqlarda keraksiz narsalarga emas, to‘g‘ri va kerakli narsalarga sarflashimiz, bor kuch g‘ayratimizni ona vatanimizni rivojlantirishga, ertangi baxtli va porloq kelajakni barpo etishga, uchinchi renessans poydevorini yaratishga sarflashimiz darkor.

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTERNET-GLOBAL AXBOROT TARMOG'INING YOSHLAR HAYOTIGA KO'RSATAYOTGAN TA'SIRI VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

**Muxammadiyev J.I. – talaba, TDPU.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5847-sonli Farmonida talaba yoshlar orasida ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish haqida to'xtalib, "... insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash" muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati"ning 5- moddasida "Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari" belgilangan bo'lib, bunda yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish alohida qayd etilgan. Darhaqiqat, har bir talaba ilm va ma'rifatni egallamog'i unga eng avvalo chinakam insoniy fazilatlarni, ma'naviy yetuklikni va axloqiy barkamollikni singdirish asosiy vazifalaridan biridir. Yosh avlodning har tomonlama barkamol voyaga yetishi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta o'zlashtirishi, iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoitlarlardan unumli foydalana olishi shartdir.

Dunyo miqyosida 1,8 milliard yosh avlod vakillari bor. Jumladan, "O'zbekiston aholisining deyarli teng yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi"[19]. O'zbekiston aholicining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Yoshlarning 9,5 millioni erkak, 9,4 millioni esa ayol jinsiga mansub. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 - 2020 yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30-iyun — «Yoshlar kuni» deb e'lon qilindi[20].

Axborot texnologiyalari jamiyatning hamma sohalarini egallab, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tobora zamonaviylashuvini, takomillashuvini ta'minlamoqda va fundamental, ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng yangi yutuqlaridan unumli foydalangani holda barcha fanlarning muntazam rivojiga shart-sharoit yaratdi. Buning natijasi o'laroq biotexnologiya, genmuhandisligi (geninjeneriya)ga asoslangan qishloq xo'jaligi, turli innovatsiyalar, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat va telekommunikatsiya aloqalari va kompyuter texnologiyalariga asoslangan xizmat ko'rsatish sohalari vujudga keldi. Hozirgi davrning mazmuni va mohiyati intellektual bilim davri va "bilimga asoslangan" jamiyatdir. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida internet bepoyon axborot maydoniga aylandi. "Axborotlashuv jarayoning asosiy sub'ekti va harakatlatiruvchi kuchlari manfaatlariga xizmat qiladigan bunday sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan ananaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan yagona tamaddun hukumronligini o'rnatishdan iborat".

Internetning yoshlar hayotiga ijobiy ta'siri haqida to'xtaladigan bo'lsak: internetdan foydalanish yoshlar o'rtasida ijodkorlik va innovatsiyani rivojlantirish bilan birga ularning turmush darajasini ham yaxshilamoqda. Ya'ni uyda turgan holda internet orqali ish topib, moliyaviy daromadi yaxshilanyapti. Ularga qaysidir jihatdan kuch beryapti, ko'pgina onlayn kontent va bloglar yoshlarning o'z munosabatini o'zgartirish, yangi ko'nikmalarga ega bo'lish va o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanish, shuning bilan birga jahon siyosiy yangiliklaridan xabardor bo'lmoqda. Bu esa yoshlarning o'z hayotini faol mas'uliyatini o'z zimmasiga olishiga urg'u beradi.

Endi esa internetning yoshlar hayotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalamiz. Eng birinchi o'rinda internet yoshlar xarakteriga, ongiga ta'sir ko'rsatyapti, ya'ni internet orqali inson ongini buzadigan

---

[19] https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoyev-turkiy-kengash-sammitida-yoshlarga-oid-muhim-tashabbusini-ilgari-surdi_320235

[20] "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zb Re Vazirlar mahkamasining 18.01.2021-yildagi 23-sonli qarori https://lex.uz/docs/5234746

turli kino, videolarni tomosh qilishyapti. Masalan turli pornografik videolarni ko‘rishi, bu esa erta balog‘atga yetishni tezlashtiryapti. Yoshlar o‘zlari ko‘rgan narsalarni amalda qo‘llashni xohlasalar, bu axloqiy fazilatlarning buzilishiga olib keladi. Bugungi kunda yoshlar o‘zlarining fikrlarini erkin bildira olishmayotganligi, mustaqil fikriga ega emasligi, chunki ular hamma narsani internet orqali topish mumkinligiga ishonishyapti.

Yoshlar o‘rtasida internetdan foydalanish, ayniqsa, boshqalardan internetni o‘g‘irlagan yoshlar uchun korrupsiya zonasiga aylandi. Yoshlar internetdan boshqalarning akkauntini buzib, pul o‘g‘irlashlari yoki muhim ma’lumotlarga kirishlari hamda ma’lumotlardan ularni omma oldida kamsitish yoki undan naqd pul so‘rash uchun foydalanishlari sababli kiberjinoyatlar ko‘paymoqda. Ko‘p hollarda bu yoshlarni muammolarga duchor qildi, chunki ular qo‘lga tushganda, ular ko‘p hollarda ularni qamoqqa yuboradigan huquqiy oqibatlarga duch kelishadi.Bundan tashqari yana yoshlar internet orqali turli qimor o‘yinlarini o‘ynashmoqda, qimorda yutqazib qo‘yib o‘z joniga qasd qilgan yoshlar ham hayotimizda uchrab turibdi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatyaptiki, aksariyat hollarda yangi Internet – psixologiyasining ta’siri kuchli bo‘lmoqda. Internet axborot tarqatishning eng yetakchi manbaiga aylanib bormoqda. Hozirgi kun talabalari kutubxonama-kutubxona yurib, ma’lumot izlamaydi, mustaqil ishlarni ham qo‘lyozma shaklda yozib o‘tirmaydi. Axir Internet bor-ku! Barcha muammolarning yechimi shunda. Cheksiz mavzularda turfa ma’lumotlarni o‘zida jamlagan ulkan axborotlar omboriga aylangan Internet bugungi kun talabasining beminnat yordamchisidir. Talaba fikr yuritib, boshini og‘ritib, izlanib o‘tirmasdan, tayyor referat, kurs ishlari, mustaqil ish, maqolalarni Internetdan ko‘chirib oladi-da o‘z nomini qo‘yib, o‘qituvchiga taqdim etadi. Bir zumda ish ham tayyor, baho ham tayyor. Biroq bu ko‘chirmachilik oqibati nimaga olib keladi? Bunday laganbardorlik yoshlarni tafakkursiz robotga aylantirib qo‘yada? Eng qizig‘i shundaki, Internetdek cheksiz ma’lumotlar bazasida suzib yurgan yoshlar na aqli, na tafakkuri, na ilmi bilan o‘tmish ajdodlarimizdan ustun bo‘lolmayapti. To‘g‘ri, fan-texnika, texnologiya soat sayin rivojlanmoqda. Yoshlar ong-u saviyasi-chi? Faqat ko‘chirmachilikka tayanib, oliygohlarni bitirayotgan talaba yoshlarimizdan kelajakda nimalarni kutish mumkin? Uning bilimi siyqalashib ketishining oldini oluvchi omil bormi? O‘nlab qomusiy olimlarni yetishtirib bergan zaminimizda Uyg‘onish davrida hozirgi imkoniyatlarning yuzdan biri ham mavjud emas edi. Internet olami bizga berayotgan axborotlar zaminida yoshlarimiz maktab davridayoq daho bo‘lib ketishi kerak edi. Mantiqan olganda, axborot ko‘paygani sari ilm kuchayishi kerak. Ammo hozirgi holat bunday emas. Shayx Shibliy shunday degan ekan: “To‘rt ming hadis o‘qidim, to‘rt yuzini yod tushirdim, shundan to‘rttasiga amal qildim va maqsadimga yetdim”. Demak, hamma gap qabul qilinayotgan axborotlarning odam miyasi va tafakkurida qayta ishlanishi bilan bog‘liq. Qayta ishlanmagan axborot keraksiz tosh, ortiqcha yuk. Bunday yukning foydasidan zarari ko‘proq. Axborot ongning ovqati, u hazm bo‘lishi, qayta ishlanishi, ilmga va fikrga aylanishi kerak. Uzluksiz axborot qabul qilayotgan miya to‘ztovsiz ovqat yeb, hazm qilmayotgan oshqozonga o‘xshaydi. Oshqozon ovqatni hazm qilsagina ovqat quvvat va qonga aylanadi. Aksincha bo‘lsa, u oshqozonni ishdan chiqaradi. Falsafada analiz, sintez degan tushunchalardan foydalaniladi. Buni ayni kunda Internet va butun tashqi olamdan olinayotgan axborotga nisbatan qo‘llash ayni muddaodir. Analiz, ya’ni tahlil qilish, so‘ngra sintez, ya’ni kerakli-keraksizga ajratish – mana shu ikki amalni bajargan tarzda tashqi olam informatsiyalarini tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazish biz istagan natijaga – ilm egallashga olib kelishi mumkin.

Internet orqali inson shaxs sifatida o‘zini namoyon qiladi, ma’naviy dunyosi ilmiy saviyasini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Internetda har bir shaxs ijod qilishi, ilmiy yangilik yaratishi, intellektual imkoniyatlarini namoyon qilishi mumkin. Internet tufayli shaxs o‘zi istagancha, cheklanmagan holda o‘zining shaxsiy kamoloti haqida qayg‘urishi va ilmiy ijodiy faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Internet tizimida shaxs o‘zining aqliy qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilish uchun keng shart-sharoitlar mavjud. Internetda uning erkin ijodi yuzaga chiqadi. Bu o‘rinda mavjud shart-sharoitlardan ijodiy foydalanish nazarda tutiladi. Bunday shart-sharoitlar axborot olamida endigina o‘z-o‘zini namoyon etib kelayotgan va

axborotlarga muntazam ehtiyoj sezadigan yoshlarga zarur bo‘ladi. Axborot texnologiyalari kengayib, chuqurlashib borishi, intensiv rivojlanishi natijasida shaxsning turmush tarzi o‘zgarib bormoqda, salbiy voqelikka qarshi, harakati, tafakkuri o‘zgardi. Buning o‘ziga xos xususiyati shaxs informatsion madaniyatining o‘zgarib borishidir, mukammalashuvidir. Shaxs informatsion tizimi vositasida informatsion madaniyati shakllanishida asosiy vazifa kompyuter texnologiyalari, internet, aloqa vositalari zimmasiga yuklangandir. Bugungi kunda internet tarmog‘ida foydali ma’lumotlar bilan bir qatorda tarqatilayotgan buzg‘unchi (diniy ekstremizm, terrorizm, shafqatsizlik, konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi qaratilgan) va axloq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan axborotlar, ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda ma’naviyatga qaratilgan har qanday tahdid jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. Internetga turli ijtimoiy tarmoqlar aholining, ayniqsa yoshlarning hayotiga shu qadar chuqur kirib keldiki, uciz hayotning mazmunini tasavvur qilish imkonsiz ko‘rinadi. Barcha turdagi xolis, noxolis axborotlarning Internet va yangiliklar saytlari orqali keng tarqalishi yoshlarning ongiga, ruhiyatiga hatto kayfiyatlariga turlicha ta’cir o‘tkazib kelayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Bugungi kunda Internet tarmog‘idagi tahdidlarga qarshi kurashda vayoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishda yoshlarni ko‘proq milliy saytlarga jalb etish lozim.

Ayni vaqtda ayrim Internetga berilib ketgan yoshlar o‘zining ko‘p vaqtini behudaga sarflash bilan o‘tkazmoqdalar, buning oqibatida ularga ham psixologik, ham jismoniy zarar etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, talaba yoshidagi farzandlarimizning tom ma’nodagi ilm tolibi bo‘lmoqlari uchun bir necha omillar, ya’ni ota-ona va atrof-muhit namunasi hamda ilm-fan, adabiyot, san’at va madaniyatning nechog‘li muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutmoq lozim. Odamlarimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi va kayfiyati tubdan o‘zgarib borayotgan bugungi kunda kuchli e’tiqodli, qat’iyatli va barkamol yoshlargina yurtimiz istiqbolini ta’minlashga qodir bo‘ladilar.

# RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MANTIQIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Muxammadiyeva X.K. – PhD, dostent,**
**Tolliyeva G. – talaba, TDPU.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi yoritilib bugungi kunda ta’limning zamonaviy tendentsiyalar jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyasimazmuni bayon etlgan hamda tajriba sinov asosida olingan natijalarning samaradorlik darajasi anqlangan.

**Kalit so‘zlar**: raqamli ta’lim, indivudal, ko‘nikma, pedagogik kompetentsiya, iste’dod, innovatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish.

**Kirish:** 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi, 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va boshqa muhim strategik yo‘nalishlarga bag‘ishlangan dasturulamal hujjatlarga bog‘langanligi.[21]

Mamlakatda amalga oshirilayotgan isloxotlarda vorisiylik: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” mavzusidagi 2017-yil 14- yanvardagi ma’ruzasida ilgari surilgan g‘oyalar mazmuni o‘rganish nazarda tutilgan.

Bugungu kunda jahon oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, malakali kadrlarni tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim kontsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilanib, bu esa sifatli ta’lim berish, o‘zlashtirish darajalarini baholash usullarini takomillashtirish va talabalar intellektual darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi.

Yevropada o‘qitish tizimlarining amaliyotga joriy qilinishi talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, didaktik, kreativ, integrativ, ijodiy, kasbiy bilimlardan samarali foydalanish raqamli texnologiyalarini hayotga tadbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati kuzatilmoqda.

Bugungi kunning zamonaviy odamiga endi faqat fan bilimlari yetarli emas, unga xalqaro tajribalar bilan integratsiyalashtirilgan mavzu bilimlari hamda ko‘nikmalari kerak”. Shuningdek olimning bilim tushunchasiga, “raqamli ta’lim olamida bilim tobora o‘limga aylanib borayotganini ta’kidlagan fikrlarini keltirish o‘rinlidir, chunki bugungi haqiqat ertaga yolg‘onga, saralamasdan o‘zlashtirilgan bilimlarimiz esa dushmanga aylanishi mumkin.

Maktab o‘quvchilari va talabalar, eng avvalo, o‘rganishni, o‘rganishni va qayta o‘rganishni o‘zlashtirishlari kerak. Ertangi savodsiz odam o‘qiy olmaydigan odam emas, balki o‘rganish ko‘nikmalarini o‘zlashtira olmagan odam hisoblanadi”.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta’limtarbiya borasidagi ta’limiy trayektoriya muzmunining boyishiga yo‘naltirilgan vazifalarning muhim yo‘nalishi namunali dunyoqarashga ega, faoliyatga doir kompetensiyalarni yuqori darajada egallagan, jamiyat ravnaqi hamda shaxs kamolati uchun xizmat qiladigan, rivojlanish istiqbollarini mas’uliyat bilan belgilovchi kadrlar tayyorlash masalasiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

---

[21] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi “2022 — 2026 yillarda o‘zbekiston respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-165 son Farmoni

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Uchinchi Renessans poydevorini mustahkam barpo etishga qaratilgan innovatsiyalarga boy o‘qitish uslubi talabalarga tizimlashtirilgan bilimlar majmuini emas, balki ularning ma’naviyatini vatanparvarlik tuyg‘usi bilan boyitishni, shuningdek, kutilmagan vaziyatlarda ham o‘z kasbiy salohiyatidan unumli foydalanishni, atrof-muhitda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tanqidiy va tahliliy baholay olish hamda bashorat qilish iste’do dini ro‘yobga chiqara oluvchi kompetensiyalar jamlanmasini taqdim etishi lozim. Bizningcha, “har bir ilm beruvchi maskan, har bir auditoriya zamonaviy ta’limning pirovard maqsadini bilimdan kompetensiyaga olib chiqishi kerak.

Bu shuni anglatadiki, Uchinchi Renessans davrida zamonaviy ta’limning pirovard maqsadi, bilimli, mustaqil fikrli, raqobatbardosh, vataniga sadoqatli, yangi dunyoga moslashuvchan yoshlarni tarbiylashni nazarda tutadi”

Ta’lim tizimlarida bilimlarni nazorat qilishning ikki tamoyilidan foydalaniladi: o’rganuvchining mavzu predmet sohasida bilimlari va talabalarning harakatlarini baholash qoidalari asosida uning harakatlarini baholash va bilim darajasini aniqlash; tanlab olingan maxsus vazifalar to’plami va talabaning ularga bergan javoblari bo’yicha standartlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish.

So’nggi davrlarda an’anaviy “nazorat” tushunchasining o’rniga, “tashxis” tushunchasidan tashqari “monitoring” tushunchasi qo’llanila boshlandi. “Pedagogta’lim oluvchi” tizimida monitoring deganda ta’lim berish jarayoni maqsadlarini belgilashdan kelib chiqqan va ta’lim oluvchining o’zlashtirish darajalarini dinamikada nazarda tutadigan nazorat va tashxis qo’yish tadbirlarning yig’indisi tushuniladi.

Baho, baho qo’yish – o’qituvchi va talaba o’rtasidagi bir martalik harakat yoki o’zaro faoliyat bo’lib, uning natijasi ta’limning muayyan bosqichida subyekt yutuqlarini aks ettiruvchi miqdoriy yoki sifatiy natijadir. Ta’lim olish natijalarini baholashda nazorat, natija, tekshirish, o’lchash, kuzatish, tahlil, xulosa chiqarish, o’rgatilganlik, daraja, ko’rsatkichlar mavjud.

Hozirgi paytda bilimlarning tez eskirayotganligi, yangilarining yaratilish shiddati, taraqqiyotning to‘xtovsiz talablari o‘qituvchini doimiy ravishda faniga oid yangiliklarni o‘zlashtirish, mustaqil o‘qish, izlanuvchan bo‘lishni taqozo qiladi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslari davomida kredit modul sharoitida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini indivudal ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tadbirlar vositasida modellashtirish jarayonlariga doir xulosalarni keltiramiz.

Jarayon to‘rt pog‘onada amalga oshiriladi: - diagnostik-propedevtik bosqichda dastlab tashxislash va maqsadni belgilash ishlari olib borildi. Unda o‘qituvchilarga ko‘rsatiladigan metodik yordam maqsadi, mazmuni va amalga oshirish shakllari muhokama qilinadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda qator yondashuvlarning imkoniyatlari o’rganilgan.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida mantiqiy kompetentsiyalar tizimini qurishda faoliyatli yondashuv quyidagilarga asoslanish zarur: oliy ta’lim muassasalari talabalarini o’quv faoliyatining to’laqonli subyektiga aylanishlari uchun qulay sharoitlarni yaratishlari zarur; oliy ta’lim muassasalari talabalarini pedagogik mantiqiy kompetentsiyalarini o’rganish motivasiyasi ular tomonidan kasbiy-ahamiyatli ehtiyojlarga asoslashnishini hisobga olish zarur; pedagogik mantiqiy kompetentsiyalarini sohasida kasbiy bilim, malaka egallashga yo’naltirilgan bo’lajak o’qituvchilarning xatti-harakatlari va operasiyalari, vositalari va muhit sharoiti, o’quv faoliyatini nazorat qilish va baholash shakl hamda metodlarini aniqlash zarur; tizim o’qituvchi va talaba, subyekt-subyekt sharoitlarida amalga oshirilishi shart; o’qituvchilar baholash faoliyatining mantiqiy kompetentsiyalarini aspekti

faoliyatli yondashuv asosiy tushunchalarida ifodalanishi zarur va ushbu ma’lumotlar talabalarda mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda o’z aksini topishi shart.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimii bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, o‘quvchilarini bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Bu maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi: bo‘lajak o‘qituvchilar mantiqiy kompetentsiya nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar; pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini egallaydilar; bo‘lajak o‘qituvchilar milliy urf-odat va an’analarimizda va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar; egallangan pedagogik psixologik va metodik bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining shaxsiy mantiqiy kompetentsiyasini shakllantiradi; o‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtiradilar; o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar; tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to‘g‘risida o‘qituvchilar uzluksiz ma’lumotlarni o‘rganib boradilar; zamonaviy raqamli texnologiyalari tizimidan erkin foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Adabiyotlar ro‘yxati:


1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son farmoni.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 304-son qarori.

5. Nafasov G. Model of Developing Cognitive Competence at Learning Process Elementary Mathematics //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

6. Abdullayeva B. S., Nafasov G. A. Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions //Bulletin of Gulistan State University. – 2019. – T. 2020. – №. 2. – С. 12-17.

7. Abdurashidovich N. G. Theoretical Basis Of Development Of Cognitive Competence Of Students Of Higher Education Institutions In The Process Of Teaching Elementary Mathematics //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2021. – T. 8. – №. 1. – С. 789-806.

8. Muxammadeva, X. K O‘quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(3), 1284-1288.

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA KASR TUSHUNCHASI VA UNI O‘RGATISH BOSQICHLARI

**Nabiyeva H.B. –talaba, TRTU.**

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda masala tushunchasi.masala mohiyati,bosqichlariva turlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Masala,qisqa shart, yechim, javob boshlang’ich sinf.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo’lida borayotgan mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy,ma’naviy rivojlanishlari jamiyatimiz hayotida ko’plab o’zgarishlarni amalga oshirdi.Shulardan biri uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, yangi sifat bosqichiga olib chiqish, unda ilg’or pedagogik texnalogiyalarni joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish  davlat siyosatiga ko’tarildi. Bunga yaqqol namuna qilib 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan.

Boshlang‘ich sinflarda matematikadan masalalar yechish oquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, oz fikrlarini mustaqil bayon qila olishga, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarda qollashga xizmat qiladi.

Har bir masala berilgan (ma’lum) va izlanayotgan (noma’lum) sonlarni oz ichiga oladi. Masaladagi sonlar, toplamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi, munosabatlarni ifodalaydi yoki topilishi kerak bolgan noaniq sonlar boladi.Boshlanğich sinflarda matematikadan masalalar yechish oquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, oz fikrlarini mustaqil bayon qila olishga, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarda qollashga xizmat qiladi.

Har bir masala berilgan (ma’lum) va izlanayotgan (noma’lum) sonlarni oz ichiga oladi. Masaladagi sonlar, toplamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi, munosabatlarni ifodalaydi yoki topilishi kerak bolgan noaniq sonlar boladi.

Masala yechish rejasi 4 bosqichdan iborat.

I bosqich. Masalani tushunish

Sizga nima berilgan va sizdan nimani topish yoki isbotlash so'ralayapti? Masalani o'z tilingizda ifodalab oling.

Qanday ma'lumotlar berilgan? Masalada qaysi matematik obyekt yoki tushuncha va uning qaysi xossalari haqida so’z boradi? Ular haqida nimalarni bilasiz? Masala shartidagi muhim ma'lumotlarni aniqlab oling.

Masala shartiga ko’ra imkoni bo‘lsa chizma chizib oling. Bu sizga masalani oydinlashtiradi.

Sizga yana qanday ma'lumotlar, tushuncha, qoida va xossalar kerak bo’ladi? Matematik obyektning masala shartida berilgan elementlari va topish talab qilinayotgan elementlari orasidagi bog’lanishlar haqida barcha ma’lumotlarni, qoida va xossalarni eslang. Masalada qo’yilgan savolga javob berish uchun qanday ma'lumotlar kerakligini aniqlab oling.

Masalada gap borayotgan matematik tushuncha yoki obyekt va uning elementlari haqida hamma zarur ma'lumotlar berilganmi? Masalani yechish uchun barcha ma'lumotlarni aniqlang .

II bosqich. Reja tuzish

Oldin shunga o'xshash masalani yechganmisiz? Berilgan masalaga o'xshash yechilgan boshqa masalalarni eslab ko'ring.

Qaysi xossa yoki qoidalardan foydalanish mumkin?

Masalani yechish uchun qanday yo'l tutasiz? Masalani yechish yo'lini tanlang va qanday amalga oshirish rejasini tuzing.

III bosqich. Masalani yechish rejasini amalgam oshirish

Tuzilgan rejaga muvofiq qadam-baqadam masalani yeching. Har bir qadamni ko'rsatib boring.

Rejaga ko’ra agar lozim bo’lsa, chizmada yordamchi elementlarni ham chizing.

Javobni yozing.

IV bosqich. Tekshirish

Berilgan savolga javob berdingizmi? Haqiqatan ham masalaga qo'yilgan savolga javob topganingizni tekshiring.

Topgan yechimingiz masalani qanoatlantiradimi?

Masalani boshqa yo'l bilan ham yechish mumkinmidi? Masalani siz yechgan yo'ldan yaxshiroq boshqa yo'l haqida o'ylab ko'ring kabi savollar yordamida madala yechishning turli yòllari topiladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematikadan qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni olib borishda o‘quvchilarning nutq madaniyatini va matematik tafakkurini shakllantirishga zamonaviy holda yondashish kerak deb hisoblaymiz. Qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni tashkil etishda arifmetik masalalarni yechishni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish deb olib quyidagi vazifalarni hal etdik:

- boshlang‘ich sinflarda matematikadan qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni turlarini o‘rgandik;

- boshlang‘ich sinfda matematikadan qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni tashkil qilish metodikasini ,arifmetik masalalar o’rgatishdagi samarali metodlarni amaliyotga tadbiq etdik va yaxshi natijalarga erishdik.

Biz boshlang‘ich sinfda qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni tashkil etish metodikasi, ya‘ni boshlang‘ich sinfda qiziqarli

didaktik to’garaklarni tashkil etish bo‘yicha tavsiya, turli xil interfaol metodlardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar bayon etdik. Har bir to‘garakni 36 soat

uchun mo‘ljallangan qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni ishlanmalari misol va masalalar bilan keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida qo’shish va ayirishga oid murakkab masalalarni yechish muntazam ravishda olib borish zarur deb

hisoblaymiz va Kurs ishida ishida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezident lavozmiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. – T.: O’zbekiston, 2016.

2. O’qituvchi nimalarni bilishi kerak? (o’quv metodik qo’llanma) N.M.Bekniyozov. Toshkent – 2016.

3. Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya”si “Harakatlar strategiyasi” “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnalogiyalari, kitob o’qishga qiziqishni oshirish bo’yicha 5 muhim tashabbus”

4. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Toshkent – 2010.

5. S. Burxonov, O‘. Xudoyorov, Q. Norqulova. 3-sinf uchun matematika darslik “SHarq” nashiryot-matbaa aksiadorlik kompaniyasi bosh tahriryot Toshkent – 2016.

# ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Наримбетова З.А.- DSc, дотцент,**
**Жумамуратова Г.Б. - магистрант, Чирчикский ГПУ,**

**Аннотация:** В данной статье говорится о влиянии математических знаний на эстетическое формирование личности учащегося начальных классов.

**Ключевые слова:** Симметрия, математика, метод, анализ математические понятия, математическая структура.

Математика — единственный предмет, который учит учащихся организации мышления, точности изложения и ясности определений. Фактически, другие предметы, которые учат студентов просто, но точно выражать свои мысли, дают четкое объяснение конкретной темы. В математике мы применяем опыт записи условий задачи на математическом языке. Поэтому следует обратить внимание на то, что математика как учебный предмет в школе играет важную роль в эстетическом воспитании учащихся начальных классов.

Эстетическое воспитание студентов играет важную роль в процессе формирования совершенной личности. В связи с этим роль математики в эстетическом воспитании учащихся невозможно переоценить;

Математика богата красивыми формулами и доказательствами, позволяет определять целые части и имеет большое значение для эстетического воспитания.

Поэтому в математике, в отличие от других наук, выражается важнейшее качество научной красоты — единство в многообразии. Математика открывает человеку красоту взаимосвязей в природе, раскрывает внутреннее единство мира.

Итак, математика – это не только самостоятельная наука о “математических структурах”, но и язык других наук, язык единый, универсальный, точный, простой и красивый. Хорошо сказал об этих качествах математики советский математик С.Л.Соболев: “Есть одна наука, без которой невозможна никакая другая. Это математика. Ее понятия, представления и символы служат языком, на котором говорят, пишут и думают другие науки. Она объясняет закономерности сложных явлений, сводя их к простым, элементарным явлениям природы. Она предсказывает и предвычисляет далеко вперед с огромной точностью ход вещей”.

Что можно рассматривать на уроках математики, предвещающих красоту, стройность, закономерность? И как это связать с искусством и живописью?

В процессе преподавания математики имеются широкие возможности показать ребятам, что эстетическое наслаждение доставляет не только искусство, но и радость творчества в других сферах деятельности, в том числе и в учении. Для творческой работы мысли в школьную математику предоставляются большие возможности.

Большой интерес у учащихся вызывает научная литература, в которой изложение поднимается до художественной образности. Перечислим некоторые из таких книг:

Вейль Г. «Симметрия», Адамар Ж. «Исследования психологии процесса изобретения в области математики», Пойа Д. «Математика и правдоподобные рассуждения», Ренье А. «Трилогия о математике» и многие другие.

По словам О. В. Черника: «Эстетический потенциал математики – это совокупность возможностей ее эстетического воздействия, результатом которого является возникающее у учащихся чувство, в котором учащиеся познают специфически эстетическое качество – красоту». Следовательно, учитель из урока в урок должен показывать, как бесконечно прекрасна сама жизнь, обладающая уникальными способностями самосовершенствования и самоорганизации.

Возможности применения эстетического фактора на уроках математики связаны с постоянным совершенствованием методики преподавания, поиском путей повышения эффективности урока. Раскрытие эстетического в математике не может не увлечь, не заинтриговать учащихся, привлекая их к нашему предмету. Но не только в этом следует учителю видеть цель эстетической работы. Научить юного гражданина ценить прекрасное в жизни — значит обогатить его духовный облик.

Жизнь настоятельно требует сегодня сделать эстетику не гостьей на уроке, а эффективным методом повышения качества воспитания и преподавания.

Литература:

1.Волькенштейн М. Кросата науки//Наука и жизнь.1988. №9.С.15-19

2. Неменский Б.М. Мудрость красоты: о проблемах эстетического воспитания: Книга для учителя /Неменский Б.М.–М.:Просвещение, 2020**.** – 192 с.

3.Математика.Учебник. (1-4) кл.

4.Черник О.В. К вопросу об эстетическом потенциале математики // Проблемы современного математического образования в педвузах и школах России: Тез. докл. II межрегион, науч. конф. -Киров: Изд-во Вят. гос. пед. ун-та, 2001. - С. 125-126. (0,05 печ. л.)

# MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES OF LEARNING ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF A CULTURAL AND LINGUISTIC PERSPECTIVE

**Nazarova Z.F. –Inter-nation English language center**

**Annotation:** This thesis delves into the intersection of modern methodologies, technologies, culture, and language in the realm of learning English. It explores how contemporary approaches and digital tools enhance language acquisition and cultural understanding. By investigating the impact of cultural immersion, interactive platforms, and digital resources on language learning outcomes, this research aims to illuminate effective strategies for learners navigating diverse cultural contexts.

**Key words:** English, culture, language learning, digital, traditional methods, multimedia resources, innovative approach, vocabulary

**Introduction:** In the realm of language learning, the significance of incorporating culture alongside language acquisition cannot be overstated. As individuals embark on the journey to master English or any foreign language, they are not merely learning a set of grammar rules and vocabulary; they are delving into a rich tapestry of cultural nuances, historical contexts, social norms, and linguistic subtleties that shape the way the language is used and understood. Culture and language are inherently intertwined, with each influencing and shaping the other in profound ways. Language serves as a reflection of culture, embodying the values, beliefs, traditions, and identity of a particular community or society. By immersing oneself in the cultural aspects of a language, learners gain a deeper understanding of its nuances, humor, idiomatic expressions, and social etiquettes, all of which are essential for effective communication and meaningful interactions. Moreover, incorporating culture into English learning fosters a sense of empathy, tolerance, and respect for diverse perspectives and ways of life. It enables learners to transcend linguistic boundaries and connect with people from different cultural backgrounds on a deeper level, fostering cross-cultural understanding and appreciation. By integrating cultural elements into English language education, learners not only enhance their linguistic proficiency but also develop a broader worldview and cultural competence.

**Literature analysis and methodology:** Numerous studies have explored various language learning methodologies and technologies to identify the most effective approaches for learners. Traditional methods such as grammar-translation and audio-lingual approaches have been compared with more modern communicative and task-based methods. Research has shown that communicative approaches, which emphasize real-life communication and interaction, are more effective in promoting language fluency and proficiency. Research on language learning methodologies and technologies is a dynamic field that continuously evolves to enhance the effectiveness of language acquisition. Various studies have explored traditional and modern approaches, as well as the integration of technology, to optimize language learning outcomes. To illustrate Grammar-Translation Method; this traditional approach focuses on memorizing grammar rules and vocabulary with an emphasis on translation exercises. Research has shown that while this method helps in understanding grammar structures, it may not promote practical language use and communication skills effectively.

**Results:** Research indicates that the communicative approach, which emphasizes real-life communication and interaction, has a significant impact on English language learning outcomes. Communicative Approach: The communicative approach prioritizes real-life communication and interaction in language learning. Research indicates that this method enhances language fluency, promotes meaningful communication, and fosters a communicative competence that goes beyond grammar and vocabulary. Task-Based Learning: Task-based learning focuses on completing tasks in the target language,

encouraging learners to use language in authentic contexts. Studies have shown that this method enhances learners' language proficiency, critical thinking skills, and problem-solving abilities. Language Learning Apps: Mobile applications offer interactive and engaging ways to learn languages, providing features such as vocabulary exercises, grammar drills, and pronunciation practice. Research suggests that language learning apps can improve motivation, retention, and self-paced learning among users. Online Platforms: Virtual language learning platforms offer a range of resources, including online courses, live sessions with instructors, and interactive exercises. Studies have shown that online platforms facilitate access to language learning materials, promote self-directed learning, and cater to diverse learning styles. Virtual Reality and AI-Powered Tools: Immersive technologies such as virtual reality simulations and AI-powered language tutors provide realistic language learning experiences and personalized feedback.

**Discussion:** Classes conducted on implementing the cultural context in language learning have proved o be more engaging thank to analysis of data on cultural immersion, digital tools, and interactive platforms in language learning. Participants in the study were exposed to three different learning environments: cultural immersion programs, digital tools (such as language learning apps), and interactive platforms (such as virtual classrooms). Data was collected through pre- and post-assessments, surveys, and observations to measure the impact of each learning environment on language proficiency and cultural competence. Participants who engaged in cultural immersion programs showed significant improvements in language proficiency, as measured by speaking and listening assessments. In addition cultural immersion led to a deeper understanding of cultural norms, expressions, and communication styles, enhancing participants' cultural competence and sensitivity. While digital tools may lack the immersive cultural experience of physical immersion programs, participants showed increased cultural awareness through exposure to authentic materials and cultural content.

**Conclusion:** In conclusion, the analysis of data collected from participants supports the significant role of cultural immersion, digital tools, and interactive platforms in enhancing language proficiency and cultural competence. By incorporating these diverse learning experiences, educators can create enriching language learning environments that empower learners to effectively communicate in English while developing a deep understanding of cultural contexts and intercultural interactions. The data analysis indicates that cultural immersion programs have a substantial impact on both language proficiency and cultural competence, providing a holistic language learning experience. Integrating cultural immersion experiences, digital tools, and interactive platforms in language education can create a comprehensive learning environment that addresses both linguistic and cultural aspects of language learning. Educators and language learners can leverage a combination of these approaches to optimize language learning outcomes, promoting not only language proficiency but also cultural sensitivity and intercultural communication skills. Continued research and evaluation of the effectiveness of these methods are essential to tailor language learning experiences to the diverse needs and preferences of learners in a rapidly evolving digital and globalized world.

References:

1. Eli Hinkel. - "Culture in Second Language Teaching and Learning"
2. Patrick R. Moran- "Teaching Culture: Perspectives in Practice"
3. Claire Kramsch - "Language and Culture Pedagogy: From a National to a Transnational Paradigm"
4. Petra D. Robinson- Title: "Culture as the Core: Perspectives on Culture in Second Language Learning"
5. Michael Byram, Adam Nichols - "Intercultural Language Teaching and Learning"

# TEXNOGEN ZONALARDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Nazarova M.G. - katta o‘qituvchi, Olmalik filiali, TDTU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnogen zonalarda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik va texnika asoslari o‘rganilgan. Bundab tashqari texnogen zonalarda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlanishining pedagogik-psixologik asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, psixologik trening.

**Kirish.** Bugungi kunda texnogen zonalar muammosi butun dunyo bo‘ylab ishlaydigan bo‘lib, unga bog‘liq holda faoliyat yuritadigan mutaxassislarga talablar ham yoki tekshirish. Texnologik jarayon sanoat, energetika, transport va boshqa turli texnogen jarayonlar atrof-muhitga katta miqdorda tug‘diruvchi mahsulot keladi. Shu sabab, texnogenlarda faoliyat ko‘rsatuvchi texnik xodimlarni milliy bilimlar bo‘lishlari, balki ekologik muammolar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zonalari, keyingi ko‘ra olish kabi ko‘proq rivojlanishini zarur. Uch texnogen zonalarda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik va texnika asoslarini ko‘rib chiqadi.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikning amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, V.I.Lupandin), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi (O.O.Gonina, M.Kaplan, L.Nuguist); faoliyat tuzilmasidagi alohida hatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’minotchisi (A.A.Blaginin, G.Birkgoff), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo‘llovchi (S.P.Destra, S.Dollinger) sifatida o‘rganishgan [4].

Jahon psixologiyasida ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosini tadqiq qilishga nisbatan asosan ikkita yo‘nalish ko‘rsatib o‘tilgan: kasbiy rivojlanish, shaxsning kamol topishiga yo‘naltirilgan va kasbiy shakllanishning ijtimoiy tomonlari va omillariga yo‘naltirilgandir.

Rossiyalik olimlardan L.I.Ansiferova, D.N.Zavalishina, A.F.Anufriyev, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, A.V.Pankratov, N.I.Chuprikova, E.P.Ilin, A.A.Derkach, V.G.Zazikin, I.A.Zimnyaya, Yu.G.Tatur va boshqalar tomonidan so‘nggi yillarda kompetentlik va kompetensiya masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin.

Jumladan, M.Argayl kasbiy sifatlar va individning kasbiy shakllanishi orasidagi bog‘liqlik mavjudligi haqida fikr yuritib, quyidagilarni mujassamlashtirgan murakkab jarayon ekanligi ta’kidlagan: kasbiy treninglar, faoliyatni amalga oshirishga nisbatan qo‘yiladigan talablar va standartlarni o‘zlashtirish, mehnat jamoasi doirasida xulq-atvor me’yorlarini tushunish.

Aynan mehnat jamoasidagi boshqa shaxslar bilan o‘zaro hamkorlik individga o‘zi egallab turgan kasbning aniq standartlarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Kasbiy me’yorlarga amal qilish individga kasbiy sifatlarni o‘zida shakllantirishga va o‘z mavqeini uzoq vaqt saqlab turishga zamin hozirlaydi. Kasbiy sifatlar ushbu yondashuvda uzoq vaqt davom etadigan kasbiy faoliyat bilan bog‘liq kasbiy mavqega yaqin tavsifnoma sifatida izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy rivojlanishni tahlil qilishda asosiy e’tibor qaror qabul qilishga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda asosiy urg‘u insonning kasbiy rivojlanishidagi muammoli vaziyatlarni qabul qilish va ularni bartaraf etish usullarini bilishini tahlil qilishga qaratiladi. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash borasida qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi;

- real imkoniyatlarni aniqlash;
- imkoniyatlarni qator mezonlar yordamida baholash (omad va omadsizlik tizimini baholash;
- mashhurlikni yoqtirmaslik, rag‘batlantirish yoki qanoatlantirish;
- kasbiy karyeradagi o‘sish, ishlab chiqarish faoliyatidagi qiyinchiliklar, ta’lim va ish joyidagi mavqe),
- adekvat imkoniyatlarni tanlash va amalga oshirish, qarorlarning ijtimoiy dinamika bilan muvofiqligi va boshqalar.

1. Texnogen zonalar asosida va muhandislik faoliyati.

Texnogen zona insonning jarayonlari tabiiy ekologik vaziyatga mos ravishda, u yerda ishlab chiqarish jarayonlari, yoki shikastlanishning ko‘p yig‘ilishi mumkin. Bunday zonalarda ishchilar ekologik toza-xatarlarga tayyor bo‘lishlari, texnologik jarayonlarni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashlari va ekologik xavfsiz holatga keltirishlari kerak.

2. Pedagogik asoslar.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda pedagogik tizimning ahamiyati katta. Ta'lim jarayonida barqaror, ekologik mas'uliyat va texnogen zarur-tarlarni boshqarish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi kerak. Pedagogik yordam yo‘nalishlar bo‘yich

Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish: Texnogen zonalarda ishlash uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lab o‘rganish muhim. Amaliy mahsulotlar orqali talabalarga real mahsulot ishlab chiqarish, mahsulotlarni hal qilish va oziq-ovqat mahsuloti haqida mahsulotlar kerak.

G‘arb olimlari texnogen zonalarda ishlaydigan muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan turli xil tadqiqot ishlarini olib borishdi, bunda texnik, ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalar kombinatsiyasiga urg‘u berildi. Masalan, Boyatzis va boshqalar. muhandislar samaradorligi va ishtirokini oshirishda hissiy va ijtimoiy intellektning (ESI) muhimligini ta'kidladi. Ular ESI, xususan, tengdoshlar tomonidan baholangan vakolatlar muhandislarning ish faoliyatini sezilarli darajada bashorat qilishini aniqladilar. Boshqa tadqiqotlar texnogen zonalar kabi murakkab muhitlarda texnik muammolarni hal qilish va moslashuvchanlikni oshirish uchun Challenge-Based Learning (CBL) kabi innovatsion o‘qitish usullarini integratsiyalashuviga urg‘u beradi.

Bundan tashqari, amaliy ta'limga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar, masalan, simulyatsiyaga asoslangan treninglar va real hayotiy misollar, texnogen zonalarning noyob talablariga muhandislarni tayyorlashda samarali ekanligi isbotlangan. Ushbu usullar muhandislarga tanqidiy fikrlashni, moslashuvchanlikni va o‘z ishlarining atrof-muhitga ta'sirini yumshatishda muhim bo‘lgan barqaror amaliyotlarni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, G‘arb olimlari texnogen zonalarning qiyin muhitida rivojlana oladigan barkamol muhandislarni tarbiyalash uchun texnik va psixologik tayyorgarlikni birlashtirish muhimligiga rozi. Bu kombinatsiya bo‘lajak mutaxassislarga risklarni samarali boshqarish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bahriddinova, N. M., Nematova, L., Hasanova, Z. D., Salomov, B. K., & Khamidov, Y. Y. (2020). Analysis of ecological and toxicological safety of agricultural raw materials of Uzbekistan.Journal of Critical Reviews, 7(14), 310-312.

2. Хасанова, З. Д. (2013). Социально-педагогическая необходимость (потребность) в развитии мировоззрения у будущих учителей. Молодой ученый, (4), 618-620.

# BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA AKT QO’LLASH ASOSIDA O’QISH KO’NIKMALARI RIVOJLANTIRISH

**Ne’matov Z.-o’qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida o’qish ko’nikmasini AKT asosida qo’llash va uning dars jarayonidagi samarali tomonlari haqidagi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

**Kalit so’zlar:** multimedia ilovalari , annimatsion material , tafakkur , tasavvur , mantiqiy fikrlash , didaktik o’yin , mantiqiy fikrlash , zamonaviy pedagog.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi Davlat ta’lim standartlari bo’yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini, tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini va o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko’nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Shu boisdan ham boshlang’ich sinflar o’quv jarayonidagi bir xillikga barham berish dars jarayonini turli tumanligini , rang- barangligini ta’minlash maqsadida ilg’or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etishga mo’ljallangan o’quv-metodik qo’llanmalarni yaratish va tadbiq qilish davr talabidir. Shu bilan birga dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib o’quv jarayoni tashkil qilinganda, o’quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo’lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dars davomida o’quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun musiqali dam olish daqiqalari ham tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shunday, boshlang’ich sinflarda matematika darslarida didaktik o’yin va boshqotirmalardan foydalanish o’quvchilarning mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida o’quv jarayonini axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda shakllantirish o’qituvchidan o’quvchiga o’qituvchining ishtirokisiz mustaqil tarzda amalga oshirish uchun zarur bo’lgan elementlarni, didaktik materiallarni berish (o’quv masalalarini qo’yish, amaliy predmetli mazmunini aniqlash, har bitta alohida amallarning bajarilishi bo’yicha namunalarni ko’rsatib berish, har bir harakat va amallarning bajarilishini nazorat qilib borish, masalaning echilganligini, tugallanganligini baholash) uzluksiz tarzda ketma-ket kechadigan jarayondir. Boshlang’ich sinflarda kompyuterli o’qitish – predmetlar muhitini elementlarini o’zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O’quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang’ich ta’limning dolzarb masalalarini samarali echish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan: o’quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o’quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi; mustaqil ishlash va o’zini-o’zi nazorat qilish ko’nikmasi rivojlanadi; darsning samaradorligini va har bir o’quvchining o’zlashtirishini ta’minlaydi; har bir o’quvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlarini, ma’naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi; sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta’minlanadi.

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Kompyuterlarning o’quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko’rilmagan darajada o’qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang’ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetentsiyasi ikkita asosiy masalani

echish bilan bog’liq: bolalarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o’rgatish va o’quvchilarning o’qish va o’qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

Zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilishi, kompyuter yordamida o’qitish vositalaridan foydalana olish va uni o’quv jarayoniga tadbiq qilish ko’nikmalariga ega bo’lishi, o’z bilimini kompyuterli o’qitish bo’yicha doimo takomillashtirib borishi va hakozalar zarur. Chunki 1 -4 sinf o’quvchilarida ko’rgazmali-obrazli fikrlash rivojlangan, shu boisdan ham dars jarayonini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib tashkil qilish juda muhim. Buning uchun sifatli ko’rgazmali materiallarni maqsadli tarzda juda ko’p tayyorlash va undan foydalanish zarur, bilimni qabul qilish jarayoniga yangi ko’rinishlarni tadbiq qilish, tovushlar, slaydlar, animatsiyalar bilan. Boshlang’ich maktabda turli darslarda AKTdan foydalanish o’qitishning ko’rgazmali-tasvirli-tushuntirish uslubidan faoliyatli uslubga o’tishga imkoniyat yaratadi, bunda o’quvchi o’quv jarayonining faol ishtirokchisiga, sub’ektiga aylanadi. Bu esa o’quvchida bilimni anglagan holda o’zlashtirishga imkon yaratadi.

Shu boisdan ham zamonaviy ta’lim tizimida boshlang’ich sinflarda kompyuter texnologiyalarini qo’llab dars jarayonini tashkil qilish juda ko’p novator pedagoglar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu juda ko’pchilik pedagoglarning hayotiy ish normasiga aylanib bormoqda. AKT – bu o’qituvchi qo’lidagi juda quvvatli, ko’p qirrali, universal instrumental vosita hisoblanadi, buni egallab olishi va o’zining predmeti bo’yicha darslarda undan maqsadli foydalanishi zarur. Kompyuter boshlang’ich maktab ta’lim texnologiyasiga zamonaviy texnologiyalardan hisoblangan loyixalash texnologiyasi elementlarini olib kirishga imkoniyat yaratdi. Loyihalarni yaratish boshlang’ich sinf o’quvchisida bilim olishga bo’lgan qiziqishlarini, ijodiy va intellektual sifatlarini shakllanishiga, estetik jihatdan tarbiyalanishiga, mustaqil harakat qilishini rivojlanishiga olib keladi.

Zamonaviy o’qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ’ibotchisidir.Zamonaviy o’qituvchi tomonidan o’quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida dars mazmunidagi asosiyma’lumotlar va o’quv materiali shunday taqdim etilishi kerakki, u o’quvchining vizual idrok qilishqobiliyatini osonlashtirsin. Zero o’qituvchi ta’lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o’qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to’plamini o’zlashtirish, qayta ishlash vaamalda qo’llay olishga o’rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o’qituvchiga o’qitishning an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuterlardan foydalanish yordam beradi. Darsda kompyuterdan foydalanish o’qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o’quvchiga individual yondashish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg’or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o’tishning interfaol usullari o’z-o’zidan ta’limga kirib kelmaydi. Demak, o’qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorati talab qilinadi. Chunki o’qituvchi faoliyati yangilanmasa ta’limda samaradorlikka erishib bo’lmaydi. O’qituvchi tomonidan bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo’naltiruvchi ta’lim shakli, metod va vositalarining to’g’ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo’lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Litvinskaya I.G. Razvitie samodeyatelnosti mladshix shkolnikov v usloviyax kollektivno’x zanyatiyG’G’ Nach.shk.,№7,2001. http:G’G’www.allbest.ruG’Texnologiya obucheniya mladshix shkolnikov resheniyu zadach

2. Bikbaeva N.U. Matematika. 4. : Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.G’N.U.Bikbaeva, E.Yangibaeva, K.M.Girfanova. 2-nashr. – Toshkent.: “O’qituvchi” NMIU. 2013. – 208 b.

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI PEDAGOGIK FAOLIYATINI ZAMONAVIY SHAKLDA TASHKIL ETISH

**Ne’matov A.L. – assistant, JPI.**

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg’or tajribalar, ta’limga yondashuvi haqida tushuncha hamda zamonaviy dars o’tish usullarining o’ziga xos xususiyatlari haqida.

**Kalit co’zlar:** zamonaviy axborot texnologiyalari; innovatsion ta'lim; pedagogic soha; ilmiy – texnik taraqqiyot; axborotlashtirish; axborot-ta’lim resurslari; innovatsiya; kompyuter vositalari.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta'lim faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni qandaydir yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi.

Ta’limda innovatsiyalarning ahamiyati. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Jamiyatning har bir a’zosi, o’zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Pedagog ham o’z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmasi asosida oshirib borishi lozim. Har bir pedagog mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o’z axborot muhitini yaratishi kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalari o’z muhitida axborot obektlarini, ularning o’zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to’plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi. O’quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o’qituvchilar mehnat faoliyatining o’zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o’zgarishiga samarali ta’sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o’ziga xos vazifalarni qo’yadi:

➢pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish;

➢masofaviy o’quv kurslarini vaelektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o’qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishini;

➢o’qituvchilar o’rtasida vazifalarning bir maromda to’g’ri taqsimlanishini;

➢ta’lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi;

➢ta’limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog’liq bo’lgan murakkab jarayon yengillashadi;

➢dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko’nikma va malakalar shakllantiriladi;

➢masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo’lgan talablar va o’quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo’ladi;

➢o’quv jarayonini tashkil etishda, o’quvchining tashkilotchiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi;

Shu bilan bir qatorda, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari o’qituvchilari o’rtasida ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot o’zining ifodasini kechikibtopmoqda. O’qituvchi va o’quvchilarning fikrlashi va qabul qilish faoliyatida yangi g’oyalar, yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini o’zlashtirish ma’lum bir vaqtni talab etadi.

Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta’lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni o’z o’rnaga qo’ya bilish va uning yechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil eta olish va ushbu bilimlar asosida yangi masalalarni yechishda qo’llash uchun yo’naltirilgan.

Endilikda shaxsga yunaltirilgan ta’limning zaruriyligi barchaga ayon bo’lmoqda. Shaxsga yo’naltirilgan o’qitish – bu o’quvchining yosh va shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o’quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o’qitishdir. Shaxsga yunaltirilgan o’qitishda o’qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – o’quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o’z aksini topishi zarur. O’qituvchining har xil sathli o’qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning echimi bo’la oladi. O’quv mashg’ulotlarini o’quvchilarning kundalik fanlar majmuasi va ular bo’yicha berilgan kundalik topshiriqlar majmuasi asosida belgilanishi, har bir o’tilgan mavzuni keyingi darsda so’rab baholanadigan qilib tashkil etilishi ko’plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o’quvchilar biron bir fanga o’zlarining asosiy diqqat-e’tiborini to’liq qarata olmaydilar. Bunday notugalliklarni bartaraf etishda, modulli o’qitish eng yaxshi yechim hisoblanishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo’nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir.

Bunda uchta asosiy vazifaga e’tibor qaratiladi:

1) Ta’lim tizimini isloh etish.

2) Mustaqil faoliyat tamoyilini ta’lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e’tirof etish.

3) Ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish. Bugungi kunda zamonaviy shaxsning ta’lim olishjarayoni faqat bog’cha, umumta’lim maktablari, akademik litseylar yoki texnikumlar, oliy ta’lim muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta’lim olishi zarur, ya’ni ta’lim uzluksiz bo’lishi kerak.

Demak, uzluksiz ta’lim – davr talabidir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonida qo’llay olish bo’yicha o’qituvchilar pedagogik mahoratning quyidagi ko’nikma va malakalariga ega bo’lishlari kerak:

➢ axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatishva namoyish qilish tamoyillarini bilishi; ta’limda qo’llash mumkin bo’lgan texnik vositalar va ularning tavsiflarini bilishi; ta’lim jarayoni va ilmiy izlanishlarda Internetdan foydalanishi;

➢ ta’lim jarayonida kompyuter texnikasidan unumli foydalanish metodologiyasini bilishi; dasturiy ta’minotning asosiy turlarini bilish va ulardan foydalanishi;

➢ fan sohasida ilmiy izlanishlarning dasturiy ta’minotidan foydalanishi;

➢ ta’lim jarayonida amaliy masalalarni yechishda axborot tarmoqlarini qo’llashi; masofaviy ta’lim elektron o’quv-metodik resurslaridan foydalanishi; mulьtimediali hujjat va loyihalarni yaratishni bilishi;

➢ interaktiv interfeysning asosiy xossalari va vazifalarini tavsiflashi; turli darajadagi kompyuter tarmoqlarining imkoniyat va vazifalarini tavsiflashi;

➢ kompьyuter tarmoqlari orqali olinadigan axborot xizmatlari turlarini tavsiflashi;

➢ elektron pochta ishining asosiy tamoyillarini tushunishi; gipermatn texnologiyasi asosini tushunishi;

➢ Internetning asosiy texnologik tamoyillarini tushunishi; Web-sahifa va Web-saytlar yarata olishi;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yangi axborot texnologiyalarining tatbiq qilinishi o’qitishning an’anaviy texnologiyalarini inkor qilmaydi, fanlarni o’qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishi o’zlashtirishlari lozim va bu esa o’qituvchilar masofaviy o’qitish kurslarini yaratishda ta’lim oluvchilar motivatsiyasi, o’quv maqsadlarining qo’yilishi, o’quv materiallarini qabul qilishga sharoitlar yaratadi, o’quv materiallarini to’liq o’zlatirish, talabalarni faolliklarini oshiradi, adaolatli, ijobiy baholash talablarni inobatga olishlari uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oliy ta‟limda faol va interaktiv ta‟lim texnologiyalari (darslarni o„tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.

2. Gushchin Yu.V. - Oliy ta'limda interfaol o'qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012.

3. Zaxarova, I.G. - Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008.

4. Kovalenko E.M. - Ta'limdagi interaktiv texnologiyalar va elektron ta'lim elementlari // Ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida interaktiv ta'limning zamonaviy tizimi. Ilmiy-metodik konferensiya materiallari; Janubiy Federal Universiteti). - Rostov-na-Donu: Janubiy federal universiteti nashriyoti. 2007.

# TEXNOLOGIK TA'LIMDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O’RNI

**Ne’matov A.L. – assistant, JPI.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlangan ta'lim sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalari ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Ta'limni yanada samarali qilish usullari, zamonaviy texnologiyalardan dars davomida qanday foydalanish usullari haqida ham ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Interaktiv metodlat, innovatsion ta'lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, an'anaviy ta'lim.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi.

O’qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o’quvchi talaba asosiy figuraga aylanadiShuning uchun oliy o’quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o’qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovotsion texnologiyalarning o’rni va ro’li benihoya kattadir. Pedogogik texnologiya va pedogog maxoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar o’quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi .

INNOVATSIYA (inglizcha innavation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovotsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib ta’lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o’quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Jamiyatning har bir a’zosi, o’zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Pedagog ham o’z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmasi asosida oshirib borishi lozim. Har bir pedagog mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o’z axborot muhitini yaratishi kerak.

Zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalari o’z muhitida axborot obektlarini, ularning o’zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to’plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi. O’quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o’qituvchilar mehnat faoliyatining

o’zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o’zgarishiga samarali ta’sir etadi. Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lb, ularga quyidagilar kiradi: - o’quvch-talabaning dars davomida befarq bo’lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; - o’quvchi-talabalarni o’quv jarayonida bilimga bo’lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo’lishini ta’minlashi; - o’quvchi-talabaning bilimga bo’lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi; - pedogok va o’quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkilllanishi.

Pedogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o’qituvchi va o’quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishshlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog’liq deb xisoblaymiz, ya’ni o’qitish jarayonida maqsad bo’yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo’llaniladigan har bir ta’lm texnologiyasi o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa,o’quv jarayonida o’quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, www.iupr.ru izlansalar, tahlil eta olsalar, o’zlari xulosa qila olsalar, o’zlariga, guruhga, guruhga esa ularga baxo bera olsa, o’qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha anashu o’qitish jarayonining asosidir. Har bir dars, mavzu, o’quv predmetining o’ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o’quv jarayonidagi pedogogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo’lib, u o’quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqa xolda bir maqsadga yo’naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

«Ta`lim to’g‘risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni amalga oshirishda inovatsion pedagogik texnologiyalar. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi, pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi. bo’lajak o’qituvchilarininng zamonaviy pedogogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish;

- yangi pedogogik darajada pedogogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo’lishlari;
- zamonaviy pedogogik texnologiyalar, g‘oyalar maktablar, yo’nalishlar, keng turlarida yo’l topa bilish mahorati;
- pedogogik faoliyatni ijodiy va metodik to’g‘ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish;

mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o’zini tarbiyalash va o’zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirish zarurligi aytilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oliy ta‟limda faol va interaktiv ta‟lim texnologiyalari (darslarni o„tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.

2. Gushchin Yu.V. - Oliy ta'limda interfaol o'qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012.

3. Zaxarova, I.G. - Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008.

4. Султанова, С. М., Нурматова, И. - Совершенствование финансового анализа в информационной системе бухгалтерского учета АО “Ўзбекистон транспорт тизимида рақамли ва инновацион технологияларни иқтисодий самарадорлигини баҳолашнинг долзарб масалалари”, 2(1), 137-142. 2021.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILIK FAOLIYATIDA PEDAGOGIK NIZOLARNI KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLDINI OLISH OMILLARI

**Niyazmetova N. – o‘qituvchi, Bazarova Sh.– magistrant, TDPU,**
**Niyazmetova Z. – Badiiy kashtachilik usta rassom, 13 Son BMSM, Xorazm.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatida pedagogik nizolarni kelib chiqish sabablari va oldini olish omillari haqida fikr-mulohazalar yurutilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim tizimi, pedagogik nizo, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi, odob-axloq, Maxbub – ul – qulub.

«Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala – munosabatlar katta o‘rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. O‘qituvchi pedagogik ishda fidoyilik ko’rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go‘zallik, haqiqat, odob – axloq nurini singdira olganliklari, hushmuomilada bo’lganliklari uchun bunday obro‘ va xurmatga erishganlar. Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo‘lmaydi. O‘zining dangal muomilasi bilan bolaning ko’nglini o’qishdan sovitib, dilini o‘rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Pedagogik amaliyot, badiiy adabiyotda bunga misol bo‘ladigan dalillar ko‘p. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta’sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo‘lgan darajada ziyon yetkazadilar. Natijada o‘qituvchi bilan o‘quvchi, talaba o‘rtasida nizo tug‘ila boshlaydi.[22]

Barkamol ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta’sir o‘tkazish shartlaridan biri bo’lgan ishonch bilan unga nisbatan qo‘yilayotgan talablarning birligidir. Bu qonuniyat pedagogik amaliyotda ko‘p marta sinovdan o‘tgan va o‘zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda hushmuomila o‘qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga juda – behudaga duk o‘rib, baqirib muomila qiladigan o‘qituvchilar ham uchraydi. Bunday muomila jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy normalarga to‘g‘ri kelmaydi. Bunday o‘qituvchilar bolalar orasida obro‘ orttira olmaydilar.

Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba‘zan istasa – istamasa qo‘pollik qilishga *«majbur»* bo‘ladi, o‘quvchi muallimning o‘rinli talablarini bajarmayotgan paytlarida u o‘zini tuta olmay qoladi. Muallim o‘z talablarini, hatto ko‘pchilik holatini ham, bolaga yaxshilik qilayapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to‘g‘ri yo‘lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotganligiga ishonadi. Sa’diy She’roziyning «*Guliston»* (Toshkent, 1968 ) asarining «Tarbiya ta’siri bayoni» bobidagi hikoyatlari, Alisher Navoiyning «Maxbub – ul – qulub» asaridagi «Mudarrislar to‘g‘risida», «Maktabdorlar to‘g‘risida»gi maqolalarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizga hamoxangdir.[23]

Bunday holatlar ko‘pincha, tarbiyasi qiyin bola bilan muomala – munosabatlar jarayonida sodir bo‘ladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, bunday bola odatda, nosog‘lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo‘lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu

---

[22] Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). -T., 2011.

[23] Ibragimov.X., Yoldoshev U. va boshqalar Pedagogik psixologiya (o‘quv qo‘llanma). -T., 2007.

bilan birga ular insoniy mehrga zor, xushmuomalaga, e’tiborga muxtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan bardoshli, sabr – toqatli, kechirimli bo‘lish zarurligini ham ta’kidlaydilar. Jismoniy jarohat olgan bolani o‘qituvchi jazolamasligini hamma biladi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog‘i jarohatlangan boladan yugurish musobaqasida qatnashishni talab etmaydi. Bola ba’zan qalbi, ruhi jaroxatlangan holda maktabga kelishi mumkin. Ta’lim jarayonida buni hamma o‘qituvchilar ham e’tiborga oladimi? Bola javob berishni hohlamayapti, dars tayyorlashni istamagan deb hisoblab, hamma o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yish, bir xil muomala qilish hollari ko‘plab uchraydi. Ba’zan boladan hatto u bajara olmaydigan ishlar ham talab etiladi.

Muallimning biror tasodifiy hatti – harakat natijasida o‘quvchilarda u haqida sodir bo‘lgan fikr ham ta‘lim – tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi, muallimning ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi».[24] Natijada o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasida nizolar chiqadi. O‘quvchi o‘qituvchidan norozi holda, undan uzoqlashib yuradi. Ayrim hollarda muallimni himoya qilaman deb, kattalar boladan kechirim so‘rashni talab etadilar, holbuki bu nizoga o‘qituvchining noto‘g‘ri xatti – harakati sabab bo‘lgan. Bunday vaqtda bolaning qadr – qimmati hisobga olinmaydi.

Ayrim hollarda bolaga mas’uliyatli ishlarni topshiradilar, bola esa bunday paytlarda kattalar topshirig‘ini bajarmay qo‘yadi, o‘zining mustaqilligini cheklashlarini yoqtirmaydi, kattalarning talablariga ko‘pincha salbiy munosabatda bo’ladi. Ota – onalar esa o’gil yoki qizlarining ulg‘ayib qolganligini sezmagan, ularni xali ham «yosh bola» deb hisoblaydigan oilalarda o‘smir bilan kattalar o‘rtasida tez – tez nizolar, to‘qnashuvlar bo‘lib turadi. Avvalo, bolaning xulqiga doimiy e’tibor berish, uning xulqiga qat’iy, uzluksiz rahbarlik qilish, shuningdek, bularning hammasini shunday amalga oshirish kerakki, bola mayda - chuyda ishlarida ham kattalarning doimiy vasiyligini sezmasin. Ayniqsa, o‘smir yoshida ularning hayotidagi yangi mavqelari bilan hisoblashadigan, ularni «kichkina» deb hisoblamaydigan, talabchan, lekin adolatli o‘qituvchilarni hurmat qiladilar.

Katta yoshli bolalar uchun qiziqishlarining turli – tumanligi harakterilidir. Ularning bu qiziqishlari to‘g‘ri tarbiyalansa, ular usmirning qobiliyatlari va mayllarining rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchining o‘quvchi – talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan ayrim vaqtlarda kelishmovchiliklari bo‘lib turadi. O‘quvchi atrofdagilarning ung bergan bahosiga nisbatan tanqidiy qaraydi. Uning kayfiyatidagi ranjish va ikkilanishning sababi ham ana shunda. Tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo‘yishi bolaning o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtanchoklikka olib keladi. Hatto, vaqtincha tasodifiy muvaffaqqiyatsizlik bolada o‘z kuchiga ishonmaslikni uygotishi, ikkilanish, qo‘rqoqlik, jur’atsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilarning bolalar bilan bo‘ladigan munosabati alohida nazokatni talab etadi. O‘smirlik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishdan qo‘rqish xavfi kuchayadi.

Muomaladagi dangallik, talabchanlik, xurmatsizlik o‘quvchiga yosh bolalarga bo‘lganday muomalada bo‘lish, ular yaxshi tushunaman deb hisoblagan masalalar bo‘yicha o‘zlarining mustaqil fikrlarini aytish huquqini mensimaslik, ularning yuqori natijalarga erishishidagi kuch va imkoniyatlariga shubxalanish kabi hodisalar, odatda norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy reaksiyalar, hodisalarni hosil qiladi.

Ayrim o‘qituvchilar hayotida sodir bo’ladigan aniq hatolar uchrab turadi. O‘qituvchilar (yosh o‘qituvchilar nazarda tutilayapti) bir xil o‘quvchilarni (o‘zlashtirayotgan) doim maqtaydilar, bashqalarni (o‘zlashtirmayotgan) hamisha

[24] Malla Ochilov. Muallim qalb me‘mori. Toshkent, «O’qituvchi». 2001 yil. 56 – 57 betlar.

koyiydilar. Buning ustiga o‘zlashtirmayotganlarga, odatda, o‘zlashtirgan sinfdoshlariga nisbatan tez–tez va qattiq tanbex beradilar. hatto kam o‘zlashtiradigan o‘quvchilarni javob berishga ham kam taklif qiladilar.

Mana bunday vaziyatda o‘quvchilar bir – birlariga nisbatan qaram bo‘lib qoladilar, o‘qituvchiga nisbatan norozilik kayfiyati paydo bo‘ladi. Kam o‘zlashtirgan o‘quvchiga «yomon» baho qo‘yadi, buning ustiga bir necha ko‘ngil buzar achchiq, istehzoli so‘zlar ham aytiladi. Bunday holat juda ko‘p o‘qituvchilar hayotida uchraydi va bu hatoni o‘quvchi umrbod kechirmaydi. Nizolarning kelib chiqish sabablari guruhdagi har bir shaxsning fe’l atvoridagi hatti-harakatlarida, shaxs mansub bo‘lgan millat, xalq hudud xususiyatlarida namayon bo’ladi.

Pedagogik nizolarning kelib chiqish sabablarini bilish va ularning oldini olish pedagogik madaniyatni rivojlantiradi. Pedagogik nizolarni yuzaga keltirmaslik uchun nizolarni, muammolarni oldini olishda o‘qituvchi pedagogik qobiliyati va mahorati muhim rol o‘ynaydi, o‘qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashlari zarur. Pedagogk faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i lozim:

***Bilish qobiliyati.*** O‘qituvchi o‘z mutaxassisligini kuchli bilishi, o‘z fani sohasida kashfiyotlarni hamisha kuzatib borishi kerak.

***Tushuntira olish qobiliyati*** - o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib yetkazib bera olish muammoli, nizoli mavzularni hayotiy misollar asosida tushuntirib bera olish:

***Kuzatuvchanlik qobiliyati*** – o‘quvchining tarbiyalanuvchi ichki dunyosiga kira olishi, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini yaxshi tushinish bilish bilan bog’liq bo‘lgan kuzatuvchanlikka ham e’tiborini qaratish.[25]

Ta’lim jarayonida o’qituvchi nizolarni yuzaga keltirmasligi uchun o‘quvchini yosh va individual xususiyatlariga ham e’tibor berish lozim. Har bir guruh talabalarini xarakteri, tempramentiga qarab munosabatga kirishsa, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida nizolar yuzaga kelmaydi.

To’qnashuv qarama-qarshiliklar motivi. To‘qnashuv qarama-qarshilik nizolar guruhlarda, jamoalarda vujudga keladi. Shaxsning jamiyatdagi o‘rni o‘zini qanday tutishi egallangan mavqeyi hech sababsiz o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Faoliyatni amalga oshishi va shaxs hulq atvorini tushuntirish uchun motiv tushunchasiga to‘xtalamiz. Motiv aniqroq tushuncha bo‘lib, u shaxsdagi u yoki bu hulq atvorga nisbatan turgan moyillik hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. To‘qnashuv qarama-qarshgilik motiviga misol. Mashhur nemis olimi Kurt Levan motivlar muammosi to‘qnashuv qarama qarshiliklar asosidaligi qo‘yidagicha e’tirof etadi. Masalan, tehnika oliygohida “materiallarning qarshiligi” nomli kurs bor bo‘lib, shu kursni o‘zlashtirish va undan sinovdan o‘tish ko‘pchilikka osonlicha ro‘y bermaydi. Hali kurs boshlanmmasdanoq, yosh talabalarda shu kurs va uning talabalariga nisbatan shunday ustanovka shakllanadiki, albatta, bu kurs qiyin uni olib boruvchi o‘qituvchi o’ta talabchan, qattiqqo‘l va hakozo degan. Bunday motiv mana necha avlod talabalar boshidan chiqayotgan holat endi aniq bir shaxs ning dars jarayoni boshlangan keyingi harakatlari aniq bir motivlar bilan izohlanadi va tirishqoq talaba uchun bu fan ham boshqa fanlar qatori tinimsiz izlanishi, o‘z vaqtida darslarni tayyorlashni talab qilsa, boshqasi uchun dangasaroq talaba uchun bu darsdan qiyin dars yo‘q. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi majburiylik O‘zbekiston Respublikasida ta’limni qo‘yidagi turlari majburiy amalga oshiriladi.

- *maktabgacha ta’lim*
- *umumiy o‘rta ta’lim*
- *o‘rta mahsus kasb-hunar ta’limi*

---

[25] Karimova.V. “Mustaqil fikrlash” metodik qo‘llanma. -T.: - 2000 y.

maktabgacha ta’lim bola shaxsnini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Umumiy o’rta ta’lim bosqichlari qo‘yidagicha boshlang‘ich ta’lim (1-6 sinflar) umumiy o‘rta ta’lim (1-6-sinflar). Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan saboqlarni bilim ko‘nikmalar asoslarini takamillashtirishga qaratilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarining zarur ham jihatlikni beradi. Mustaqil fikrlash, takomillashgan qobiliyati va amaliy tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirgan. Nizoning ijobiy va salbiy tomonlari. Pedagogika nizolarini salbiy tomonlari o‘quvchilar bilimining baholashda jiddiy hatolarda yana biri turish guruhlarga sub’ektiv yondashishidir. Bu o‘quvchi tomonidan ayni bir javob uchun ayni bir ish uchun turli o‘quvchilarni baholashda tafovutlarda aks etadi. Bunday vaziyatga e’tibor qiling. Doskada past o‘zlashtiradigan o‘quvchi javob bermoqda, ishonchsiz, o‘rinsiz gapirmoqda. Bunday holatda o‘qituvchining munosabati qanday bo‘ladi u o‘quvchi gapini shartta bo‘lib, unga “ikki” qo‘yadi va joyiga o‘tkazadi: “Sen” hech qachon odam bo‘lmaysan, “Senga o‘rgatsa ham befoyda ekan deb izzat qiladi. Endi boshqa vaziyatni ko‘raylik. Doska olidida yaxshi o‘zlashtiruvchi kishi bugun darsga tayyor emas, ishonchsiz holda javob berayapti o‘qituvchi uni ancha so‘raydi. Bu vaziyatlarda nizoni salbiy tomonlarini yaqqol ko‘zda tashlanadi.

Nizoning ijobiy tomonlari pedagog ta’lim jarayonida aqliy hujum metodikalaridan foydalanadi. Aqliy hujum metodikasida muomoli vaziyatli savollar guruhga tashlanadi. Muammolarni mavzu yuzasidan har bir talaba o‘z fikrlarini bildiradi. Nizolar, mojoralar to‘qnashuv qarama-qarshiliklar tufayli talabalar fikrlari yanada kengayib borada.[26]

Muloqot pedagogik nizolarning yechish va boshqarish usulidir. Muloqotdagi nizo shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki tehnik vositalar (telefon telegraf va shunga o‘shash vositalar) bilan amalga oshiriliadi. Oilada nizo muloqot ayrim a’zolari o‘rtasida bo’lishi mumkin. O‘zaro munosabatlarga kirishilganda nizoni yuzaga keltirmaslikning asosiy omili o‘zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo‘lsa, o‘zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.[27]

O‘qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar - yosh bolalar bilan muloqotda bo‘ladi. O‘qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o‘quvchilarda u haqda sodir bo’lgan fikr ham ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi, o‘qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday nizolar uzoq davom etadi va o‘qituvchi foydasiga hal etiladi. O‘qituvchi obro‘sini saqlayman deb, kattalar ba’zan o‘quvchining qadr-qimmatini yerga uradilar, o‘quvchidan kechirim so‘rashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o‘qituvchining noto‘g‘ri xatti-harakati sabab bo‘lgan.

---

[26] Ochilov Malla. Muallim qalb me`mori. – T., 2000.

[27] Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma) . –T., 2006.

# INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Norboyeva F.A.– TADQIQOTCHI, GulDPI.**

**Kirish.** Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash va ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kunning davr talabiga aylandi. Innovatsion ta'limda o'quvchi faol ishtirokchiga aylanadi, shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol aloqa yo'lga qo'yiladi. "Insonlardagi go'zallik bu- yuzdir, yuzdagi go'zallik esa-ko'zdir. Ammo, insonni inson qilgan bu uning tilidan chiqadigan so'zidir ". Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazmunli o'qitish, o'qigan matnini ongli tushunish va tahlil qilishga o'rgatish bilan bir qatorda og'zaki nutqi ham shakllantirib boriladi. Bu yo'lda o'qituvchidan katta mehnat va sabr-toqat talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqni yaxshilash v so'z boyligini oshirish uchun dars jarayonida turli xil innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish va badiiy asarlarni ko'proq o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdan iboratdir.
Asosiy qism. Innovatsion ta'lim

Innovatsiya tushunchasi ingiliz tlidan tarjima qilinganda (innovation) "yangilik yaratish", "ixtiro qilish", "yangilik kiritish" kabi ma'nolarni anglatadi. Innovatsiya- yangi va ilg'or texnika va texnologiyalarni yaratish va turli sohalarda qo'llanishidir.

Innovatsion ta'lim- ta'lim jarayonida innovatsion metodlar yordamida darsni yanada qiziqarli, mazmunli va tushunarli tashkil etish, o'quvchilarda yangi fikr va g'oyalarni yaratishni shakllantirishga qaratilgan ta'limdir.

1. Boshlang'ich sinflarda innovatsion ta'limning o'rni

Innovatsion texnologiyalarining dars jarayondagi o'rni shundaki, o'qituvchi va o'quvchilar birgalikdagi faoliyatni amalga oshiradi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida erkin muloqat boshlanadi,o'quvchilar jamoada o'z fikr va mulohazasini bildira olish, muammoga yechim topish va jamoada muhokama va munozara qila olish kabi qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon yaratadi. Dars jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish va uni tog'ri qo'llay olish pedagogning mahoratidir. To'g'ri yo'naltirilgan o'q manzilga tez boradi, shunday ekan innovatsion metodlarni o'z o'rnida qo'llash darsning sifatini oshiradi va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqish va diqqat-e'tborini jalb qiladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish

Boshlang'ich sinf o'quvchlarining nutq madaniyatini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning nutqini chiroyli va ravon bo'lib shakllantirishda o'qituvchi nutqining ham o'rni beqiyosdir. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqi ustida ishlashi, gapirayotgan har bir so'ziga e'tiborli bo'lishi lozim.

Boshang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish va ravon nutq egasi bo'lishida o'qish kitobi katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari badiiy asarlarni ko'p o'qish va o'qigan asarini sinfdoshariga so'zlab berish, uni muhokama qilish so'z boyligini oshirish bilan birga, dunyoqarashi va tafakkur ko'lamini kengaytiradi.

Innovatsion va interfaol metodlar, o'yinlar orqali ham boshlang'ich sinf o'quvchilar ravon nutq qobiliyati va nutq madaniyati shakllanadi va doimiy hayot shakliga aylanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Innovatsion ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan bir nechta vositalar orqali nafaqat bolaning nutqi balki uning fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga, dunyoqarashining kengayishiga, ijodkorligining oshishiga xizmat qiladi. O'qituvchi o'quvchilariga dunyoni anglatadi va o'zligini topishiga yordam beradi.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Normamatova F.O.- talaba, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish bo‘yicha bir qancha fikrlar berilgan.Kitob mahsulotlarini nashr etish va bolalarni kitobga jalb qilish, ma’naviyatini yuksaltirishga oid fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** kitobxonlik,"Yosh kitobxon","Yosh kitobxon oila",odob-axloq, bilim, kitob, tafakkur, o'qishga qiziqtirish, ta'lim, tarbiya.

Kitob insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi bilim manbaidir.Kitob fikrlash quroli xazinalar kaliti hisoblanadi. Uni qadrlash,hurmat qilish asrab-avaylashimiz lozim. Kitob o‘qish, uni mazmunini anglab etish,unga singdirilgan ma’no mazmunini qalban tuyish va bu orqali ma’nan ozuqaga ega bo‘lishdir. Kitobni mutoala qiluvchi har qanday inson yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lishi mumkin. Jamiyatimizda bugungi kunda kitobxonlik masalasiga katta e’tibor berilyapti.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ -3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol qilishimiz mumkin.Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo’yicha kompleks chora –tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda ularning bo‘limlarida qarorda belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan chora tadbirlar asosida rejali va maqsadli ishlar yo‘lga qo’yildi.Ayniqsa,mamlakatimiz bo’ylab “ Yosh kitobhon oila”, “Yosh kitobxon” tanlovlarining yo‘lga qo‘yilishi va g‘olib kitobxonlar turli sovg‘alar bilan taqdirlanishi bunga misol bo‘la oladi.

Kitob — axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ‘iboti va tarbiya quroli, badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra 48 sahifadan kam bo‘lmagan, nodavriy nashrni kitob deb nomlash qabul qilingan.

Kitobxonlik- bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborish,ongida ma’lum tuyg‘ularni,e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish,uni o‘ylashga,hayotda qanday yashashga o‘rgatish ,fikr yuritishga o‘rgatishdir.Kitobxonliko‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi,balki u tushunib o‘qish,ya’ni maqsadli o‘qishdir..Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga "Tafakkurning tolmas qanoti",- deb ta’rif berganlarida, u inson ma’naviy olamini boyitishini nazarda tutganlar. Kitob Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi.

Mamalakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoev rahnamoligida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Zero, “Kitob bizni yerdan ko‘kka ko‘taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, qalbga yorug‘lik baxsh etadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o‘rgatadigan insoniyatning eng noyob kashfiyotidir”,- deydi davlatimiz rahbari.

Kitob aqlga ham, yurakka ham faol ta'sir ko'rsatadi: aqlni to'ldiradi, yurakni hissiyotchan qiladi. Tarbiyada kitobning ahamiyati haqida juda ko'p gapirish mumkin, biroq bolada kitobga muhabbat uyg'otish mushkul ish. Kitob o'qish, avvalambor, qiziqishni talab qiladi. Biror narsaga qiziqmasdan turib kitob o'qib bo'lmaydi. Kitobni sevgan inson hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydi, xolisona fikr yuritadi. Kichkintoylarning dunyoqarashini shakllantirish, ularni to'g'ri yo'lga solishdan kitobdan muhimroq vosita yo'q. Qiziqtirish shaxsning shakllanishida, faolligini oshirishda zarur bo'lgan eng kuchli quroldir. Bolalarda kitobga mehr, ishtiyoq uyg'otish uchun, avvalo, o'zimiz unga to'g'ri munosabatda bo'lishimiz lozim. Adabiyotga mehr qo'yishning o'zida bir hikmat bor. Avvalo, o'smirlarda kitob o'qish ishtiyoqini shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon. Bu masala ularning mutolaaga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Qiziqishning o'zi ham kitob o'qish uchun yetarli sabab bo'la oladi. Bolalar ota-onalari o'qib bergan ertaklar-u, boshlang'ich sinfda o'zlari o'qiy boshlagan hikoyalar orqali kitob dunyosiga kirib boradilar. Shuning uchun bu davr alohida e'tibor talab qiladi. Chunki kitob o'qishga qiziqishning poydevori mana shu paytlarda shakllana boshlaydi. Bola bilan samimiy suhbat, uning qanday kitoblarga qiziqishi haqida so'rash va bu kitobni o'qishi uchun qanday muammolarga duch kelayotgani, muammo yechimini birgalikda hal etish bolaning qiziqishini yanada oshiradi. O'qilgan kitob haqida bola bilan qizg'in suhbat o'tkazish, uni e'tibor bilan tinglash ham qiziqishlarning ortishiga sabab bo'ladi. Keyingi jarayon kutubxona va kutubxonachi bilan bog'liq. Shinam va ozoda, rang-barang, ko'zni quvontiruvchi shiorlar bilan bezatilgan kutubxona bolani o'ziga tortishi tabiiy.U bu yerda har xil turdagi kitoblarni o‘qishga qiziqadi,kitobga bo‘lgan mehrini oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, kitob o‘qigan inson har yerda aziz va qadrlidir. Hayotda o‘z o‘rnini egallashda, yetuk marralarga erishishda ham uning o‘rni beqiyosdir.Shunday ekan, hamisha har bir yosh avlodga to‘g‘ri ta’lim -tarbiya bermoq lozim.Boshlang‘ich sinf chog‘idan unga kitob mutolaasini shakllantirib,uni kitobga oshno qalb qilib tarbiyalash kerak.Bu borada muhtaram yurtboshimiz ham yoshlarga keng imkoniyatlar yo‘lini yaratib bermoqda.Qolaversa ,boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ham 2023-yildan boshlab milliy sertifikat olgan pedagoglarga oylik ish haqining 30%ida ustama qo‘shib berilishi ,eng sharafli kasb egalariga bo‘lgan yuqori ehtiromiqdan dalolat .Buning o‘qituvchiga ham, undan bilim olayotgan jajji bilim egalariga ham foydadir.Salohiyatli kadr ortida mustahkam bilim egalari tarbiyalanadi,shu sababli ham, o‘qituvchilarga katta e’tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

**1.**Teshaboyeva U. Muhim hujjat:[O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil13-sentabr] Kitob dunyosi.-2017.-13-dek.-B.8

**2.**Y,Qayumxjaye ana "O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari"-T.:2011

**3.**https://avitsenna.uz/bolani-oqishga-qiziqtirish/#gsc.tab=0

**4.**Yusupova SH.X “Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi” mavzusidagi dessertatsiyasi, Toshkent -2020.

# STRESS OMILLARINING INSON HAYOT TARZIGA TA’SIRI.

**Noryigitova S. F. – talaba, TDPU.**

Stress – zamonaviy jamiyatda eng keng tarqalgan psixologik holatlardan biridir. U odamning kundalik hayotidagi turli omillar ta’sirida paydo bo‘ladi va jismoniy, hissiy va ruhiy salomatlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Stress psixologiyasi bu holatni tushunish, oldini olish va boshqarish usullarini o‘rganadigan ilmiy sohadir. Ushbu maqolada stressning sabablari, turlari va uning ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

**Stressning kelib chiqish sabablari:**

Stress turli omillar natijasida paydo bo‘lishi mumkin. Stress psixologiyasi odamlar duch keladigan asosiy psixologik muammolardan biri bo‘lib, uni boshqarish va yengish muhim hisoblanadi. Stress sabablari, turlari va ta’siri haqida chuqur bilimga ega bo‘lish, shuningdek, stress bilan kurashishning samarali usullaridan foydalanish hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.Ushbu omillarni stress manbalari deb atash mumkin va ular quyidagicha tasniflanadi:

1. *Jismoniy stress manbalari:* Uyqusizlik, haddan tashqari ish yuklamasi, jismoniy jarohatlar yoki kasalliklar stressning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

2. *Ijtimoiy stress manbalari:* Ijtimoiy bosim, turmushdagi o‘zgarishlar, moliyaviy muammolar, ishdagi ziddiyatlar yoki oilaviy mojarolar insonni stress holatiga solishi mumkin.

3. *Psixologik stress manbalari:* O‘zingiz haqingizda salbiy fikrlar, ichki ziddiyatlar, muvaffaqiyatsizliklar yoki kelajak haqidagi xavotirlar psixologik stressni keltirib chiqaradi.

**Stress turlari:**

Stress turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Uning asosiy turlari quyidagilardir:

1. *Akut stress:* Bu qisqa muddatli va tezda o‘tib ketadigan stress bo‘lib, odatda, ma’lum bir voqea yoki holat bilan bog‘liq. Masalan, sinovga tayyorlanish yoki muhim uchrashuv oldidan paydo bo‘lgan stress akut stress hisoblanadi. Bu turdagi stress odamga darhol harakat qilishni talab qiladi va ko‘pincha jismoniy faollikni rag‘batlantiradi.

2. *Xronik stress:* Bu uzoq muddat davom etadigan va odamning kundalik hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan stress turidir. Ishdagi doimiy bosim, oilaviy muammolar yoki moliyaviy qiyinchiliklar xronik stressni keltirib chiqarishi mumkin. U uzoq muddatda sog‘liq bilan bog‘liq muammolarga olib kelishi mumkin, masalan, uyqusizlik, immunitetning pasayishi va yurak-qon tomir kasalliklari.

3. *Eustress va distress:* Psixologiyada stress ijobiy va salbiy bo‘lishi ham mumkin. Eustress bu motivatsiya va energiya manbai bo‘lib xizmat qiladigan ijobiy stressdir. Masalan, yangi maqsadlar qo‘yish va ularni amalga oshirishda hissiyotlar kuchayishi eustressdir. Distress esa insonning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan stress turidir.

**Stressning inson psixologiyasiga ta’siri:**

Stressning ta’siri individual bo‘lib, har bir inson turli xil reaksiyalar ko‘rsatishi mumkin. Stress organizmda turli xil psixologik va jismoniy reaksiyalarni keltirib chiqaradi:

1. *Hissiy o‘zgarishlar:* Stress odamning kayfiyatiga bevosita ta’sir qiladi. U hissiy o‘zgarishlarni, masalan, xavotir, qo‘rquv, asabiylashish, depressiya va umidsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

2. *Kognitiv o‘zgarishlar:* Stress odamning fikrlash qobiliyatiga ham ta’sir qiladi. Diqqatni jamlash qiyinlashishi, xotira pasayishi va mantiqiy fikrlashning kamayishi kabi oqibatlar paydo bo‘lishi mumkin.

3. *Jismoniy ta’sirlar:* Stress jismoniy salomatlikka ham zarar keltiradi. U yurak urish tezligini oshirishi, qon bosimini ko‘tarishi, immunitetni pasaytirishi va uyqu buzilishlarini keltirib chiqarishi mumkin.

**Stress bilan kurashish usullari:**

Stressni boshqarish va kamaytirish usullari ko‘p, ammo ulardan ba’zilari eng samarali hisoblanadi:

1. *Relaksatsiya texnikalari*: Meditatsiya, chuqur nafas olish mashqlari va yoga stressni kamaytirishning samarali usullari hisoblanadi.

2. *Jismoniy faollik:* Sport va jismoniy mashqlar stressni kamaytiradi, chunki ular endorfin gormonining ajralishiga yordam beradi, bu esa hissiy holatni yaxshilaydi.

3. *Ijtimoiy yordam:* Oila va do‘stlar bilan muloqot qilish, ulardan psixologik yordam olish stress darajasini kamaytirishi mumkin. Odamlar bilan ochiq va ochiqchasiga suhbatlashish, ularning maslahatlari va qo‘llab-quvvatlashi stressni yengishda muhim ahamiyatga ega.

4. *Vaqtni boshqarish:* Stressning ko‘p qismi vaqtni noto‘g‘ri boshqarishdan kelib chiqadi. Vaqtni samarali rejalashtirish va vazifalarni tartibga solish stressni kamaytirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda stress barcha yosh davrlaridagi insonlarda kuzatilmoqda, lekin ba'zi yosh guruhlari bu holatga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin. Stressning kuzatilishi va unga moyillik asosan turmush tarzi, ijtimoiy sharoitlar, va insonning o‘ziga xos omillariga bog‘liq.

1. Yoshlar (18–25 yosh): Ushbu yosh guruhida stressning yuqori bo‘lishi ko‘pincha o‘qish, karera tanlovi, moliyaviy muammolar va ijtimoiy bosimlar bilan bog‘liq. Yoshlar hayotlarining o‘tish davrida bo‘lishgani uchun ular o‘zlarini topish, qaror qabul qilish va mustaqillikka erishish kabi qiyinchiliklarga duch keladilar.

2. O‘rta yoshdagilar (25–45 yosh): Ushbu davrdagi insonlarda stress asosan ishdagi mas'uliyatlar, oila qurish, bolalarni tarbiyalash, moliyaviy barqarorlikka erishish kabi omillar bilan bog‘liq. Ushbu bosqichda insonlar ko‘p vaqtini kariyera yoki biznesda muvaffaqiyatga erishishga sarflaydilar, bu esa stress darajasini oshirishi mumkin.

3. O‘rta va katta yoshdagilar (45–60 yosh va undan katta): O‘rta yoshdan keyingi davrda odamlar turli sog‘liq muammolari, hayotiy o‘zgarishlar (masalan, bolalarning mustaqillikka erishishi yoki qarilikka yaqinlashish), pensiyaga chiqish va moliyaviy xavotirlar tufayli stressga ko‘proq moyil bo‘lishadi.

4. Qariyalar (60 yoshdan katta): Qariyalarda stress odatda sog‘liqning yomonlashuvi, yaqin insonlarning yo‘qolishi, ijtimoiy izolyatsiya va moliyaviy xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, global pandemiyalar kabi omillar ham turli yosh guruhlarida stress darajasining oshishiga olib kelgan. Xususan, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar va axborotning tezkorligi stressni oshiradigan omillardan biridir.

Umuman olganda, har bir yosh davri o‘ziga xos stress manbalariga ega va stress darajasi individual omillarga, sharoitga va insonning unga moslashish qobiliyatiga qarab o‘zgaradi. Shu o‘rinda stressdan chiqishning bir qancha usullari mavjud. Mana ulardan ba’zilari:

1. *Jismoniy faollik:*

Mashq qilish: Yugurish, yoga, suzish yoki oddiy yurish organizmni tinchlantiradi va stressni kamaytirishga yordam beradi. Jismoniy faollik endorfinlarni (tabiiy "baxt gormonlari") ishlab chiqaradi.

2. *Nafas olish mashqlari:*

Chuqur nafas olish: Sekin va chuqur nafas olish asab tizimini tinchlantiradi va stress darajasini pasaytiradi. Meditatsiya va yoga bu usul bilan stressni yengishga yordam beradi.

3. *Uyqu va dam olish:*

Sifatli uyqu: Yetarli va chuqur uyqu stressni kamaytiradi. Kun davomida qisqa dam olish ham asablarni tinchlantiradi.

4. *Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash:*

Yaqinlar bilan suhbat: Do‘stlar yoki oilaviy a'zolar bilan o‘z muammolaringizni bo‘lishish stressni kamaytiradi va o‘zingizni yengillashgan his qilishingizga yordam beradi.

5. *Sevimli mashg‘ulotlar:*

Hobbi bilan shug‘ullanish: Musiqa tinglash, kitob o‘qish, rasm chizish yoki sevimli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish kayfiyatni ko‘taradi va asabiylikni kamaytiradi.

6. *Tushuncha va qabul qilish:*

Hissiy ong: O‘zingizni qanday his qilayotganingizni tushunib, bu his-tuyg‘ularni qabul qilish stressni kamaytirishga yordam beradi. Bu usul ko‘pincha psixologlar tomonidan tavsiya etiladi.

7. *Rejalashtirish va ustuvorlik:*

Vazifalarni rejalashtirish: Ishlar va muammolarni rejalashtirish va ustuvor vazifalarni belgilash yordamida stressni kamaytirish mumkin. Juda ko‘p ishni birdaniga qilish stressni oshiradi.

8. *Sog‘lom ovqatlanish:*

Vitamin va minerallarni qabul qilish: Sog‘lom ovqatlanish organizmning energiyasini oshirib, stressni boshqarishga yordam beradi. Shu jumladan, kofeinni kamaytirish ham yordam beradi.

Bu usullarni kundalik hayotga joriy qilish bilan stressni kamaytirish va o‘zingizni barqaror his qilish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga Stress inson hayotiga ham salbiy, ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Keling, har ikkala ta’sirni alohida ko‘rib chiqamiz:

**Stressning salbiy ta'siri:**

1. Jismoniy sog‘liqka zarar: Stress uzoq davom etgan taqdirda immunitet tizimini zaiflashtirishi, yurak xastaligi, qon bosimi oshishi, bosh og‘rig‘i, uyqusizlik va oshqozon muammolariga olib kelishi mumkin.
2. Ruhiy salomatlik: Stress depressiya, xavotir, asabiylashish, hissiy toliqish va tushkunlikka sabab bo‘lishi mumkin.
3. Ijtimoiy munosabatlarga ta’siri: Stressli vaziyatlarda insonlar ko‘pincha sabrsiz va asabiy bo‘lishadi, bu esa yaqinlar bilan munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.
4. Ish unumdorligiga ta’siri: Ko‘p stress ostida ishlash kontsentratsiyaning pasayishi, motivatsiya yo‘qolishi va ishlash samaradorligining kamayishiga olib keladi.

**Stressning ijobiy ta'siri:**

1. Motivatsiya: O‘rtacha darajadagi stress insonni qiyinchiliklarni yengish va maqsadga erishish uchun harakatga keltirishi mumkin.
2. Moslashuvchanlik: Stressli vaziyatlar orqali insonlar qiyin vaziyatlarga moslashishni o‘rganadi, bu esa ularning kelajakdagi sinovlarga bardosh berish qobiliyatini oshiradi.
3. Ijodkorlik: Ba’zi insonlar stressni ijodkorlikning yangi manbai sifatida ko‘radi, bu ularni yangi g‘oyalar ishlab chiqishga undaydi.
4. Tez qaror qabul qilish: Qisqa muddatli stress insonni tezroq va samaraliroq qarorlar qabul qilishga undashi mumkin, bu esa ba'zan favqulodda holatlarda juda muhimdir.

Xulosa yakunida aytish mumkinki, stressning ta’siri uning miqdori va davomiyligiga bog‘liq. O‘rtacha darajadagi stress ba’zan foydali bo‘lishi mumkin, ammo uzoq davom etadigan va kuchli stress sog‘liq uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar to‘plami**

G‘oziyev E.F.F Umumiy psixologiya. T.UzMU, “Mumtoz So‘Z” 2006.

Thomas Heiden – Lehrbuch der psycho-phyciognomik und antlitzdiagnostik. Nurnberg: Universitat Erlangen-Nurnberg. (1990)

Dobruskin M.E Sotsialno-psixologicheskiy portret vuzovskogo pedagoga. -Osvita. Kiyev. 1994. №78-79, 80-81.

# NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI

**Nuradilova A.D. –o‘qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kompetensiya turlaridan nutqiy kompetesiya va ubibg rivojlantirish tuzilmasi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga talabalarning “Ona tili” fani yuzasidan til sohasi va nutqini rivojlantirish, davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang’ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi. Bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qollay olishi borasida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar**: intellektual salohiyat, ilm-fan infrastrukturasi, kompetensiya, kommunikativ yondashuv, integrar yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish,ijtimoiy komponent, professional komponent, protsessual komponent, ta’lim kompetensiyas, professional muloqot.

Har bir davlat kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga tayanadi. Zero, eski ta’lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo‘lmaydi. Shu jihatdan mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liq.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi uchun barcha shartsharoitlar yaratildi. Iqtisodiy qiyinchiliklar hamda o‘tish davri muammolariga qaramasdan sovet tuzumi davrida shakllangan ilm-fan infrastrukturasi bir tomondan saqlab qolindi, boshqa tomondan uning yanada rivojlanishi uchun huquqiy, ma’naviy, iqtisodiy asoslar yaratildi. [4; 23-26]

Har qaysi mamlakatda olib boriladigan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida, avvalambor, ta’lim tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: “Agar mendan sizni nima qiynaydi, deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’limi va tarbiyasi deb javob beraman” [1], deya aytgan e’tiroflari, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot zamirida o‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi, mukammal bilim sohiblari bo‘lib kamol topishlari va yorqin istiqboli masalasi yotganligini ko‘rsatadi. [2; 296]

Xususan, boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida hayotiy jarayonlarga tayyorlab borish masalasi o‘z kelajagi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun mas’uliyatni his eta oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadini o‘zida ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda ta’lim mazmunida ahamiyati tobora ortib borayotgan “kompetensiya” tushunchasi xususida to‘xtalish joiz. Zero keyingi yillarda til ta’limiga kommunikativ yondashuv, integrar yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv kabi yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda talabalarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarning “Ona tili” fani yuzasidan til sohasi va nutqini rivojlantirish, davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang’ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi. Bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qollay olishdir.

Nutqiy kompetensiya – bu nutq o‘rgatishning ma’lum bir tarkibiy qismiga, shu jumladan nutqiy, kommunikativ va uslubiy tarkibiy qismlarga nisbatan o‘rnatilgan o‘zaro bog‘liq shaxsiy xususiyatlari (bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek faoliyat usullari) yig‘indisidir. Nutqiy kompetensiya talabaning kasbiy yo‘naltirilgan kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi, bu kelajakda mutaxassislarga

kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Unda “nutqiy kompetensiya” tushunchasi nazariy tahlili, uni qurish algoritmini taqdim etadi va talabaning kasbiy yo‘naltirilgan nutq kompetensiyasini belgilaydi.

Nutqiy kompetensiya til ta’limining quyidagi 4 komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi:

1. *Tinglab tushunish* (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish);

2. *Gapirish* (monologik, dialogik og‘zaki nutq turlarida o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish);

3. *O‘qish*: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o‘qish;

4. *Yozish* (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog‘ozlarini yuritishni bilish) [2; 697–698]

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda boshlangan kompetensiya tushunchasi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun ham mukammal ravishda shakllantirilishi kerak. Unga muvofiq, nutqiy kompetensiya nutq faoliyatining asosiy turlari bo‘lgan to‘rtta (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) muloqot turlarini rivojlantirishni, ularning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarini nutq holatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, u nutq kontsepsiyasining xususiyatlarida ushbu kompetensiya-ning faolligi yoki mazmuni ustunlik qilishini, bu esa uning tasnifiga yagona yondashuvning yo‘qligini ko‘rsatdi. Nutqiy kompetensiyaning bunday xilma-xil talqinlari va uni kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim muhiti bilan bog‘liq holda aniqlash usullarini izlash A.V.Xutorskiy tadqiqotlarida taklif etilgan “ta’lim kompetensiyasi” tushunchasiga murojaat qilishga undadi [6; 37]. Ta’lim kompetensiyasi o‘zaro bog‘langan sifatlar (bilim, malaka, ko‘nikma, faoliyat usullari) majmuini o‘z ichiga oladi, ushbu sohada yuqori sifatli samarali faoliyatni amalga oshirish obyektlar va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan berilgan shaxs va o‘quvchining tayyorligi va qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim kompetensiyasini ifodalash uchun A.V.Xutorskiy kompetensiyalar nomini o‘z ichiga olgan kompetensiya turi (asosiy, umumiy mavzu, mavzu) tuzilishini e’tiborga olishni taklif qiladi. Haqiqatda obyektlar doirasida quyidagi kompetensiyalar ko‘rsatib o‘tiladi:

– bilim, ko‘nikma va malakalarda namoyon etilishi;

– kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy shartliligi va ahamiyati;

– talabaning ushbu obyektlarga nisbatan semantik yo‘nalishlari, kompetensiyaning shaxsiy ahamiyati [5; 85].

Taklif etilgan va yuqoridagi ta’riflarda mavjud ratsionallikni ham hisobga olgan holda, biz ta’lim predmeti kompetensiyasi sifatida talabaning nutqiy kompetensiyasini aniqlashimiz mumkin. O‘rganiladigan voqelik obyektlari axborotni olish, tushunish va izohlash usullarini bilish, shakllantirish ushbu usullardan foydalanish professional muloqotda ishtirok etish qobiliyatini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. 21-oktabr – “O‘zbek tiliga davlat tili” maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://hikmatlar.uz/quote/1656

2. Nodira O’tkir qizi Sattarova. Nutqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy elementlari tasnifi "Science and Education" Scientific Journ l / www.openscience.uz June 2023 / Volume 4 Issue 6.– P. 696-699

3. Temirova K.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. "Pedagogik mahorat" // ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 6/2022.

4 Rahmatova N.J. Rivojlangan mamlakatlar tizimiga zamonaviy yondashuvlar. Professional ta’lim tizimini rivojlantirish chora tadbirlari. Международный научный журнал № 6 (100), часть 1 «Научный импульс» Январь, 2023. –B. 23-26.

## ADABIY BADIIY ASAR – TIL VOSITALARIDAN TARKIB TOPUVCHI MATN

**Nuradilova A.D. –oʻqituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy asar va ularning turlari haqida fikrlar yuritiladi. Adabiy badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekanligi, mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasi ekanligi haqida soʻz boradi. Adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga kelishi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqot ekanligi borasida fikrlar beriladi.

**Kalit soʻzlar**: badiiy asar, adabiyotshunoslik, badiiy kommunikatsiya, badiiy muloqot, til hodisasi, nutq hodisasi, til vositalar, badiiy ijod, yashovchanlik xususiyati, badiiy ijodning muhim unsuri.

An'anaviy ravishda badiiy asarlarni uchta katta guruhga – epik, lirik va dramatik turlarga ajratib kelinadi. Adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni turlarga ajratish masalasi qadimdan ishlanib keladiki, bu uning adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalaridan ekanligini koʻrsatadi.

Badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi ekanligiga toʻxtalish joiz. Ma'lumki, muloqot paytidagina til hodisasi nutq hodisasiga aylanadi. Adabiy badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero, adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Tasavvur qilingki, siz kimgadir maktub yozayapsiz. Siz maktubingiz kimga yozilayotganini, uning qanday odamligi, u bilan qay yoʻsin muomala qilish kerakligini... har vaqt nazarda tutasiz, boshqacha aytsak, maktubni yozish davomida adresat har vaqt xayolingizda turadi: siz etkazmoqchi boʻlgan xabarni u tushuna oladigan, unga ta'sir qiladigan tarzda yozishga intilasiz. Demak, aslida xat yozish jarayonida siz adresat bilan muloqotga kirishasiz – tasavvuringizdagi suhbatdosh bilan "xayolan gaplashasiz" va ayni shu suhbat (muloqot jarayoni) qogʻozda muhrlanadi. Qogʻozda muhrlangan "suhbat-muloqot", maktub adaresat qoʻliga etib borgach, yana jonlanadi. Endi siz adresat tasavvuridagi suhbatdoshsiz: real suhbatdoshga aylangan adresat sizning gaplaringizni "eshitadi". Ma'lum boʻladiki, maktub, umuman, yozma nutq muddati kechiktirilgan muloqot, matn esa muloqotning amalga oshish vositasi. Shunga oʻxshash, yozuvchi ham ijod onlarida tasavvuridagi oʻquvchi bilan muloqotda boʻladi: unga muayyan badiiy informatsiyani etkazadi, oʻzining oʻy-hislari bilan oʻrtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishontirishga intiladi... Ayni shu muloqot – ijodiy jarayon asar matnida muhrlanadi. Xuddi maktubga oʻxshash, asarni oʻqish jarayonida muloqot qaytadan jonlanadi, endi yozuvchi tasavvurdagi "suhbatdosh" mavqeida tursa, oʻquvchi real suhbatdoshga aylanadi.

Koʻrinadiki, badiiy matn muddati kechiktirilgan badiiy muloqot, badiiy asar esa shu muloqotning amalga oshishini ta'minlovchi vosita ekan. Demak, ijodkor va oʻquvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi. Badiiyat hodisasi faqat ikki ong tutashgan nuqtadagina mavjud boʻladi. Ya'ni, badiiy asar oʻqish (hamda ijod) jarayonidagina badiiyat hodisasiga aylanadi, oʻqilmagan paytda u bir jism – qogʻoz, muqova, rangdan iborat narsagina xolos.

Yuqoridagilardan ma'lum boʻladiki, badiiy muloqotning birinchi bosqichi ijod jarayoni ekan. Ilgari aytilganidek, badiiy asarda ijod jarayoni muhrlanadi. Shu bois ham badiiy asar tabiatini anglash uchun badiiy ijod tabiati haqida muayyan bir tasavvurga ega boʻlishimiz zarur. Avvalo, badiiy ijod hammaning ham qoʻlidan kelaveradigan ish emas, buning uchun kishida tugʻma imkoniyat boʻlishi zarur.

Xoʻsh, bu imkoniyat nimalarni nazarda tutadi? Badiiy ijod bilan shugʻullanishga layoqati bor odam qanday boʻladi? Badiiy ijodga layoqatli odam, avvalo, hayotni oʻtkir idrok (his) qila olishi bilan farqlanadi. Uning oʻtkir nigohi siz-u biz koʻrmagan (ehtimol, mutlaqo e'tibor bermagan) narsalarni koʻradi, koʻradigina emas, siz-u bizga mutlaqo ta'sir

qilmagan narsa uning ko'nglida chinakam to'fon qo'zg'ashi mumkin; siz-u bizga ahamiyatsiz ko'ringan narsa unga olam-u odam mohiyatidan so'zlashi, chigal muammolarni echishi uchun kalit bo'lishi mumkin. Demak, san'atkorona nigoh ijodkorga badiiy jihatdan ahamiyatga molik narsa-hodisalarni, ularning muhim nuqtalarini ilg'ab olish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, yuqorida aytganimiz ijodkorga xos ta'sirchanlikni ham jo'n tushunmaslik kerak. Zero, hodisot-u mo'jizalarga, turli hayotiy holat-u turfa taqdirlarga, anvoyi fe'l-u sajiyali odamlarga boy hayotda hamma ham ta'sirlanadi. Albatta, bu taassurotlarning namoyon bo'lishi-da turfa xil. Deylik, foje, ayanch holatga duch kelganda kimdir yig'laydi, kimdir yotib qoladi, kimdir taskinni shisha tubidan izlaydi va h. San'atkorda bularning aniq birini ko'rishga intilish ham to'g'ri emas. Sababi, san'atkor sirtdan mutlaqo beta'sir qolishi, biroq qalbida ulkan to'fonlar qo'zg'algan, aqliy-u shuuri shu holatning mushohadasi bilan band bo'lishi mumkin (ayni shu holatdan ta'sirlanish keyinroq, biror bir asarida namoyon bo'ladi). San'atkor hayotida duch kelgan va ta'sirlangan narsalar uning ko'nglida (ongida) chuqur iz qoldiradi.

Yuqorida aytilganidek, hayotda hamma ham nimalardandir ta'sirlanadi, ammo bu taassurotlar vaqt o'tishi barobari unutiladi – ong osti qatlamlariga cho'kib ketadi. Bundan farqli o'laroq, san'atkor taassurotlari yashovchanlik xususiyatiga ega: ular tez-tez san'atkorni bezovta qilib turadi, san'atkor ularni qayta-qayta ko'nglidan kechira oladi. Ya'ni, san'atkorga xos muhim tug'ma xususiyat shuki, u ong ostki qatlamlaridagi, xotiradagi taassurotlarni qayta uyg'ota oladi va ularni ijodiy tasavvurga jalb etadi. Shu bois ham ijodkor olis bolaligida olgan taassurotini etuklik paytida yozgan asarida aks ettirishi mumkin, shunda ham o'sha taassurot yangidek tuyuladi bizga.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, xotira – badiiy ijodning muhim unsuri. Ayni paytda, san'atkor xotirasi faktlar-u taassurotlar to'planadigan ombor emas, balki faoliyatdagi (safarbarlikdagi) xotira, zero, undagi badiiy-estetik ahamiyatga molik fakt-u taassurotlar san'atkor ongida har lahza tirilishi, ruhiy parvozga qanot berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyuotlar:

1. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American. Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90–94.
2. Узоқ Жўрақулов. Михаил Бахтин кашфиётлари. Автор Ziyouz.uz. 09.07.2019
3. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975, стр. 234–235.
4. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel "Chinar" //The American Journal of 28. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, *1*(3), 111–112.
5. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume: 10, Issue: 11, November. – India, 2020.
6. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. International. Journal of Anglisticum. Literature, Linguisitcs and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33–39.
7. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work / / Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // International Journal of Innovative Research. – India,June, 2021, –P. 8355–8357.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Badiiy_asar
9. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/badiiy-asar-haqida
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Mikhail_Bakhtin
11. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uzoq-juraqulov-mihail-bahtin-kashfiyotlari/

# XALQ MAQOLLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MEHNAT INTIZOMIGA O‘RGATISH YO‘LLARI

**Nuritdinova D.F. – o‘qituvchi, BDPI.**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xalq maqollari yordamida o‘quvchilarda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma‘naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish mehnatsevarlikning asosiy negizini tashkil etadi. Estetik tarbiya shaxsning barkamolligining bir ko‘rinishi hisoblanib, tabiat manzaralari, yilning turli fasllarida unda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** maqol,  xalq maqollari, boshlang‘ich ta‘lim, mehnat, mehnat intizomi, metod, topshiriq, integratsiya

O‘zbekiston mustaqil davlat maqomini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ta‘lim-tarbiyani bosqichma-bosqich isloh qilishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy,  ma‘naviy va madaniy rivojlantirishda davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb hisoblanadi. Ta‘lim sohasidagi uzluksiz ta‘lim tizimining joriy etilishi, eng zamonaviy talablarga ham javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish kabi ishlar ham shular jumlasidandir.

O‘zbekiston o‘z ilm-fani va eng ilg‘or texnika va texnologiya taraqqiyotining negizida umumbashariy qadriyatlar milliy hunarmandchilik, tarixiy shart-sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy turmush tarzi, milliy o‘z-o‘zini anglash, insonparvarlik hamda vatanparvarlik xislatlari yotadi. Bu hozirgi kun barcha yoshlarni davr talablari darajasida bilimli, yuksak axloqiy salohiyatli, jismonan baquvvat, ma‘naviyatli, yetuk sifatlarga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash ulkan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy yo‘nalishlarini rivojlantirishda xalq ta‘limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichi ish faoliyatini yuqori darajaga ko‘tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajagimizning taqdiri hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘lim bosqichi maktablarida ilm olayotgan o‘quvchilarning tarbiyasiga bog‘liqdir.

Haqiqatan ham xalq maqollari yordamida  o‘quvchilarning aql-idrokini o‘stirish, ma‘rifat ziyosidan bahramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqlol talabidir. Buning uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta ma‘suliyat yuklaydi. Demak, bugungi o‘qituvchi - ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to‘la xalos etish, ta‘lim-tarbiya jarayonini jahon rivojlangan ta‘lim darajasiga ko‘tarishda faol ishtirok etishi bilan birga o‘quvchilar qalbi va ongida mehnatsevarlikni shakllantirishi muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mehnat tarbiyasi dastlab oilada, bog‘chada keyinchalik xalq maqollari yordamida bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta‘limning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchini mehnatsevarlikka oid dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi.

Maqol ibratli so‘zdir. Shunday so‘zki, so‘zga husn beradi, fikrni  tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta‘sirchan qiladi. Shuning uchun  ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo‘ladi. Kimki uni ko‘p ishlatsa, o‘shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar.Maqolda gap  ko‘p. ”Maqol” aslida arabcha, ,”so‘z” degan ma‘noni bildiradi. Uni “Otalar  so‘zi” ham deydilar. Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Haqiqatan ham, u ota-bobolarimizning qadim-qadimlardan ishlatib kelgan  so‘zlari. Ko‘plab maqollarda ichki qofiya bo‘ladi. Masalan:”omon” bilan “somon”,”sulton” bilan “cho‘pon” o‘zaro ohangdosh, ya‘ni qofiyadoshdir. Shu  jihatdan

ular topishmoqlarga o‘xshab ketadilar.Maqol she'riy shaklda ham bo‘lishi mumkin. Masalan:

Oltovlon ola bo‘lsa,
Og‘zidagini oldilar.
To‘rtovlon tugal bo‘lsa,
Tepadagini endirar.

Maqolda o‘sha xalqning tarixi, urf-udumi, turmush tarzi, fe'l-atvori, ruhiyati butun borlig‘i aks etadi. Shunga ko‘ra, maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, do‘stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo.

Har tamonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o‘rni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyati bilan bog‘liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma‘naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotining negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg‘ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagi bola o‘z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlanadi.

Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofidagi muhitini, mehnat intizomiga o‘rgatish, real buyumlarni anglab, bilib olishning mustahkam vositasi bo‘lib, unga nazariy bilimlarni qo‘llanish imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitishdan iborat.

Jumladan, mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o‘quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi, mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo‘lishi, o‘z vaqtida turli kasblar haqida ma‘lumotlar berib borilishi, mehnat aqllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar kiradi. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g‘oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash bilan birga mehnat intizomiga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklar, ijtimoiy taraqqiyot asosida, mehnat faoliyati natijasidir. Jamiyatda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasi yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularning vatan ravnaqi, el yurt farovanligi yo‘lida mehnat qilish, rivojlangan demokratik va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida faol ishtirok etishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, yagona maqsad yo‘lida harakat qilishga tayyorlashdan iborat jarayonni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuritdinova, D., & Ikromova, N. (2023). Innovative methods of teaching primary class students to read expressively. International Journal of Advance Scientific Research, 3(11), 318-322.
2. Akhmedova, D. B., & Nuritdinova, D. (2022). Methodological basis of studying folk proverbs and riddles in primary classes. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 107-110.
3. o‘zbek xalq qo‘shiqlari – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytiruvchi vosita D.Nuritdinova BuxDUPI Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti D. B. Axmedova – BuxDU doktoranti (DSc), f.f.f.d. (PhD), International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands https: econferencezone.org 22nd Feb. 2023, 23-27.
4. Нуритдинова, Д. Ф. Қ. (2022). Способы преподавания народного творчества в начальных классах на основе проблемного метода. *Science and Education*, *3*(10), 437-444.
5. O.Madayev, T.Sobitova. Xalq og‘zaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyoti, Toshkent – 2010. – 33-34- 42-44-betlar.

# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDOGOGIK ASOSLARI

**Nurmatova Sh.I. –o‘qituvchisi, TDPU.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o‘ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilib, o‘qituvchilarida pedagogik innovatsiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy ishlarga katta qiziqish uyg‘otishga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so’zlar**: Pedagog-bo‘lajak o‘qituvchi, innovatsion kasbiy faoliyat, pedagogik amaliyot, kompetensiya, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlar, ilg‘or tajriba, distansion, axborot-kommunikatsiya, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat, innovatsiya, integratsiya, novatsiya, innovatsiya nazariyasi, kompleks rivojlantirish

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim mazmunini modernizatsiyalash munosabati bilan oliy ta’lim muassasalarida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ishlar birmuncha jonlandi. 2017 yilda qabul qilingan «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror kasbiy oliy ta’limni o‘zgarib borayotgan jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga tez moslashishga yordam beruvchi yangi ta’limiy texnologiyalarni, jumladan, distansion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va ulardan samarali foydalanishning zarurligi qayd etilgan. Turli kafedralar (ayniqsa, pedagogika va psixologiya kafedralari) o‘qituvchilarida pedagogik innovatsiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy ishlarga katta qiziqish uyg‘ondi. Biz tadqiq qilayotgan muammoga oliygohlardagi nisbatan ijobiy siljishlar shakllantiruvchi tajriba-sinovlar o‘tkazishda hisobga olindi.

Xalq ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Shu sababdan, xalq ta’lim sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi ko‘plab dasturlar tasdiqlangan. Xalq ta’lim muassasasining mazkur davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining maktab yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda Xalq ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o‘z navbatida Xalq ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma’naviy jihatdan tayyorlash uchun ta’lim jarayonida ma’ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma’naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi. Xalq ta’lim samaradorligini ta’minlashda pedagog-tarbiyachidan chuqur pedagogik psixologik tayyorgarlik, har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishi hamda shaxsiy reja tuzishda quyidagi talablarga qat’iy rioya qilishi talab etiladi:

− vujudga keladigan pedagogik muammolarni bashorat qila olishi; buning uchun bo‘lajak pedagog-tarbiyachi pedagogik jarayonda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko‘ra bilish va uni bartaraf etish layoqatiga ega bo‘lishi lozim;

− vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish metodlarini o‘zlashtirishi;

− vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishning eng qulay usullarini tanlay va qo‘llay olishi;

− o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish, ularni qo‘llab quvvatlash mahoratiga ega bo‘lishi;

– har bir o‘quvchiga individual yondasha olishi;
– o‘quvchilar bilan ommaviy tadbirlarni tashkil eta olish ko‘nikmasini egallashi;
– o‘quvchilarni kitobxonlik, kitob sevarlikka unday olishi kabilar.

Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarda o‘z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o‘zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo‘llash, rahbarlik ko‘nikmalarini egallash, o‘quvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak pedagog o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o‘zlashtirishlari kerak. Ular:

– o‘quvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish;
– bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;
– guruhdagi faol o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam ko‘rsatish;
– o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag‘batlantirish;
– o‘quvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;

Guruh o‘quvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish kabilar. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma’ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari davomida dialogga kirishish, fanga oid yangi ma’lumotlar ustida ishlash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishlash hamda o‘rgangan tajribalarini tahlil qilish muhim o‘rin egallaydi. Maktabda sinf faoliyatiga rahbarlik qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq va hisoblashga oid dastlabki ko‘nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy urfodatlarimizni ham singdiradilar.

Ularda axborotlarni saralash, voqea-hodisalarga obyektiv munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi nihoyatda muhim. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar kundalik ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni tahlil qilish asosida ularni munosib baholash, shu asosda atrofdagilarning xatti harakatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishlari lozim. Bularning barchasi o‘quvchilarda ma’naviy xislatlarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xalq ta’lim muassasasi pedagog-tarbiyachilar bolalarda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish bilan bir qatorda, ular xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf qilish tajribasiga ham ega bo‘lishlari kerak. Ko‘pincha Xalq ta’lim muassasasiga yangi kelgan bolalarda tortinchoqlik, injiqlik, guruh hayotiga moslashmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday holatlarni bartaraf etish, bolalarni jamoa hayotiga moslashtirish, ularni muloqot vaziyatlariga olib kirish, ruhiy osoyishtaliklarini ta’minlash pedagogtarbiyachilarning muhim vazifalari sirasiga kiradi.

Bolalar xarakteridagi salbiy jihatlarni bartaraf qilishga ko‘maklashish, ularni to‘g‘rilik va haqgo‘ylikka o‘rgatish, irodasini mustahkamlash pedagog tarbiyachilarning muhim vazifalaridandir. Bunda pedagog-tarbiyachilar jamoaviy ta’sir ko‘rsatish metodidan foydalanishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Azizxo’jaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar– Toshkent, 2002-yil2 . Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. Science and Education, 1(Special Issue 4)

3. Pedagogik mahorat. mavlonova r.,abdurahimova d. T:. Fan va texnologiyalar. 2012-yil

4. Valijonovna, K. I., & Askaraliyevna, U. M. (2021). Use of Modern Information Technologies in Literacy Classes. International Journal of Culture and Modernity,

5. Хайдарова, Х. (2020). Развитие виртуальной педагогической Культуры родителей как актуальная проблема. InterConf .

# BOSHLANG’ICH SINFLARDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Nurmatova Sh.I. –o‘qituvchisi, TDPU.**

Jahon pedagogikasida ta'limning o'yin shakli so'nggi paytlarda keng tarqaldi. Pedagogik adabiyotlarda o'yinlardan foydalanish o'quv jarayonini faollashtirishi sababli uni ko'pincha "faol ta'lim" deb atashadi. Boshlang'ich maktabda ulardan foydalanish zarurati aniq, chunki bolalarning ta'limi olti yoshdan boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yindir, shuning uchun birinchi sinf o'quvchisi darhol o'rganishga o'tish juda qiyin. Darsda qo‘llaniladigan o‘yinlar va o‘yin mashqlari bu jarayonni yanada qiziqarli, qiziqarli qiladi, bolalarda quvnoq, mehnatkash kayfiyatni yaratadi, o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi, ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. V.A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: "Keling, o'yin bolaning hayotida qanday o'rin egallashini batafsil ko'rib chiqaylik ... Uning uchun o'yin eng jiddiy masala. O'yinda bolalarga dunyo ochiladi, shaxsning ijodiy qobiliyatlari ochiladi. Ularsiz to'liq aqliy rivojlanish bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. O'yindan o'qishga o'tish shakli didaktik o'yin bo'lib, u o'rganishni tashkil etishning o'yin shakli bilan uzviy bog'laydi. O'yinni o'quv jarayonida qo'llash bola maktabga tezroq va og'riqsiz kirganida paydo bo'ladigan ruhiy to'siqni engib o'tishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar - bu bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun pedagogika maktabi tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yinlar turi. Ular bolalarni o'qitishda muayyan muammolarni hal qilishga qaratilgan, lekin ayni paytda o'yin faoliyatining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'siri ularda namoyon bo'ladi. Didaktik o'yin ta'lim va tarbiyaning boshqa shakllari bilan birlashtirilgan va o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit pedagogik jarayonning bir qismidir.

Ushbu va shunga o'xshash o'yinlardan foydalanish asosida o'quvchilar nutqining rivojlanish darajasi, shuningdek, boshqa muhim ko'nikma va ko'nikmalarga tashxis qo'yildi:

**1. Ovozlarni o'rnatish va mustahkamlash, so'z boyligini shakllantirishga qaratilgan o'yinlar.**

**"Qaysi ovoz".** Didaktik vazifa: unli va undoshlarni farqlay olish, nutq tovushlarini piktogramma yordamida tuzatish qobiliyatini rivojlantirish. Uskunalar: unli va undoshlarning sxematik tasvirlari bo'lgan kartalar.

**- Qancha tovushlarni eshitdingiz?**

Didaktik vazifa: bolalarning fonemik eshitishini rivojlantirish, tovush va to'g'ridan-to'g'ri bo'g'inni farqlash qobiliyatini shakllantirish.

**"O'yinchoq tanlang"** Didaktik vazifa: bir so'zda stressni to'g'ri joylashtirish ko'nikmalarini mustahkamlash. Uskunalar: turli o'yinchoqlar yoki rasmlar to'plami.

**"Uch cho'chqa"** Didaktik vazifa: tovushlarni almashtirish orqali so'z yaratish ko'nikmalarini o'rganish. Uskunalar: uchta cho'chqa tasviri bilan mavzu rasmlari, "Uch kichkina cho'chqa" ertaki uchun kitobdan rasm.

**"Telegraf"** Didaktik vazifa: so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish qobiliyatini shakllantirish. Uskunalar: bolg'a. Variant. O'qituvchi so'zning birinchi bo'g'inini nomlaydi va o'ylab topilgan so'zning bo'g'inlarining umumiy sonini bolg'a bilan uradi. Bolalar qaysi so'z mo'ljallanganligini taxmin qilishlari kerak. Buni taxmin qilgan kishi o'z so'zini o'ylaydi va hokazo.

**"Yangi kvartiraga ko'chib o'tish"** *(o'yin)*

Maqsad: bolalarni maqsadi bo'yicha o'xshash va tashqi ko'rinishi o'xshash narsalarni ajratishga o'rgatish, ularning nomlarini eslab qolishga yordam berish; bolalar nutqida tegishli lug'atni faollashtirish. Uskunalar: 1.Juft ob'ekt rasmlari: piyola - stakan, krujka - piyola, choynak - kofe, yirtqichlardan - tova, sharf - ro'mol, shapka - shapka, ko'ylak - sarafan,

sviter - yengsiz kurtka, palto - kurtka, shim - shorti, paypoq - tizzagacha, qo'lqop - qo'lqop, sumka - portfel, qandil - stol chirog'i va boshqalar. 2. Rasmlarni yig'ish uchun qutilar.

6-9 bola o'ynaydi. O'qituvchi har bir bolaga 2-3 juft rasm beradi, masalan: kosa - stakan, sharf - ro'mol, sumka - portfel. Aytadi: “Bolalar, biz yangi kvartira oldik. Biz hamma narsani yig'ishimiz va ularni harakatga keltirishimiz kerak. Avval idishlarni yig‘ib olaman. Menga yordam berasiz. Menga faqat men aytadigan narsani bering. Ehtiyot bo'ling - ko'p narsalar o'xshash. Masalan, chashka bilan krujka, choynakni kofe bilan aralashtirmang. Yig'ilgan idishlarni ko'k qutiga solaman."

O'qituvchi har bir juftlikdan bitta mavzuni, masalan, kofe idishini nomlaydi. Agar bola xato qilsa (choynakni taqdim etadi). Rasm u bilan qoladi. O'yin oxirida bolalar bitta rasmga ega bo'lmasligi kerak. Suratlari qolgan kishi yutqazadi. Keyin, bolalar nutqida mos keladigan lug'atni faollashtirish uchun o'qituvchi bitta bolani qutidan to'plangan rasmlarni chiqarib, nima olganini aytishni, qolganlariga esa taqdim etilgan narsa bilan birlashtirilgan ob'ektni nomlashni taklif qiladi. Misol uchun, uy egasi: "Qo'lqop" deydi. - "Mittens", - javob beradi o'yin sherigi va unga rasmini beradi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda predmetga nisbatan qiziqishni uyg‘otadi, har bir o‘quvchini individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bilish faolligini tarbiyalaydi. Didaktik o‘yinning muhimligi, u bolalar tomonidan qanday reaksiya qilinishi bilan emas, balki u yoki bu masalani yechish har bir o‘quvchi uchun tadbiq qilinishining samaraliligi bilan aniqlanadi.

***"Bilmasvoyning xatolari" o‘yini***

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish. O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

10-7=4 10-3=6 7-3=5

3+2=6 4+3=8 4+1=6

Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

Didaktik o'yinlar - o'yin, faol o'rganishning bir qator tamoyillarini amalga oshiradigan va o'yin qoidalarining mavjudligi, o'yin faoliyatining qat'iy tuzilishi va baholash tizimi bilan ajralib turadigan o'quv o'yinlari shaklida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarining bir turi. Didaktik o'yinlar bolalarni o'qitish uchun o'qituvchilar tomonidan maxsus yaratilgan. Bu maktabgacha yoshdagi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini faol o'qitish usullaridan biri bo'lib, bu tasodifiy emas. Bola o'tirmaydi va zerikarli ma'ruza yoki hisobotni tinglamaydi, u hech narsani eslamaydi, chunki u bunga qiziqmaydi. Bola o'ynashni yaxshi ko'radi. Shuning uchun pedagogika biznesni zavq bilan birlashtirdi, didaktik o'yinlarni o'ynadi, bola buni bilmagan holda o'rganadi. U qiziqadi. U eslaydi. Biz 7guru veb-saytida o'qituvchilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilariga, shuningdek, ota-onalarga mutlaqo boshqa mavzularda ko'plab didaktik o'yinlarni taklif qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Andreeva EA Bolalar uchun dunyodagi eng yaxshi topishmoqlar va uch daqiqalik ta'lim o'yinlari. - M .: RIPOL klassik, 2006 .-- 320 b.

2. Volkova S.I. Matematika topshiriqlari bilan daftar. - M .: Ta'lim, 1993 .-- 158 b.: kasal.

3. Jikalkina T.K. To'rt yillik boshlang'ich maktabning 1 va 2-sinflarida matematika darslarida o'yinlar tizimi. - M .: Yangi maktab, 1995 .-- 176 p .: kasal.

4. Kovalko VI Sinfda kichik maktab o'quvchilari: 1000 ta o'quv o'yinlari, mashqlar, jismoniy tarbiya (1-4 sinflar). - M .: Eksmo, 2007 .-- 512 b.

# UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O’QITUVCHILARINI KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH

**Nurmatova Sh.I. – TVPMM katta o‘qituvchisi.**

O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar qatorida taraqqiyot sari yuz tutishi bugungi kun o‘quvchisi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda u faqatgina maktab darslari materiallarini o‘qib o‘rganuvchi emas, balki o‘zi ijodiy izlanib, yangi va zamonaviy axborotlarni egallab, bilimlar cho’qqisiga yetishi hamda jahon minbarlarida boshqa rivojlangan davlat bolalari bilan to‘la raqobatga   Bu esa pedagogika fani oldiga bolalarda bilim olish va insoniy fazilatlarni va madaniyat unsurlarini o‘zlashtirish kabi muhim va dolzarb muammoni qo‘ymoqda. O‘quvchi-yoshlarni bilimdon va ma`nan yetuk insonlar sifatida shakllantirishda ularning fanga, ta`lim olishga, bilim egallashga bo‘lgan ichki psixologik yo‘nalishni shakllantirishda pedagog-tarbiyachilarning tutgan o‘rni alohida. Aynan o‘qituvchi bolalar uchun andoza sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda birinchi muallim òquvchi yoshlar uchun ulug‘ zot sifatida gavdalanadi va bolalar uchun andoza bo‘ladi.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativligi, harakatchanlagi, bolalarni tushuna bilishi, kommunikativ va pertseptiv (bolani tushuna olish) qobiliyatlari bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatchanlik, qiziquvchanlik hamda bilishga bo‘lgan ishtiyoq kuchli bo‘lishi psixolog olimlar tomoniddan ilmiy jihatdan asoslangan. Faqatgina bunday qiziqish va ishtiyoqlarni ijobiy tomonga yo‘naltirish talab etiladi. Buning uchun esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan yanada ko‘proq izlanishni, ijodkorlikni va novatorlikni talab etadi. O‘qituvchilarning kreativlik faoliyati masalasi ilmiy jihatdan pedagogik olimlar tomonidan òrganilgan bo'lib, shular orasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik faoliyat yuritishi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan,, kreativlik – bu muhim ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik muammo bòlib, bu borada izlanishlar bugungi kun talabidir.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog‘liq. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o‘sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur an`analari inson faktorining hal qiluvchi o‘rnini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi. Ijodkorlik inson fenomenining namoyon bo‘ladigan yuksak ko‘rinishi bo‘lishiga qaramasdan, u eng kam o‘rganilgan soha bo‘lib, tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avvalboshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda o‘rganish imkoniyatini chegaraladi.

Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to‘liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas.

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.
2. Kreativlik – bu insonning o‘ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning maxsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir. 5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma`naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kategoriyadir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi, degan xulosaga keldik. O’qituvchining kreativlik faoliyati dastavvalo pedagogik maxorat bilan bog‘liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,  har bir boshlang’ich sinf o’qituvchisi dars jarayonida o’z kreativligini namoyon qila olishi, boshlang’ich sinf o’quvchilarida ijobiy taassurot uyg’ota olishi, darsga ijodkorona yondashuvi va turli xildagi zamonaviy metodlardan foydalanib darsni sifatli va mazmunli tarzda olib borishi hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Shunday ekan, har bir bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari o’z ustida tinmay ishlashi va kreativlik nima ekanligini anglashi va dars jarayoniga ijobiy qo’llashi zarur. Xulosa qilib aytganda, har bir o’qituvchi darsga kreativ yondashib darslarni olib borsa, har bir o’tilgan dars sermazmun va o’quvchiga tushunarli holatda yakunlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.

2. Davletshin M.G. Shark mutafakkirlarining psixologik karashlari. Toshkent 1992 yil. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 1046 w November 2021 www.oriens.uz

3. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. –T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000. –127b.

4. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. – T.: 2000

5. Jumaev A. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / «Xalq ta`limi» jurnali, 2006, № 6, -17-20-betlar.

6. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. Boshlang’ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. -T., 2013.

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI INTEGRATIV MODULLI O'QITISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

**Nurmatova Sh.I.– o'qituvchi, TDPU.**

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada bo'

lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar va dars jarayonida o'qituvchining darsga kreaktiv yondashuvi,o'quvchilar bilan birgalikdagi hamkorligining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, dars, pedagogika, ta'lim, darsning mazmuni, ijodkorlik.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining 2013 yil 22-avgustdagi "Umumta'lim maktablari fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish to'g'risida"gi qo'shma qaroriga asosan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliyotchi o'qituvchilar, metodistlar va yetakchi olimlar tomonidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarining loyihasi ishlab chiqilgan edi. Qo'shma yig'ilishining qaroriga asosan, bitta sinfda bir paytda bir necha fanlar bo'yicha DTS va o'quv dasturlari loyihalarini tajriba-sinovdan o'tkazish belgilandi. Unga ko'ra, Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2014 yil 15-avgustdagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini loyihalari tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi qo'shma buyrug'i qabul qilindi. Yangi Milliy o'quv dasturi avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi?

Avvalgi òquv dasturlari mazmuni 90%nazariyadan iborat bòlib,òqitish metodikasi yodlatishga yònaltirilgan. Yangi milliy òquv dasturi mazmuni 50%nazariya va 50%amaliyotdan iborat bòladi va òquvchining mustaqil faoliyatini qòllab-quvvatlash.Òquv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmi aniqlagan.Yangi dastur asosida òquvchilarda shakllangan kònikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi.

Hozirgi kunda an'anaviy o'qitish o'rnini shaxcga yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning egallagan bilimi, ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilish, ularning olayotgan bilimlaridagi bo'shliqlarni o'z vaqtida to'ldirib borish, iqtidorli o'quvchilardagi intellektual calohiyatning muntazam rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg'or yutuqlaridan muntazam foydalanish, ya'ni, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o'qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakalarini muntazam oshirib borishda innovasion metodlardan foydalanish kabi vazifalar dolzarb tus olmoqda. Ta'limga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bizning fikrimizcha, agar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchici o‘zining o‘quv-bilish faoliyatida shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishga imkon topolmagan bo‘lsa, o‘quvchilarni bunday faoliyatga jalb qilishni ham uddalay olmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlash muammosi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili talabalar pedagogika oliy ta’lim muassasalarida nimani va qanday o‘qishi hamda kasb faoliyatida nimani va qanday bajarishiga to‘g‘ri kelishi o‘rtasidagi qator qarama-qarshiliklarni belgilashga imkon berdi. Shu o‘rinda pedagogik, didaktik qarama-qarshiliklar va matematikani o‘qitish bilan bog‘liq quyidagi qarama-qarshiliklarni ajratib ko‘rsatish mumkin (yuqorida tilga olingan qarama-qarshiliklar o‘zaro bog‘liqligi shubhasiz):

–pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan matematika va matematika o‘qitish metodikasi fanlari mazmuni juda murakkabligi bilan ularni o‘rganish bo‘yicha samarali texnologiyalar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

–boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy faoliyatida matematik, metodik, psixologik-pedagogik, didaktik bilimlardan kompleks foydalanish zaruriyati bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatida bunday metodda bilim olish imkoni deyarli mavjud emasligi o‘rtasida;

– differensiallashgan ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatini samarali tashkil qilishga layoqatli malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga jamiyat ehtiyoji bilan talabalarning o‘quv-bilish faoliyatining sifatli tizimi mavjud emasligi o‘rtasida;

– metodik tayyorlash jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha mavjud alohida metodik ishlanmalar va tavsiyalar bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchini metodik tayyorlashning ilmiy asoslangan texnologik modellari mavjud emasligi o‘rtasida;

– talabalarni tayyorlash jarayonida ular o‘qituvchidan tayyor axborotni an’anaviy nofaol qabul qilishi bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida ularga muntazam mustaqil ta’limning ob’yektiv zarurligi o‘rtasida;

–boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika o‘qitishda yangi samarali texnologiyalarni joriy qilish va foydalanish zaruriyati bilan talabalarni metodik tayyorlash jarayonida zamonaviy innovasion texnologiyalardan foydalanish yaxlitligining mavjud emasligi o‘rtasida;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy izlanish faoliyatiga jalb etish ijtimoiy-ob’yektiv ehtiyoj ekanligi bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bunday faoliyatni tashkil qilishga tayyorlashning uchun samarali varianti mavjud emasligi o‘rtasida.

Yuqorida sanab o‘tilgan qarama-qarshiliklar pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchici metodik tayyorgarligini takomillashtirishning bir qator aniq vazifalarini belgilash imkoniyatlarini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. O‘zbekiston. 2017. – 488 bet

2. Abduqodirov A. va b “Keys-stadi” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba – T. “ Tafakkur qanoti”, 2012. – 131 bet.

3. Abduqodirov A.A. Teoriya i praktika intecifikasii podgotovki uchiteley fizika-matematicheckix dictiplin. Acpekt ispolzovaniya kompyuternых credctv v uchebno vocpitatelnom proseccye: Dicc...dokt.ped.nauk. (13.00.01., 13.00.02.) – T.1990. – 360 c.

4. Abdullayeva B.S. Sadikova A.V., Toshpulatova M.I. Oliy matematika asoslari // Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 5141600-«Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish» bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan darslik – T. Iqtisod – moliya, 2011. – 350 bet.

## MUDARIJA


| № | Muallifning I.SH. | Maqolaning nomi | Sahi fasi |
|---|---|---|---|
| 1. | Abdullayeva B.S. | Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirish | 4 |
| 2. | Abdualiyeva D.N. | Bo’lajak o’qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari | 7 |
| 3. | Abdullayeva N. | Interaktiv yondashuvlar asosida boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish | 9 |
| 4. | Абдисодикова М.Н. | Этапы процесса подготовки студентов к научно-исследовательской деятельности | 12 |
| 5. | Abdumalikova G.T. | Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’limda iltimoiy-gumanitar fanlar va ularni o‘qitishda innovatsion yondashuv masalalari | 14 |
| 6. | Abduraxmonova D. | Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligining rivojlanganlik natijalari | 16 |
| 7. | Abdusalyamov A.A. | Inson resurslarini boshqarish strategiyasining pedagogik jihatlar | 20 |
| 8. | Abiyev R.– | Matematika fanini o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish | 22 |
| 9. | Abrorxonova K.A. Kamolova N.L. | Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari | 23 |
| 10. | Artikbayeva Z. | Boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning tejamkorligini shakllantirishning mazmuni va tarkibiy qismlari | 25 |
| 11. | Atabayev Sh. E. | Raqamli ta'lim muhitida boshlang‘ich maktabda tarbiya metodikasini o‘rgatishning innovatsion yondashuvi | 27 |
| 12. | Axmadaliyeva M.O. Jurayeva Sh. Xidirova I. | Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish | 29 |
| 13. | Axmedova S.F. | Boshlang‘ich sinflarda matematika darslari bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish | 31 |
| 14. | Aytbayev D.T. | Ta’limni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish | 32 |
| 15. | Aytbayev D.T. Kuzenbayeva A.Q. | Dualizm: qo‘shma gapni murakkablashtirishda uyushiq bo‘laklarning vazifasi | 34 |
| 16. | Aytbayeva G.Y. | Badiiy asar – qismlardan tashkil topgan butunlik | 35 |
| 17. | Azimova O.A. | O‘qituvchining konfliktologik tayyorgarligi, maktab va oila o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash sharti sifatida | 38 |
| 18. | Abrorxonova K.A. Barotova M.Sh. | Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’lim tabiiy fanlar va ularni o‘qitishning innovatsion yondashuv masalalari | 40 |
| 19. | Begmatova L. | Ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kreativ nutq madaniyati | 41 |
| 20. | Bobonazarova G. | Badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari borasida | 43 |
| 21. | Abrorxonova K.A. Bo‘riyeva Sh.I. | Boshlang‘ich sinf dars jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari | 45 |
| 22. | Botirova L.X. | Boshlang‘ich ta’limga innovatsion yondashuv masalalari | 47 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Mirsanova M.X. | va zamonaviy ta'lim jarayoni xususida | |
| 23. | Boxodirova M.X. | Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zid ma'noli so'zlarni o'rgatish metodikasi | 49 |
| 24. | Burxonov S.A. | «Tabiatshunoslik» fanini qanday samarali o'qitish mumkin? | 51 |
| 25. | Бурханов С.А. | Онлайн или оффлайн образование для начальной школы: какой выбрать? | 54 |
| 26. | Davlatova M.A. | Boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematikadan uslubiy tayyorgarligini oshirishda matematik o'yinlarning ahamiyati | 58 |
| 27. | Djumayev M.<br>Qilicheva M.O'. | Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning xalqaro baholash dasturi masalalarida | 60 |
| 28. | Djumayeva M.M. | Geografiya o'qitishda differensiallashgan va individuallashgan ta'limi haqida | 66 |
| 29. | Djumayev J.M. | Darslarda tarixiy materiallardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha o'qituvchilar uchun tavsiyalar | 68 |
| 30. | Djurayeva Sh.Q. | Bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari | 70 |
| 31. | Do'stov M. | Boshdang'ich ta'lim yo'nalishida axborot texnologiyalarini oqitishda innovasion yondashuv | 72 |
| 32. | Ergashev J.M. | Ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik - tamoyilari | 76 |
| 33. | Magdiyeva M.E. | Milliy hunarmandchilik asosida uyushmagan xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik xususiyatlari | 78 |
| 34. | Eshonqulova Sh.<br>Eshonqulov Sh.<br>Shodmonova M. | Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturiga tayyorlash | 80 |
| 35. | Gazieva L.A.<br>Begmanova U. | Development of intellectual skills in primary school children in the process of learning using new technology | 83 |
| 36. | Газиева Л.А. | Разработка электронных образовательных ресурсов для обучения математике | 86 |
| 37. | G'ofurova M.S. | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli ta'lim muhiti bilan tanishtirish mazmuni | 89 |
| 38. | Hakimov F.N. | Raqamli ta'lim jarayonini elektron muhitda qurishning psixologik-pedagogik jihatlari | 92 |
| 39. | Ro'zimurodova N.<br>Hamrayev M.A. | Boshlang'ich sinflarda fonetikaning o'qitilishi | 94 |
| 40. | Suyunboyeva D.<br>Hamrayev M.A. | O'zbek tilida sifat so'z turkumining o'rganilishi | 96 |
| 41. | Hasanova M.T. | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol kompetentsiyalarini rivojlantirishning kontseptual | 97 |
| 42. | Hayitov A.I. | bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv kompetentliligini rivojlantirish usulari | 99 |
| 43. | Inoyatova Z.X.<br>O'ktamjonova M.A.<br>Izzatova N. A. | "Tarbiyaning mazmuni va uning mohiyati" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy masalalari | 102 |
| 44. | Inoyatova Z.X.<br>Mansurova M.J. | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirishda maktabning roli | 104 |
| 45. | Inoyatova Z.X. | Boshlang'ich sinflarida hamkorlik madaniyati va muhitini yaratish imkoniyatlari | 106 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 46. | Ishbayeva N.A. | Pedagog xodimlarni qayta tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv | 109 |
| 47. | Ishmetova Sh.Y. | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitishda steam ta'lim yondashuvining mohiyati | 112 |
| 48. | Jalilova F.N. | History of the study of phraseological units | 114 |
| 49. | Jo'rayeva D.R. | Texnologiya darslarida fanlararo integratsiya | 117 |
| 50. | Jo'rayeva D.R.<br>O'rinova G.B. | Bolaga yaqin maqsadni tanlash va unga erishishni o'rgatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarda amaliy faoliyatni shakllantirish | 119 |
| 51. | Jo'rayeva D.R.<br>Farmonova U.S. | Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish | 121 |
| 52. | Kadirova T.J. | Xotin-qizlarning psixologik farovonligini oshirishning ijtimoiy omillari | 124 |
| 53. | Karaboyeva M.Q. | Kasbiy manaviy muhitni sog'lomlashtirish tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish vositasida | 126 |
| 54. | Karimova J. | Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati | 128 |
| 55. | Karimova K.K. | Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishda integrativ-kogn topshiriqlardan foydalanish metodikasi | 131 |
| 56. | Kasimov F.M. | Boshlang 'ich sinf matematika darslarida birgalikda ishlashga doir masalalar ustida ishlash | 133 |
| 57. | Kasimova O.A. | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini improvizatsion qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik vositalari | 136 |
| 58. | Khakimdjanova K.<br>Qayumova A. | To develop of the children health | 138 |
| 59. | Kulboyeva D.A. | Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv (texnologiya fani misolida) | 143 |
| 60. | Madiyeva Ch.D. | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim sifatini oshirish texnologiyalari | 145 |
| 61. | Magdiyeva M.E. | Milliy hunarmandchilik asosida uyushmagan xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishning ustivor vazifalari | 149 |
| 62. | Yuldashev B.N.<br>Majidova U. | Masala tushunchasini birinchi sinflarda kiritilishi | 152 |
| 63. | Mamayusupova S.M. | Shukur xolmirzayev hikoyalarida oddiy folklorizmlar ifodasi | 155 |
| 64. | Masharipova U. | Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlarda tarqatma kartochkalardan foydalanish | 157 |
| 65. | Masharipova U. | Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning aqliy faoliyatini oshirishda grammatik o'yinlarning ahamiyati | 159 |
| 66. | Maxmudov S.Y. | "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'lanishi | 160 |
| 67. | Mavlonov A.O'. | Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga matematika darslarida funksiya va ketma-ketlik tushunchalarini o'rganish | 162 |
| 68. | Meyliyev S.X.<br>Hamidullayeva H.B.<br>Qurbonova S.M. | Boshlang'ich sinf matematika darslarida qiziqarli topshiriqlar (masala yechish) ahamiyati | 166 |
| 69. | Meyliyev S.X. | Boshlang'ich sinflarda matematik kecha | 168 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Ortiqova S.S., Xolmamatov J.A. | va viktorinalar tashkil etish | |
| 70. | Miltikboyeva Z.U. | Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishning metodik asoslari | 170 |
| 71. | Mirsaidova M. | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda texnologiya darslarining ahamiyati (2-sinf darsligi misolida) | 172 |
| 72. | Mirsanova M.H. | “Gallaktikada bir kun” va “sariq devni minib” asarlarida ijodkor mahorati | 175 |
| 73. | Миртурсунова Ю.А. | Применение инновационных технологий на уроках читательской грамотности | 177 |
| 74. | Mirxalilova N.A. | Boshlang’ich sinf o’quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari | 179 |
| 75. | Mo‘minova E.M. | Maxsus rivojlanishga muhtoj bolalarda nutq buzilishlarini tuzatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish | 181 |
| 76. | Farangis M.G’. | Milliy ma’naviy meros vositasida boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutqini rivojlantirishning ahamiyati | 184 |
| 77. | Musaeva U.X. | Ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo’lajak o’qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari | 186 |
| 78. | Мусаева У.Х. | Хулқи оғишган ўсмирлар ижтимоийлашувида ота-она ва бола муносабатларининг психологик хусусиятлари ва уларнинг таъсири | 189 |
| 79. | Мусахожиева Д.Б. | Инновационные методы преподавания в начальной школе при условии цифрового образования | 192 |
| 80. | Muxammadiyev J.I. | Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga ining konstruktiv va destruktiv jihatlari | 193 |
| 81. | Muxammadiyev J.I. | Globallashuv sharoitida internet-global axborot tarmog‘ining yoshlar hayotiga ko‘rsatayotgan ta’siri va axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari | 196 |
| 82. | Muxammadiyeva X. Tolliyeva G. | Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirish | 199 |
| 83. | Nabiyeva H.B. | Boshlang'ich sinflarda kasr tushunchasi va uni o‘rgatish bosqichlari | 202 |
| 84. | Наримбетова З.А. Жумамуратова Г.Б. | Эстетическое воспитание на уроках математики в начальных классах | 204 |
| 85. | Nazarova Z.F. | Modern methods and technologies of learning english: in the example of a cultural and linguistic perspective | 206 |
| 86. | Nazarova M.G. | Texnogen zonalarda bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlanishining pedagogik-psixologik asoslari | 208 |
| 87. | Ne’matov Z. | Boshlang’ich sinf o’quvchilarida akt qo’llash asosida o’qish ko’nikmalari rivojlantirish | 210 |
| 88. | Ne’matov A.L. | Axborot texnologiyalari pedagogik faoliyatini zamonaviy shaklda tashkil etish | 212 |
| 89. | Ne’matov A.L. | Texnologik ta'limda innovatsion axborot texnologiyalarining o’rni | 215 |
| 90. | Niyazmetova N. | Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik | 217 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Bazarova Sh. Niyazmetova Z. | nizolarni kelib chiqish sabablari va oldini olish omillari | |
| 91. | Norboyeva F.A | Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish | 221 |
| 92. | Normamatova F.O. | Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish | 222 |
| 93. | Noryigitova S. F. | Stress omillarining inson hayot tarziga ta’siri. | 224 |
| 94. | Nuradilova A.D. | Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish tuzilmasi | 227 |
| 95. | Nuradilova A.D. | Adabiy badiiy asar – til vositalaridan tarkib topuvchi matn | 229 |
| 96. | Nuritdinova D.F. | Xalq maqollari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mehnat intizomiga o‘rgatish yo‘llari | 231 |
| 97. | Nurmatova Sh.I. | Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedogogik asoslari | 233 |
| 98. | Nurmatova Sh.I. | Boshlang’ich sinflarda didaktik o’yinlardan foydalanishning ahamiyati | 235 |
| 99. | Nurmatova Sh.I. | Uzluksiz malaka oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o’qituvchilarini kreativ yondashuvini shakllantirish | 237 |
| 100. | Nurmatova Sh.I. | Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini integrativ modulli o’qitishga metodik tayyorgarligini shakllantirish | 239 |

**« RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV MASALALARI »**

mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(4 oktyabr 2024 yil) – T.: TDPU, 2024.